

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

KRIMINALISTIKA

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
qoshidagi muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan yuridik oliy o'quv
yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.**

II- JILD



TOSHKENT-2008

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlari doktori, professor *M.H.Rustambayevning* umumiy tahriri va bevosita rahbarligi asosida yozilgan.

Kriminalistika. Darslik. II-jild. –T.: TDYI nashriyoti. 2008. 271 bet.

Mas'ul muharrir:

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, yuridik fanlari doktori, professor *G'.A.Abdumajidov*.

Jinoyatni tergov qilish va ochish nazariyasining asosini tashkil qiluvchi fanlar qatorida kriminalistika markaziy o'rinni egallaydi. Mazkur darslik kriminalistika fanining to'liq kursini tashkil etadi, mazmuni esa tergov, tezkor-qidiruv va ekspertiza faoliyatining zamonaviy imkoniyatlarini yoritib, amaldagi huquqshunoslik o'quv dasturlariga to'la mos ravishda tayyorlangan. Unda kriminalistika nazariyasi va tergov amaliyotida keyingi yillarda yuz bergan muhim o'zgarishlar, kriminalistik texnika sohasidagi yangi-ilmiy vositalar, uslubiy tavsiyalar va murakkab xavfli jinoyat turlari, jumladan, uyushgan jinoyatchilar, xorij fuqarolari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlari birinchi marta yoritilgan. Darslikning qator boblari foto tasvirlar, chizmalar bilan jihozlangan.

Darslik yuridik Oliy o'quv yurtlari talabalari, aspirantlar va ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan.

MUALLIFLAR

G'.A.Abdumajidov - O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, yuridik fanlari doktori, professor – 23, 24, 27, 29 va 34 - 41 boblar;

R.A. Alimova yuridik fanlari nomzodi, dotsent - 25 bob;

A.Y. Norboev yuridik fanlari nomzodi, dotsent – 26 va 28 - 32 boblar;

T.Aripov - yuridik fanlari nomzodi, dotsent – 24, 30 va 35-39, 41, boblar;

T.R. Ochilov yuridik fanlari nomzodi – 33 bob;

IY bo`lim. AYRIM TURDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISH USLUBIYOTI

23-bob. JINOYATLARNI TERGOV QILISH KRIMINALISTIK USLUBIYOTINING UMUMIY QOIDALARI

1-§. Jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik uslubiyoti tushunchasi

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti kriminalistika fanining yakunlovchi bo`limi hisoblanadi. U qonuniylik talablariga muvofiq holda, tergov va surishtiruvni samarali o`tkazish bo`yicha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida jinoyatlarni ochish, tergov qilish hamda ularning oldini olishni tashkil qilish va amalga oshirish qonuniyatlarini o`rganadi. Bu qonuniyatlar jinoyat alomatlari bo`lgan hodisalar haqidagi dastlabki axborotni tekshirib, jinoyatlarni tergov qilish chog`ida isbotlanishi lozim bo`lgan holatlarni aniqlaydi. Shuningdek, jinoyat ishlarining har xil turlari bo`yicha haqiqatni aniqlash uchun tergov harakatlarini va jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarning dasturlarini ishlab chiqish, jinoyatlarni tergov qilish uchun qo`llaniladigan tergov harakatlarini tayyorlash hamda o`tkazish va shu kabilarning eng muhim xususiyatlarini ham aks ettiradi. Ularni bilishga jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olish bilan bog`liq obyektlarni kriminalistik nuqtai nazaridan o`rganish, tergov faoliyatining asosiy rivojlanish yo`nalishlarini umumlashtirish va aniqlash, shuningdek tergov va surishtiruvni tashkil etish hamda ularni o`tkazishdagi tipik aloqalar va o`zaro bog`liqlikning barqaror jihatlarni tekshirish hamda aniqlash yo`li bilan erishiladi.

Kriminalistik uslubiyotni o`rganadigan qonuniyatlar o`z xususiyatiga ko`ra ikki qismdan: umumiy qoidalar va jinoyatlarni tergov qilishning xususiy (turiga oid) uslubiyotlar tizimidan iborat.

Umumiy qoidalar kriminalistik uslubiyotning nazariy asoslari bo`lib, u kriminalistikaning mazkur qismining mavzui (predmeti)ni, ilmiy bilimlarning boshqa sohaları bilan aloqalarini, xususiy kriminalistik uslubiyotlarni tuzish, ishlab chiqish va ulardan foydalanishga oid eng muhim masalalarni hamda jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish muammolarini tadqiq

etishni o`z ichiga oladi. Pirovard natijada samarali xususiy kriminalistik uslubiyotlarning yaratilishi va ularning jinoyatchilikka qarshi kurashda muvaffaqiyatli qo`llanilishi ana shu masalalarning qanchalik puxta ishlab chiqilganligiga bog`liq bo`ladi.

Xususiy uslubiyotlar - kriminalistika fanining pirovard «mahsuloti» bo`lib, amaliy xususiyatga ega bo`lgan hamda tergovchilar va surishtiruvchilarga jinoyatlarning har xil turlarini ochish, tergov qilish va bartaraf etishda ularning ishlarini maqbullashtirish uchun mo`ljallangan nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalar majmuidan iboratdir. Kriminalistik uslubiyotning umumiy qoidalaridan farqli o`laroq xususiy uslubiyotlar – bu jinoyatlarning ayrim turlarini ochish, tergov qilish va jinoyatchilikni bartaraf etishni tashkil qilish bo`yicha uslubiy toifalashtirilgan tizimdir.

Kriminalistik uslubiy tavsiyalar – jinoyatlarning muayyan turlarini ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etish hamda amalga oshirish bo`yicha ilmiy ishlab chiqilgan va amalda tekshirilgan maslahatlar (takliflar)dir. Har bir xususiy uslubiyot amalda turli sharoitlarda ishlash uchun o`zaro bir-biriga bog`liq maslahatlar tizimini (majmuini) hosil qiluvchi bir necha tavsiyani o`z ichiga oladi.

Tergov qilish uslubiyoti – jinoyat ishini yuritishga doir qonun talablaridan, vujudga kelgan tergov vaziyati xususiyatlaridan, jinoyatlarning mazkur turini ochish va tergov qilish nazariyasi va amaliyotiga doir bilimlardan kelib chiqib tergovchi tanlagan haqiqatni aniqlash usulidir.

Shu tariqa, sirtidan o`xshash bo`lgan «kriminalistik uslubiyot», «xususiy kriminalistik uslubiyot», «kriminalistik uslubiy tavsiya» va «tergov qilish uslubiyoti» atamaları o`z mazmuniga ko`ra bir-biridan farq qiladi. Jumladan, birinchi holda kriminalistika fanining mustaqil yakunlovchi qismini, ikkinchisida – muayyan turdagi jinoyatni ochish, tergov qilish va ularni bartaraf etishni tashkil qilish hamda amalga oshirish bo`yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar tizimini (majmuini), uchinchisida – tegishli jinoyat ishlari bo`yicha ishlash uchun alohida ilmiy asoslangan va amalda tekshirilgan maslahatni (taklifni), to`rtinchi holatda esa – jinoyatni tergov qilishning tergovchi tomonidan tanlangan usulini anglash mumkin.

Tarixiy nuqtai nazardan kriminalistik uslubiyot tizimidagi asosiy elementlarning shakllanish jarayoni bir tekis kechmagan. Dastlab kriminalistik uslubiyotdagi umumiy qoidalarning ishlab

chiqilganlik darajasi jinoyatlarning ayrim turlarini tergov qilish uslubiyotlari rivojlanishidan juda orqada qolgan. Xususiy uslubiyotlarni tayyorlash chog'ida paydo bo'lgan ko'pgina masalalar uzoq vaqt mobaynida ilmiy asosiga ega bo'lmay, mualliflar tomonidan turlicha hal qilingan, ammo yagona nazariyani tashkil etmagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi kriminalistikaga oid asarlarda jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotiga bag'ishlangan nazariy bo'limlarning mavjud emasligi buni yaqqol tasdiqlaydi.

Kriminalistik uslubiyot ikki hadli tizimning dastlabki ilmiy asoschilaridan biri I.N.Yakimov tomonidan berilgan hamda mamlakatimiz va chet el kriminalistlarining asarlarida rivojlantirilgan. Ularning ishlarida kriminalistika fani mazkur bo'limining ko'pgina muammolari, shu jumladan kriminalistik uslubiyotning tizimi to'g'risidagi masala hal etilgan.

Uslubiyotning tarkibiy qismlari bir-birini to'ldirib, har xil turdagi jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etishga doir mustaqil ilmiy qoidalarning yaxlit va bo'linmas majmuini hosil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, kriminalistik uslubiyotdan tashqari ilmiy bilimlarning hech bir sohasi bu masalalarni tadqiq etish bilan shug'ullanmaydi va turli toifadagi jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va tergovni samarali o'tkazish uchun amaliyotga bunday nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalarni bermaydi. Shu bilan birga, kriminalistik uslubiyotning mustaqilligi nisbiy xususiyatga ega. Negaki u kriminalistikaning boshqa qismlari bilan uzviy bog'langan. Bu esa uning faqat bir bo'limi hisoblanadi va shunday bo'lib qolmoqda. Uslubiyotning mustaqilligi kriminalistikaning predmeti va butun tizimi doirasi bilan cheklangan.

Fanda mazkur tarmoqning paydo bo'lishi jinoyatlarni tergov qilishning tashkil etilishini faqat nazariy tadqiq etish yo'li bilangina erishilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlari mavjudligini aks ettiradi. Jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan yangi ilmiy yo'nalishni yuzaga kelishining ob'ektiv shart-sharoiti aynan ana shundan iboratdir. Kriminalistik uslubiyotda ijtimoiy muhim vazifalarning mavjud bo'lishi, uning rivojlanishidagi keyingi davrlaridan to hozirgi paytga qadar saqlanib qoldi. Inson ijodiy faoliyatining maqsadlarini ham atrof-muhitdagi ob'ektiv hodisalar keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra jinoyatchilikka qarshi faol kurash olib

borishga ko`maklashish hamda muayyan jinoyat ishlari bo`yicha haqiqatni aniqlashda surishtiruv, tergov organlariga va sudga yordam ko`rsatish kriminalistik uslubiyot umumiy maqsadlari hisoblanadi. Ana shu maqsadlarga erishish uchun kriminalistik uslubiyot jinoyatlarning har xil turlarini tergov yo`li bilan ochish, tergov qilish va ularning oldini olishdagi ilg`or tajribani o`rganadi va umumiy lashtiradi; jinoyatlarning ayrim turlarini ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etish hamda amalga oshirish bo`yicha ilmiy asoslangan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Qonun, jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti va turli fan yutuqlari kriminalistik uslubiyotning manbalari hisoblanadi. Ularning qoidalari kriminalistikadagi mazkur bo`limning rivojlanishiga asos bo`lgan va uning hozirgi taraqqiyotini ta`min etmoqda.

Jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalari uslubiyotning birinchi manbaidir. Ular jinoyat - sudlov ishlarini yuritishning umumiy shart-sharoitlarini belgilaydi va shu sababli kriminalistik uslubiyotning hamda har bir xususiy kriminalistik uslubiyotning umumiy qoidalarini ishlab chiqishga asos bo`lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda kriminalistik uslubiy tavsiyalar qonunga asoslanib va amaldagi huquqiy normalarga zid yoki fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo`lgan biron-bir maslahat va yo`l-yo`riqlarni istisno etgan holda, jinoyat va jinoyat-protsessual normalarini sharhlash bilan chegaralanmay, jinoyatlarning xilma-xil turlarini ochish, tergov qilish va oldini olishning maqbul tartibini belgilaydi.

Jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish amaliyoti kriminalistik uslubiyotning ikkinchi muhim manbai hisoblanadi. Amaliyotni o`rganish va umumlashtirish jinoyatlarning ayrim turlarini tergov qilish bo`yicha samarali tavsiyalarni ishlab chiqishga ko`maklashadi. Shu bilan bir qatorda, amaliyot kriminalistik uslubiyot nazariyasining to`g`riligini belgilovchi mezon hamdir. Shaxsning jinoyatni sodir etishdagi aybdorligi faqat sud tomonidan e`tirof etilishi sababli, sudlarning hukmlarida amalda mazkur jinoyatni tergov qilishning to`g`riligi, ya`ni kriminalistik uslubiy tavsiyalarni qo`llanishning asosililigini belgilaydi.

Nihoyat, ilmiy bilimlar, avvalo, kriminalistikaning barcha bo`limlarining hamda jinoyatchilikka qarshi kurash muammolarining, xususan jinoyatlarni tergov qilishni o`z nuqtai

nazaridan tadqiq etuvchi boshqa fanlarning qonun-qoidolari kriminalistik uslubiyotning uchinchi manbai bo`lib xizmat qiladi. Kriminalistik uslubiyotning kriminalistik umumiy nazariya, texnika va taktika bilan aloqalari ancha murakkab. Bir tomondan, kriminalistik uslubiyotda kriminalistika fanining yakunlovchi bo`limi sifatida uning boshqa bo`limlarining xulosalari va qoidalaridan keng foydalaniladi, ikkinchi tomondan, kriminalistik uslubiyot kriminalistikaning umumiy nazariyasi, texnikasi va taktikasi rivojlanishiga faol ta`sir ko`rsatadi. Tutgan o`rni va hal etadigan vazifalarining o`ziga xosligiga ko`ra kriminalistik uslubiyot kriminalistikaning boshqa bo`limlariga doimo tayanadi hamda ishlab chiqilayotgan nazariyalar va tavsiyalarning pirovard «oluvchisi» vazifasini bajargan holda ularning ilmiy ishlanmalarini qo`llaydi. Kriminalistikaning oldingi bo`limlariga oid qoidalar va xulosalari kriminalistik uslubiyotdagi nazariyalarni umumiylik asosida jamlash, ya`ni ularni oddiy jamlash yo`li bilan emas, balki dialektik mushohada qilish hamda har xil turdagi jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish va tergov qilishni samarali tashkil etish uchun tegishli xulosalar ishlab chiqish jarayonida qo`llaniladi.

Ilm fanlarning bir-biriga yaqin, o`zaro bog`liq tarmoqlari orasida jinoyat huquqi, jinoyat protsessi, boshqaruv, psixologiya, mantiq fanlari va bir qator maxsus fanlar kriminalistik uslubiyotning manbalari sifatida katta ahamiyatga ega. Ana shu fanlarning bir qancha qoidalari kriminalistikaning mazkur bo`limidagi nazariy asoslarni rivojlantirish va jinoyatlarning ayrim turlarini tergov qilishning samarali uslubiyotlarini ishlab chiqish uchun unumli qo`llaniladi.

2-§. Jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik uslubiyotlarini tuzish va tasniflash tamoyillari

Tergov amaliyotida har xil turdagi jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va tergov qilishni tashkil etish hamda amalda bajarish samaradorligini oshiradigan ancha takomillashgan xususiy kriminalistik uslubiyotlarni joriy etish jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirishning muhim yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Tergovchilarning ishni tashkil etish bo`yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarga bo`lgan ehtiyojlarni hisobga olib, jinoyatlarni tergov qilishning shakl va mazmun jihatidan xilma-xil

xususiy uslubiyotlari vujudga kelmoqda.

Yangi xususiy kriminalistik uslubiyotlarni ishlab chiqish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Xususiy kriminalistik uslubiyotlarning nazariy jihatdan asoslanganligi. Kriminalistik uslubiy tavsiyalar tizimi ilmiy ish mahsulidir va shu tufayli hamisha nazariy jihatdan muayyan darajada asoslangan bo`ladi. Biroq xususiy uslubiyotlar jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish amaliyoti shunday nazariy asoslanganlik darajasiga ega bo`lishni talab qiladiki, toki ularning tavsiyalarini qo`llash tergovning samarali tashkil etilishini ta`minlasin. Bunday darajaga, agar xususiy uslubiyotlar faqat tajriba yo`li bilan ishlab chiqilgan qoidalar va amaliyot uchun samarali tavsiyalarni o`z ichiga olgan taqdirda, erishiladi. Kriminalistik uslubiy tavsiyalarning tizimi oqilona, tejamli, maqbul bo`lishi kerak.

Kriminalistik uslubiy tavsiyalarning muayyanligi. Jinoyatlarni tergov qilishni tashkil etish – protsessual tartibdagi jarayondir. Uning mazmuniga jinoiy qilmishning xususiyatlari, jinoyatning oqibatlari, jinoyatchining shaxsi, tergovchining mehnat sharoiti va boshqa shu singarilar ta`sir ko`rsatadi. Shu bilan birga, bir turdagi jinoyatlarni tergov qilishda ko`pgina umumiy xususiyatlar ham mavjuddir, bular – tipik tergov versiyalarining mavjudligi, isbotlash predmetining umumiy ekanligi, tergov harakatlariga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish xususiyatlarining o`xshashligi va boshqalar. Shu sababli kriminalistik uslubiy tavsiyalar imkoni boricha tayin, lekin biron-bir yagona xususiy hol uchun emas, balki mazkur turdagi jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etish hamda amalga oshirish uchun mo`ljallangan bo`lishi kerak. Kriminalistik uslubiy tavsiyalarning umumiyligi va aniqligi, me`yori ularning amaliyot ehtiyojlari hamda nazariy imkoniyatlari bilan bog`liq ilmiy qoidalarni tavsiflash darajasida namoyon bo`ladi.

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlarining bosqichma-bosqichligi. Tashkil etilishi nuqtai nazaridan jinoyatlarni tergov qilish jarayonini uchta alohida bosqichga bo`lish lozim. Har bir bosqich – bu tergov qilishning shunday bosqichiki, uning davomida umumiy vazifalar bilan bir qatorda uning o`ziga xos vazifalari ham hal etiladi.

Birinchi bosqich – bu dastlabki tergov harakatlarini bajarish davridir. Mazkur harakatlar ham umumiy, ham o`ziga xos

vazifalarni (jinoyat alomatlariga ega bo'lgan hodisani aniqlash, aybdorni «iz bosilmasdan» ta'qib qilish hamda ushlab va hokazo) hal etishga qaratilgan. Qoida tariqasida, ular darhol o'tkaziladi. Dastlabki kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari nisbatan cheklangan muddatda o'tkaziladi, lekin uning qancha davom etishini jinoyatlarni tergov qilishning barcha hollari uchun oldindan belgilab qo'yish mumkin emas. Umuman olganda, shuni qayd etish zarurki, tergov qilishning dastlabki bosqichi kechiktirib bo'lmaydigan, shoshilinch tergov harakatlarini o'tkazish bilan tugaydi. Jinoyatlarni tergov qilish dastlabki bosqichining muddati cheklanganligi tergovchining faoliyati imkoni boricha jadallashtirilishni talab qiladi.

Ikkinchi bosqich – bu ish bo'yicha dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan barcha qolgan tergov harakatlarini bajarish davridir. Mazkur bosqichning asosiy vazifalari: aybdorni sodir etilgan jinoyatda fosh etish, ayb e'lon qilish, dastlabki bosqichda aniqlanmay qolgan holatlarni aniqlashtirishdan iborat.

Uchinchi bosqich – bu tergov qilishning yakunlovchi bosqichi. Mazkur bosqich tergovchi tomonidan tergov qilishni tamomlash, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga qaratilgan tergov harakatlarini yuritishni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran boshlanadi va ishni prokurorga yuborish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarish bilan tugallanadi. O'z mazmuniga ko'ra u ish bo'yicha to'plangan dalillar baholanishini, qo'shimcha va takroriy harakatlar amalga oshirilishini hamda tergovni nihoyasiga yyetkazish tartibini belgilashni o'z ichiga oladi.

Xususiy kriminalistik uslubiyotlarda tavsiyalar ana shu bosqichlarga muvofiq tizimlashtiriladi.

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlarining vaziyatga bog'liqligi va turli-tumanligi. Tergov amaliyoti jinoyatlarning har bir turi uchun tipik bo'lgan tergov vaziyatlarining mazmunini hisobga oladigan hamda unga bog'liq holda tergovni tashkil qilishning u yoki bu usulini tavsiya etadigan xususiy kriminalistik uslubiyotlar yaratishni talab qiladi. Jinoyat ishi bo'yicha tergov vaziyati jinoyatni tergov qilishning muayyan davridagi vaziyatni tavsiflovchi holatlar (sharoitlar, omillar) majmuidan iborat bo'ladi.

Tipik tergov vaziyatlari jinoyatlarni tergov qilishning barcha bosqichlariga xosdir, lekin kriminalistik uslubiyotlarda ko'pincha dastlabki tipik tergov vaziyatlari tahlil qilinadi. Ularning xilma-

xilligi ko'p turli tavsiyalarni va ularning tizimlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Tipik tergov vaziyatlari hisobga olingan holda jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlarining yaratilishi tavsiyalarning mazmunini aniqlashtiradi hamda ularning amaliy qimmatini oshiradi.

Jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik uslubiyotlarining umumiyliigi. Jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish chog'ida kriminalistik uslubiy tavsiyalardan foydalanish qulay bo'lishi uchun xususiy uslubiyotlarning konstruktiv birligi tamoyiliga, ya'ni ichki mustaqilligi va ko'p turliligiga amal qilgan holda ularning maqbul tuzilishiga rioya etish zarur.

Mazkur tamoyillarga ko'ra ishlab chiqilgan xususiy kriminalistik uslubiyotlar shuningdek, tergovchining ichki ishlar organlari tezkor va boshqa xizmat xodimlari bilan o'zaro hamkorligi xususiyatlarini; jamoatchilik yordamidan foydalanishga doir yo'l-yo'riqlarni; tergovchi tomonidan ayrim turdagi jinoyatlarni tergov qilish chog'ida uning oldini olishga doir faoliyatini tashkil etish bo'yicha tavsiyalarni ham o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Jinoyat qonuniga munosabati nuqtai nazaridan xususiy uslubiyotlar *tipik* (turga oid) va *maxsus* uslubiyotlarga bo'linadi. Tipik uslubiyotlar jumlasiga amaldagi jinoyat qonunida belgilangan jinoyat turlari (masalan, odam o'ldirish, o'g'irlik, firibgarlikni tergov qilish uslubiyotlari va hokazo) bo'yicha tuzilgan uslubiyotlar kiradi.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari yangilanishi munosabati bilan tegishlicha yangi xususiy uslubiyotlarni ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. U yoki bu qilmish uchun jinoyi javobgarlikning bekor qilinishi yoki ularning jinoylik toifasidan chiqarilishi (dekriminalizatsiya qilinishi) tergov qilishning ayrim uslubiyotlariga bo'lgan ehtiyojni istisno etadi. Tipik xususiy uslubiyotlar soni jinoyatlarning mavjud turlariga muvofiq bo'lishi kerak. Uslubiyotlarning ana shu soni eng yuqori (maksimal) hisoblanadi. Shu sababli, kriminalistika oldida barcha zarur bo'lgan, lekin hozircha mavjud bo'lmagan xususiy uslubiyotlarni ishlab chiqish vazifasi turadi.

Maxsus uslubiyotlar jumlasiga qonunda belgilangan jinoyatlarning turlari bo'yicha emas, balki boshqa asoslar bo'yicha tuzilgan *xususiy* uslubiyotlarni kiritish kerak bo'ladi. Jumladan, ana shu maqsad uchun asoslar sifatida jinoyat sodir etilgan joy,

jinoyatchining, jabrlanuvchining shaxsi, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab o'tgan vaqt va boshqa shu singarilar tanlanishi mumkin. Kriminalistika adabiyotlarida temir yo'l, suv va havo transportidagi jinoyatlarni; voyaga yetmaganlar va retsidivistlar sodir etgan jinoyatlarni; o'tgan yillarning ochilmay qolgan jinoyatlarini tergov qilish uslubiyotlari ma'lum.

Aniqlashtirilish (tafsilotlashtirilishi) darajasiga ko'ra, jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlari bir bosqichli, ikki bosqichli va ko'p bosqichli bo'lishi mumkin. Masalan, o'g'irliklarni tergov qilish uslubiyoti ularni tergov qilish bo'yicha umumiy tavsiyalarnigina emas, balki xonadon va avtomashina o'g'irliklarini, mayda o'g'irliklarni, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardagi o'g'irliklarni; pochta o'g'irliklarini va boshqa shu singarilarni tergov qilish uslubiyotlarini ham o'z ichiga oladi.

Jinoyatlarni tergov qilishning xususiy uslubiyotlari hajmiga ko'ra to'liq va qisqartirilgan turlarga bo'linadi. Aksariyat hollarda, u yoki bu turdagi jinoyatni tergov qilishning butun jarayonini o'tkazish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ba'zan esa tadqiqotlar tergov qilishning biron-bir bosqichini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish bilan cheklanadi. Chunonchi, dastlabki tergov harakatlarini o'tkazish bo'yicha kriminalistik uslubiy tavsiyalar ancha keng tarqalgan.

Jinoyatlarning qamrab olinadigan turlari bo'yicha xususiy uslubiyotlar kompleks va aniq turlarga bo'linadi. Ikki yoki undan ortiq o'zaro bog'liq turdagi jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlari, masalan, talonchilik va bosqinchiliklarni tergov qilish uslubiyoti, o't qo'yishlar va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalariga jinoyatkorona rioya etmasliklarni tergov qilish uslubiyoti singarilar kompleks uslubiyotlar hisoblanadi.


Jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik uslubiyotlar o'z shakliga ko'ra ko'pincha monografiyalar, dissertatsiya tadqiqotlari, darsliklar, o'quv, uslubiy va amaliy qo'llanmalar, uslubiy xatlar tariqasida ishlab chiqiladi va hokazo.

Xususiy kriminalistik uslubiyotlar tasnifi sxemada keltirilgan.

3-§. Jinoyatlarni tergov qilishdagi xususiy kriminalistik uslubiyotlarning tarkibiy tuzilishi

Jinoyatlarni tergov qilish xususiy kriminalistik uslubiyotlarning aksariyati quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi:

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoatlari tasnifi



jinoyslarning kriminalistik tavsifi;
jinoyslarni tergov qilish dasturlari;

eng xarakterli tergov harakatlarini va qonunda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish taktikasi o'ziga xos xususiyatlarining ta'rifi;

mazkur turdagi jinoyslarni tergov qilish chog'ida tergovchilarning kelajakda shu xil jinoyslarning oldini olishga doir faoliyatini tayyorlash va o'tkazish o'ziga xos xususiyatlarining ta'rifi.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi. Jinoyat ishlari bo'yicha muvaffaqiyatli ish olib borish uchun tergovchilar va surishtiruvchilarga avvalo tergov qilinayotgan turdagi jinoyatlarning batafsil kriminalistik tavsifi talab qilinadi.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi jinoyat va jazo to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan ijtimoiy jihatdan xavfli g'ayrihuquqiy qilmishlarning ko'rib chiqilayotgan turlari eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlardan hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimidan iborat bo'ladi. Kriminalistik tavsiflarni bilish jinoyat ishlarini tez, har tomonlama va xolisona tergov qilishni tashkil etish uchun zarurdir.

Jinoyatlar kriminalistik tavsifi kompleks (ya'ni uyg'un birlikdagi) mazmunga ega. Ularning asosiy qismi jinoiy xulq mexanizmini, jinoyat to'g'risidagi axborotni olish va undan foydalanish tarkibini kriminalistik tadqiq etish, jinoyatchining va jabrlanuvchilarning shaxsini aniqlash va hokazo jarayonida aniqlanadi. Shu bilan birga, ularda yaqin turuvchi yuridik fanlarning ayrim qoidalari bo'ladi. Biroq boshqa fanlardan bunday foydalanish odatdagi ilmiy uyg'unlashuv (integratsiya) doirasi bilan cheklangan bo'ladi va tavsiflarning kriminalistik mohiyatiga ta'sir etmaydi. Kriminalistik tavsiflar jinoyatlarning muayyan turlariga ham, o'xshash (bir-biriga yaqin) guruhlariga ham berilishi mumkin bo'lib, bu ularning juda xilma-xil bo'lishiga olib keladi.

Jinoyatlar kriminalistik tavsiflarining mazmuni tavsiflanayotgan jinoiy qilmishning mohiyatiga, tergov qilish xususiy uslubiyotining turi va ishlanganlik darajasiga, ilmiy tadqiqotning vazifalari va usullariga hamda bir qator boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, jinoyatlar kriminalistik tavsiflari tarkibiy tuzilishi shakliga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Kriminalistik tavsif bor-yo'g'i bir necha kirish qoidalarini o'z ichiga olgan ishlar ham uchraydi. Ayni paytda jinoyatlarni tergov qilishning shunday xususiy uslubiyotlari ham borki, ana shu tavsif ularning asosiy qismini tashkil etadi. Biroq, ko'rsatib o'tilgan farqlarga qaramay, jinoyatlar zamonaviy kriminalistik tavsiflarining aksariyatida bir qancha barqaror takrorlanuvchi elementlar mavjud bo'lib, ana shularning majmui ularning tipik tuzilmasini hosil qiladi.

Qoida tariqasida, kriminalistik tavsiflar ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar turining tushunchasini aniqlashdan va uni tergov qilishning umumiy shart-sharoitlarini (tergov qilishning izchilligi,

muddatlari hamda shakli va hokazo) tavsiflashdan boshlanadi. Bunday axborot ma'lumotnoma vazifasini bajargan holda imkon boricha qisqa bayon qilinadi va tegishli kriminalistik tavsifni ta'riflash uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Kriminalistik tavsifda ko'rib chiqilayotgan jinoyat turi tushunchasini aniqlash bilan birgalikda ijtimoiy munosabatlarning zamonaviy rivojlanish bosqichida unga qarshi kurashning holati va ahamiyati ko'rsatiladi. Jinoyatlarning ko'rib chiqilayotgan turiga qarshi kurashning dolzarbligini belgilash jinoyatlarni tergov qilish xususiy kriminalistik uslubiyotlarining to'g'ri ijtimoiy-siyosiy yo'nalishda bo'lishi va tergovchilar faoliyati samaradorligini oshirish uchun zarurdir.

Jinoyatlar to'g'risidagi eng tipik boshlang'ich axborotning ta'rifi jinoyatlar kriminalistik tavsifining muhim elementlari jumlasiga kiradi. Ana shu axborotning mazmuni va shakliga qarab tekshirishga oid ishlar tartibi hamda ularni ochish, tergov qilish va ularni oldini olishning dastlabki bosqichlari dasturlari belgilanadi. Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tarkibiga, jinoyatlarni sodir etish va yashirish usullari haqidagi ma'lumotlar tizimi ham kiradi. Jinoyatlarni sodir etish usuli deganda jinoiy qilmishni tayyorlash, sodir etish va yashirishga, shu jumladan tegishli qurollar va vositalarni qo'llashga, joy va vaqtni tanlashga, tegishli holatlardan foydalanishga qaratilgan o'zaro aloqador hamda o'zaro bog'liq harakatlar tizimi tushuniladi.

Jinoyatlar kriminalistik tavsiflarining majburiy elementlari jumlasiga ehtimol tutilgan jinoyatchining va uning ehtimoldagi jabrlanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi. Kriminalistik uslubiyot sohasidagi tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, jinoiy tajovuz jabrlanuvchi, jinoyatni sodir etish usuli, uning xususiyatlari, oqibatlari va jinoyatchining shaxsi o'rtasida muayyan aloqadorlik bo'ladi. Bunday aloqadorlik haqidagi kriminalistik ma'lumotlardan foydalanib, tergovchilar va surishtiruvchilar ayrim jinoyatlar yuzasidan ehtimol tutilgan jinoyatchining shaxsi to'g'risida asosli versiyalarni olg'a surishlari hamda tergov qilishning eng maqsadga muvofiq dasturini belgilab olishlari mumkin.

Nihoyat, jinoyatlarning mazkur turini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi jinoyatlar kriminalistik tavsiflarining yana bir elementi hisoblanadi.

Azaldan, har qanday jinoyatni tergov qilishda haqiqatni aniqlash yetti hadli formula bilan, ya'ni nima, qayerda, qachon, qay tarzda, kim, kimning yordamida, nima uchun degan yettita savolga javob olish bilan bog'langan. Lekin bu formulani universal deb bo'lmaydi, chunki u juda qisqa bo'lib, u har xil turdagi jinoyatlarni tergov qilish xususiyatlarini hisobga olish imkonini bermaydi. Jinoyat ishlarini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan savollar doirasini o'n ikkitagacha ko'paytirish to'g'risidagi taklif ham bu kamchiliklarni bartaraf etgani yo'q.

Shuni hisobga olib, jinoyatlar zamonaviy kriminalistik tavsiflarning aksariyatida ularni tergov qilish paytida aniqlanishi lozim bo'lgan, jinoyatlar tarkibining asosiy elementlari bo'yicha muayyan tizimga solingan holatlar ro'yxati keltiriladi. Bular:

a) tajovuz qilish obyekti (tajovuz nimaga qaratilgan, nimaga zarar yetkazilgan, zararning miqdori va hokazo);

b) tajovuzning obyektiv tomoni (qayerda, qachon, qay tarzda, bir shaxsning yoki bir kishining harakatlari bilanmi, ulardan har birining tutgan o'rni (roli), qanday holatlarda, oqibatlari qanaqa, yetkazilgan zarar, qilmish va oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, jinoyatga ko'maklashgan holatlar va hokazo);

v) tajovuz subyekti (tajovuzni kim sodir etdi, uning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlar, agar shaxslar guruhi ishtirok etgan bo'lsa, ular kimlar);

g) tajovuzning subyektiv tomoni (ayb, uning shakli, qasddan qilingan ayb bo'lsa uning sababi va maqsadi).

Bayon qilishning bunday usuli har xil turdagi jinoyatlarni tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar butun doirasining o'ziga xosligini ifodalaydi va bir vaqtning o'zida ilmiy ma'lumotlardan amaliyotda nisbatan osonlik bilan foydalanilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga jinoyatlarni tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasini ortiqcha aniqlashtirib yuborish joiz emasligini hisobga olish kerak. Negaki bu jinoyat tarkibining jinoyat-huquqiy tahliliga aylanib qolishi mumkin va uslubiy tavsiyalardagi kriminalistik xususiyatlarning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.

Jinoyatlar kriminalistik tavsifi tushunchasini qisqacha bayon qilish nihoyasida shuni qayd etish zarurki, u yangi kriminalistik ilmiy kategoriya hisoblanadi, shu sababli takomillashish va rivojlanishda davom etmoqda. Uning tarkibiy tuzilishi

aniqlashmoqda, jinoyatlar muayyan turlarining nazariy jihatdan asoslangan kriminalistik tavsiflarini faollik bilan ishlab chiqish jarayoni bormoqda va ularning qoidalaridan jinoyat ishlari bo'yicha tergovchilar faoliyatini takomillashtirish uchun foydalanish yo'llari taklif etilmoqda.

Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish dasturlari. Uslubiyotning bu bo'limida tergov harakatlari, tezkor-qidiruv va qonunda nazarda tutilgan boshqa choralarning maqbul tavsiyalari bayon qilinadi. Tergov qilish dasturlari uslubiyotlarning eng muhim qismlaridan bo'lib, tipik tergov vaziyatlari va versiyalarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich asosda (ayniqsa jinoyat payqab qolingani to'g'risidagi dastlabki axborot olingan paytdan e'tiboran tergov qilishning dastlabki bosqichi uchun batafsil) tuziladi.

Jinoyatchi aniqlanmagan; jinoyatchi jinoyat ustida qo'lga tushirilgan; jinoyat ishi tezkor-qidiruv faoliyati jarayonida aniqlangan ma'lumotlarni hisobga olgan holda qo'zg'atilgan; jinoyatchi aybini tan olib kelgan va boshqa shu singari tergov vaziyatlari uchun tergov qilish dasturlari kriminalistika adabiyotlarida ayniqsa ko'p keltiriladi.


Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish uchun ayniqsa xos bo'lgan dastlabki va undan keyingi tergov harakatlariga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish taktikasi o'ziga xos xususiyatlarining tavsifi. Umumiy taktik qoida rivojlantirila borib, bu yerda mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish uchun ayniqsa xos bo'lgan tergov harakatlarini va qonunda nazarda tutilgan boshqa choralarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish taktikasi o'ziga xos xususiyatlarining tavsifi beriladi.

Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda tergovchilar va surishtiruvchilarning jinoyatlarni oldini olishga doir faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish o'ziga xos xususiyatlarining tavsifi. Jinoyat sudlov ishlarini yuritishning asosiy vazifalaridan biri bo'lgani holda, jinoyatlarning oldini olish jinoiy huquqbuzarliklarni tergov qilish chog'ida ham amalga oshiriladi. Jinoyatlarni ochish va tergov qilishni amalga oshiruvchi tergovchilar va surishtiruvchilarning ish yurituvdagi jinoyat ishlarida qidiruvni tashkil etishni profilaktikadan (oldini olish tadbirlaridan) farqlash, davomli jinoyatning payini qirqishni aybdorning qilmishini fosh etuvchi dalillarni to'plashdan ajratish nafaqat qiyin, balki ba'zan imkonsiz hamdir.

Shu sababli mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda jinoyatlarni oldini olishga doir tadbirlarga tayyorgarlik ko`rish va ularni o`tkazish xususiyatlarining tavsifi kriminalistik uslubiy tavsiyalarning yakunlovchi qismi hisoblanadi.

Shu tariqa, xususiy kriminalistik uslubiyotlar har xil turdagi jinoyatlarni tergov qilishni tashkil etish va amalga oshirish bo`yicha nazariy qoidalar hamda amaliy tavsiyalar majmuidan iboratdir. Biroq ular muayyan jinoyatni tergov qilish uchun maslahatlar bermaydi va bera olmaydi, ya`ni ular hayotdagi barcha holatlar uchun andoza emas. Ularda jinoyatlarning biron-bir turini (ko`rinishini) ochish, tergov qilish va ularning oldini olishda tergovchi faoliyatining xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy tavsiyalargina mavjud bo`ladi.

Xususiy kriminalistik uslubiyotlar jinoyatlarning imkoni boricha samaraliroq tergov qilinishiga ko`maklashishi uchun tergovchilar tergovning mumkin qadar to`liq, tezkor va xolisona bo`lishiga erishgan holda ishlab chiqilgan tavsiyalardan ijodiy foydalana olishlari kerak.



24-bob. TERGOVCHI VA TEZKOR-QIDIRUV XODIMLARINING O'ZARO HAMKORLIGI

1-§. Hamkorlikning umumiy jihatlari

Tergov qilish, jinoyatni ochish va uning oldini olishning samaradorligi ko'p jihatdan tergovchining ushbu jarayonning boshqa ishtirokchilari – tezkor-qidiruv xodimlari, mutaxassislar va ekspertlar, shuningdek nazorat-taftish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligiga bog'liqdir. Bunday hamkorlik jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

Tergovchining tergov jarayoni ishtirokchilari bilan hamkorligi nisbatan shartli hisoblanadi, chunki protsessual nuqtai nazardan bunday holatda tenglikning bo'lishi mumkin emas. Tergovchining maqomi yuqori bo'lib, tergovdagi asosiy vazifa, uning natijalari va qabul qilinayotgan qarorlar uchun shaxsiy javobgarlikni aniqlab berishdan iborat. Tergov ishtirokchilarining faoliyati tergovchining oldiga qo'yilgan vazifalarga bo'ysundirilgan va ular bilan bog'liq.

Hamkorlikning mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Hamkorlikning asosiy maqsadi esa – jinoyatni fosh etishdir. Ba'zi bir holatlarda bu maqsad ma'lum bir tergov harakatining muvaffaqiyatli o'tkazish bo'lsa, boshqa holatlarda – tezkor yo'l bilan kerakli ma'lumotlarni olish, yashiringan shubhalanilgan shaxsni yoki ayblanuvchini, ashyoviy dalillarni, hujjatlarni va boshqalarni qidirish va fosh qilish hisoblanadi. Hamkorlik bir martalik, qisqa vaqtga mo'ljallangan yoki muayyan bir ish bo'yicha uzoq vaqt davom etishi mumkin.

Agar dastlabki tergovga ehtiyoj bo'lmasa va ish butunlay boshlang'ich tergov organi tomonidan olib borilsa, hamkorlikka ehtiyoj qolmaydi. Bu dastlabki tergov organi xodimi hech kim bilan aloqada bo'lmaydi, degani emas. Xuddi tergovchi kabi u ham mutaxassislarga, ekspertlarga murojaat qilishi, ichki ishlar xizmati boshqa organlarining xodimlari bilan maslahatlashishi mumkin.

Hamkorlik tamoyillari quyidagilar:

1. Qonuniylikka rioya qilish. Ishtirokchilar faoliyatini huquqiy tartibga solish, tergov organlari rahbarlarining nazorati va prokuror nazorati orqali ta'minlanadi. Asosiy talab – ishtirokchilar tergov va tezkor-qidiruv faoliyati uchun belgilangan vakolatlar doirasida bo'lishi kerak.

Hamkorlikning tergov qoidalariga rioya qilish qonuniylik prinsipini ta'minlaydi. Ma'lumki, qonun dastlabki tergovni ikki shaklini ko'zda tutadi: boshlang'ich tergov organlarining vazifasi jinoyat izlarini topish va aniqlash, aybdorlarni aniqlash va qo'lga tushirish bilan chegaralanadi.

Boshlang'ich harakatlar tergov organi tomonidan amalga oshirilganda ular u yoki bu jinoyatning mavjudligini tasdiqlab berishi talab etiladi. Bu ma'lumotning ishonchliligi tergov masalalarini to'g'ri hal etishga imkon yaratadi.

Tergovchining protsessual maqomi, rahbarlik va tashkilotchilik roli, tergovning aniq vazifalarini yechish va ish bo'yicha haqiqatni aniqlash, hamkorlikning aniq bir maqsadga yo'naltirilganligi va hamkorlik faoliyatining muvofiqligi uning qanday rejalashtirilganligi bilan ta'minlanadi. Tergov davomida hamkorlikning vazifalari va mazmuni aniqlashtiriladi va to'ldiriladi. Ammo hamkorlik qilayotgan subyektlar doirasi o'zgarishi, yangi kuch va vositalarni talab qilishi mumkin.

Tergov va boshlang'ich tergovni nazorat qiluvchi prokuror bunday vaziyatda tashkilotchilik vazifasini bajaradi. O'z vakolatlari doirasida tezkor xodimlarga topshiriqlar berishi, tergovchi bilan hamkorlikning boshqa shakllarini belgilashi mumkin. Shu bilan birga, u boshlang'ich tergov organlarining tezkor-qidiruv tadbirlariga aralashmasligi, topshiriqlarni amalga oshirishning yo'li va vositalarini belgilamasligi zarur.

Mazkur jarayonda tergov bo'limi xodimi va prokurorning hamkorlik shakllari va mazmuni to'g'risidagi ko'rsatmalari tergovchi uchun majburiydir. Ushbu ko'rsatmalar tezkor-qidiruv guruhi tashkilotiga, uning tarkibiga aloqador bo'lishi ham mumkin.

2-§. Hamkorlikning taktik-uslubiy qoidalari

Tergov o'tkazish jinoyatni ochishda hamkorlikning birinchisi – tergovchi tomonidan ish materiallarini tahlil qilishdan iborat. Bunda dastlab tergovchi tomonidan hamkorlik suyektlari aniqlanadi. Qo'shma faoliyatga eng ko'p jinoyat-qidiruv, uyushgan jinoyatchilik va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash xizmati, ichki ishlar organlarining kriminalistik xizmatlari, harakat xavfsizligi xizmati, turli xil idora va ma'muriy inspeksiyalar xodimlari jalb etiladi.

Yana bir muhim vazifa vaziyatga oid ma'lumotlarni hamkorlar

o`rtasida almashinuvidir. Ma`lumot almashinuvida tergov hamda tezkor-qidiruv tadbirlari rejasining qay darajada mosligi aniqlanadi, chunki tergov harakatlari, uning muvaffaqiyati tezkor-qidiruv ishtirokchilarining tadbirni belgilangan muddatda va ketma-ketlikda ijro etishlariga bog`liq. O`z vaqtida, yetarli aloqa almashinuvi tezkor-tergov guruhi (TTG) a`zolari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Uning shakllari turlicha: TTG tarkibining yig`ilishi, uning alohida ishtirokchilarining o`zaro aloqasi va hokazo. Shu bilan birga tergov sirlarini saqlash, tezkor ma`lumotni chetga chiqishiga yo`l qo`ymaslik juda muhim.

Hamkorlik ishtirokchilari tergov vaziyati o`zgarishi bilan rejaga va maqsadlarga tuzatish kiritishi kerak.

Hamkorlik rejasi quyidagilarni o`z ichiga olishi kerak:

- 1) tergov va qidiruv versiyalarining ifodasi;
- 2) ushbu versiyalardan kelib chiquvchi holatlarning ro`yxati;
- 3) ushbu holatlar va harakatlar tartibini aniqlash va o`rganish ro`yxati;
- 4) tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan qidiruv tadbirlari ro`yxati;
- 5) tezkor yo`l bilan aniqlanishi kerak bo`lgan vaziyatlarning ifodasi;
- 6) bajarish muddatlari, ma`lumot almashinuvi, rejaga tuzatish kiritish;
- 7) rejaning har bir bandi bo`yicha ijrochilar ro`yxati.

Tezkor-qidiruv rejaları alohida tezkor xodim tomonidan rejalashtiriladi. Belgilangan tadbirlar va tergov harakatlarining vaqti, joyi, muddatiga alohida e`tibor berish zarur. Tuzilgan reja tergov bo`linmasi va tegishli tezkor xizmati rahbarligi tomonidan ko`rib chiqiladi.

Ayniqsa tergovning dastlabki bosqichi juda muhimdir. Bu narsa jinoyatni izlar bosilmay turib ochilishi, aybdorni aniqlash va topish, o`g`irlangan mulkni qidirish bilan chambarchas bog`liqdir.

Hamkorlik turli xil vaziyatlarda paydo bo`ladi. Ulardan uch turi eng ko`p uchraydi:

1. Jinoyatchi aniq bo`lmagan jinoyat (jinoyat sodir etilganligi aniq, ammo kim tomonidan sodir etilganligi noma`lum). Odatda bunday holatlarda hamkorlik tashabbusi ichki ishlar organining navbatchi qismidan chiqadi. Jinoyat sodir etilgan joyga tezkor tergov guruhi chiqadi. Guruhning tarkibiga tergovchi, tegishli mutaxassis

(kriminalist, sud-tibbiyot mutaxassisi), tezkor-qidiruv xodimi xizmat iti bilan kiradi. Ularning vazifalari hodisa yuz bergan joyni sinchiklab ko`zdan kechirib olingan ma`lumotlar asosida jinoyatni fosh etish, aybdorni qidirish va qo`lga olish uchun ishlatishdan iborat. Aynan shu bosqichda qo`zg`atilgan jinoyat ishini tergovga tegishliligi, boshlang`ich tergov organlari ishining yo`nalishi va davom ettirishi masalalari hal etiladi. Bunday holatlarda boshlang`ich tergov organi mavjud ma`lumotlarni tekshirish, qo`shimcha ma`lumotlar to`plash, shuningdek material obyektlarni o`rganish yo`li bilan ishtirok etishi mumkin.

2. Tergovchi tomonidan boshlang`ich tergov va tezkor materiallari asosida jinoyat ishi qo`zg`atish masalasini hal etish. Shuningdek aybdorni va ularning jinoiy kirdikorlarining hamma harakatlarini aniqlashga qaratish va tezkor-qidiruv tadbirlarini o`tkazish; jinoyatchi tomonidan keltirilgan moddiy ziyonni to`laligicha aniqlash; jinoiy yo`l bilan orttirilgan boyliklarni dalillar asosida isbot qilish.

3. Murakkab jinoyat ishlarini tergov qilish. Bu ko`p epizodli, uyushgan jinoyatchlar, shuningdek ilgarigi yillarda ochilmagan jinoyatlardir.

3-§. O`zaro hamkorlikning turlari

Hamkorlikning protsessual va noprotsessual turlari mavjud. Hamkorlikning noprotsessual turi ba`zan tashkiliy-taktik deb ham nomlanadi.

Hamkorlikning protsessual turlari quyidagilar: tergov harakatlarini amalga oshirishda dastlabki tergov xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar; to`xtatib qo`yilgan ishlar bo`yicha tergovchining topshirig`i bilan shaxs va obyektlarni qidirish; tegishli shaxslar bilan ishlash; tezkor-qidiruv guruhlarini tashkil etish.

Tergovchi tezkor-qidiruv ishlarini amalga oshirish haqida topshiriq berar ekan, u ichki ishlar organlari oldiga faqat vazifa qo`yadi, ammo uni yechish yo`li va vositalarini belgilamaydi, chunki bu dastlabki tergov organlari vakolatiga kirmaydi. Tergovchi talabiga ko`ra tezkor-qidiruv xodimlari qonunda belgilangan protsessual majburlash choralari amalga oshiradi; qurollangan jinoyatchini qo`lga tushirish va ta`qib qilish uchun pistirma, quvlash,

qurshov, turli xil to'siq tadbirlar ko`radi, tergovchining hududiga kelishdan bosh tortayotgan shaxsni olib kelish, hodisa va tintuv joyini o`rab olish, tergovchiga qarshilik ko`rsatish hollarini oldini olish kabi hollarda yordamlashadi.

Daslabki tergov xodimlari tergovchiga murakkab va katta hajmdagi tergov harakatlarini tayyorlash va amalga oshirishda yordam beradilar, ushbu harakatlar davomida u yoki bu vazifalarni bajaradilar.

Tergovchining mutaxassislar bilan hamkorligi quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- a) mutaxassislarni tergov harakatlariga jalb etish;
- b) sud ekspertizalarini o`tkazish;
- v) taftish belgilash va o`tkazish.

Tergovchi bilan boshqa ishtirokchilar protsessual hamkorligi eng samarali bo`lib, uning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- umumiy maqsad sari bo`ysundirilgan TTG tomonidan amalga oshiriladigan tergov harakatlari va tezkor-tergov tadbirlari o`tkaziladi.

- TTG a`zolarining barcha harakatlari xususan, umumiy rejani ishlab chiqish jarayonida o`zaro kelishiladi;

- TTG ishtirokchilarining har biri o`z vakolati doirasida harakat qilib, funksional mustaqillikni saqlab qoladi;

- TTG tarkibida ishlash tergovchiga tezkor yo`l bilan olingan ma`lumotdan, tezkor xodimlarga esa – tergov harakati vaqtida olingan ma`lumotdan darhol foydalanish imkonini beradi.

Umumiy qoidaga ko`ra, TTG a`zolarining barcha harakatlari avvaldan kelishilgan rejaga bo`ysundirilgan bo`lsada, ba`zi bir sabablarga ko`ra rejalashtirilmagan harakatlarni amalga oshirishi ham mumkin. Masalan, jinoyatchilarni jinoyat ustida qo`lga olish, tintuv va kechiktirib bo`lmaydigan harakatlarni amalga oshirish.

TTG tergovchi rahbarligida ishlaydi. U ishni tergov qilishga, hamkorlik subyektlari oldiga o`z vaqtida vazifalar qo`yishga, taqdim etilgan ma`lumotlardan to`laligicha foydalanishga javobgardir.

Amaliyot TTG quyidagi harakatlarni bajaradi:

1) hodisa yerini ko`zdan kechirish. Bunday guruhlar vaqtincha bo`lib, ichki ishlar organlari navbatchi qismlarida bo`ladi va o`rnatilgan jadvalga muvofiq almashadi. Guruh tarkibi har doim yangilanib turadi; uning tarkibiga tergovchi, jinoyat qidiruv xodimi, mutaxassislar – kriminalist va sud-tibbiyot mutaxassisi, kinolog

kiradi. Guruh majburiyatlari – hodisa joyini malakali ko`zdan kechirish va shu bilan bog`liq kechiktirib bo`lmaydigan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini o`tkazishdan iboratdir. Ichki ishlar organi xizmat ko`rsatadigan aholining soni va hududning katta-kichikligiga qarab bir vaqtning o`zida bir necha TTG navbatchilik qilishi mumkin.

2) izlar bosilmay turib ishlash. Bu hodisa yeriga chiqqan guruhning aynan o`zi, ko`zdan kechirish bilan cheklanmay jinoyatni ochish va jinoyatchini ushlash bilan shug`ullanadi;

3) xavfli jinoyatlarning muayyan turlarini ochish: o`g`irlik, bosqinchilik, jinsiy jinoyatlar va hokazo. Bunday TTG doimiy bo`lib, xizmat ko`rsatish hududida sodir etilgan jinoyat turini ochishga ixtisoslashadi;

4) uyushgan jinoyatchilik tomonidan sodir etilgan har qanday jinoyatni tergov qilish va ochish. Bu holatda TTG tarkibiga ichki ishlar uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish maxsus bo`linmalarining tezkor xodimlari kiradi;

5) murakkab, ko`p epizodli ishlarni tergov qilish bo`yicha TTG tarkibi o`zgaruvchan bo`ladi; tergov davomida uning tarkibiga turli ixtisosliklar bo`yicha tezkor xodimlar va qo`shimcha jalb etilgan tergovchilar qo`shiladi;

6) avvalgi yillarda ochilmagan jinoyatlarni tergov qilish bo`yicha. Guruh doimiy asosda ishlaydi va ma`lum bir turdagi jinoyat bo`yicha ixtisoslashgan bo`lishi mumkin.

Ichki ishlar organi tergov bo`linmasi boshlig`i yoki prokuror tomonidan tuziladigan tergovchilar brigadasidan tezkor tergov guruhini farqlash zarur. Tergovchilar brigadasi faqat bir yoki turli idoralar tergovchilaridan tashkil topgan. Ularga tezkor xodimlar ham qo`shib berilishi mumkin, ammo ular brigada tarkibiga kirmaydi va hamkorlik bir martalik ko`rinishga ega bo`ladi.

Tezkor-qidiruv guruhi va tergovchilar brigadasining tarkibi turli xil bo`lishi mumkin: ikkita-uchtadan bir necha yuzgacha. Har bir TTG ishtirokchilar doirasi, vazifalari taktik hamkorlik usuli bilan farqlanadi.

Hamkorlikning noprotsessual shakllari xilma-xil bo`lib, ishtirokchilar doirasi ham ancha kengdir. Ularning eng asosiylari:

1) mutaxassislarning tergovchiga u yoki bu tergov harakatlarini tayyorlashda va natijalarini baholashda ko`maklashishi; ayblanuvchini so`roq qilayotgan vaqtda sud ekspertizasi

imkoniyatlari, qandaydir mahsulotni ishlab chiqarishda texnologik talablar; tergovchining texnik topshiriqlarini bajarish; texnik-kriminalistik vositalarni tayyorlash, hujjatlarni ko'paytirish va hokazo.

2) tezkor ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha tergovchi harakatlarini birga rejalashtirish; tezkor ma'lumot yordamida so'roq qilinayotgan shaxsga beriladigan savollarni, jabrlanuvchi ishtirokidagi tezkor guruh taktikasini, tezkor-taktik rejasini muhokama qilish.

Ushbu ma'lumotlar turi va ulardan foydalanish imkoniyatlari quyidagicha:

1. Jinoyatga aloqador shaxslarning harakatlari haqida tergovchini yo'naltiruvchi tezkor ma'lumotlar:

- shubhalanuvchi va ayblanuvchining jinoiy faoliyati haqida ma'lumot;

- jinoyatni yashirgan shaxslarning harakatlari haqida ma'lumot;

- tergovning borishiga qarshilik qiladigan harakatlarni amalga oshirilishi haqida ma'lumot;

- ko'rsatilgan ma'lumotlar va ashyoviy dalillar egalari haqida ma'lumot.

Bu ma'lumotdan bevosita va bilvosita yo'l bilan foydalanish mumkin.

Tezkor ma'lumotdan bevosita foydalanishga quyidagilar kiradi:

- tergov yo'nalishi va jinoyatchining shaxsini aniqlash;

- uning asosida tergov harakatlarining ketma-ketligi va xususiyatlarini belgilash;

- tergov harakatlarini asoslash – jinoyat ustida qo'lga olish, tintuv va boshqalar;

- hozir-javoblik darajasida ustunlikka ega bo'lish; bunday vaziyatda tezkor ma'lumot «teskari aloqa» rolini o'ynab, uchinchi shaxslarga aytganlari bo'yicha tergovchi o'zining harakatlarini «birovning ko'zi» bilan ko'ra oladi;

- tergov vaziyatini baholash va taktik qaror qabul qilishda tezkor ma'lumotlarni hisobga olish.

Tezkor ma'lumotlardan bilvosita foydalanish, uning manbalariga protsessual tus berish, so'ng esa ushbu manbalardan mazkur ma'lumotni qaytadan, lekin endi dalil sifatida olish yo'llarini izlash shaklida namoyon bo'ladi.

2. Ishga aloqador obyektlarining joylashish va tergovchini yo`naltiruvchi tezkor ma`lumot. Ushbu ma`lumotdan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- tintuv o`tkazish, olib qo`yish, mulkni hibsga olishda;
- mazkur ma`lumotlarga protsessual tus berish, maqsadida dalillar doirasiga kiritish uchun amalga oshiriladigan harakatlarda.

3. Tezkor xodim tomonidan yoki mutaxassis yordamida olingan tezkor ma`lumot.

Tezkor-qidiruv faoliyati to`g`risidagi qonunga ko`ra, ma`lumotlar tezkor xodim tomonidan predmet va hujjatlarni o`rganish, bino va inshootlarni, joy va transport vositalarini ko`zdan kechirish orqali hamda aloqaning texnik kanallaridan olishi mumkin. Odatda ish bo`yicha ashyoviy dalil bo`lib xizmat qiladigan material obyektlarni dastlabki o`rganish natijalaridan isbotlashda foydalanish ancha murakkabdir.

3) shaxs va predmetlarning qidiruvini tashkil etishda, turli ob`ektlarni tanib olishda, qidiruv ishtirokchilarini kengaytirishda; profilaktik choralarni ko`rishda ommaviy axborot vositalari;

4) jinoyatni sodir etilishiga ko`maklashgan sharoitlar haqida kriminalistik muhim ma`lumotni olish; jinoyatni oldini olish bo`yicha choralar ko`rish; korxonalar va muassasalarda hujjat va tovar ayirboshlash tartibini o`rganish va boshqalar;

5) qidiruv tadbirlarini o`tkazishda aholi va jamoat uyushmalaridan foydalanish, yo`naltiruvchi ma`lumotlarni aniqlash, u yoki bu shaxsga tavsifnoma olish va boshqalar.

Noprotsessual shakldagi hamkorlik protsessual shakldagi hamkorlik bilan bir maqsadni ko`zlaydi, jinoyatni muvaffaqiyat bilan aniqlash, ochish, tergov qilish va samarali oldini olishga xizmat qiladi.

25-bob. QOTILLIK JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. Qotillik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

Qotillik, ya'ni qasddan insonni hayotdan mahrum etish jinoyatlari og'ir va tergov uslubi ancha murakkab kechadigan hodisalardan hisoblanadi.

Kriminalistik tergov uslubini qo'llash qotillik jinoyatini tekshirishda jabrlanuvchining o'limi sababini aniqlashga: u o'z-hayotiga qasd qildimi, o'limi tabiiy yuz berdimi, baxtsiz hodisa natijasida yoki qotilning tajovuzidan sodir bo'ldimi, degan savollarni aniqlashga qaratiladi. Shuning uchun har qanday holatlarda topilgan odamning murdasi yoki ma'lum insonning shubhali vaziyatda bedarak yo'qolish hodisasi kriminalistik tergov uslubi qoidalariga asoslangan holda tekshirilishi lozim.

Qotillik jinoyatlarini sodir etishda jinoyatchilar turli usul va qurollarni qo'llaydilar. Ko'p hollarda ular o'q otish va sovuq qurollar, turli uy-ro'zg'or buyumlari (pichoq, tasha, bolta), biror qattiq predmet (temir, tosh kabi)lar bilan jarohat yetkazib sodir etadilar.

Qotillik jinoyatlari bo'g'ish, nafas olish yo'llarini bekitish, zaharlash, suvda cho'ktirish, portlatish va boshqa usullari bilan ham sodir etiladi.

Jinoyatni sodir qilish usullari, jinoiy harakat motivlari, joyi, vaqti, hodisaning oqibati, izlar, qurollar bularning barchasi qotillikning kriminalistik tavsifini tashkil qiladi. Uning ayrim elementlari esa bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, biri-ikkinchisidan kelib chiqadi va to'ldiradi. Ayniqsa jinoyatning subyekti, jabrlanuvchi, ishlatilgan qurol va jinoyat joyi kabi elementlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har qaysi elementdan qolgan izlar (oqibatlar) boshqa elementlarda aks etadi, birini kuzatish va tekshirish bilan, ikkinchisi unga bog'liq bo'lgan holatning xususiyatini keltirib chiqaradi.

Jinoyatning kriminalistik tavsifini belgilashda yuqorida keltirilgan holatlarni oldinma-ketinligi, hodisa joyidagi vaziyatlarni kelib chiqishi, birining oqibati ikkinchisida ma'lum izlarning qoldirishi kabilarini aniqlash tergov dastlabki bosqichining muvaffaqiyatli bo'lishiga asos hisoblanadi.

Tergov amaliyoti tajribasiga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, eng ko'p tarqalgan qotillik jinoyatlari uy-joy binolarida,

jamoajoylarida, ko`chalarda sodir etiladi, bunda jinoyatning oqibati, qurollar, izlar yashirilmaydi, qotilning o`zi ham ba`zida qochmaydi, bekinmaydi. Bunday jinoyatlar ko`pincha g`arazlik, o`ch olish, rashk, bezorilik, ikki jinoiy guruhlarning qarama-qarshilik to`qnashuvlari natijasida sodir bo`ladi. Bu holatlarda sodir etilgan qotillik jinoyatlarining ochilishi va tergov jarayoni unchalik qiyinchilikni tug`dirmaydi. Tergov uslubi tavsiya etgan taktik va metodik vositalarni qo`llash va hodisa joyidagi qurollar, izlar, jabrlanuvchi shaxsi va o`lim sababi haqidagi dastlabki ma`lumotlar asosida versiyalarni ishlab chiqish va tergovni to`g`ri tashkil etish, ya`ni jinoyatni tegishli muddatlarda ochish-isbotlash mumkin bo`ladi.

Ayrim hollarda qotillik jinoyati yashirin vaziyatda, guvohlarsiz, kechanning qorong`uligi, odamning yo`qligidan foydalanib sodir etiladi.

Jinoyatchi atayin tayyorgarlik ko`radi, hodisa joyidagi izlarni yo`qotishga, qurolni o`zi bilan olib ketishga, ba`zida marhumning tanasini bekitish-yo`qotishga ham harakat qiladi. Bunday jinoyatlar tergov olib borish, isbotlash nuqtai-nazaridan murakkab bo`lib, bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qotillikning bu turini tergov qilishda tergovchi mutaxassislik mahoratini ijodiy qo`llay bilishligi, dastlabki surishtiruv ma`lumotlaridan to`g`ri foydalana olishi, kechiktirib bo`lmaydigan tezkor va tergov harakatlarini o`z vaqtida va sifatli qilib o`tkazishi talab etiladi.

Jinoyat sodir etilgan, jabrlanuvchining murdasi topilgan joylarda uni amalga oshirish usuli, motivlari, qo`llanilgan qurollar, sodir etgan shaxs haqidagi dastlabki ma`lumotlarni olish mumkin bo`ladi. Jabrlanuvchining shaxsi ma`lum bo`lgan hollarda jinoyatchi haqida, marhum bilan ular orasidagi munosabat, jinoyat hodisasini sodir etish usullari haqida tegishli versiyalar tuzmoq mumkin bo`ladi. Jinoyat hodisasi bilan jabrlanuvchining tanasi topilgan joylar bir bo`lganda qotillikning asosiy holatlari haqida ma`lumot olish va dastlabki tezkor tergov harakatlarini o`tkazish orqali jinoyatda shubhalangan shaxsni topish va qo`lga olish imkoni bo`ladi. Qotillik jinoyati ochiq joylarda, yo`l-ko`cha yuzasida, tashlandiq, odamlar kam yuradigan joylarda sodir etilganda jabrlanuvchining murdasida bir muncha o`zgarishlar (murda alomatlari, atrof-muhit, ob-havo ta`siri) yuz berishi natijasida uning shaxsini aniqlash murakkab bo`ladi. Bunday hollarda tezkor

xodimlarning ma'lumotlari, qidirilayotgan, bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi axborotlar katta yordam beradi.

Shahar sharoitlarida sodir qilinadigan qotilliklar ko'p hollarda jinoyat izlarini yo'qotishga, murdani bo'laklab yashirishga qaratilgan bo'ladi. Qotillar murda bo'laklarini axlat-chiqindilar tashlanadigan joylarda, jamoa gavjum joylardagi maxsus yuk saqlanadigan binolarda, biror materialga o'ralgan holda yoki sumka-chemodanlarda qoldiradilar.

Qotillik jinoyatlarining tavsiflaridan yana biri uning sodir qilinish usulidir. Qotillik sodir qilishi usuliga ishlatilgan qurol, vosita, harakat, jinoyatga avvaldan tayyorgarlik ko'rish va jinoyat izlarini yo'qotishga urinish kabi holatlar kiradi.

Uy-ro'zg'or janjallari, rashk, bezorilik, spirtli ichimlik va narkotik vositalar ta'siri ostida sodir qilinadigan qotilliklar deyarli oldindan tayyorgarlik ko'rilmagan sodir qilinadi. Qotil qo'lga duch kelgan predmet qurol (pichoq, tesha, bolta) yoki boshqa vosita bilan jarohat yetkazib, maqsadiga yetadi.

Qotillik g'arazli maqsadda yoki jabrlanuvchining lavozimi, xizmat vazifasiga qarshi qaratilgan bo'lsa, jinoyatchi oldindan tayyorgarlik ko'radi, joyini, vaqtini va qurolni belgilab qo'yadi, bunday hollarda o'q otish quroli, portlovchi moddalarni tayyorlaydi. Qasdini amalga oshirgandan so'ng qotil qurolni, otilgan o'q va gilzalarni ham olib ketishga, oyoq va qo'l izlarini qoldirmaslikka harakat qiladi. Bu holatlar qotilning shaxsi haqida ma'lumotlarni olish va uni kimlar orasidan qidirishni qiyinlashtiradi.

Qotillik jinoyatining izlarini va jabrlanuvchining murdasini yo'qotishga qaratilgan harakatlar ba'zida qotillikka boshqa hodisa tusini berish uchun niqoblash usullarini ham qo'llash hollari uchraydi. Qotil qurbonini xushsizlantirib yoki unga og'ir jarohat yetkazib, xonaning eshik-derazalarini berkitib o't qo'yib ketadi, tepalik – balandlikdan itarib yuboradi, "o'ziga o'zi qasd qilgan" – niqobi tusini yaratadi va hokazo.

Jabrlanuvchining shaxsini aniqlash tergovning dastlabki bosqichida to'g'ri versiyalar tuzishga va gumon qilinuvchini topishga yordam beradi.

Jabrlanuvchilar ayol kishilar bo'lsa, ko'p hollarda ular zo'rlik, g'arazlik yoki rashk qurbonlari bo'ladilar. Qotil bilan jabrlanuvchining o'zaro aloqalari, munosabatlari bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, jinoiy oqibatga olib kelishi sababidan va qasd mazmunidan darak beradi.

Jinoyatda gumon qilingan qotillarning shaxsi, tergov amaliyotiga asoslangan holda quyidagicha tavsiflanishi mumkin: spirtli ichimlik yoki narkotik vositalarni iste'mol qiluvchi 18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan erkak kishilar, ko'p hollarda qo'pol muomala qiluvchilar, axloqsiz, jamoaga va ayollarga nisbatan behurmat va rahmsiz, ilgari sudlangan kabi sifatlarga ega bo'ladilar.

Qotilning ba'zi harakatlari – jabrlanuvchiga nisbatan o'ta rahmsizlik bilan ko'p jarohat yetkazishi, o'zining yaqin qarindoshi, oila-azolari, yosh bolalarni o'ldirishi, ularning murdalarini mayda bo'laklarga bo'lib, har joylarga tashlashi, uning aqli norasolugidan xabar beradi, bunday hollarni tipik vaziyatlarga kiritish mumkin.

Tergov amaliyotida notipik hollar ham uchrab turadi. Qotil qurol bilan muomala qilishni yaxshi biladi, harbiy xizmatda yoki alohida mashq asosida otish yoki sovuq qurollarini qo'llashlikni egallagan bo'lib, jinoyatga tayyorgarlik ko'rishni va sodir qilgandan so'ng uning izlarini yo'qotishni avvaldan belgilab qo'yadi. Bunday vaziyatlar tergovni dastlabki bosqichida bir muncha murakkablikni keltirib chiqaradi.

Lekin kriminalistik faoliyatning qonuniyatiga binoan hech bir jinoyat o'z oqibatini, izlarini qoldirmay iloji yo'q, shuning uchun har qanday jinoyat shu jumladan, qotillik jinoyatlari ham muvaffaqiyatli fosh etiladi.

2-§. Jinoyat ishini qo'zg'atish va tergovning tipik vaziyatlari

Qotillik jinoyatlari odatda og'zaki (telefon orqali) yoki yozma ravishda arizalar asosida qo'zg'atiladi. Xabarlar davolash muassasalaridan, o'likxonalaridan, ko'cha-kuyda zo'rlik (jarohatlar) alomatlari mavjud bo'lgan murdalar topilgani haqida biladi, ayrim hollarda jinoyat sodir qilgan shaxsning o'zi xabar qiladi yoki huquq muhofaza organiga aybini tan olib keladi.

Zo'rlik alomatlari mavjud bo'lgan murdaning yoki uning bo'lagi topilgan hollarda jinoyat ishi hech qanday tekshiruv o'tkazilmasdan tezkorlik bilan qo'zg'atiladi va dastlabki tergov va tezkor harakatlar o'tkaziladi.


Shaxsning bedarak yo'qolgan faktlari bo'yicha tushgan arizalar, jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan avval uning ehtimol ketgan (yashiringan) joylari tekshiriladi, tirikligi va boshqa joyda bo'lish ehtimol haqida versiya yuritiladi. Bedarak yo'qolganlik haqidagi

arizada jinoyat alomatlari haqida xabarlar bo'lsa, qayerda va qachon sodir bo'lganligi va qotillikning sabab-motivlari ko'rsatilgan bo'lsa, bedarak yo'qolgan shaxs «qotillik qurboni» degan versiya asosida jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov va tezkor qidiruv choralari ko'riladi.

Mazkur tekshiruv natijalarida bedarak yo'qolgan shaxs: baxtsiz hodisa qurboni emasligi, biror jinoyat harakati uchun ushlangan emasligi, davolanish joylarida, o'likxonalarda yo'lqligi, o'z ixtiyori bilan yashash joyini o'zgartirmasligi, shaxsiy hujjatlari va buyumlari uyda qolganligi, g'arazlik yoki o'ch olish maqsadida unga qasd qiladigan ma'lum shaxslarning yo'qligi aniqlansa, u «qotillik qurboni bo'lgan» va qotil uning tanasini yashirgan yoki yo'qotishga harakat qilgan, degan versiya mavjud bo'ladi va jinoyat ishi qo'zg'atilib, mana shu versiya – tekshiriladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida unga asos bo'lgan belgi alomatlari, jinoyat oqibati, sodir qilingan usuli bo'yicha qator tergov vaziyatlari hosil

QOTILLIKNI TERGOV QILISHNING DASTLABKI BOSQICHIDAGI TIPIK VAZIYATLAR



O'LDIRILGANLIK ALOMATLARI BO'LGAN MURDA TOPILGANDA TERGOVCHUNUNG DASTLABKI HARAKATLARI

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan

Zarur hollarda murdani tanib olish uchun

Kabardor shaxslarni so'roq qilish

Sud-tibbiy ekspertizasini tayinlash

Kriminalistik ekspertiza tayinlash

Surishtiruv organlariga tezkor qidiruv
choralarini ko'rishni topshirish

1. Qotillikning ochiq sodir etilishi, qotil bilan jabrlanuvchi o'zaro bezorilik qilib jarohatlanganligi natijasida o'lim yuz berganligi. Uy-ro'zg'orda oila a'zolari janjallashishi, rashk va boshqa sabablar natijasida, shuningdek zaruriy mudofaa asosida sodir etiladigan jinoyatlar. Bunday vaziyatlarda gumon qilinuvchi va jabrlanuvchining shaxslari ma'lum bo'ladi, hodisa joyida va u yerda bo'lgan, eshitgan-ko'rgan guvohlardan olinadigan og'zaki tezkor ma'lumotlar yetarli bo'lib, jinoyat hodisasi va uning ayrim holatlari bo'yicha tegishli versiyalar tuziladi.

Bunday hollarda tergovning dastlabki bosqichida hodisa joyini va murda topilgan joyni ko'zdan kechirish va kechiktirib bo'lmaydigan tezkor qidiruv choralarini o'tkazish, gumon qilinuvchini ushlab, sud-tibbiyot ekspertizasini o'tkazish kabi choralar ko'riladi.

2. Qotillik yashirincha (xufyona) sodir etiladi, lekin jabrlanuvchining tanasi berkitilmaydi, niqoblash va qotillikka boshqa jinoyat tusini berilmaydi. Bunday vaziyatlar bosqinchilik, talonchilik, ayol-qizlarning nomusiga zo'rlik ishlatib tajovuz qilish va boshqa moddiy g'arazlik maqsadida sodir etiladigan qotilliklarda mavjud bo'ladi. Shuningdek yuqorida keltirilgan vaziyatlar, ikki jinoiy guruh orasida kelib chiqadigan nizolar va buyurtma (qotilni yollash bilan sodir etiladigan) jinoyatlarda ham mavjud bo'ladi.

Ko'rsatilgan vaziyatlarni bartaraf qilishlik uchun birinchi navbatda hodisa joyi ko'zdan kechiriladi, ko'rgan-eshitgan guvohlardan ma'lumot olish, jinoyatda gumon qilinuvchilarni aniqlash va qo'lga olish choralari ko'riladi.

Jabrlanuvchining murdasi ko'zdan kechirilib, so'ngra tibbiyot

ekspertizasini o'tkazish bilan o'lim sababi, vaqti, jinoyat qurollari va boshqa masalalar hal etiladi.

Tergovning boshlang'ich davrida jinoyatning ayrim holatlari, sub'yektlari, ishlatilgan qurollar va bular haqida to'g'ri versiyalar tuzib tergov ishini rejalashtirish, kechiktirib bo'lmaydigan tezkor-qidiruv choralari amalga oshirish, tergov natijasini muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi.

3. Qotillik yashirincha (xufyona) sodir etiladi, jabrlanuvchining murdasi mavjud, shaxsi ma'lum bo'lib, jinoyat sodir etilish mexanizmi noma'lum bo'ladi. Ko'zga tashlanadigan zo'rlik alomatlari bo'lmaydi, o'lim sababi dastlab aniqlanishicha baxtsiz hodisa, o'z joniga qasd qilish, tasodifiy kasallik natijasida yoki qotillikka boshqa jinoyat tusini berish maqsadida niqoblangan vaziyatlar mavjud bo'ladi. Keltirilgan vaziyatlarning har biri yuzasidan versiyalar tuzishda ularga yetarli alomatlar bo'lishi va ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lmog'i lozim.

4. Qotillik yashirin, guvohlarsiz sodir etilganda, marxumning tanasi, tashqi ko'rinishi bir muncha o'zgaragan (vaqt o'tishi, qurol, o'ta rahmsizlik bilan qilinishi va hokazo) bo'lib, tanib olish ham ancha qiyinchilik tug'diradi. Murda tanasidagi jarohatlarning xususiyatlari qotillik jinoyati sodir bo'lganligidan darak beradi. Mazkur vaziyatni hal etishlikda birinchi navbatda sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis yordamida murdaning yuz tuzilishi, jarohatlarga biroz tibbiy-jarrohlik choralari qo'llanilib, iloji boricha tiriklik holati sun'iy tiklanadi, kiyimlari tartibga keltiriladi, yuzidagi ortiqcha iflosliklar, qon va boshqa moddalardan tozalanib so'ng tanib olishga ko'rsatiladi. Marhumning shaxsi aniqlangach, vyersiya yuritish bilan gumon qilinuvchi iziga ham tushish mumkin bo'ladi. Gumon qilinuvchilar ilgari sudlanganlar, spirtli va narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilar orasidan qidiriladi.

5. Qotillik sodir etilgandan so'ng, ko'p vaqt o'tib, murda chirishi natijasida marhumning faqat suyak qoldiqlari (skeleti) topiladi. Ba'zida marhum kiyimining ayrim bo'laklari saqlanib qoladi, suyak to'qimalarida jinoyat qurolining izlari, kesilish, yanchilish alomatlari saqlanadi.

Tergovning dastlabki bosqichida murdaning shaxsi noma'lum bo'ladi, lekin marhumning suyak qoldiqlari topilgan joy, atrof-muhit, suyak to'qimalaridagi jarohat izlari va boshqa alomatlar qotillik jinoyati sodir bo'lganidan darak beradi. Bunday vaziyatda

murdaning suyak qoldiqlari topilgan joy ko`zdan kechiriladi, atrof-sharoitlari ham tekshiriladi, sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis ishtirokida taxminan jinoyat sodir bo`lgan vaqti, o`lim yuz bergandan bo`yon qancha vaqt o`tganligi, o`limga sabab bo`lgan jarohatlar va qanday qurol bilan yyetkazilganligi aniqlanadi.

IIV axborot markazi bo`limlaridan bedarak yo`qolgan shaxslar haqidagi ma`lumotlarni mazkur shaxsi noma`lum skelet – murdadagi tashqi tuzilish (antropologik) alomatlarini bilan qiyoslash lozim bo`ladi. Dastlabki tergov va tezkor harakatlaridan olingan natijalar asosida jabrlanuvchi, jinoyatda gumon qilinuvchi haqida tegishli versiyalar tuzilib, tergov olib boriladi.

6. Qotillik jinoyati sodir etilganidan so`ng, jabrlanuvchining tanasini yashirish, jinoyat izlarini yo`qotish maqsadida bo`laklanadi va har hil joylarga tashlanadi (byerkitiladi). Murdaning ayrim bo`lagi topilishi natijasida qo`zg`atilgan jinoyat ishi bo`yicha mazkur vaziyatni quyidagicha hal etish tavsiya qilinadi:

- topilgan murda bo`lagi qanday holatda, biror material, qog`oz yoki sellofan paketga solinganmi;

- o`rash (upakovka qilish), ip, kanaf, bint va boshqalar bilan bog`langanlik usullari;

- qotillik va bo`laklash qachon sodir qilingan, jinoyat quroli, bo`laklash usuli;

- tananing boshqa qismlari topilganda ular bir shaxsniki ekanligi va boshqa holatlar ham aniqlanadi.

7. Bedarak yo`qolgan shaxslarning «jinoyat qurboni» degan taxmin asosida jinoyat ishi qo`zg`atiladi. Bedarak yo`qolgan shaxsning murdasi topilmagan bo`lib, u haqiqatda qotillik jinoyati qurbonimi yoki o`z ixtiyori bilan kimlardandir yashirindimi (jinoiy-javobgarlikdan, biror dushmanidan, hayoti xavf ostida bo`lganidan va h.k), boshqa hududlarda yoki kasalxonalarda ismi-sharifini o`zgartirib yashab, davolanib yuribdimi.

Bunday vaziyatni hal etishda yuqorida keltirilgan barcha holatlar yuzasidan versiyalar tuzilib, tekshiriladi. Murda topilmagan hollarda, jinoyat izlari, bedarak yo`qolgan shaxsga tegishli buyumlar topilishi va qotillik haqida yetarli ma`lumotlarning to`planishi “qotillik jinoyati sodir etilgan” degan vyersiyaga asoslanadi. Umuman tergov va tezkor choralari ana shu asosli vyersiyani tekshirishga qaratilishi lozim.

8. Yangi tug`ilgan chaqaloq bolaning murdasi topilishi asosida

imkoniyatlari, qandaydir mahsulotni ishlab chiqarishda texnologik talablar; tergovchining texnik topshiriqlarini bajarish; texnik-kriminalistik vositalarni tayyorlash, hujjatlarni ko`paytirish va hokazo.

2) tezkor ma`lumotlardan foydalanish bo`yicha tergovchi harakatlarini birga rejalashtirish; tezkor ma`lumot yordamida so`roq qilinayotgan shaxsga beriladigan savollarni, jabrlanuvchi ishtirokidagi tezkor guruh taktikasini, tezkor-taktik rejasini muhokama qilish.

Ushbu ma`lumotlar turi va ulardan foydalanish imkoniyatlari quyidagicha:

1. Jinoyatga aloqador shaxslarning harakatlari haqida tergovchini yo`naltiruvchi tezkor ma`lumotlar:

- shubhalanuvchi va ayblanuvchining jinoiy faoliyati haqida ma`lumot;

- jinoyatni yashirgan shaxslarning harakatlari haqida ma`lumot;

- tergovning borishiga qarshilik qiladigan harakatlarni amalga oshirilishi haqida ma`lumot;

- ko`rsatilgan ma`lumotlar va ashyoviy dalillar egalari haqida ma`lumot.

Bu ma`lumotdan bevosita va bilvosita yo`l bilan foydalanish mumkin.

Tezkor ma`lumotdan bevosita foydalanishga quyidagilar kiradi:

- tergov yo`nalishi va jinoyatchining shaxsini aniqlash;

- uning asosida tergov harakatlarining ketma-ketligi va xususiyatlarini belgilash;

- tergov harakatlarini asoslash – jinoyat ustida qo`lga olish, tintuv va boshqalar;

- hozir-javoblik darajasida ustunlikka ega bo`lish; bunday vaziyatda tezkor ma`lumot «teskari aloqa» rolini o`ynab, uchinchi shaxslarga aytganlari bo`yicha tergovchi o`zining harakatlarini «birovning ko`zi» bilan ko`ra oladi;

- tergov vaziyatini baholash va taktik qaror qabul qilishda tezkor ma`lumotlarni hisobga olish.

Tezkor ma`lumotlardan bilvosita foydalanish, uning manbalariga protsessual tus berish, so`ng esa ushbu manbalardan mazkur ma`lumotni qaytadan, lekin endi dalil sifatida olish yo`llarini izlash shaklida namoyon bo`ladi.

joy bir bo'lsa, ko'zdan kechirish, murdadan, ya'ni markazdan boshlanmog'i ma'qul bo'ladi, so'ngra atrof-muhit, jinoyatchining kirish-chiqish yo'llari, izlar, jinoyat quroli va boshqalar ko'zdan kechiriladi.

Qotillik jinoyatlari bo'yicha hodisa joyini ko'zdan kechirishning o'ziga xos vazifalari mavjud. Birinchi navbatda jinoyat sodir bo'lgan va murda topilgan joylar turli bo'lsa qon izlarining xususiyatlari, surkalish, tomchi kabi shakllari murdaning bir joydan ikkinchi joyga olib kelishda hosil bo'ladi, qo'shimcha ravishda yerda sudralish izlari ham mavjud bo'ladi. Qotillik sodir bo'lgan joyda topilgan murda yonida qon izlari sachrash, oqish va ko'p miqdorda ko'lmak shaklda hosil bo'ladi. Bu belgilarning yo'qligi murda boshqa joydan keltirilgan transport vositasida olib kelingan, degan vyersiyaga asos bo'ladi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishda ikki guruh izlarga e'tibor byermoq lozim. Birinchi guruh izlar qotil bilan jabrlanuvchining o'zaro harakati natijasida hosil bo'ladigan izlar, qotilning jarohat yyetkazish uslubi, quroli, jabrlanuvchining qarshilik ko'rsatishi, himoyalanish kabi holatlaridan hosil bo'ladigan alomatlar.

Ikkinchi guruh izlar jinoiy hodisaga aloqasi bo'lmagan shaxslardan qoladigan izlardir. Bu ikki xil izlarni mazkur joyda hozir bo'lganlar, guvohlardan olinadigan og'zaki ma'lumot asosida olish mumkin. Shuningdek, tezkorlik surishtiruv orqali hodisa joyining avvalgi holati va unga qanday o'zgarishlar kiritilganligi ham aniqlab olinadi.

Jabrlanuvchining murdasini ko'zdan kechirishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar quyidagilardir:

- shaxsi, hujjatlari yoki boshqa buyumlari, kiyimlari, tashqi qiyofasi, alohida belgilari;
- qotil bilan, oila a'zolari, qarindoshlari hamkasabalari va boshqa tanishlari bilan aloqasi;
- o'limning yuz bergan vaqti, sababi, yyetkazilgan jarohatlarning qaysi biri o'limga sabab bo'lganligi;
- jinoiy harakatning mexanizmini, jarohatlar qanday qurol bilan yetkazilganligi;
- qotillik jinoyati sodir qilinayotganda kimlar bo'lgani, eshitgani;
- jinoyatning sub'yektiv tomonini, qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir bo'lganligi.

Yuqorida keltirilgan holatlarning ba`zilarini aniqlanishi jinoyatchini qayerdan va kimlar orasidan izlashga imkon beradi.

O`lim vaqti murda alomatlari asosida (sovish, qotish, dog`larning hosil bo`lishi, chirishi va boshqalar aniqlanadi, o`lim sababi jarohatlarning og`ir-yengilligi, oldinma-ketinligi va qanday quroldan yetkazilganligi, jarohatning qaysi-biri o`limga sabab bo`lganligi, murdani ko`zdan kechirishda tibbiyot sohasidagi mutaxassis ishtirokida belgilanadi.

Jinoyatni sodir qilishda ishlatilgan qurol sifati, jarohat yetkazish usuli, o`ta rahmsizlik bilan ko`p jarohat yyetkazish, o`lim yuz bergandan so`ng ham qurolni ishlatish jinoyatchi shaxsidan xabar beradi. O`ldirilganning shaxsi noma`lum bo`lib, tergovning boshlang`ich davrida aniqlanmagan bo`lsa, jinoiy ro`yxat qoidasiga binoan shaxsi noma`lum murda kartasi tuziladi, qo`l va o`n barmoq izlari bo`yicha daktilokarta tayyorlanadi, asosiy va qo`shimcha formula chiqarilib, ro`yxatga olinadi.

Daktilokartada tashqi qiyofa belgilari, ayrim ko`zga tashlanadigan belgilar ko`rsatiladi. Tergovning so`nggi bosqichlarida ana shu kartalar asosida jabrlanuvchining shaxsi tanib olishga ko`rsatilib, aniqlanadi. Informatsiya markazi ma`lumotlari asosida bedarak yo`qolganlarning shaxslari qiyoslanadi.

Murda bo`lagi topilishi asosida qo`zg`atiladigan jinoyat ishlari bo`yicha bo`lak topilgan joyda ko`zdan kechiriladi, uning o`ralgan, o`ralmagan holatiga, jarohatlarning xususiyati, taxminan qanday quroldan yetkazilganligiga e`tibor byeriladi. Bo`lak o`ralgan material sifati (qog`oz, mato, sellofan) guruh mansubligi belgilanadi.

Murda bo`lagi bo`yicha jabrlanuvchining jinsi, yoshi, millat guruhi, iloji boricha individual belgi-alomatlari xatga olinadi.

Jinoyat sodir etilgan va jarohat yetkazilgan vaqt, o`lim sodir bo`lish vaqti va sababi, murdaning qotillikdan so`ng qancha muddat o`tgandan so`ng, qanday qurol va usulda bo`laklanganligi, kasb-hunar xususiyati ham ko`zdan kechirish natijasida belgilanadi. Ko`zdan kechirish o`tkazilib, barcha ma`lumotlar bayonnomada aks ettirilgandan so`ng sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanib, yuqorida keltirilgan versiyalar dastlabki ma`lumotlar o`z tasdig`ini topmog`i lozim bo`ladi.

Hodisa joyini, murdani (bo`lagini) ko`zdan kechirish bilan bir qatorda tezkor-qidiruv harakatlari ham o`tkaziladi. Birinchi navbatda hodisa joyida hozir bo`lgan ko`rgan bilganlardan og`zaki

ma`lumotlar olinadi, qachon, kim tomonidan e`tibor byerilib, jinoyat izlari aniqlanganligi, jinoyatchi haqidagi ma`lumotlar, o`zgarib-bosilib kyetmagan, "issiq" iz-alomatlarni aniqlash yuzasidan maxsus itlar ishga solinadi, ma`lum shaxslar orqasidan kuzatuvlar o`tkaziladi, axborot-ma`lumot markazidan bedarak yo`qolgan shaxslar haqidagi ma`lumotlar, tashqi qiyofa belgilari va shu kabi boshqa ma`lumotlar yig`ilib, ular so`nggi tergov harakatlarini tashkil qilish va o`tkazishga, yangi versiyalarni tuzishga yordam beradi.

Ko`zdan kechirish va tezkor qidiruv choralari yordamida topilgan boshqa murda bo`laklari o`zaro qiyoslanib, bir shaxsning tanasiga tegishli ekanligi aniqlanadi.

Hodisa joyini, murda va uning bo`lagini topilgan joyida ko`zdan kechirilgandan so`ng sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi.

Ekspertiza hal qiladigan masalalar quyidagilardir:

- jabrlanuvchining tanasidagi jarohatlarning tavsifi;
- jarohatlar qanday qurol bilan yetkazilgan;
- jarohatlarning qanday oldinma-ketinlikda yetkazilgani;
- o`lim vaqti va sababi, qaysi jarohat o`limga sabab bo`lgani;
- jarohatlarning soni ko`p bo`lgan taqdirda, qaysilari hayotiy davrida, qaysilari o`lim yuz bergandan so`ng yetkazilganligi;
- jarohatlar jabrlanuvchining o`zi tomonidan yetkazilishi mumkinmi va boshqalar.

Murda bo`lagi va bir necha bo`laklari yuzasidan ekspertiza tekshiruvida hal qilinadigan masalalar:

- murda bo`laklari bir shaxs tanasiga tegishlimi;
- murda bo`lagi (bo`laklari) bo`yicha jabrlanuvchining shaxsiga tegishli ma`lumotlar jinsi, millati, taxminan yoshi, kasb-hunari va boshqalar;
- jarohatlar mavjud bo`lsa, qanday quroldan yetkazilgan, tirik vaqtida yoki o`lim yuz bergandan so`ng yetkazilganmi;
- murdani bo`laklash qanday qurol-asbob va usul bilan sodir etilgan, kasb-hunari va boshqalar;
- qotillik sodir qilingan va murda bo`laklangan vaqti;
- murda bo`lagi tarkibida begona moddalar (zaharlovchi, alkogol, narkotik) qoldiqlari mavjudmi va shu kabi jinoyatga oid bo`lgan boshqa masalalar.

Bedarak yo`qolgan shaxslarni "jinoyat qurboni" degan vyersiya asosida qo`zg`atilgan ishlar yuzasidan tegishli tekshiruvlar, tezkor-

qidiruv choralari o'tkazilib, yo'qolgan shaxs jinoyat, baxtsiz hodisa yoki boshqa biror hodisa qurboni, degan vyersiyani tekshirish lozim bo'ladi, uning murdasi qidiriladi, topilgan hollarda shaxsi aniqlanib, bedarak yo'qolgan bilan qiyoslanadi.

Bunday vaziyatni murda mavjud bo'lgan holatlar kabi dastlabki ko'zdan kechiruv va sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkazilib, tergov davom ettiriladi.

Bedarak yo'qolgan shaxsning murdasi topilmagan hollarda tergovning dastlabki bosqichida quyidagi masalalarni hal etish lozim bo'ladi:

- yo'qolgan shaxsning tashqi qiyofa belgilari, yashash tarzi, qarindoshlari, oila a'zolari bilan muloqoti, kimlar bilan ziddiyatli muomalada bo'lganligi haqidagi va boshqa ma'lumotlarni aniqlash;

- bedarak yo'qolgan shaxsning hayoti davridagi fotosuratini topish va ishga qo'shish;

- qo'l-barmoq izlari alfavit daktilokartasi informatsiya markazida tekshirilishi;

- dastxati, o'z qo'li bilan yozilgan hujjatlarni ishga qo'shilishi;

- bedarak yo'qolganlik haqida ariza bergan shaxsni so'roq qilish bilan u qachon, qayerda oxirgi marta ko'rganligi, suhbat, xabar qanday mavzuda bo'lganligini aniqlash;

- yo'qolgan shaxs qanday kiyimda bo'lgan, ruhiy, emotsional holati, qandayligi, biror qimmat narsa sotib olish yoki sotish haqida gap bo'lganmi kabi ma'lumotlarni to'la va aniq ravshanlantirish.

Bedarak yo'qolgan shaxsning «jinoyat qurboni» degan vyersiyani tekshirish uchun, uning murdasini, jinoyat quroli va izlarini, qon izlarini, ariza bergan shaxsning yashash joyida, yo'qolgan shaxsning oxirgi bo'lgan manzili-joyida va boshqa jinoyatda gumon qilinganlarning turar joylarida izlash lozim. Topilgan izlar, ashyolar bo'yicha tegishli tekshiruvlar o'tkaziladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqni onasi tomonidan o'ldirilishi yoki tashlab ketilishi natijasida o'lim yuz berishi hodisalarini tergov qilishda birinchi navbatda bolaning murdasini topilgan joyida ko'zdan kechiriladi, uning o'ralganligi, materialining o'ziga xos xususiyatlari, yalang'och, yarim yalang'och holati yangi tug'ilganlik belgilari, o'lim yuz bergan vaqtdan topilganga bo'lgan muddat, tanasida qanday jarohatlar mavjud, o'limning sababi, jinoyatning mexanizmi aniqlanadi. Ko'zdan kechirish jarayonida va so'ngra ekspertiza tekshiruvi o'tkazilib, bola tirik tug'ilganmi yoki o'lik

holdami, tirik tug'ilgan bo'lsa, tug'ilgandan so'ng necha vaqt yashagan, tug'ilish sharoiti va joylari (kasalxonada, uyda yoki boshqa joyda) aniqlanadi.

Bolaning onasini topish dastlabki tergov vazifalaridan biri. Aholi gavjum yashaydigan shaHar sharoitlarida bu masalani hal etmoq ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kasalxonalar (tug'ruqxonalar)ga murojaat qilgan onalarning shaxsi aniqlanadi, ularning qanday masala bo'yicha murojaat qilganliklari: tug'ish, ona bo'lish yoki homilani tushirish, tug'ishni oldini olish masalasi bo'yicha tekshirilib, ular ichida qaysilarining homiladan bo'shalishi noma'lum sharoitda yuz berganligi va kasalxonaga murojaat etmaganligi hollari bo'yicha tekshiriladi, o'lgan bolaning onasi shular orasidan qidiriladi.

Shubhalanuvchi ayol birinchi navbatda tibbiyot hujjatlari asosida, so'ngra guvohlantirish va ekspertiza tekshiruvi o'tkazish bilan qachon tuqqan, salomatlik holati, tug'ish jarayoni normal kechganmi, tug'ish oqibatida noxush hollar yuz bergani aniqlanadi. Ko'rsatilgan vaziyatlar hal etilgandan so'ng, muayyan ayoldan gumon qilish uchun yetarli asoslar yaratiladi va uni so'roq qilish ham mumkin bo'ladi. So'roq o'tkazishdan oldin tergovchining qo'lida guvohlantirish, ko'zdan kechirish bayonnomalari, sud-tibbiyot ekspertizasi xulosalarining bo'lishi ular dalil sifatida ishlatilib, yolg'on ko'rsatuv berishining oldini olishga va fosh etishga yordam beradi.

4-§. Tergovning keyingi bosqichida o'tkaziladigan harakatlar

Tergov jarayonining keyingi bosqichi dastlabki tergov va tezkor-qidiruv choralari natijasiga bog'liq. So'roqni jinoyat hodisasini ko'rgan, eshitgan va muhim ma'lumotlarni berishi mumkin bo'lgan guvohlardan boshlash kerak. Tezkor-qidiruv choralari yordamida aniqlangan gumon qilinuvchilar ushlanib, tegishli muddatlarda so'roq qilinishi va ularning ko'rsatuvlari tekshirilishi lozim.

Ko'zdan kechirish natijasida topilgan ashyoviy dalillar, jinoyat qurollari, turli izlar yuzasidan kriminalistik ekspertizaning alohida turlari o'tkaziladi. Jumladan, transport vositasi yordamida sodir qilingan jinoyatlar bo'yicha izlari trasologik, yo'l harakat qoidasini qasddan buzish va yo'lovchini bosib ketish holatlari avto-texnik ekspertiza, ayrim singan va alohida bo'laklar bo'yicha butun bir

predmet – qurolni aniqlashda trasologik, jinoiy hodisasiga tegishli boʻlgan turli hujjat matnlari boʻyicha xatshunoslik tekshiruvlari oʻtkaziladi.

Otish quroli vositasida sodir qilingan qotillik ishlarida qurol va uning harbiy qismlari yuzasidan ballistik identifikatsiyaviy tekshiruv va sovuq qurollarning ballistik ekspertizasi oʻtkaziladi.

Jinoyat sodir boʻlgan joyda, jabrlanuvchining va ishda gumon qilinuvchining tanasi-kiyimida turli modda va mikromateriallar topilishi mumkin, xususan jinoyatchi poyabzalining tagchamida hodisa joyidagi tuproq va turli biologik zarrachalar, jabrlanuvchi kiyimining ustki qismida jinoyatchining egnidan mikrozarachalar oʻtish hollari amaliyotda koʻp uchrab turadi. Bu mikrozarachalarni tekshirish natijasida material, modda va mahsulotlarning qaysi guruhga mansubligi, baʼzida esa aynanligi aniqlanadi

Keltirilgan maʼlumotlar gumon qilinuvchining jinoyat sodir boʻlgan vaqtda «men boshqa joyda edim, umuman hodisa joyida boʻlmaganman» - degan vajining yolgʻonligini fosh etib, aksincha holatni tasdiqlashga imkon beradi.

Tergov jarayonida olingan xabarlar, turli ekspertiza xulosalari, tergov eksperimenti natijalarida yangi holatlar maʼlum boʻlishi mumkin. Bu vaziyatlar va holatlarni hal qilish uchun baʼzida dafn etilgan jabrlanuvchining jasadini koʻmilgan joyidan qayta ochib olish, eksqumatsiya qilish va turli ekspertiza tekshiruvidan qayta oʻtkazish harakatlari ham amalga oshiriladi. Eksqumatsiya oʻtkazish uchun zarurat sud-tibbiyot ekspertizasini qayta-takroriy oʻtkazish va nomaʼlum matnning shaxsini aniqlash uchun ham tugʻiladi. Mazkur tergov harakati maxsus qaror va prokuror ruxsati asosida, dafn etilganing yaqin qarindosh-urugʻlarining rozi-noroziligidan qatʼi nazar, oʻtkaziladi.

Tergovning bu bosqichida ayblanuvchini soʻroq qilish zarur boʻladi. Soʻroq oʻtkazish uchun ish yuzasidan yigʻilgan dalillar, guvohlarning koʻrsatuvlari, ekspertiza xulosalari va boshqa maʼlumotlar yana bir bor tahlil etilib, ular oʻzaro bir-birlari bilan bogʻliqmi, orasida ziddiyat vaziyatlar mavjudligi tekshirilib, ayblanuvchini soʻroq qilish davomida uni yolgʻon koʻrsatuv berishiga qarshi qoʻllanilishi mumkin.

Ayblanuvchini yolgʻon koʻrsatuvini tekshirish va haqiqatni isbotlash uchun uni tanib olishga koʻrsatish, ayrim bergan maʼlumotlari asosida tergov eksperimenti yuzlashtirish oʻtkaziladi.

Shuningdek, ayblanuvchining ko`rsatuvlarini hodisa va jinoyat joyida qayta tekshirish bilan ham to`g`ri-noto`g`ri ekanligini aniqlab olish mumkin bo`ladi.

Qotillik jinoyatini sodir qilishda qo`llanilgan usullar, alohida o`ta rahmsizlik harakatlari, qurol xususiyati, jinoyat qurboni bo`lgan shaxs murdasini bo`laklash holatlari yuzasidan ayblangan shaxsning aqli rasoligini aniqlash uchun albatta sud-psixiatriya tekshiruvidan o`tkazilishi lozim.

Jinoyatda ayblanganning ushlangan joyida, yashash manzilida zarur bo`lganda tintuv o`tkazmoq mumkin. Tintuvning maqsadi jinoyat qurolini, izlarini, o`g`irlangan qimmatbaho buyum, pul mablag`larini topishdan iboratdir.

Tanib olishga ko`rsatish, tergov eksperymenti, yuzlashtirib so`roq qilish harakatlarini kriminalistik taktikaning umumiy qoida tartibiga rioya qilgan holda amalga oshirmoq lozim. Ayrim vaziyatlarni hal etishda ishning o`ziga xoslik tomonlarini nazarda tutgan holda u yoki bu taktik qoidalarni qo`llash lozim.

Tergovning so`nggi bosqichida o`tkaziladigan tergov harakatlarining oldinma-ketinligi, ba`zida takror o`tkazilishi, aniqlanayotgan holatning xususiyatiga bog`liq bo`lib, har xil vaziyatni hal etish tergovchining mutaxassis sifatidagi saviyasiga va ishdagi tajribasi va ijodiy yondoshuviga bog`liq bo`ladi.

1-§. Nomusga tegishning kriminalistik tavsifi

Nomusga tegish jinoyati - shaxsga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatlardan biridir. Kriminalistik tavsif shu bilan belgilanadiki, bunda tergovchi nomusga tegish kim tomonidan sodir etilganligini aniqlash bilan bir qatorda, jabrlanuvchi ushbu jinoyatni sodir etgan deb ko'rsatayotgan shaxsga tuhmat qilmayotganligini aniqlashi lozim bo'ladi. Ushbu jinoyat asosan guvohlarsiz sodir etiladi, shuningdek har bir odamning shaxsiy va jinsiy hissiyotlariga daxldordir. Bu holatlar jabrlanuvchi tomonidan ko'rsatuv byerilganda o'z ifodasini topadi.

Bu kabi jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti jabrlanuvchiga o'tkaziladigan ta'sir kuchliliigidan dalolat beradi. Manfaatdor shaxslar jabrlanuvchini aldab o'ziga og'dirib olishi, uylanishni va da qilishi yoki turli xil tahdidlar, qo'rqitishlarni amalga oshirishi va boshqa yo'llar bilan ruhiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Ko'p hollarda jabrlanuvchi o'z ko'rsatuvlarini o'zgartiradi, ya'ni hodisa sodir bo'lmagan yoki umuman boshqa noma'lum shaxs tomonidan sodir bo'lgan yoxud jinsiy aloqa ixtiyoriy bo'lgan, deb arizalar beradilar.

Bu toifadagi jinoyatlarda jabrlanuvchining ko'rsatuvlari dalillarni baholashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun jabrlanuvchining ko'rsatuvlarini har tomonlama va sinchkovlik bilan xolisona tekshirish lozim. Chunki ayrim holatlarda jabrlanuvchi turli motiv-maqсадlarda ayblanuvchiga tuhmat qilishi ham mumkin.

Nomusga tegish jinoyatlarining sodir etilish usulini ikkiga bo'lish mumkin. Birinchi usulda jabrlanuvchiga to'satdan hujum qilish orqali sodir etiladi, tajovuz ochiq joyda yoki binolarda bo'lishi mumkin. Bu holatda haqorat so'zlar va jismoniy kuch ishlatib yoki biron-bir vosita orqali tahdid qilinishi mumkin. Yordamga chaqirish, qarshilik ko'rsatishni bartaraf qilish maqsadida jabrlanuvchining og'zi yopiladi, qo'llari bog'lanadi, narkoz ham ishlatilishi mumkin. Ko'p hollarda jabrlanuvchining kiyimlari yirtib tashlanadi.

Ikkinchi usulda jinoyatchi jabrlanuvchi bilan tanish bo'lgan yoki birinchi tanishish paytida qo'llaniladi. Bunday holatda ham hujum to'satdan bo'lishi mumkin. Lekin, bundan tashqari boshqa usullar ham qo'llaniladi. Jabrlanuvchi dastlab mast holatga keltiriladi, uning diqqatini turli suhbatlar, turli predmetlar, peyzajlar,

pornografik suratlar tomosha qilish bilan chalg'itadilar. Jabrlanuvchining issiq xonada o'zining ustki kiyimini yechishdan foydalanadilar. Ba`zan jinsiy muloqotga oid gaplar va xatti-harakatlar qo'llaniladi. Bu oxirgi usullar odatda voyaga yetmaganlar va aqli zaiflarga nisbatan qo'llaniladi.

Yuqoridagi usullar shuni ko'rsatadiki, bunday jinoyat ishlarida jabrlanuvchi va ayblanuvchining xulqini dalillar yig'indisi asosida nomusga tajovuz qilinganmi yoki yo'qligini baholash muhim ahamiyatga egadir.

Bunday toifadagi ishlarda izlar va ashyoviy dalillar, jabrlanuvchi, ayblanuvchining tanasidan, kiyimlaridan va hodisa sodir bo'lgan joydan olinadi (tan jarohatlari, biologik izlar, mikrozarachalar, hodisa sodir bo'lgan joyning holatini o'zgarishi).

Nomusga tegish jinoyatidan qolgan ayrim izlar tezda yo'qolish xarakteriga ega (qon, spyerma, jinsiy a'zolaridagi ayrim izlar). Shuning uchun tergovchi bu izlarni tezda topishi va qayd qilishi, ularni sinchiklab tekshirishi lozim. Bu dalillar keyinchalik jabrlanuvchi va ayblanuvchi, guvohlarni ko'rsatuvlarini tekshirish imkoniyatini beradi.

Nomusga tegish jinoyati bo'yicha quyidagi versiyalar yuritiladi.

Ayblov versiyasi: ayblanuvchi, jabrlanuvchining erkiga qarshi uning nomusiga tekkan; ayblanuvchi hodisa joyida bo'lgan degan vyersiya ilgari suriladi.

Himoya versiyasi: ayblanuvchi hodisa sodir bo'lgan joyda bo'lmagan, jinsiy aloqaga kirishmagan yoki arizachining xohishi bilan jinsiy aloqaga kirishgan, jabrlanuvchi aybdor shaxsni ta'riflashda yanglishgan yoki ataylab qasddan ushbu shaxsni ko'rsatmoqda, arizachiga hech kim tajovuz qilmagan degan fikr ilgari suriladi.

Nomusga tegish jinoyatlarini tergov qilishda quyidagi holatlar isbotlanishi lozim:

NOMUSGA TEGISHNI TERGOV QILISH USLUBINING ASOSLARI

ANIQLANISHI KERAK BO'LGAN HOLATLAR

Jinsiy aloqa bo'lganmi, u tabiiy holdami yoki buzuv ko'rinishda sodir etilganmi?

Zo'rlik ishlatilganmi, u qanday yo'sinda bo'lgan: nomusga tegish vaqtida jabrlanuvchining qarshiligi qanday usulda bartaraf etilgan (jismoniy kuch, do'q va po'pisa qo'llanilgan, jabrlanuvchining oqibatlari qanday foydalanilgan)

Nomusga tegish qachon va qayerda sodir etilgan?

Nomusga tegishning oqibatlari qanday?

Kim nomusga tekkan: uning navsifi: nomusga tegish bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilganmi: ulardan har birining ishtiroki qay darajada bo'lgan?

Jabrlanuvchi kim? Uning yoshi, tavsifi

Sodir etilgan nomusga tegishdan yoki unga tayyorgarlikdan kim xabardor edi: kim uni yashirish choralarini ko'rgan?

Nomusga tegish imkonini bergan sabab va sharoitlar

- zo'rlik alomatlarini mavjud yoki mavjud emasligi;
- agar zo'rlik alomati mavjud bo'lsa, qachon, qayerda va qanday holatda sodir etilgan;
- zo'rlik jismonan yoki ruhiy ko'rinishga ega ekanligi;
- jabrlanuvchi og'ir ahvolga tushganmi, u nimada ifodalanadi;
- jabrlanuvchining ahvoli qanday, uning yoshi, sog'lig'i, erkak (jinsiy aloqaga bo'lgan umumiy munosabati qanday);
- jabrlanuvchining tavsifi, yoshi, jabrlanuvchiga bo'lgan munosabati, ruhiy holati, sudlanganligi;
- nomusga tegish guruh tomonidan sodir etilganda, zo'rliklarning har birini roli;

- nomusga tegish qanday oqibatlarini keltirib chiqargan;
- tan jarohatlarining sababi;
- homiladorlik holati;
- tanosil kasalligi bilan zararlanmaganmi;
- moddiy va ma'naviy zarar;
- jinoyatning sababi va sodir etish sharoiti.

2-§. Dastlabki tergov harakatlari

Bunday jinoyat ishlariga ikki holat xosdir: ayblanuvchi, jabrlanuvchi bilan tanish yoki notanish. Bu holatlarni bir-biridan farqi shundaki, ayrim holatlarda notanish kishi jabrlanuvchiga birdan tajovuz qilmaydi, balki tanishish uchun harakat qiladi. Tanish shaxslar kutilmaganda tajovuz qiladilar, jabrlanuvchi bunday holatni kutmaydi, chunki erkak kishini taniydi yoki uni tajovuz paytida ko'rmay qolishi ham mumkin.

Yuqoridagi ikki holatni tekshirishda quyidagi masalalar hal qilinadi; jinsiy aloqada bo'lganlik fakti mavjudmi, jismoniy yoki ruhiy zo'rlik izlari mavjudmi va qanday darajada.

Jinsiy aloqada bo'lganlik izlarini, zo'rlik alomatlarini va jinoyatini aniqlashda jabrlanuvchi so'roq qilinadi, tezkor-qidiruv harakatlari o'tkaziladi, hodisa sodir bo'lgan joy tekshiriladi, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchiga nisbatan sud tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi, tintuv va boshqa tergov harakatlari o'tkaziladi.

Jabrlanuvchini so'roq qilish. Jabrlanuvchini so'roq qilish muhim ahamiyatga ega. Tergovning yo'nalishi uning natijasiga bog'liq. Shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, jabrlanuvchi ruhiy tushkunlik holatida yanglishishi mumkin. Shuning uchun so'roq, qilish reja asosida, natijasi esa har tomonlama tekshirilib ko'rilishi lozim.

So'roqda jinoyat sodir qilingan vaqt, tajovuz joyi, tajovuz to'satdan qilinganmi yoki jabrlanuvchi qanday usulda qarshilik ko'rsatgan, baqirganmi, yordamga chaqirganmi, qanday ovozda, tajovuzchini tishlaganmi yoki tirnaganmi, jinsiy aloqa oxiriga yetkazilganmi, agar oxiriga yetkazilmagan bo'lsa nima sababdan, tajovuz natijasida jabrlanuvchining tanasida qanday jarohatlar mavjud.

Jabrlanuvchi tajovuzga qadar jinsiy aloqada bo'lganmi, bo'lgan bo'lsa qachon (aniq vaqti) homila yoki hayz (oy ko'rish) holati

mavjud yoki mavjud emasligi aniqlanadi. Shuningdek, tajovuz paytida jabrlanuvchining ustida boʻlgan kiyimlari saqlanib qolganmi yoki qolmaganligi haqida batafsil maʼlumot olinadi.

Soʻroq jarayonida ruhiy zoʻrlilik ishlatilganligini aniqlash maqsadida quyidagilar aniqlanadi: tajovuzchi qanday tahdid ishlatgan, qanday zarar yetkazishni koʻzlagan, qanday huquqlar buzilgan, tajovuzchi qachon tahdidni amalga oshirishni koʻzlagan, tahdid qanday koʻrinishga ega boʻlgan (soʻz bilan, harakati orqali, ishora orqali) ayblanuvchida tahdidni amalga oshirish uchun imkoniyatlar mavjudmidi yoki shu usulda taʼsir oʻtkazmoqchi boʻlganmi, jabrlanuvchi tahdidni qanday qabul qilgan holatni real holat yoki oddiy qoʻrqitish sifatida.

Jabrlanuvchi ojizlik ahvolda boʻlganmi yoki yoʻqligini aniqlash uchun undan sodir boʻlgan hodisani fahmlaganmi, qarshilik koʻrsatish imkoniyati boʻlganmi, hodisa sodir boʻlishidan oldin spirtlik ichimlikni isteʼmol qilganmi, agarda isteʼmol qilgan boʻlsa, qancha va qanday ichimlik ekanligi aniqlanadi.

Jinoyatchi nomaʼlum boʻlgan holatda batafsil uning tashqi koʻrinishi belgilari, idrok etish sharoiti aniqlanadi. Jinoyatchini tashqi belgilarini aniqlashda, uning alohida belgilarini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Yurishi, gapirish usuli, tovushi, oʻziga xos harakatlari, kiyimidagi va yuzidagi alohida belgilari aniqlanishi lozim. Bulardan tashqari, jinoyatchi qaysi tomondan kelgani va qaysi tomonga ketgani, ish joyi yoki oʻrtoqlaridan birortasini ismini tilga olgan yoki olmaganligi muhim ahamiyatga ega.

Tergovchi jabrlanuvchining koʻrish, eshitish, idrok etish qobiliyatiga ham eʼtibor berishi lozim. Jabrlanuvchidan jinoyatchini koʻrsa tanib olishi mumkinligi soʻraladi. Jabrlanuvchidan jinoyatchi uni kuzatganmi, qachon va u buni qayerda sezib qolgan, jinoyatchi bilan ruhiy aloqaga kirishganmi, qaysi yoʻl bilan hodisa sodir boʻlgan joyga kelganligi, tajovuzdan keyin jinoyatchi uni kuzatib qoʻyganmi, degan savollar boʻlishi lozim.

Agar jinoyatchi jabrlanuvchi bilan tanish boʻlsa quyidagi holatlar aniqlanishi lozim; sodir etilgan hodisaga qadar u ayblanuvchi bilan qanday munosabatda boʻlganligi, uchrashganmi, qachon, qayerda necha marta; uchrashuv qanday kechgan, ayblanuvchi jabrlanuvchini jinsiy aloqa qilishga ishtiyok uygʻotishga harakat qilganmi, ularni munosabatlarini buzilishiga olib kelgan dalillar mavjud boʻlganmi (xiyonat, haqorat, nikohdan

o`tishni rad qilish), jabrlanuvchi ayblanuvchidan xizmat yuzasidan yoki moddiy jihatdan qaram bo`lganmi, tajovuzdan keyin ayblanuvchi tomonidan jabrlanuvchiga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar byermaslik to`g`risida biror tahdid qilinmaganmi?

Jabrlanuvchini so`roq qilish taktikasiga alohida e`tibor qaratish lozim. Agar nomusga tegish sodir etilgan paytdan boshlab tergov harakatlari olib borilsa, ayolga birinchi navbatda imkoniyat yaratishi, kiyimlarini tartibga solishga vaqt ajratishi lozim. Har qanday holatda ham jabrlanuvchini ahvolini to`g`ri baholay olish kerak. Bunday holat tergovchidan xushmuomalalik, ziyraklik, g`amxo`rlik talab qiladi.

Agar jabrlanuvchi tajovuz to`g`risida gapirishga uyalsa, unga bu haqda hech kim bilmasligini va ayblanuvchini javobgarlikka tortish uchun asos bo`lishini tushuntirish lozim. Jabrlanuvchi o`z ko`rsatuvlarida tibbiy atamalardan qo`llashi va yozma tariqasida taqdim etishi mumkinligini taklif etish kerak. So`roq natijalari ijobiy bo`lishi uchun jabrlanuvchini katta yoshdagi tergovchilar so`roq qilgani maqsadga muvofiqdir. Jabrlanuvchini hodisa haqida so`roq qilishning oxirida jabrlanuvchidan ushbu shaxsni javobgarlikka tortish to`g`risidagi arizani ixtiyoriy ravishda byerayotganligi so`raladi.

Agar jabrlanuvchi hodisa sodir bo`lgandan keyin o`sha zahoti huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar byersa (jinoyatchi noma`lum bo`lsa), tezda uni qidiruv harakatlari tashkil etiladi. Tergovchi qidiruv xodimlarga o`rgatilgan xizmat itlari bilan hodisa joyiga yetib boradilar va gumon qilinuvchi qaysi tomonga ketgan bo`lsa, shu yo`nalish tekshiriladi. Jabrlanuvchi va guvohlar ko`rsatuvlari asosida qidiruv harakatlari tashkil etiladi. Topshiriqda nafaqat gumon qilinuvchining anatomik belgilari, balki funksional belgilari ham bayon etiladi. Ayrim holatlarda jinoyatchi bo`lishi mumkin joylarda qo`riqchi, patrullar tashkil etiladi.

Agar gumon qilinuvchi shaxs to`g`risida biron-bir ma`lumot bo`lsa, tergovchi surishtiruvchiga bu ma`lumotlarni yetkazib gumon qilinuvchining tergovdan yashirinishi mumkinligi va uni oldini olish choralari ko`rish to`g`risida topshiriq berish lozim. Bunday holatlarda gumon qilinuvchini prokuratura yoki ichki ishlar organlariga olib kelish buyuriladi.

Hodisa joyini ko`zdan kechirish. Hodisa joyini ko`zdan

kechirish jabrlanuvchini so`roq qilgandan keyin, iloji bo`lsa, uning hamkorligida amalga oshiriladi. Ko`zdan kechirish natijasida quyidagilar qayd etilishi mumkin: biologik haraktyerdagi izlar (spyerma, qon, so`lak, hid, tyer) olishuvdan qolgan qo`l, barmoq izlari, jabrlanuvchi va jinoyatchini hodisa joyiga qaysi tomondan kelganligi va uning poyabzal izlari, qoldirgan yoki tushib qolgan boshqa predmetlar. Jabrlanuvchining ko`rsatuvlari hodisa joyida ko`zdan kechirish, topilgan izlarni, predmetlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, hodisa joyini ko`rsatish vaqtida jabrlanuvchi so`roq paytida yodidan chiqargan holatlarni qayta eslashi va bu haqda tergovchiga tushuncha berishi mumkin.

Jabrlanuvchining hodisa joyini ko`zdan kechirishda ishtiroki ko`p hollarda aybsiz shaxslarga tuhmat qilmayotganligini aniqlash maqsadida ham tashkil etiladi. Bunday hollarda uni ko`rsatuvlari batafsil tekshiriladi. Aks holda u tajovuz to`g`risida o`ydirma ko`rsatuv berishi ham mumkin.

Har qanday holatda ham jabrlanuvchini hodisa joyini ko`zdan kechirish jarayoniga jalb qilish ijobiy natijalar berishi mumkin. Jabrlanuvchini ishtiroki va har bir bergan ko`rsatuvi bayonnomaga qayd etilib boriladi. Jinoyatchi hodisa joyidan o`zi bilan tuproq, chang va boshqa moddalarni olib ketganligini ko`zdan kechirish chog`ida e`tiborga olish kerak. Shuning uchun bu narsalardan nusxalar olish lozim.

Sud-tibbiyot ekspertizasi. Jabrlanuvchini sud-tibbiyot ekspertizasidan o`tkazish, olingan ko`rsatuvlarini tekshirish va masalani hal qilish uchun juda zarur. Ekspertiza imkon qadar zudlik bilan o`tkazilishi lozim, aks holda tajovuz va jinsiy aloqa izlar yo`qolishi mumkin.

Sud-tibbiyot ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etadi: jabrlanuvchining jinsiy a`zolari va tanasida jarohatlar mavjudmi, uning xarakteri, muddati, paydo bo`lish sababi, darajasi, nima orqali zarar yetkazilganligi, nomusga tegish orqali yetkazilgan bo`lishi mumkinmi, jabrlanuvchi mast yoki potologik holatda bo`lgan yoki bo`lmaganligi aniqlanadi. Bundan tashqari, jabrlanuvchi oldin ham jinsiy aloqada bo`lganmi, tanosil kasalligiga chalinmaganmi, homiladorligi, jinsiy a`zolarida va tanasining boshqa qismlarida spyerma, qon, izlarini mavjudligi, ularning guruhi aniqlanadi.

Ashyoviy dalillar bo`yicha sud-tibbiyot ekspertizasi o`tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya`ni jabrlanuvchining kiyimlari, unda

ko'pgina biologik xarakterdagi izlar qolishi mumkin. Bulardan tashqari, ekspertizaga hodisa joyida topilgan predmetlar ham yuboriladi. Ayrim hollarda jabrlanuvchining kiyimlari ekspertizadan o'tkazishda, uning o'zi ham ishtirok etishi mumkin. Chunki bu tajovuz izlarni tezda topishga yordam beradi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi ashyoviy dalillarni tekshirayotganda quyidagi o'ziga xos savollarga javob beradi: tekshirilayotgan ob'yektda qon, sperma, so'lak, soch qoldiqlari mavjudmi, ular insonga tegishlimi, qon guruhi qanaqa, bu biologik izlar aniq shaxsga xos ekanligi ham aniqlanadi. Bundan tashqari, sud-tibbiyot ekspertizasi dog', qon, soch, izlarni aynan tana qismini qaysi joyidan ajralib chiqqanligini aniqlab byera oladi.

Sochga oid quyidagi holatlar aniqlanadi: uzilganmi, qirqilganmi, agar qirqilgan bo'lsa, qachon, unda ifloslanish, zararlanish yoki aniq predmet izlari mavjudmi.

Gumon qilinuvchini sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish quyidagi holatlarni aniqlashga yordam beradi: jabrlanuvchi jinsiy aloqada bo'lganmi, gumon qilinuvchining tanasida jabrlangan shaxs tomonidan qarshilik ko'rsatish paytida yetkazilgan jarohat mavjud yoki mavjud emaslik. Gumon qilinuvchining kiyimidan topilgan biologik izlar kechiktirilmay olinishi va sud-tibbiyot ekspertizasiga yuborilishi lozim. Bundan tashqari, sud-tibbiyot ekspertiza xodimi tomonidan gumon qilinuvchining tanasida jabrlanuvchi ko'rishi mumkin bo'lgan tatuirovka va o'ziga xos boshqa alohida belgilar qayd etilishi lozim. Ayrim holatlar ekspyert oldiga gumon qilinuvchi tanosil kasalligi bilan kasallanganmi yoki yo'qmi, agar kasallangan bo'lsa uning muddatini aniqlash to'g'risida savollar ham qo'yilishi mumkin.

Jabrlanuvchi va gumon qilinuvchining kiyimlaridan yirtilgan parchalarni, poyabzalda yoki kiyimlarda hodisa joyidan olib ketilgan moddalarni va boshqa izlarni aniqlash maqsadida kriminalistik ekspertizasi tayinlanadi. Bu ekspertiza yordamida jabrlanuvchi va gumon qilinuvchining hodisa joyida bo'lganligini, qoldirilgan mikroizlarni aniqlash mumkin.

Tintuv. Gumon qilinuvchidan narsalarni olish va tekshirish zaruriyati tintuv o'tkazishni taqozo etadi. Tintuvda hodisa joyidan olib ketilgan jabrlanuvchiga yoki yaqin qarindoshlarga tegishli narsalar, shuningdek jabrlanuvchiga tahdid solingan vaqtida gumon qilinuvchining ustida bo'lgan kiyimlar topilishi mumkin.

Topilgan va olingan narsalar o`sha joyda bayonnomada qayd etiladi (qayerdan, qay holatda olinganligi) va daliliy ashyo sifatida maxsus idishlarga solinib muhrlab qo`yiladi.

Noma`lum jinoyatchini topish. Noma`lum jinoyatchini aniqlashda jabrlanuvchining ko`rsatuvlaridan tashqari ishdagi barcha ma`lumotlar va versiyalardan foydalaniladi. Gumon qilinuvchining tashqi ko`rinishi, belgilariga e`tibor byeriladi. Jinoyatchini tashqi ko`rinishi o`ziga xos anatomik va funksional belgilari, alohida belgilari, jinoyat sodir etilish jarayonida shikastlanganligi, kiyimi, papkasi va jinoyatchi foydalangan boshqa narsalar ham aniqlanadi. Yuqorida sanab o`tilgan ma`lumotlarni jabrlanuvchi, shuningdek, hodisa sodir bo`lgan joyni ko`zdan kechirish natijasida hamda tezkor- qidiruv harakatlari orqali olishi mumkin.

Nomusga tegish jinoyati bo`yicha jinoyatchining sub`yektiv xususiyatlari o`ziga xos ahamiyatga egadir. Masalan, jabrlanuvchi bilan dastlabki tanishishdagi odati qanday bo`lganligi, uning mashg`uloti to`g`risidagi ma`lumotlar jinoyatchini aniqlashga yordam beradi. Sub`yektiv xususiyatlar shaxslar bilan munosabatda namoyon bo`ladi. Bularga jabrlanuvchini, unga tajovuz qilish vaqti, joyi va jinoyatni sodir etish usulini tanlashi kiradi. Jabrlanuvchi bilan bo`lgan joyda qolgan izlarni tahlil qilib faqat jinoyatchining bo`yi, vazni emas, balki o`ziga xos harakatlari, odati, individual belgilari ham aniqlanishi mumkin.

Shubhalangan shaxsni nomusga tegish jinoyatini sodir etgandan keyingi xulqi (yaqin kishilariga bu haqda bayon qilishi yoki sukut saqlashi) ham jinoyatchi shaxsi to`g`risida vyersiya yuritishga asos bo`ladi.

Jinoyatchi shaxsi to`g`risida ma`lumot guvohning ko`rsatuvida ham bo`ladi. Shuning uchun tergovni borishini rejalashtirish jarayonida guvohlarni topish masalasiga e`tibor berishi lozim. Bu masalani hal qilish jinoyatchi jinoyat sodir etgunga qadar va undan keyin qayerlarda bo`lganligini aniqlashdan boshlanadi. Qaysi hududdan izlash kerakligi jabrlanuvchining ko`rsatuvlari orqali bilish mumkin.

Tergovchi bunday hududni aniqlab, qaysi guruhdagi shaxs guvoh bo`lishi mumkinligini faraz qiladi. Bu maqsadda tergovchi ichki ishlar xodimlariga hodisa sodir bo`lgan joyda hodisani ko`rgan shaxslarni qidirish vazifasini topshiradi. Undan tashqari, tergov organi ish yuzasidan qidiruv harakatlari bo`yicha radio, televideniye,

gazeta orqali aholiga murojaat qiladi. Guvohdan jinoyatchining anatomik va funksional belgilari, uning va jabrlanuvchini xulqi to`g`risida, jinoyatni tavsiflovchi boshqa holatlar to`g`risida ma`lumot olinadi. Gumon qilinuvchining jinoyat sodir etgan joyda bo`lganligini, jabrlanuvchining qarshiligiga qaramay zo`rluk ishlatib jinsiy aloqa qilganligini aniqlanadi. Gumon qilinuvchini hodisa sodir bo`lgan joyda bo`lganligini guvohning ko`rsatuvlaridan, hodisa sodir bo`lgan joyda qolgan izlar: qo`l, oyoq va poyabzal, tish, qon, spyerma, so`lak, kiyim parchalari kabilarni tekshirib aniqlaydi. Qoldirilgan narsalar aynan gumon qilinayotgan shaxsga tegishli ekanligini u bilan birga ishlovchi xodimlarga, qo`shnilarga ko`rsatib aniqlash mumkin. Bunday predmetlarga kiyim, poyabzal, taqinchoq va boshqalar kiradi. Hodisa joyidan topilgan narsalardan, qolgan izlardan ekspertiza yordamida gumon qilinuvchiga yoki boshqa shaxsga tegishli ekanligi aniqlanadi. Agarda jabrlanuvchi tajovuz qilgan shaxsning tavsifini so`zlab, qanday predmetlardan foydalanganini aniq aytib byersa, tergovchi gumon qilinuvchidan ushbu predmetlarni topishga harakat qilmog`i lozim. Gumon qilinuvchini yonidan yoki uyidan ushbu predmetlar topilmasa, boshqa joylardan, ya`ni gumon qilinuvchining saqlash kamyerasiga qo`yganligi yoki sotib yuborganligini ehtimol. Bundan tashqari, gumon qilinuvchi bu narsalarni o`rtog`idan vaqtinchaga olgan bo`lishi mumkin. Buni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Sinchkovlik va maxsus so`roq qilish bunday holatlarda ijobiy natijalar beradi.

Gumon qilinuvchi o`zini himoya qilish maqsadida har xil versiyalarni keltirishi tabiiy hol, albatta. Ya`ni tanasida topilgan tiralgan joylar boshqa ayol bilan bo`lgan jinsiy aloqa natijasida paydo bo`lgan deb vajlar keltirishi mumkin. Bu vyersiyani aniqlash uchun gumon qilinuvchiga, quyidagi savollar byeriladi: boshqa ayol bilan jinsiy aloqada bo`lganmi, oxirgi paytda kim bilan, qayerda va qachon. Bunday holatlarda sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi.

Jinsiy aloqani ayolning erkiga qarshi amalga oshirilganligini isbotlash maqsadida tergovchi sud-tibbiyot xodimi ishtirokida gumon qilinuvchi badanidagi olishuv izlarini, tiralgan, tishlangan joylarni, kiyimlardagi shikastlangan qismini aniqlaydi. Jinoyatchi men faqat ayolning tabiiy uyalishini yengib harakat qildim, ayol bunga qarshilik ko`rsatmadi va mening tomonimdan tajovuz bo`lgani yo`q, degan vajni bildirishi mumkin. Bu holatni aniqlash

maqsadida gumon qilinuvchiga quyidagi savollar berilishi mumkin: aynan ayol tomonidan jinsiy aloqa qilish xohishi borligini qanday his qildi, tanasidagi tiralgan, tishlangan holatni jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohatlarni qanday izohlaydi. Yuqoridagi holatlarni aniqlashda nafaqat hodisa sodir bo'lgan joydan izlarni analiz qilish orqali, balki qarshilik ko'rsatishning davomiyligi, chaqiriq, yordamga chorlash kabi holatlar ham e'tiborga olinadi. Agar qarshilik shunchaki yoki umuman bo'lmagan bo'lsa, bu gumon qilinuvchining jismoniy ustunligi bilan bog'liq emasmi, hodisa sodir bo'lgan joy sharoiti qarshilik ko'rsatish befoydaligi sababli befoйда emasmi? Bundan tashqari, jabrlanuvchi qo'rqish yoki jismoniy, ruhiy holati, kasalligi tufayli qarshilik ko'rsata olmaganligi ham tekshirilib ko'riladi. Sud psixiologik va sud-psixiatriya ekspertizalari tergovchiga bunday masalani hal qilishda yordam beradi.

Tergovchi tajovuz jarayonida jabrlanuvchi nochor ahvolda bo'lganligini aniqlasa, bu holatga gumon qilinuvchi olib keldimi yoki u bundan faqat foydalangandimi aniqlanadi. Jabrlanuvchi ruhiy kasallikka chalingan yoki ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi boshqa vositalar (spirtli ichimlik, ruhiyatga ta'sir qiluvchi moddalar)dan iste'mol qilgan bo'lsa, tajovuzchining mohiyatini anglay olmagan va qarshilik ko'rsatishga o'zlik qilgan bo'lishi ehtimol. Yuqoridagi holatlar jabrlanuvchidan, gumon qilinuvchi va guvohlardan so'roq orqali aniqlashtiriladi.

Guvohlar so'roq qilinganda jabrlanuvchining holatini ta'riflovchi savollar: yurishi, gapirishi, sababsiz baqirishi, kulishi yoki yig'lashi kabi dalillar aniqlanadi. Tergovni ob'yektiv olib borish maqsadida quyidagi holat aniqlanadi: ayblanuvchining harakatini jabrlanuvchi ig'vo yo'li bilan tajovuz deb ko'rsatmoqchi emasmi, u bilan birga spirtli ichimlik iste'mol qilmaganmi?

Shaxsga tuhmat qilayotgan bo'lishi mumkin, degan vyersiyani alohida tekshirib ko'rish lozim. Bunday vyersiya yuritishga asos qilib arizani kechiktirib byerilishi, bunday qilishga yaqin qarindoshlarining ta'siri bo'lganligi, tajovuz vaqtini va joyini taxminiy tasvirlashi, jabrlanuvchining ko'rsatuvi va ish yuzasidan yig'ilgan ma'lumotlar o'rtasida jiddiy ziddiyatlar mavjudligi, ayrim ko'rsatuvlarning noto'g'ri ekanligi, bo'lib o'tgan voqea to'g'risida erkin, beparvolik bilan so'zlash holatlari olinadi. Bundan tashqari ushbu vyersiyani tekshirib ko'rish uchun quyidagi masalalar: jabrlanuvchining nomusiga tegilganligi uning yaqin qarindoshlarga

qanday ma'lum bo'ldi, arizani o'zining xohishi bilan yoki boshqa shaxslar ta'sirida berganligi, tajovuz izlari mavjudmi, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchilar hodisaga qadar o'zaro munosabati, ular qanday tanishishgan, tuhmat motivi mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlanadi. Bu savollarga javob topish uchun nafaqat gumon qilinuvchi va jabrlanuvchi so'roq qilinadi, balki gumon qilinuvchi va jabrlanuvchini tanuvchi guvohlar, ular ahvolidan xabardor (hodisaga qadar yoki hodisadan so'ng o'z kechirmalari bilan hamsuhbat bo'lgan) shaxslarni topib so'roq qilish lozim.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)larni so'roq qilish taktikasi. Tergovchi gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ni so'roq qilish rejasini tuzganda gumon qilinuvchi o'zini himoya qilish uchun keltirishi mumkin bo'lgan vajlarni e'tiborga olib versiyalar tuzadi. Gumon qilinuvchining alibisini tekshirish uchun nomusga tegish jinoyati sodir etilgan vaqtda qayerda va qanday mashg'ulot bilan shug'ullanganligi to'g'risida gumon qilinuvchining vajini tasdiqlovchi shaxslar so'roq qilinadi.

Gumon qilinuvchi jinsiy aloqani ixtiyoriy bo'lgan deb jabrlanuvchi bilan jinsiy munosabati mavjudligini asos qilib ko'rsatishi mumkin. Bu vyersiyani tekshirish uchun u so'roq qilinganda o'zaro aloqalari qachondan byeri davom etgani, bundan o'zining va jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari xabardormi va bunga ularning munosabati aniqlanishi lozim.

Gumon qilinuvchi jabrlanuvchi bilan uchrashganligini inkor etmasligi mumkin. Lekin ular o'rtasida hech qanday jinsiy aloqa bo'lmaganligi to'g'risida ko'rsatuvi tanasida tajovuzdan qolishi mumkin bo'lgan izlar bor yoki yo'qligi orqali aniqlanadi. Gumon qilinuvchini so'roq qilishda quyidagi savollar byerilishi mumkin: oxirgi paytda kim bilan jinsiy aloqaga kirishgan va qachon, uchrashuv qanday xarakterda bo'lgan, o'sha uchrashuvdan uning tanasida, kiyimida qanday izlar qolganligi to'g'risida so'ralishi mumkin. Gumon qilinuvchi bilan jabrlanuvchining uchrashuvi xarakterini aniqlash maqsadida quyidagi savollar aniqlanadi: qayerda va nima sabab bilan uchrashganlar, ular qancha vaqt birga bo'lishgan, nima qilishgan, nima haqida gaplashishgan, ularni biron kishi ko'rganmi, uchrashuvdan qaytishda kimlarni uchratgan va bu uchrashuv haqida kimlar xabardor ekanligi masalalariga aniqlik kiritiladi.

Ayblanuvchi tergov davomida o'z ko'rsatuvi va jabrlanuvchi

bilan uchrashganlik holatini inkor etishi mumkinligini nazarda tutib, hodisa sodir bo'lgan joyda uning ko'rsatuvi tekshirilishi va bu bayonnomada, fotosuratga, videoyozuv orqali qayd etilishi lozim.

Ayblanuvchining ko'rsatuvlari yolg'on ekanligi fosh qilish maqsadida unga quyidagi dalillarni ko'rsatish lozim: so'roq bayonnomasi, ekspert xulosasi, tintuv va hodisa sodir bo'lgan joydan topilgan ashyoviy dalillar, guvohlarning ko'rsatuvlari.

Ko'p hollarda so'roq qilishdan tashqari, yuzlashtirish tergov harakati ham rejalashtiriladi. Chunki bu tergov harakati jabrlanuvchining ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuzlashtirish zaruriyat tug'ilganda, ya'ni qarama-qarshilikni boshqa tergov harakatlari bilan aniqlash iloji bo'lmaganda hamda bu tergov harakati orqali kutilgan natijaga erishish mumkinligiga yetarli asos bo'lgandagina o'tkaziladi. Jabrlanuvchi so'roqda aybdorning anatomik va funksiyaviy belgilari haqidagi ko'rsatuvini tekshirish gumon qilinuvchini guvohlantirish, sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish orqali aniqlash mumkin.

3-§. Voyaga yyetmaganlar nomusiga tegish jinoyatini tergov qilish

Voyaga yyetmaganlar jabrlanuvchilar sodir bo'lgan hodisa haqida to'la ma'lumot bera olishmaydi. Jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish va ko'rsatuvlarini sinchiklab tekshirish lozim.

Bunday holatda jinoyatchini ko'pincha voyaga yetmagan shaxslar nomusiga tegib sudlanganlar orasidan qidirmoq lozim.

Jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlari tomonidan nomusga tajovuz qilinganlik to'g'risidagi ma'lumotlari har tomonlama tekshirib ko'riladi. Chunki o'zaro janjallashish natijasida qasd olishni maqsad qilib, ig'vo uyushtirish holatlari mavjud bo'lishi mumkin.

Ayrim holatlarda jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari gap-so'zlardan qo'rqib jinoyatni yashiradilar. Buni ham inobatga olish zarur.

Agar tajovuz 16–17 yoshli bo'lgan jismonan yaxshi rivojlangan qizga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, ayblanuvchi uni voyaga yyetmaganligini bilgan yoki bilishi mumkin bo'lganini isbotlash lozim. Voyaga yetmagan shaxslarning ruhiy (psixologiyasi) holatini sinchiklab aniqlash uchun sud psixologik ekspertizasi o'tkazash

maqsadga muvofiq.

Guruh tomonidan sodir etilgan nomusga tegish jinoyatini tergov qilish. Bunday turkumdagi jinoyatlar ko`pincha voyaga yetmagan shaxslar tomonidan guruh bo`lib sodir etiladi.

Tajovuz ham voyaga yetmagan shaxslarga qaratiladi. Ayblanuvchilarning ko`rsatuvlari bir-biriga qarama-qarshi bo`ladi, ya`ni o`z aybini yengillashtirishga harakat qilish, voqea qorong`uda, mast holatda sodir etilganligi tufayli o`zini boshqara olmaganlik vajlari asos qilib ko`rsatilishi mumkin. Bunday holatda tergovchi nafaqat ayblanuvchilar va jabrlanuvchini batafsil so`roq qiladi, balki ayblanuvchilarning har birini jinoyat sodir etishdagi ishtirokini aniqlash maqsadida ko`rsatuvlarni hodisa sodir bo`lgan joyda tekshirish tarzidagi tergov harakatini o`tkazadi. Bundan tashqari, sud-tibbiyot ekspertisasi tayinlanib, ekspyertga aniqlanishi lozim bo`lgan holat yuzasidan savollar va ashyoviy dalillar jo`natiladi.

27-bob. DAVLAT VA JAMOAT MULKINI MANSABDOR SHAXSLAR TOMONIDAN TALON-TAROJ QILISH JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§ Talon-taroj qilish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

Davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatini tahlil qilishda ayblanuvchining xatti-harakatini to'g'ri baholash va bu harakatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash muhim o'rin tutadi. Jinoyatning tarkibini aniqlashda davlat va jamoat mulkini mansabdor shaxslar tomonidan talon-taroj qilinishiga kriminalistik tavsif berish kerak. Talon-taroj qilish jinoyatlarini kriminalistik tavsifiga quyidagi elementlar kiradi:

- 1) jinoiy tajovuz predmeti;
- 2) jinoyatni sodir etish usuli, holati va aniq vaziyati;
- 3) jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari;
- 4) jinoyatning oqibati.

Jinoiy tajovuzning predmetiga ko'ra, talon-tarojni quyidagi ikki guruhga bo'lish mumkin:

- a) pullarni talon-taroj qilish;
- b) moddiy qimmatliklarni talon-taroj qilish.

Bu ma'lum darajada shartli, chunki ko'p hollarda jinoyatchilar moddiy qimmatliklarni pulga aylantirishga harakat qiladilar. Oziq-ovqat, yengil sanoat mahsulatlari, moddiy qimmatliklarni pulga aylantirish talon-taroj qilinganda ko'proq uchraydi. Masalan, go'sht kombinatida go'sht mahsulotlarini talon-taroj maqsadida qalbaki hujjatlar to'ldirilib, ular mol yetkazib beradigan tayyorlov tashkilotlariga yuboriladi. Tayyorlovchilar bu mahsulotlar sotib olinganligi to'g'risida qalbaki kvitansiyalar yozadilar va natijada naqd pul o'zlashtiriladi.

Ba'zi hollarda rahbarning xizmat mavqei moddiy qimmatliklarni va pul vositalarini olishga keng imkoniyat beradi. Bunday shaxslarning talon-taroj qilish usuli boshqalarnikidan farq qiladi. Ombor mudiri va shofyorning sodir qilgan talon-taroj jinoyatlarida garchi jinoyat ob'yekti bitta bo'lsa-da, sodir qilish usuli bir-biridan keskin farq qiladi.

Davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini tergov qilish va ochishda jinoyatni yashirish usullarini aniqlab beradigan turli izlar qoladi. Jinoyatchi oldindan ko'ra bilmagan bu izlar

jinoyatni ochishda muhim rol o'ynaydi. Davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatining kriminalistik tavsifini ko'rsatuvchi izlarning paydo bo'lishida jinoyatni sodir qilish usuli asosiy rol o'ynaydi.

Agar talon-taroj jinoyati mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, uni sodir etish usuli ikki turga bo'linadi:

oddiy talon-taroj, ya'ni hech qanday niqobsiz mulkni qonunsiz egallab olish va niqoblab sodir etilgan jinoyat. Bu turdagi jinoyatlar quyidagi usullar bilan sodir etiladi:

a) hisob-kitob hujjatlarini, hisob-kitob reyestrtdagi kirim-chiqim yozuvlarini qalbakilashtirish;

b) savdo bazalarida va omborlarda hisobga olinmagan ortiqcha mahsulotlarni vujudga keltirish;

v) ishlab chiqarish jarayonida hisobga olinmagan ortiqcha mahsulotlarni vujudga keltirish;

g) g'arazli maqsadlarda pulni boshqa shaxslarga berish;

d) pul vositalarini noqonuniy ravishda, aldov yo'li bilan olish.

Mansabdor shaxslar tomonidan talon-taroj jinoyatlari o'zlashtirish, rastrata, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, soxtakorlik, vakolat doirasidan chetga chiqish orqali ham sodir etiladi.

Davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini o'rganishda jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini ham e'tiborga olish lozim. Agar talon-taroj bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan tashkiliy ravishda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishtirokchilarining har birining roli, tashkilotchilari aniqlanishi lozim. Ko'pincha bunday jinoyatlar firibgarlar, yulg'ichlar tomonidan sodir etiladi, ular moliya-xo'jalik ishlari, ishlab chiqarish jarayonida hisob-kitobni yaxshi biladigan odamlar hisoblanadilar.

Talon-taroj jinoyati ayrim shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, bunday jinoyatchilar tarkibini asosan o'g'rilar, talonchilar, bosqinchilar, oldin sudlangan shaxslar, aksariyat qismini tekinox'r elementlar tashkil etadi.

Talon-taroj jinoyatining kriminalistik tavsifiga yana talon-taroj qilish motivi, ayblanuvchining aybdorlik darajasi, keltirilgan zarar miqdori, jinoyat sodir etilgan vaqt, joy va shart-sharoitlar ham kiradi.

Jinoyat protsessual qonuni va jinoyat protsessi nazariyasi dastlabki tergovni o'tkazish va ishni sudda ko'rishda isbotlash

predmeti haqida umumiy va boshlang'ich holatlarni aniqlab beradi. Isbotlash predmetini belgilayotganda jinoyat tarkibiga hamda ular o'rtasidagi ob'yektiv bog'lanishga ahamiyat berish lozim.

Talon-taroj ishlari bo'yicha muhim holatlarini aniqlash uchun jinoiy guruh faoliyatining hamda bir jinoyatchi faoliyatining boshlanishi va tamom bo'lishi paytini aniq isbotlash juda katta ahamiyatga ega. Talon-taroj qilingan vaqt to'la va batamom aniqlansa, jinoiy guruh ishtirokchilari soniga ham aniqlik kiritish mumkin: eng avvalo, jinoyatni qayerda, ya'ni qaysi tashkilot yoki muassasada sodir bo'lganligini aniqlash lozim.

Juda ko'p hollarda talon-taroj jinoyatlari ko'zga tashlanmasa-da, lekin dastlab qaysi tashkilotda talon-taroj sodir bo'lgan, hodisaning asosiy voqealari qayerda rivojlanganligi ma'lum bo'ladi. Bizga ma'lumki, talon-taroj jinoyatlari turli xil yo'llar bilan amalga oshiriladi va juda ko'p hodisalardan iborat bo'ladi.

Quyida mansabdor shaxslar tomonidan talon-taroj jinoyatlarini ochish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hodisalardan bir nechtasini ko'rib o'tamiz:

1) mulkni talon-taroj qilish fakti;

2) talon-taroj jinoyatchilarining mansablari - bu jinoyat hodisasining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi, shuning uchun ularni aniqlash jinoyatni to'la-to'kis ochishga yordam beradi. Bunda ikki holatni e'tiborga molik:

- soxta hujjatlar bilan talon-taroj qilingan mulk;

-umuman hujjatlar rasmiylashtirilmasdan o'g'irlangan mulk.

Talon-taroj qilingan mulkning miqdori isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarga kiradi, bunda jinoyat hodisasi yetkazilgan zararning miqdori va xarakteri aniqlanadi.

Jinoiy guruh tarkibi va shu guruh ishtirokchilarining tavsifini aniqlashda ayniqsa quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

ayblanuvchining turmush tarzini o'rganishda:

a) daromad manbalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan holatlar;

b) xarajatlar miqdori: bu yerda kunlik xarajatlardan tashqari, hovli joy, avtomashina va boshqa qimmatbaho narsalar sotib olish holatlari.

Talon-taroj qiluvchi mansabdor shaxs tomonidan jinoiy yo'l bilan egallangan mulk, qimmatbaho narsalar faqat ayblanuvchining aybdorlik darajasini ko'rsatib qolmasdan, balki talon-taroj natijasida yetkazilgan zararni qoplashning muhim vositasidir.

Davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarining aniq belgilari quyidagilar bo`lishi mumkin:

- tovar-material qimmatliklarining ortiq yoki oz chiqish fakti;
- hujjatlarni rasmiylashtirmasdan mulkni olib chiqish yoki olib kirish;
- hujjatda ko`rsatilganidan ko`p miqdordagi mulkni sotish;
- moddiy qimmatlikka ega bo`lgan ayrim harakatlarda tovarning belgilanganidan ko`pligi;
- tayyor mahsulotlarni, yarim fabrikatlarni, xomashyoni yashirin realizatsiya qilish fakti;
- tovarlarni savdo korxonalarining yordamchi binolaridan sotib yuborish;
- mulkni sarf qilgandan ko`p deb ko`rsatish;
- ma`lum qimmatga ega bo`lgan materiallarni qiymatini yo`qotgan, deb olib ketish;
- pul vositasini va qimmatbaho materiallarni hisobdan chiqarish to`g`risidagi qalbaki hujjatlarni taqdim etish;
- moddiy qimmatliklar ishonib topshirib qo`yilgan mansabdor shaxsning maoshiga to`g`ri kelmaydigan turmush tarzi;
- moddiy javobgar shaxslar mulkning saqlanishini hisob-kitob va nazorat qiladigan ma`muriyat vakillari va xizmatchilari bilan muntazam ichkilikbozlik qilishi.

Ko`p hollarda talon-taroj haqidagi ma`lumotlar ular sodir etilganligini ko`rsatib turadi. Davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari haqidagi xabarlarni tekshirishda ma`lumot yig`ishning quyidagi usullaridan foydalanish lozim:

- tovarlar va qimmatbaho buyumlarning sonini tekshirish uchun qo`qqisdan inventarizatsiya tashkil etish;
- muassasa, korxon va ularning bo`limlarining moliya xo`jalik faoliyatini reviziya etish;
- tovar va qimmatbaho narsalar yuklanayotgan va tushirilayotgan paytda foydalanilgan qalbaki hujjatlarni talab qilib olish;
- tekshirilayotgan operatsiyaga aloqador mansabdor, moddiy javobgar va ularning ustidan nazorat qiladigan shaxslardan tushuntirish xatlari olish;
- predmetlarni xususiyati, o`zaro bog`liq bo`lgan protsesslar haqida mutaxassislarning fikrini olish:

- tezkor-qidiruv organlariga qidiruv tadbirlari o`tkazish to`g`risida topshiriqlar berish;

- tashkilot, korxonaning moliyaviy xo`jalik faoliyatini tartibga soladigan me`yoriy hujjatlarni o`rganish;

- muassasa, korxonaning davlat va jamoat mulkini saqlash sharoitlari, texnologik protsesslarining xususiyatlarini o`rganish.

2-§ Dastlabki materiallarni tahlil etish, jinoyat ishi qo`zg`atish va dastlabki tergov harakatlari

Jinoyat ishini qo`zg`atish uchun ko`p hollarda quyidagi holatlar asos bo`lib xizmat qilishi mumkin: o`tkazilgan taftish, inventarizatsiya va boshqa tekshiruv materiallari, shuningdek, tezkor-qidiruv yo`li bilan to`plangan materiallar, agar bu materiallarga ko`ra korxonada muassasa va tashkilotlarda tekshiruv natijasida rastrata yoki moddiy qimmatliklar kamomati aniqlangan bo`lsa;

Bulardan tashqari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud bevosita o`zi aniqlagan jinoyat belgilari ham talon-taroj haqida jinoyat ishini qo`zg`atish uchun asos bo`ladi.

Tergovning qanchalik tez va samarali bo`lishligi tergov organlariga talon-taroj jinoyatlarining belgilari mavjudligi to`g`risidagi faktlarni aniqlash taftish materiallarining qanchalik tez va o`z vaqtida byerilishiga bog`liq.

Taftish moliya-xo`jalik organlari tomonidan belgilangan reja asosida yoki to`satdan o`tkaziladi va bu to`g`rida akt tuziladi. Aktda qanday korxonada talon-taroj faktlari topilganligi, kim tomonidan va qayerda aniqlanganligi to`liq ko`rsatilgan bo`lishligi lozim. Akt besh kundan kechiktirilmasdan prokuratura yoki ichki ishlar organlariga byerilishi kerak.

Taftish materiallarini tahlil qila turib tergovchi quyidagi holatlarga e`tibor qaratmog`i lozim:

a) tekshiruv vakolatli shaxslar tomonidan tegishli mutaxassislarni (hisobchi, muhandis va h.k.) jalb etib o`tkazilganligi;

b) tekshirish ushbu xo`jalik tarmog`ida o`rnatilgan tartibda o`tkazilganligi;

v) taftish aktida u yoki bu xatoliklar aniq dalillar asosida ifodalanganligi va ularning har taraflama tekshirilganligi;

g) tekshiruv materiallari tegishli idora rahbarlari tomonidan ko`rib chiqilganligi va ularning bu to`g`ridagi xulosalari;

d) to`plangan materiallarning to`liqliligi;

e) aniqlangan dalillar bo`yicha javobgar bo`lgan shaxslarning qanday tushuntirish berganligi va bu tushuntirish bo`yicha taftishchi qanday xulosa berganligi.

Agar jinoyat ishi taftish materiallari asosida qo`zg`atilgan bo`lsa, quyidagi dastlabki tergov harakatlari amalga oshiriladi:

a) taftish asosida aniqlangan va shubhali hisoblangan hujjatlarni ko`zdan kechirish va olib qo`yish;

b) taftish tomonidan aniqlangan qalbakilashtirilgan hujjatlarni tayyorlagan shaxslarni so`roq qilish;

v) daliliy ashyo bo`ladigan hujjat va predmetlarni qidirib topish maqsadida ayblanuvchilarning turar joylarida, ish joyida tintuv o`tkazish, moddiy zararni qoplashni ta`minlash uchun mulklarni aniqlash va ro`yxatga olish;

g) taftish materiallarida ko`rsatilgan shaxslarni so`roq qilish.

Tezkor-qidiruv organlari tomonidan to`plangan ma`lumotlar asosida qo`zg`atilgan jinoyat ishlari bo`yicha quyidagi dastlabki tergov va tashkiliy tadbirlar o`tkazilishi mumkin:

a) jinoyat ustida ushlash;

b) ushlangan shaxsning uyida va ish joyida tintuv o`tkazish, ayblanuvchining mulkiga band solish;

v) hujjatlarni ko`zdan kechirish, zarur hollarda olib qo`yish;

g) daliliy ashyo bo`ladigan predmetlarni ko`zdan kechirish va olib qo`yish;

d) ishlab chiqarish binolari va omborxonalarni ko`zdan kechirish;

e) gumon qilinuvchilarni so`roq qilish;

j) inventarizatsiya va taftish o`tkazishni tashkil etish.

Agar jinoyat ishi fuqarolarning, mansabdor shaxslarning bergan shikoyat va arizalarini tekshirilishi asosida qo`zg`atilgan bo`lsa, dastlabki tergov harakatlari va tashkiliy tadbirlar ushbu materiallarda mavjud bo`lgan ma`lumotlar asosida aniqlanadi. Ko`p hollarda bunday vaqtlarda tergov ishini boshlashdan oldin inventarizatsiya va taftish o`tkazish tashkil etiladi.

Tergovchi jinoyat ishi bo`yicha zarur barcha hujjatlar bilan ta`minlangan bo`lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday hujjatlar tergovchiga dastlabki materiallar va taftish materiallari bilan kelib

tushishi mumkin. Bunday materiallarni tegishli tashkilotlardan, shikoyatchilardan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilardan, guvohlardan talab qilib olish ham mumkin.

JPKning 161-moddasiga muvofiq tergovchi zarur bo'lgan hujjatlarni olib qo'yish huquqiga ega. Tergovchi jinoyat ishini terlashda qanday hujjat zarurligini va olib qo'yilishi lozim bo'lganlarini belgilab qo'yishi zarur. Bunday vaqtlarda tergovchiga mutaxassis - hisobchi, iqtisodchi, kriminalistlar katta yordam ko'rsatishlari mumkin. Hisobchi yoki iqtisodchilar tergovchiga hujjatlarni tahlil qilishning qanday usullaridan foydalanishi, tergovchini qiziqtirayotgan operatsiya qanday hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi to'g'risida, kriminalist esa ko'zdan kechirilayotgan hujjatda qanday o'zgartirishlar, qalbakiliklar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar berishlari lozim.

Hujjatlarni ko'proq yig'ish uchun o'tkazilayotgan dastlabki tergov harakatlari tezkorlik bilan o'tkazilishi lozim. Tez ko'zdan kechirishga ulgurilmasa hujjatlar saqlanayotgan joy muhrlab qo'yiladi. Keyinchalik bu hujjatlar to'liq o'rganilib, keraklilari jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi, qolganlari esa qaytarib byeriladi.

Inventarizatsiya tergovchining talabiga muvofiq maxsus tayinlangan komissiya tomonidan korxonalarda, tashkilotlarda ma'lum vaqt oralig'ida tovarlar, pul mablag'lari mavjudligini tekshirib ko'rish uchun o'tkaziladi. Tergovchi inventarizatsiya komissiya tarkibiga kirmasa-da, bu tadbir o'tkazilayotgan vaqtda ishtirok etishi mumkin.

Inventarizatsiya tovar va moddiy qimmatliklarning haqiqiy holatini, mavjudligini ko'rsatish uchun quyidagi shartlarni bajarishi kerak:

a) inventarizatsiyani o'tkazishdan oldin: yordamchi xonalar, binolar, yerto'la va boshqa kirish, chiqish, moddiy qimmatliklar saqlanayotgan joylar plombalanishi yoki muhrlanishi lozim; kassadagi kundalik pul mablag'larini hisoblab chiqish, barcha tarozi va boshqa o'lchagich asboblarning to'g'ri ishlashini tekshirib ko'rish, moddiy javobgar shaxsdan barcha kirim va chiqim hujjatlari hisobotga kiritilganligi to'g'risida tilxat olinishi lozim;

b) barcha tovar va moddiy qimmatliklar qaytadan sanab chiqilishi, o'lchanishi, tortib ko'rilishi lozim;

v) inventarizatsiyani o'tkazishda moddiy javobgar shaxs ishtirok etishi shart. Agar moddiy javobgar shaxs qamoqda bo'lsa,

olib kelish ta'minlanishi lozim, u og'ir kasal yoki ataylab kelmasagina, inventarizatsiya uning ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin;

g) inventarizatsiya jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lgan barcha ob'yektlarda bir vaqtning o'zida o'tkazilishi shart;

d) inventarizatsiya moddiy javobgar shaxsga avvaldan bildirilmay, to'satdan o'tkazilishi lozim;

e) inventarizatsiya natijalari inventarizatsiya ro'yxatlarida qayd etilib, inventarizatsiya komissiya a'zolari va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanishi kerak;

j) inventarizatsiya mumkin qadar qisqa vaqt ichida o'tkazilishi lozim. Agar inventarizatsiyani o'tkazishga ko'proq vaqt talab etilsa, unda ish kuni tamom bo'lgandan keyin inventarizatsiya komissiya a'zolari militsiya xodimlari bilan birgalikda ombor va moddiy qimmatliklar saqlanayotgan bino eshiklarini muhrlab ketishi lozim;

z) inventarizatsiya ro'yxatiga kiritilgan qoldiq mahsulotlar, moddiy qimmatliklar hisobga olinib, ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rib, alohida tuzilgan hujjatda qayd etiladi.

Taftish o'tkazadigan mutaxassis, taftishchi tomonidan korxonalar, tashkilot, muassasalarning moliya-xo'jalik faoliyatini buxgalyeriya ma'lumotlari asosida tekshirib ko'rish uchun o'tkaziladi. Taftish asosan jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkaziladi. Mabodo, u jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin o'tkazilmagan bo'lsa, tergovchi ish qo'zg'atilgandanoq darhol o'tkazish chorasini ko'rish lozim. Bu to'g'rida u qaror chiqarib, unda qisman yoki to'liq taftish o'tkazish zarurligi yoki zarur emasligi, aniq ob'yekt yoki mansabdor shaxsning qaysi davr ichidagi faoliyati taftish qilinishi lozimligi va taftish dalolatnomasini qachon taqdim etish zarurligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Taftish tayinlash to'g'risida chiqarilgan qaror nazorat-taftish organlariga yuboriladi. Taftish oldiga qo'yiladigan vazifalar aniq bo'lishi lozim. Qoidaga binoan muassasa va tashkilotlarning katta davr ichidagi faoliyatini taftish qilish tavsiya etilmaydi, chunki u ko'p vaqtni talab etib, taftish ishlarini chuqur va to'liq amalga oshirilishiga xalaqit beradi. Agar taftish korxonalar va tashkilotlarning katta davr ichidagi faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lsa, unda tergovchi taftishni bir guruh taftishchilar tomonidan o'tkazish masalasini hal etishi lozim.

Taftish to'satdan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bir vaqtning o'zida taftish qilinadigan ob'yektdan tashqari u bilan o'zaro aloqada bo'lgan boshqa ob'yektlarda ham taftish o'tkazilishi shart. Taftishni tayinlash bilan birga tergovchi taftishchilarga oldindan talon-taroj qilish, jinoyatni yashirish usullarini, hatto taxmin etilayotgan jinoyatchilarning familiyalarini ham aytish mumkin.

Tergovchi taftishchi bilan doimiy aloqada bo'lishi lozim. Taftishchi tergovchiga suiiste'mol qilinish faktlari to'g'risida axborotlar byerib tursa, tergovchi esa taftishchiga jinoyat ishi bo'yicha to'plangan yangi materiallar to'g'risida ma'lumot byerib turadi. Taftishchi suiiste'mol qilinish faktlarini aniqlagandan keyin bu to'g'rida xususiy dalolatnoma tuzadi va uni darhol tergovchiga taqdim etadi. Bu dalolatnomaning mazmuni bilan manfaatdor shaxslarni tanishtirish shart emas, chunki ular keyinchalik tuzilgan umumiy dalolatnoma mazmuni bilan tanishtiriladi.

Taftish o'tkazishdan maqsad faqat kamchiliklar va ortiqcha mahsulotlarni aniqlash emas, shu bilan birga o'tkazilgan u yoki bu operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish, jurnallarda qayd etilgan hujjat va yozuvlarning sifatli va haqiqiy ekanligini baholash, natijalar matematik jihatdan to'g'riligini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, taftishlar hujjatlarda qayd etilgan operatsiyalar haqiqatan ham amalga oshirilganligini va ularning qonuniy xarakterda ekanligini ham tekshirishlari zarur.

Mansabni suiiste'mol qilish orqali davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyati o'zining murakkabligi va ko'p hodisalardan iborat bo'lganligi uchun tergovchidan katta tashkiliy chora tadbirlar o'tkazishni talab etadi. Tergovchi taftish va inventarizatsiya materiallari asosida va tezkor-qidiruv organlari, fuqaro va mansabdor shaxslardan tushgan shikoyatlar bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha ba'zi predmet va ashyoviy dalillarni qidirib topishi muhim ahamiyatga ega.

Tergovchi tergovning boshlang'ich bosqichida quyidagilarni qidirib topishi juda zarur deb hisoblanadi:

- 1) talon-taroj qilingan mulk;
- 2) jinoiy yo'l bilan topilgan pullar; qimmatliklar, omonat kassa daftarchasi, jinoiy yo'l bilan topilgan mulklar;
- 3) talon-taroj qilish uchun tayyorlangan, hisobda bo'lmagan xomashyo, yarimfabrikatlar va tayyor mahsulotlar;
- 4) jinoiy bitim bilan aloqador bo'lgan turli yozuvlar;

5) tergov uchun kerakli bo'lgan talon-taroj jinoyati ishtirokchilarining uy manzillari, telefon raqamlari va boshqa ma'lumotlar;

6) turli hujjatlar va yorliqlarning toza blankalari;

7) tergovchini qiziqtirayotgan tashkilot va korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini ifoda etadigan buxgalyeriya hujjatlari va boshqalar.

Qayd etilgan holatlarni aniqlash va dalillar to'plash uchun tergovchi quyidagi dastlabki tergov harakatlarini va tashkiliy tadbirlarni ko'rishi zarur:

1) jinoyat ustida ushlab (xomashyoni hech qanday hujjatsiz sotish, qabul qilish);

2) ushlanganlarni shaxsiy tintuv qilish;

3) xizmat xonalarida tintuv o'tkazish va ularni ko'zdan kechirish;

4) tintuv o'tkazish va ko'zdan kechirishda tayyorlanayotgan hujjatlar, predmetlar, tayyor mahsulotlarni muhrlash zarurati bo'lsa, ayrimlarini olib qo'yish;

5) pul va mulkni band qilish, ularni olib qo'yish va qo'riqlashga topshirish;

6) talon-taroj qilishda gumon qilingan shaxsni so'roq qilish;

7) talon-taroj faktlarini ko'rgan guvohlarni so'roq qilish;

8) omborlarda, savdo-muassasalarida va tashkilotlarda, kassadagi pul mablag'larini inventarizatsiya qilish yoki moddiy qimmatliklarning qoldiqlarini hisobga olish;

9) xaridorlarni aldash holatlarini aniqlash maqsadida nazorat tarzda xarid qilish yoki qishloq xo'jalik mahsulotlarini nazorat uchun topshirishni o'tkazish.

Qayd etilgan dastlabki tergov harakatlari va tashkiliy tadbirlarni bajarishda topilgan ob'yektlarning holati, qo'riqlanishi, hujjatlarning saqlanishi aniq va batafsil qayd etilishi juda muhim hisoblanadi.

Taftish va inventarizatsiya materiallari asosida qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha quyidagi dastlabki tergov harakatlari o'tkaziladi:

1) taftishchi va inventarizatsiya o'tkazgan shaxsni so'roq qilish;

2) dalolatnomada ko'rsatilgan shaxslarni so'roq qilish;

3) kamchilik borligini tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganish, taftish dalolatnomasi bilan birga, byerilgan hujjatlarni olib qo'yish yoki ularning yo'qolmaslik chorasini ko'rish;

4) kamchilik uchun javobgar shaxsni so`roq qilish; ularni tintuv qilish;

5) ularning pul va mulkiga hibis solish.

Jinoyat ustida ushlab. Tergovchi ichki ishlar organi xodimlari bilan birgalikda jinoyatchini jinoyat ustida ushlab, undan tegishli hujjat va predmetlarni oladi, ushlagan joyi va vaqtini belgilab qo`yadi. Talon-tarojchi ko`p hollarda talon-taroj qilingan tovar mahsulotlarini sotishda, ularni olib ketishda, ortiqcha xomashyodan mahsulot tayyorlashda, xomashyoni yashirincha olib ketishda ushlanadi. Jinoyatchini jinoyat ustida ushlashga puxta tayyorgarlik ko`rilmog`i lozim: ushlab bo`yicha tuziladigan tezkor guruh tarkibini aniqlash, vazifalarini belgilab olish, ushlab vaqti va joyini aniqlash, to`satdan ushlabni ta`minlash, jinoiy guruhning barcha ishtirokchilarini bir vaqtda ushlab masalasini hal etish imkoniyati boricha ushlab tezkor guruhni zaruriy transport vositasi bilan ta`minlash lozim. Ushlab vaqtida talon-taroj qilingan shaxsdan barcha o`g`irlangan mulklar, xomashyo, yarimfabrikatlar, tayyor mahsulotlar, pullar, hujjatlar olib qo`yilishi zarur.

Talon-tarojchini jinoyat ustida ushlab faktining o`zi unga ma`lum darajada psixologik ta`sir ko`rsatishi mumkin, shuning natijasida u o`zi sodir etgan jinoyat va uning ishtirokchilari to`g`risida noiloj to`g`ri ko`rsatuv berishi mumkin.

Ushlanganlarni shaxsiy tintuv qilish, ularning turar joyi va ish joylarida tintuv o`tkazish. Shaxsiy tintuv talon-tarojchi ushlangandan keyin darhol o`tkaziladi. Shaxsiy tintuvni o`tkazishdan maqsad ushlangandan ish bo`yicha dalil bo`la oladigan predmetlar va hujjatlarni olish hisoblanadi. Ba`zi vaqtlarda ushlangan shaxs o`zini fosh qiladigan predmetlar yoki hujjatlarni tishlab yuborishi yoki yo`q qilishga harakat qilishi mumkin. Shuning uchun, ushlangan shaxsni diqqat bilan kuzatish lozim bo`ladi, bunday harakatlar qilish sezilsa, darhol uning oldini olish chorasini ko`rish zarur.

Talon-tarojchi shaxs ushlangandan keyin uning uyida va ish joyida tintuv o`tkazilishi zarur. Tintuv vaqtida topilgan va olingan mulklar hamda jinoiy yo`l bilan yig`ilgan mulk va qimmatliklar ish bo`yicha muhim dalil bo`lib hisoblanishi va keltirilgan moddiy zararni ta`minlash uchun zarur ham bo`lishi mumkin.

Xizmat binolarida, xonalarda tintuv o`tkazishda talon-tarojchining puli, qimmatli buyumlari, xizmat bilan bog`liq bo`lgan

turli hujjatlarni, ularning jinoiy operatsiyalari to'g'risidagi yozuvlarini qidirib topishga harakat qilish kerak. Bunday vaqtlarda xufiya joylarni qidirib topishga ham harakat qilish lozim.

Tintuv o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda umumiy masalalardan tashqari mutaxassis sifatida tovarshunoslarni, hisobchilarni, kriminalistni jalb etish masalasini ham hal etish zarur bo'ladi.

3-§. Davlat mulkini talon-taroj qilish jinoiyatlarini terqashni rejalashtirish

Davlat mulkini talon-taroj qilish jinoiyatlari bo'yicha tushgan materiallarni tergovchi o'z yurituviga qabul qilgan ekan, bevosita shu ishda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanib tergov harakatlarining boshlang'ich tayyorlash hamda tashkiliy choralarini o'tkazish rejasini tuzadi.

Tayyorlov bosqichi rejasini tergovchi tomonidan ishni ko'rgunga qadar tuziladi va quyidagilarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi.

a) talon-taroj sodir bo'lgan joyni, ya'ni muassasa, tashkilot yoki korxonaning ishlash sharoiti bilan tanishadi, shu bilan birgalikda, o'sha muassasa, tashkilot, korxonaga mahsulot bilan ta'minlab turadigan yoki shu korxonalarni tayyor mahsulotlari qaysi tashkilot orqali realizatsiya qilinganligi hisobga olinib, bu korxonalarining ishlash sharoiti bilan ham tanishadi;

b) o'sha tashkilot yoki korxonaning hisob-kitob hamda hujjat oboroti tizimini o'rganadi, shu bilan birgalikda ba'zi bir zveno, sex o'rtasidagi birgalashib qilinadigan harakatni aniqlaydi;

v) gumon qilinayotgan mansabdor shaxslar to'g'risida ma'lumotlar to'playdi, bu ma'lumotlar o'z ichiga gumon qilinayotgan shaxslarning yaqin aloqalari, tanish-bilishlari, yashash joylari, mulkiy ahvoli (avtomashinasi, qimmatbaho buyumlari, dachasi bor yoki yo'qligi) kabi faktorlarni o'z ichiga oladi;

g) jinoiy yo'l bilan talon-taroj qilingan mulk yashirinishi mumkin bo'lgan joy aniqlanadi.

Tashkiliy choralarini ko'rish bosqichi tergov harakatlarini boshlang'ich davrini to'g'ri tashkil qilishni ta'minlaydi, bu davr esa o'z mobaynida ish uchun zarur bo'lgan dalillarni to'plashda va ulardan unumli foydalanishda xizmat qiladi.

Tergovning boshlang'ich bosqichida bir qator tashkiliy chora-tadbirlar o'tkazish zarurati tug'iladi, bular inventarizatsiya, taftish va shunga o'xshash tekshirishlar hisoblanadi.

Inventarizatsiya va taftish materiallariga ko'ra dastlabki tergov harakatini boshlang'ich bosqichini o'tkazish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tekshirish davomida kamomad yoki ortiqcha mahsulot chiqqanligi sabablari haqida mansabdor shaxs so'roq qilinadi;

- inventarizatsiyada ishtirok etgan taftishchilar va hisob-kitob ishlari bilan shug'ullanadigan shaxslar so'roq qilinadi;

- jinoyat ishi uchun kerakli hujjatlar olinadi va ko'rib chiqiladi.

Shuning uchun ham davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyati yuzasidan muvaffaqiyatli tergov olib borishning shartlaridan biri tergovni rejalashtirish bo'lib hisoblanadi. Tergovni rejalashtirish tergov jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishga katta yordam beradi, voqea holatini ob'yektiv, tez, to'la va har tomonlama o'rnatish, shuningdek jinoyatchini qidirish va uni fosh qilishda katta ahamiyatga egadir.

Bu ma'lumotlar protsessual hamda tezkor-qidiruv yo'li bilan to'plangan bo'lishi mumkin. Tezkor-qidiruv yo'li bilan to'plangan materiallar, ish bo'yicha dalil kuchiga ega emas. Lekin ulardan tergovchi rejalashtirish va taktik masalalarni hal qilishda foydalanishi mumkin.

Faktik ma'lumotlar majmuasining to'laligi va mazmuniga qarab, tergovchi tergov vazifalarini aniqlaydi, versiyalar tuzadi, ularning tekshirish yo'llari va usullarini belgilaydi.

Tergovning dastlabki vaqtida jinoyat izini o'zida saqlagan ma'lumotlar soni kam bo'ladi. Bu esa ishni rejalashtirishni qiyinlashtiradi, chunki tergovchi har bir yangi ochilgan holatdan keyin rejani ko'rib chiqishi va uni to'ldirib turishi lozim. Shuning uchun ham rejalashtirish uzluksiz davom etadigan jarayondir, u faqat tergov tugashi bilan tugaydi. Rejalashtirishda ikki asosiy qismni ajratish mumkin:

- a) har bir bosqich uchun tergovchining maqsad va vazifalarini aniqlash;

- b) bu vazifalarni hal qilishning ko'proq samarali usullarini va tergov olib borishning to'g'ri yo'nalishini tanlash.

Tergov yo'nalishini aniqlashda quyidagi asosiy holatlar hisobga olinishi kerak:

1. Avvalo dastlabki tergov harakatlari rejalashtiriladi, bu harakatlarning bajarilishi jinoyat izlari va boshqa dalillarni tez topish, jinoyatchini aniqlash va o`zlashtirilgan mulk yashirilgan joyni aniqlashga yordam beradi. Bunday tergov harakatlariga asosan hodisa joyini, hujjatlarni ko`zdan kechirish, guvohlarni so`roq qilish, tintuv, jinoyatchini qidirish kabi harakatlar kiradi. Tergovning keyingi bosqichida o`tkaziladigan harakatlarga - tanib olish uchun ko`rsatish - tergov eksperymenti, yuzlashtirish, so`roq qilish, ekspertiza tayinlash kabi harakatlar kiradi.

2. Rejalashtirish tergov harakatlarining sodir qilingan jinoyat xarakteri, gumon qilinuvchining shaxsi, uning ko`rsatuvlari, dalillarining mazmuni, ilmiy-texnik va boshqa vositalarni qo`llashda mutaxassislarni ishga jalb qilish kabilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

3. Tergov olib borishning usul va yo`nalishini belgilashda, surishtiruv organlari xodimlariga qanday topshiriqlar berish kerakligini ilgari ko`zda tutmoq zarur. Bundan asosiy maqsad, dalillar manbaini topish, tezkor-qidiruv tadbir-choralarini muvofiqlashtirish ko`zda tutiladi.

Tergovni rejalashtirishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- a) individuallik;
- b) harakatchanlik (dinamiklik);
- v) alohidalik.

Individualligi shundaki, rejaning bir tipligi, ya`ni bir nechta xuddi shunday jinoyatlar bo`yicha ham rejalarning bir xil bo`lmasligidir.

Harakatchanligi shundaki, rejalashtirish tergov olib borish protsessining hamma bosqichi davomida birday olib boriladi. Shuningdek, harakatchanligi deganda rejaning o`zgaruvchanligi tushuniladi.

Yig`ilgan dalillarga ko`ra, reja o`zgarishi, unga qo`shimchalar kiritilishi, ba`zi vaqtlarda esa umuman qayta tuzilishi mumkin. Dastlabki tergov harakatlarini olib borish bosqichida juda keng va turli-tuman harakatlar olib boriladiki, ular o`z navbatida bir-biri bilan bog`liq, muvofiqlashgan va qisqa muddat ichida ijro etilishi kerak bo`lgan harakatlardir. Bu harakatlarni yaxshi ishlab chiqib, reja asosida amalga oshirish kerak.

Rejada ishlab chiqilgan versiyalar ko'rsatilmasligi ham mumkin, chunki bu dastlabki tergov harakatlari bosqichining asosiy vazifasi bo'lib, iloji boricha ko'proq dalil to'plash, ularni keyinchalik aniqlash, ya'ni ularni tasdiqlash choralari ta'min etish, hujjatlarni qalbakilashtirish, daliliy ashyolarni yo'qotish, o'zlashtirilgan mulk hamda pul-sarmoyalarini yashirish faktlarining oldini olish, mansabdor shaxslarning til biriktirishi, guvohlarni yolg'on ko'rsatuv berishga ko'ndirishning oldini olish choralari ko'rish zarur.

Rejada barcha taxminlar, har bir taxminni tekshirish uchun belgilangan barcha tergov harakatlari va boshqa choralar ko'rsatiladi. Davlat va jamoat mulklarini mansabdor shaxslar tomonidan talon-taroj qilish jinoyatlarini tergov qilishda brigada metodi qo'llaniladi.

Brigada tergovchilarining ish rejasi har xil tuzilishi mumkin.

1. Umumiy reja brigada rahbari tomonidan ishlab chiqiladi va brigada a'zolari o'rtasida muhokama qilinadi.

2. Individual reja har bir tergovchiga topshirilgan vazifa yuzasidan tuziladi.

3. Har bir hodisaga oid reja. Jinoyat ishidagi alohida hodisalar yuzasidan bajariladigan ishlar yuzasidan tuziladi.

Rejalashtirilgan tergov olib borish natijasida taxmin ko'rinishdagi gipoteza muhim ahamiyatga ega. Taxmin bu tergovchi qo'l ostida bo'lgan materiallardan kelib chiquvchi hamda yetarli darajada asoslantirilgan, jinoiy voqea yoki uni sodir qilgan shaxslar to'g'risidagi ehtimollardir. Sodir qilingan jinoyat bo'yicha, tergovning dastlabki davrida, tergovchiga ma'lum bo'lgan dalillar yetarli darajada bo'lmaganligi uchun ham bir qancha taxminlar orqali ularni aniqlashga kirishadi. Taxminlar to'la va aniq bo'lmagan ma'lumot beradi. Lekin bu ma'lumot albatta tekshirilishi kerak. Natijada ilgari surilgan taxmin to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon bo'ladi.

Tergov jarayonida aniq ma'lumotlarni tahlil qilish bilan asoslantirilgan taxmin yuritish momenti paydo bo'lganga qadar tergovni rejalashtirishda taxmin asosiy rol o'ynaydi.

Rejalashtirishda tergov taxminlarining roli, tergovning yo'nalishini aniqlash bilan chegaralanib qolinmaydi. Taxminlar alohida tergov harakatlarining mazmuni va taktikasini aniqlanishi bilan o'zgartilishi kerak. Lekin kamomadni aniqlashning o'zi

moddiy javobgar shaxslarning davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatida aybdor deb topish uchun hamma vaqt asos bo`la olmaydi, chunki bu kamomad boshqa sabab natijasida bo`lishi ham mumkin.

Mulkda kamomadning aniqlanishi munosabati bilan quyidagicha taxmin yuritish mumkin:

a) davlat va jamoat mulki moddiy javobgar mansabdor shaxs tomonidan uyushtirilgan yoki rastarata qilingan;

b) mulk boshqa shaxslar tomonidan talon-taroj qilingan;

v) kamomad moddiy javobgar shaxsning o`z xizmat vazifasiga sovuqqonlik bilan qarashi natijasida vujudga kelgan.

Moddiy javobgar shaxsning tushuntirishlaridan kelib chiqadigan barcha taxminlar albatta ilgari surilishi va tekshirilishi zarur. Ko`p hollarda talon-taroj jinoyati u yoki bu usullar bilan yashirilgan bo`ladi, bu esa jinoyatning o`z vaqtida ochilishga ma`lum darajada xalaqit beradi. Hujjatlarni soxtalashtirish - jinoyatni yashirishda ko`p qo`llaniladi. Soxtalashtirilgan hujjatning topilishi, davlat yoki jamoat mulkining talon-taroj qilinganlik faktini isbotlashdan ozod qilmayli, chunki hujjatni soxtalashtirish turli sabablar bilan ham tushuntirilishi mumkin. Masalan, mulkni qabul qilib olishda qo`yilgan xato oqibatida kelib chiqqan kamomadni qoplash maqsadida hujjat soxtalashtirilgan.

hujjatlarni soxtalashtirish natijasida mulkning ma`lum qismi asl yoki pul formasida hisobga olinmay qoladi va hisobga olinmagan mulk talon-taroj qilinadi.

Soxtalashtirilgan hujjatlarga nisbatan quyidagicha taxmin yuritish mumkin:

a) qo`l ostidagi hisobga olinmagan mulk bo`lgan moddiy javobgar shaxs, shu mulkni o`zlashtirish maqsadida hujjatni soxtalashtirgan;

b) yuqoridagi ishtiroksiz soxta hujjatlardan foydalanish mumkin yoki ularning ishtiroki bunday hujjatlardan foydalanishni yengillashtiruvchi boshqa shaxslar tomonidan hujjatlar soxtalashtirilgan;

v) hujjat boshqa kamchiliklarni yopish maqsadida qalbakilashtirilgan.

Ortiqcha mulk turli sabablar bilan paydo bo`lishi mumkin. Keyinchalik o`zlashtirish uchun ortiqcha mulkni qasddan hosil qilinganlik to`g`risida, bu mulklarning uzoq vaqt hisobga

olinmaganligi, ortiqcha mulkning muntazam ravishda paydo bo`lib turishi kabi faktlar guvohlik berishi mumkin.

4-§. Hujjatlarni ko`zdan kechirish

Hujjatlar talon-taroj jinoyatlarini tergashda muhim dalillardan biri hisoblanadi. Talon-taroj jinoyatlarini tergashda tergovchi hujjatlarni to`plash, ko`zdan kechirish va tekshirish ishlarini amalga oshiradi. Tergovchi mutaxassis-buxgaltyer yordamida muhrlangan hujjatlarni to`playdi, zarur hollarda me`yoriy hujjatlarni tegishli korxonalaridan talab qilib oladi. Tergovchi to`plagan barcha hujjatlarni diqqat bilan tahlil qiladi, ularni tekshirib chiqadi. Hujjatlarni tekshirish usullari uch turga bo`linadi:

1) Ayrim xisob-kitob hujjatlarini tekshirish usuli;

2) Bir-biri bilan o`zaro bog`liq operatsiyalarni ifoda etuvchi bir necha hujjatlarni tekshirish usuli;

3) Bir turdagi xodimlarning harakatini ifoda etuvchi hujjatlarni tekshirish usuli.

Ayrim hisob-kitob buxgaltyeriya hujjatlari o`rnatilgan tartib bo`yicha tekshiriladi, ya`ni hujjatlarda barcha zaruriy rekvizitlarning borligi va ularda shubhali rekvizitlarning bor yoki yo`qligi aniqlanadi.

Hujjatlar forma bo`yicha tekshirib ko`rilgandan keyin arifmetik va normativ tekshiruvdan o`tkaziladi. Arifmetik tekshiruvda hujjatlardagi gorizantal va vyertikal grafalarda chizilgan yozuvlar (raqamlar) solishtirib tekshiriladi. Normativ tekshiruvda esa hujjat mazmunining harakatdagi normativ aktlarga - instruksiyalar, nizomlar, qoidalar, xarajat, chiqim normalariga mos kelishi tekshiriladi.

Bir-biri bilan bog`liq o`zaro operatsiyalarni ifoda etuvchi bir necha hujjatlarni tekshirishda muqobil tekshiruv va o`zaro nazorat usullardan foydalaniladi.

Muqobil tekshiruv usulida bir turdagi hujjatlarning turli nusxalarini bir-biri bilan o`zaro solishtirib tekshirishdir. Bu nusxalar bir tashkilotning turli bo`limlaridan yoki bir necha tashkilotlardan olinishi mumkin.

O`zaro nazorat usulida bir turdagi operatsiyaning turli hujjatlarda ifoda etilishi solishtirib tekshiriladi. O`zaro nazorat usuli har bir xo`jalik operatsiyasining turli buxgaltyeriya hujjatlarida ifoda

etilishiga asoslangan. Buxgaltyeriya hujjatlari boshqa turli-tuman boshqa hujjatlar bilan solishtirib ko`rilishi mumkin. Masalan, kortateka va omborlardagi jurnal yozuvlari bilan transport hujjatlari, mehnat daftarchalari, moddiy javobgar shaxsning yozuvlari va boshqalar.

Buxgaltyeriya hujjatlarini tekshirishning xususiy usullari ham mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

1) Tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag`lari harakatini bevosita ifoda etuvchi kirim-chiqim hujjatlaridagi ma`lumotlarni ushbu operatsiyani boshqa tarzda ifoda etuvchi hujjatlar-ma`lumotlar bilan solishtirib ko`rish;

2) Moddiy-tovar boyliklarni olish va berish operatsiyasini ifoda etuvchi hujjatlardagi ma`lumotlarni birinchi operatsiya bilan o`zaro bog`liq bo`lgan boshqa operatsiyalarni ifoda etuvchi hujjat ma`lumotlari bilan solishtirib ko`rish;

3) Moddiy-tovar boyliklarning bir joydan boshqa joyga ko`chirilganligi to`g`risidagi ma`lumotlarni ular tashib o`tkazilgan taralar to`g`risidagi ma`lumotlar bilan solishtirib ko`rish;

4) Buxgaltyeriya hisoboti to`g`risidagi ma`lumotlarini tezkor uchyot ma`lumotlari bilan solishtirib ko`rish;

5) Nazorat kassa tasmaqidagi ma`lumotlarni kassa cheklar ma`lumotlari bilan solishtirib ko`rish;

6) Pul mablag`lari va moddiy tovar boyliklarni berish to`g`risidagi pul vositalari va moddiy tovar boyliklarni yozish va berish uchun asos bo`lgan hujjatlardagi ma`lumotlar bilan solishtirib ko`rish.

Bir turdagi qiymatlarning harakatini ifoda etuvchi hujjatlarni tekshirish usuli moddiy qiymatlar harakatining odatdagi tartibdan noto`g`ri chetga chiqib ketganligini aniqlash maqsadida qo`llaniladi. Bu usul yordamida hujjatlardagi dastlabki yozuvlar tiklanib, talon-taroj jinoyati sodir etilganlik fakti aniqlanadi. Ushbu usul quyidagi holatlarni aniqlashda qo`llaniladi:

1) Buxgaltyeriya hisobi o`z holiga tashlab qo`yilgan, chalkashtirilgan bo`lsa;

2) Buxgaltyeriya hisobi reyestrlari tasodifan yoki qasddan yo`q qilingan bo`lsa;

3) Dastlabki hujjatlar to`liq xajmda mavjud bo`lsa-da, tahliliy hisobdagi ishlarni qisqartirishni taqozo etmagan bo`lsa;

4) Tahliliy hisob yetarli darajada detallashtirilmagan bo`lsa,

mavjud suiiste mollikni aniqlash uchun tahliliy hisob o`rniga miqdoriga oid va sortli hisobni tiklash zarur bo`lsa.

Hisob-kitob tiklangandan keyin moddiy qiymatlarning odatdagi aylanishdan chetga chiqib ketganligi aniqlanadi. Hisob yozuvlarini tiklash yoppasiga, tanlab o`tkaziladigan, to`liq va natura turlarga bo`linadi. Yoppasiga tiklashda ma`lum bir davr oralig`i ichida bajarilgan ma`lum moddiy qiymatlarning barcha nomlari bo`yicha tiklanadi. Tanlab o`tkaziladigan tiklashda esa ayrim hisob yozuvlari yoki ayrim qiymatlarning nomlari tiklanadi.

Hisob yozuvlarini to`liq va noto`liq hisobga olishning xususiy usullari to`g`risida yuqorida bayon etildi. hisob yozuvlarini noto`la ravishda tiklash ham mavjud bo`lib, unga qoldiqlarni kontrol` solishtirib ko`rish kiradi.

Qoldiqlarni nazorat tarzida solishtirib tekshirish usulining mohiyati shundan iboratki, bu usul orqali tekshirilayotgan ma`lum davr, vaqt oralig`ida inventarizatsiyaviy vedomostga bir xil turdagi tovarlardan qolgan qoldiqlar bilan tovarlarning harakatdagi bo`lgan miqdori tekshirilib ko`riladi.

5-§. Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarni so`roq qilish

So`roqqa tayyorgarlik ko`rish. Dastlabki tergovdagi so`roqqa muvofiq ravishda, kriminalistika taktikasi tavsiya etgan usullar asosida talon-taroj jinoyati bo`yicha so`roq qilishga puxta tayyorgarlik ko`rish lozim.

Talan-taroj jinoyatlari bo`yicha so`roq qilish quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- jinoyat sodir bo`lgan tashkilot yoki korxonalarining asosiy xususiyatlarini o`rganish;
- so`roq qilinayotganning shaxsini aniqlash;
- so`roqni rejalashtirish;
- so`roqqa chaqirishni tashkil etish;
- so`roq davomida foydalanishi lozim bo`lgan dalillarni tayyorlash.

So`roqqa tayyorlash jarayonida tergovni rejalashtirish lozim. Oldindan o`ylab tuzilgan reja asosida so`roqni olib borish uni to`g`ri tashkil etishga va tergovchi tomonidan boshqa holatlarni aniqlashga

imkon beradi. Tergovni olib borish jarayonida tegishli ravishda guvohlarni guruhlarga ajratib olish zarur;

1. Talon-taroj jinoyati sodir bo'lgan tashkilot rahbarlari, buxgalyerlari ham davlat mulki o'zlashtirilganiga ma'lum darajada aybdordirlar, ba'zan esa mansabdor shaxs bilan aloqador bo'lib chiqishi ham mumkin.

Shuning uchun ham tergovchi bunday guvohlarni so'roq qilishda nihoyatda ehtiyot bo'lishi kerak, chunki ular tergovni chalkashtirishi yoki yo'nalishni boshqa tarafga o'zgartirib yuborishlari mumkin.

2. Talon-taroj qilingan mulk bilan bevosita aloqador bo'lgan ishchilar. Bu ombor xodimlari, mulkni yuklash-tushirishda ishtirok etgan hamda ortiqcha mulk hosil qilinishini bilgan ishchilar bo'lishi mumkin. Bunday guvohlarning ko'rsatuvlari o'zlashtirish faktlarini, o'zlashtirilgan mulkning miqdori, jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir qilingan bo'lsa, ishtirokchilarning kimligini, ishtirokchilardan har birining jinoyatdagi rolini aniqlashga ma'lum darajada yordam beradi. Bunday guvohlarni so'roq qilish ko'pincha ijobiy natija beradi.

3. Talon-taroj qilingan mulkni tashishda yordam bergan shaxslar. Bular avtomashina shofyorlari, yukni olib borishda ishtirok etgan shaxslar, ya'ni ishchilar bo'lishi mumkin. Ko'pincha ma'lum joyga yuk olib borgan, lekin marshrut yo'l varaqasida aks ettirilmagan bo'lsa shofyorlar guvoh tariqasida qatnashadilar.

4. Yuqori turuvchi tashkilot xodimlari, taftishchi va nazoratchilar.

Guvohlarni ko'rsatuv berish mazmuniga qarab yana uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhdagi guvohlar o'z xizmat mansabidan foydalanib talon-taroj ishlari yuzasidan bo'lgan faktlarni bo'rttirib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bular korxonalar, muassasalarning buxgalyerlari, taftishchilari va rahbarlari bo'lishi mumkin. Ularni so'roq qilishda ko'rsatuvlarini aniqlashtirib, hujjatlarga asoslangan holda isbotlashlari va atroflicha tushuntirib berishlari talab qilinadi.

Ikkinchi guruh guvohlar aniqlangan kamomad, ortiqcha mahsulotlarni yashirib qolishga urinadilar. Shuning uchun ham ularning ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, hodisani to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Uchunchi guruh guvohlarga jinoyatni fosh etish zarur faktlar

ma'lum bo'lsa ham bu haqida hech narsa bilmasliklarini pesh qiladilar. Aslida ular talon-taroj qilgan shaxslar bilan aloqada bo'ladilar. Bular shofyorlar, yuk tashuvchilar, qorovullar, oddiy sotuvchilar va boshqalardan iborat muhim guvohlar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan shaxslarni so'roq qilishda quyidagi holatlarni aniqlash kerak:

a) guvohning ayblanuvchiga nisbatan bo'lgan munosabati;

b) guvohda o'z ko'rsatuvini tasdiqlaydigan hujjatlar va yozuvlarni bor yoki yo'qligini aniqlash;

v) so'roq mobaynida boshqa shaxslardan olingan ko'rsatuvlarni to'g'riligini aniqlash;

g) talon-taroj qilish bilan bog'liq boshqa faktlarni unga qanchalik ma'lumligi yoki ma'lum emasligini so'rab bilish.

Guvohni so'roq qilishda faqat uning shaxsini o'rganib qolmay, balki shu bilan birgalikda uning to'g'ri ko'rsatuv berishiga xalaqit beradigan holatlarni aniqlash tergovchining o'ziga xos san'ati hisoblanadi, chunki davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatida mansabdor shaxslar odatda guvohlarni yo'q qilishga, aldashga, sotib olishga harakat qiladi.

Ayblanuvchi va gumon qilingandan to'la va haqiqiy ko'rsatuv olish uchun tergovchi so'roq qilish jarayonida bir qancha taktik usullarni qo'llashi kerak bo'ladi. Gumon ostidagi shaxs tergovchi qo'lida o'zini ayblash uchun material to'la emasligini yaxshi tushunadi, aks holda unga ayb e'lon qilingan bo'lar edi.

Shuning uchun ham sodir bo'lgan jinoyatda o'z aybi borligini inkor etishga harakat qiladi. Talon-taroj jinoyatida gumon ostidagi shaxs kamomad kelib chiqishiga o'zining bevosita aloqasi yo'qligini, ko'pincha ular hujjatlaridagi xatolik yoki ob'yektiv omillar asosida kelib chiqqanligini asos qilib ko'rsatadilar. Talon-taroj jinoyatlarini tergovchi bo'yicha gumon ostidagilarni so'roq qilishda quyidagi holatlarga e'tibor berish katta ahamiyatga ega:

a) gumon ostidagi shaxsni so'roq qilishda uning asosiy vazifasi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun to'la va haqqoniy ko'rsatuv berishi;

b) uning o'z aybiga iqror bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmasa-da, bu boshqa dalillar kabi muhimligi;

v) o'z aybini bo'yniga olish aybdor ekanligini isbotlash uchun etarli emas, chunki uning aybdorligi boshqa dalillar bilan ham tasdiqlanishi zarurligi;

g) shaxsning aybiga iqror bo`lishi bilan chegaralanib bo`lmaydi, boshqa jinoyat ishtirokchilarini ham «hissasi»ni aniqlash lozimligi.

Ishtirokchilarni aniqlash o`zlashtirilgan davlat yoki jamoat mulkining miqdorini aniqlash imkonini beradi.

Agar ish bo`yicha bir necha gumon ostidagi shaxslarni so`roq qilishga to`g`ri kelsa, tergovchi avvalo so`roqni kimdan boshlash masalasini to`g`ri hal qilish, ish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

So`roqni avvalo jinoyatning ikkinchi darajali ishtirokchilaridan boshlash zarur, bunday ishtirokchilar ko`pincha jinoyatga tasodifan qo`shilib qolgan shaxslar bo`ladi va ob`ektiv ko`rsatuv berishga harakat qiladilar.

6-§. Talon-taroj jinoyatini tergash bo`yicha ekspertizalar tayinlash

Davlat va jamoat mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini tergashda turli-tuman masalalarni u yoki bu turdagi ekspertizalarni tayinlash orqali hal qilinadi. Quyida talon-taroj jinoyatlarini tergashda tayinlanadigan ayrim turdagi ekspertizalar ustida to`xtalib o`tamiz:

1. Buxgalyeriya ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish maqsadida tayinlanadi:

a) moddiy tovar qimmatliklar, pul mablag`larining kam yoki ortiqcha chiqish hajmini tekshirish va aniqlash;

b) xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni sarflashning asosli ekanligini tekshirish;

v) moliya intizomining buzilganlik holatlarini aniqlash;

g) mazkur ob`yektda hisob-kitobning to`g`ri olib borilganligini tekshirish;

d) talon-taroj jinoyatining sodir etilishiga sabab bo`lgan sharoitlarni aniqlash.

Ekspertizani tayinlashdan oldin tergovchi ekspyert buxgalyer bilan maslahatlashib ekspertiza predmeti va vazifalari, tekshirish uchun olinadigan hujjatlarning soni va turlarini, ekspyert tomonidan hal etiladigan savollarning mazmunini aniqlaydi.

2. Kriminalistika ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etish maqsadida tayinlanadi:

a) dastxatni bajargan shaxsni identifikatsiya qilish;

b) bir necha hujjatlarni bajargan, tayyorlagan shaxslarni aniqlash;

v) hujjatlar matnidagi o'zgargan xat va raqamlarni va ularning bajarish usullarini aniqlash;

g) hujjatlardagi dastlabki yozuv mazmunini aniqlash;

d) yozuv mashinkalarini identifikatsiya qilish;

e) muhr va shtamlarni identifikatsiya qilish va h.k.

Talon-taroj jinoyatlarini terqashda ko'pincha dastxat va tekstlarni ekspertiza qilish, hujjatlarni kriminalistik asosda tekshirish uchun trasologik ekspertizalari tayinlanadi.

3. Texnologik ekspertiza quyidagi masalalarni hal etish maqsadida tayinlanadi:

a) texnologik rejimdan chetga chiqish hollarini, ularning nimalarda ifoda etganligini, ishlab chiqilgan mahsulot sifatiga qanday ta'sir qilganligini ayniqlash uchun;

b) har bir ishlab chiqarilgan mahsulot uchun qancha xomashyo yarimfabrikatlar sarf etilganligini aniqlash;

v) tayyor mahsulotlarning davlat standarti shartlariga mos kelishi;

g) ma'lum materiallar yoki mahsulotlarni tayyorlashda yoki ishlab chiqarishda sarf etilgan xomashyo texnik shartlar (talab)larga mos kelishi va h.k.

Ekspertiza o'tkazish uchun yetarli materiallarni o'z vaqtida yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Tergovchi talon-taroj sodir etilgan davr ichida tayyorlangan barcha mahsulotlarni topishga harakat qilishi lozim.

4. Tovarshunoslik ekspertizasi asosan sanoat va savdo sohasida sodir etilgan jinoiy ishlarni terqashda tayinlanadi. Ekspertizaning ob'yekti bo'lib, tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Tovarshunoslik ekspertizasi orqali tayyor mahsulotlarning sifati to'g'risidagi tayyor mahsulotlarning texnik shartlar va davlat standarti talablariga mos kelishi, nomi, sorti va bahosining to'g'riligi kabi masalalar hal etiladi.

5. Qurilishi texnika ekspertizasi asosan qurilish ishlarini olib borish jarayonida sodir etilgan talon-taroj jinoyatlarini terqashda tayinlanadi va qurilish ob'yektining smeta bahosi, qurilish ishlari materiallar narxi smetaga muvofiq aniqlanganligi qurilish bahosi qancha summaga oshirib ko'rsatilganligi kabi masalalar hal etiladi.

Bulardan tashqari yana ximiya, agrotexnik, vetyerinariya va zootexnika ekspertizalari ham tayinlanishi mumkin. Bu turdagi

ekspertizalar davlat va jamoa xo'jaliklarida, tayyorlov tashkilotlarida sodir etilgan talon-taroj jinoyatlarini terqashda tayinlanadi.

7-§. Talon-taroj jinoyatlarining oldini olish tadbirlari

Talon-taroj jinoyatlarining oldini olish bo'yicha olib boriladigan choralarga quyidagilar kiradi:

1) talon-taroj jinoyatlarining sodir etilishiga sabab bo'lgan holatlar va shart-sharoitlarni aniqlash;

2) ularning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish.

Talon-taroj jinoyatlarining sodir etilishiga olib kelgan holatlar va shart-sharoitlar 2 guruhga bo'linadi: jinoyatning sodir etilishidagi vaziyat bilan bog'liq bo'lgan holatlar; jinoyatchining shaxsi bilan bog'liq bo'lgan holatlar;

Jinoyatning sodir etilishidagi vaziyat bilan bog'liq bo'lgan holatlarga quyidagilar kiradi:

- mansabdor shaxslar tomonidagi davlat va jamoat mulkining qo'riqlanishiga xo'jasizlarcha va sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lish; - moddiy qiymatlar va pul vositalarini hisobga olish qoidalarining buzilishi;

- nazorat qoidalarining buzilishi;

- qabul qilingan va byerilayotgan mulklarning son va sifati bo'yicha qayd etish qoidalarining buzilishi;

- yuklarni transportda tashish qoidalarining buzilishi;

- moddiy qiymatlar, mulkning yetarli darajada qo'riqlanmaganligi;

- kadrlarni tanlash prinsiplarining buzilganligi;

- mulkning harakatda bo'lishini ifoda etuvchi hujjatlarni tuzish qoidalarining buzilishi.

Bu ko'rsatilgan holatlar umumiy guruhlar kategoriyasiga kiradi. Har bir holatda ular detallashtirilishi va aniqliklar kiritilishi mumkin.

Talon-taroj jinoyatlarini sodir bo'lishiga olib keladigan holatlar sodir etish usullari bilan bog'liq bo'ladi. Jinoyatchilar jinoyat sodir etish usulini tanlashda korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kirim-chiqim hujjatlarini rasmiylashtirishda hisob-kitobning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, ichki tartib qoidalarining bajarilishi ustidan olib boriladigan nazoratning bo'shligi, o'lchov asboblarining nosozligi, taftish va inventarizatsiya tekshirishlarining yuzaki o'tkazilishi va kadrlar tanlashda yo'l qo'yiladigan

kamchiliklarni o`rganib, ulardan o`zlarining jinoyiy harakatlarini amalga oshirishda foydalaniladi.

Talon-taroj jinoyatlarining sodir etilishga olib kelgan, yordam bergan holatlarni aniqlash va uning oldini olish tadbir choralari jinoyiy ishni qo`zg`atishdan boshlab, dastlabki tergovni tugatishgacha bo`lgan davr ichida tergovchi ichki ishlar organi xodimlari va jamoatchilik vakillarining yordami asosida ushbu jinoyatlarning oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqadi va ular bergan ma`lumotlar asosida tayyorlanayotgan keyingi jinoyatlarni bartaraf etish choralari ko`radi.

Talon-taroj jinoyatlarining oldini olishdagi tergovchining profilaktik yo`nalishdagi faoliyatiga quyidagilar kiradi: taqdimnoma kiritish, korxonalar, muassasa va tashkilotlar jamoalarining yig`ilishlarida ma`ruza qilish, umumiy axborot vositalari, radio, televideniye orqali chiqishlar qilish va h.k.

Tergovchining talon-taroj jinoyatining oldini olishdagi asosiy ish formasi jinoyat sodir etilgan korxonalar va tashkilotlarga taqdimnoma kiritish hisoblanadi. Taqdimnomada jinoyatni tergov jarayonida ushbu korxonada talon-taroj sodir bo`lish sabablari, uni sodir etishda yaratilgan sharoitlar va kimning aybi bilan sodir etilganligi ko`rsatiladi. Shuningdek, taqdimnomada talon-taroj jinoyatining oldini olish yo`llari va vositalari ham ko`rsatiladi. Taqdimnomaning samaradorligi ko`rsatilgan talablar rioya qilinganligiga, adresatning to`g`ri tanlanganligiga va uning bajarilishi ustidan tegishli nazorat qilinishiga bog`liq.

28-bob. O'G'IRLIK, TALONCHILIK VA BOSQINCHILIK JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. O'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

Davlat, jamoat va shaxslarning mulkini o'g'irlash eng ko'p tarqalgan jinoyatlardan hisoblanib, mazkur turlarning bevosita ob'yektlari davlat, jamoat yoki fuqarolarning shaxsiy mulklaridir.

O'g'irlik - davlat, jamoat va shaxsiy mulklarning yashirin ravishda o'zlashtirishdan iborat.

Talonchilik jinoyati deganda jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik ishlatib yoki ishlatmasdan mulkni ochiqchasiga talash tushuniladi. Bu harakat o'zgarlar mulkini ochiqdan ochiq zo'rlik ishlatib qo'rqitish yo'li sodir qilinadi.

Bosqinchilik jinoyati deyilganda esa, jabrlanuvchining shaxsiy mulkini uning sog'lig'i yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish yo'li bilan qo'rqitib egallash tushuniladi.

Mazkur jinoyatlarni sodir etishdan oldin unga puxta tayyorgarlik ko'riladi. Jinoyatchilar oldindan jinoyat sodir etiladigan joyni (ombor, do'kon, xonadon) yoki hujum uyushtirilishi lozim bo'lgan shaxsni (inkassator, g'aznachi, sotuvchi, qorovul) belgilab olishadi, zarur bo'lganda oldindan qurollarni tayyorlashadi, transport vositalarini hozirlab qo'yadilar, bajariladigan vazifalarni o'zaro taqsimlab olishadi.

O'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari aksariyat hollarda uyushgan guruh tomonidan sodir etiladi. Ko'pincha shunday guruhlar juda turg'un bo'lib, doimiy ravishda qator jinoyatlarni sodir etishlari ham mumkin.

Jinoyatchilar jamg'arma va davlat banklariga, do'konlarga, inkassatorlarga hujum qilish uchun maxsus tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar, korxonalar va muassasalarning ish rejimlarini o'rganadilar. Inkassator va savdo xodimlarining yo'nalishlarini kuzatadilar. Yetarlicha ma'lumot to'plaganlaridan keyin hujum qilish vaqtini va joyini, guruh tarkibini aniqlaydilar, qurol va transport vositasini hozirlaydilar. Orqaga qaytish yo'llarini va talon-taroj qilingan mulkni yashirish joylarini belgilab olishadi.

Jinoyatchilar ba'zi vaqtlarda mazkur jinoyatni hech qanday

oldindan tayyorgarlik ko`rmasdan amalga oshirishlari mumkin. Bunday jinoyatlar agar jinoiy tajovuz ob`yekti oldindan belgilab qo`yilmagan bo`lsa amalga oshiriladi. Masalan: jinoyatchilar bir qator xonadonlarni aylanib, eshiklarni taqillatadilar agar hech kim chiqmasa, eshikni buzib o`zlarini qabih niyatlarini amalga oshiradilar. Bunday jinoyatlar ko`pincha kunduz, dam olish va bayram kunlari sodir etiladi, chunki bunday kunlarda uy egalari ishda bo`lishadi yoki dam olgani ketgan bo`lishadi.

Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini sodir etishda jinoyatchilar ko`pincha to`satdan hujum qilishga (agar ko`chada bo`lsa) harakat qilishadi, xonadonlarga kirishning esa turli yo`llarini izlaydilar, pochta, gaz, elektr enyergiyasi xizmati xodimi sifatida kelganligini bildirib, uyga hech qanday qarshiliksiz kirishga harakat qiladilar.

Agar jinoyat ochiq joylarda sodir etilsa, jabrlanuvchiga to`satdan pana joydan, daraxt orqasidan turib hujum qilinadi yoki unga yaqinlashish uchun turli yo`llarni qidiradi. Masalan: chekish uchun gugurt so`rash, biron-bir ko`cha yoki adresni so`rash orqali jabrlanuvchiga yaqin kelishga, keyin esa unga hujum uyushtirishga harakat qiladi. Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarining ob`yekti aksariyat hollarda ayol kishilar va mast holatda yurgan erkaklar bo`lib chiqishadi.

O`g`irlik jinoyat ishlari bo`yicha aniqlanishi lozim bo`lgan holatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) o`g`irlik jinoyati haqiqatan ham sodir etilganligi;
- 2) o`g`irlik jinoyati sodir etilgan joy (korxonalar, muassasa, tashkilotlarning aniq nomi va joylashgan joyi, jabrlanuvchining manzili), vaqti va qo`llangan usuli;
- 3) o`g`irlangan mulk kimga tegishli ekanligi (korxonalar, muassasa, tashkilot yoki fuqarolar);
- 4) aniq nima o`g`irlanganligi, o`g`irlangan mulkning belgilari, uning soni va narxi;
- 5) o`g`irlik jinoyatini sodir etishda qanday texnika vositalaridan foydalanganligi;
- 6) o`g`irlik kimlar tomonidan sodir etilganligi, ishtirokchilar va ularning vazifalari;
- 7) o`g`irlangan mulk kimga byerilgan yoki sotilganligi;
- 8) keltirilgan zarar miqdori;
- 9) o`g`irlik jinoyatining sodir etilishiga olib kelgan sabab va

holatlar;

10) keltirilgan moddiy zararni qoplash uchun qanday chora-tadbirlar ko`rish talab etiladi.

O`g`irlik jinoyati sodir etilgan joy va uning manzili jabrlanuvchi, mansabdor shaxslar, qorovul, guvoh, surishtiruv organlari vakillari bergan ma`lumotlarda aniq ko`rsatilgan bo`ladi. O`g`irlik jinoyatining sodir etilishi vaqti, usuli va qanday texnikaviy vositalardan foydalanganligi voqea joyini ko`zdan kechirishda aniqlanadi, shuningdek o`g`irlik jinoyatini tergashda aniqlanishi lozim bo`lgan barcha holatlar dastlabki tergov harakatlarini o`tkazish davrida aniqlanadi.

O`g`irlik jinoyatini tergashda o`g`irlik sahnalashtirib ko`riladi, ya`ni o`g`irlik jinoyati sodir etilmagan bo`lsa-da, xonadonlarda, do`kon va davlat mulki saqlanadigan omborlarda mazkur jinoyat sodir etilishi bilan bog`liq holat, vaziyat yaratiladi. Voqea joyini sinchkovlik bilan ko`zdan kechirganda bunday mug`ombirlikni fosh etadigan asoslarni topish mumkin. Masalan: eshik ichiga o`rnatilgan qulfni ko`zdan kechirganda buzishdan qolgan izlar tashqaridan emas ichkaridan topilganda, do`kon devorida hosil bo`lgan teshik o`yilishi tashqaridan emas, ichkaridan o`yilganligini ko`rsatuvchi belgilar mavjud bo`lsa yoki jabrlanuvchi o`g`irlangan buyumlarning (palto, magnitafon, soat) rangi, razmyeri, markasi nomi, tuzilishi qandayligi so`ralganda aniq javob bera olmasa, o`g`irlik jinoyat sahnalashtirganlikdan dalolat beradi. Tergovchi jabrlanuvchini so`roq qilayotganda bunday holatlarga ham jiddiy e`tibor qaratmog`i lozim.

Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergashda aniqlanishi lozim bo`lgan holatlar mavjud bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

1) talonchilik yoki bosqinchilik jinoyatlari qachon, qayerda va qanday sharoitda va kimga nisbatan sodir etilganligi;

2) jinoyatning sodir etilishida nechta shaxs ishtirok etganligi, ularning umumiy va xususiy belgilari;

3) jinoyatchilar qurollangan bo`lsa, nimalar bilan qurollanganligi;

4) jinoyatni sodir etishda zo`rlash ishlatilgan bo`lsa, u qanday hajmda ekanligi;

5) yetkazilgan tana jarohatining tavsifi va og`irlik darajasi;

6) jabrlanuvchiga yetkazilgan tana jarohatlari to`g`risidagi ko`rsatuvning guvoh bergan ma`lumotlar bilan taqqoslab ko`rish va

uning tasdiqlanishi;

7) bosqinchilik natijasida jinoyatchilar qanday mulk yoki predmetlarni olganligi;

8) jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo`lgan sharoitlar;

9) jabrlanuvchida katta pul summasi borligini bilgan shaxslarni aniqlash.

Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini sodir etishda jinoyatchilar puxta tayyorgarlik ko`radilar, jinoyatni sodir etish usullarini, ishtirokchilarni va vaqtni tanlaydilar. Isbotlanishi lozim bo`lgan holatlardan biri jinoyatni sodir etish usulini aniqlash hisoblanadi. Jinoyatchilarni jinoyatni sodir etishda qo`llaydigan usullaridan biri hujum qilinadigan shaxsni, xonadonni, qimmatbaho davlat mulklari saqlanadigan joylarni, inkassatorning g`aznachidan qachon pulni olishi va uning qayerga borish yo`nalishlarini zimdan kuzatadilar va undan keyin hujum uyushtirish usullarini tanlaydilar. Ko`p hollarda, jinoyatchilar o`zlarini rasmiy vakil sifatida elektromontyor, JEK xodimi deb tanishtirib xonadonlarga kirishga harakat qiladilar, yakka shaxslarga nisbatan esa u bilan tanishish maqsadida yaqin boradilar va darhol hujum qiladilar.

Jinoyatchilarning qo`llaydigan asosiy usuli bu ob`yektga to`g`ridan-to`g`ri hujum qilib mulkni egallash hisoblanadi. Agar jinoyatni sodir etishda ko`p odam ishtirok etgan bo`lsa, tergovchi har bir ishtirokchining bajargan vazifasini va rolini aniqlashi lozim. Jinoyatni sodir etish usullarini jinoyatchilar shaxsi, yashiringan joylari aniqlangandan keyin ularni qidirib topish va ushlab amalga oshiriladi.

2-§. O`g`irlik jinoyatlarini tergov qilish

O`g`irlik jinoyati o`zining ob`yektlari bo`yicha ikki turga bo`linadi:

1) davlat va jamoat mulkini o`g`irlash;

2) fuqarolarning shaxsiy mulkini o`g`irlash.

Bu turdagi jinoyatlarni tergovda o`g`irlik jinoyatining sodir etilishi usullarini albatta inobatga olish zarur. Davlat, jamoat va shaxsiy mulklarni o`g`irlash jinoyatlarini sodir etish usullari quyidagilar hisoblanadi:

1) O`g`irlik jinoyatini sodir etishga tayyorgarlik ko`rishdagi harakatlar;

2) O'g'irlikni bevosita sodir etishdagi harakatlar;

3) O'g'irlik jinoyati izlarini yashirishdagi harakatlar.

O'g'irlik jinoyatini tergash uslubi nuqtai nazaridan jinoyatchilarning jinoiy tajovuz ob'yektiga kirishda qo'llagan usullarini aniqlash ayniqsa diqqatga sazovordir. Moddiy qiymatlar, pul vositalari saqlanayotgan binoga, turar joyga kirishning eng ko'p tarqalgan usullari quyidagilardir:

- qulf va sim to'siqlarini buzish;

- qulflarni kalit yoki maxsus tayyorlangan moslama yordamida ochish;

- rom yoki uning oynasini chiqazib qo'yish;

- vitrina oynasini turtib chiqazish;

- pol tagidan kovlab kirish;

- devor yoki shiftni teshib kirish;

- to'siqlarni elektr (gaz) payvandlash apparatlari yordamida buzish.

O'g'irlik jinoyati bo'yicha jinoyat ishi quyidagi asoslarga binoan qo'zg'atiladi.

1) korxonada, muassasada, tashkilot rahbarlari, mansabdor shaxslarning bergan xabarlariga asosida;

2) fuqarolarning (jabrlanuvchilarning) bergan xabarlariga asosida;

3) moddiy javobgar shaxslar va qorovullar bergan xabarlariga asosida;

4) o'g'irlik sodir etilganini ko'rgan va eshitgan guvohlar bergan ma'lumotlariga asosida;

5) surishtiruv va tergov organlari tomonidan o'g'irlik jinoyati izlarini topgan hollarda;

6) o'g'irlik jinoyatini sodir etilishida gumon qilinuvchi sifatida ushlangan shaxsdan unga tegishli bo'lmagan buyumlarning mavjudligi (masalan: ushlanganda ko'p qo'l soati, moddiy qiymatlar olingan bo'lsa).

O'g'irlik jinoyat ishlari bo'yicha quyidagi tergov harakatlari o'tkaziladi:

1) voqea joyini ko'zdan kechirish;

2) inventarizatsiya va taftish o'tkazish;

3) guvohlarni so'roq qilish;

4) jabrlanuvchini so'roq qilish.

Shaxsiy mulklarni o'g'irlash jinoyat ishlarini tergash bo'yicha quyidagi dastlabki tergov harakatlari o'tkaziladi:

- 1) jabrlanuvchini so`roq qilish;
- 2) voqea joyini ko`zdan kechirish.

Dastlabki tergov harakatlarini o`tkazish tezkor-qidiruv harakatlari bilan o`zaro hamkorlikda amalga oshiriladi. Tergovning mazkur shaklda tashkil etilishi o`g`irlik jinoyatini sodir etgan shaxs to`g`risida mumkin qadar tezroq ma`lumotlar to`plash va dastlabki tergov bosqichidayoq uni aniqlash va ushlab imkonini beradi. Tergovchi dastlabki tergov harakatlarini amalga oshirishda ichki ishlar organlari xodimlariga dastlabki tezkor-qidiruv harakatlarini o`tkazish to`g`risida topshiriq beradi:

- 1) jinoyatchini izidan quvish;
- 2) iz qidiruv itidan foydalanish;
- 3) jinoyatchining qochishi mumkin bo`lgan yo`llarga kuzatuvchilar qo`yish;

4) YhXX xodimlariga, transport militsiyasi va tyerritorial ichki ishlar organlari xodimlariga jinoyatchining va o`g`irlangan mulk belgilari to`g`risida xabar berish;

5) jinoyatchining borib yashirinishi taxmin etilgan hududdagi manzil to`g`risida tegishli organlarga xabar berish va kuzatuvni tashkil etish;

6) jinoiy ro`yxat ma`lumotlari asosida qidiruvni tashkil etish.

O`g`irlik jinoyatini terdash voqea joyini ko`zdan kechirishdan boshlanadi. O`g`irlik jinoyati sodir etilganligi to`g`risida xabar olgach tergovchi tezkor-qidiruv xodimlari bilan birgalikda zudlik bilan voqea joyiga yetib borishi zarur.

Voqea joyiga yetib kelishi bilanoq tergovchi voqea joyidan begona shaxslarni chetlatishi va o`g`irlik jinoyatining sodir etilishini o`z ko`zi bilan ko`rgan guvohlarni so`roq qilib jinoyatchi to`g`risida ayrim ma`lumotlarni bilib olishga harakat qilishi kerak. Ko`zdan kechirishni boshlashdan oldin tergovchi moddiy javobgar shaxs, korxonaga ma`muriyatidan moddiy qiymatlar, pul mablag`lari qayerda va qanday saqlanganligi to`g`risida ma`lumot oladi. Ko`zdan kechirishni boshlashdan oldin tergovchi o`g`irlik sodir etilgan bino (kvartira)ning tashqi ko`rinishi, uning atrofidagi binolarga nisbatan qanday joylashganligi, kelish ketish yo`lakchalari, qo`riqlanish tartibi o`rganadi, undan keyin o`g`irlik sodir etilgan joy ko`zdan kechiradi.

Voqea joyi to`g`risida to`liq ma`lumot olgach, ko`zdan kechirishning ketma-ketligi va chegarasi belgilanadi, so`ngra

tergovchi quyidagi holatlarni aniqlaydi:

- o'g'irlik sodir etilgan joyga jinoyatchi qanday kirganligi, qanday usul ishlatganligi, qaysi tomonga qarab ketganligi;
- qanday texnika vositalaridan foydalanganligi;
- voqea joyida qanday izlar qoldirganligi, qanday buyumlarni o'zi bilan olib ketishi mumkinligi;
- jinoyatchining kasbi va ko'rsatuvchi belgilar bor yoki yo'qligi;
- jinoyatni sodir etishda qancha shaxs ishtirok etganligi;
- soxta jinoyat belgilari bor yoki yo'qligi.

Voqea joyini ko'zdan kechirishda binoga (ombor, do'kon) yoki xonadonga kirish joylari diqqat bilan o'rganilishi lozim, chunki u yerlarda jinoyatchining buzish qurollari, poyabzalidan, kiyimlaridan qoldirilgan izlar bo'lishi mumkin. Jinoyat sodir eta turib shaxs ehtiyotsizligi natijasida qo'lini shikastlantirib qo'yishi va o'zi bilmagan holda voqea joyida qon tomchilarini qoldirib ketishi mumkin, bular esa jinoyatchining qon guruhini aniqlashga imkon beradi.

O'g'irlik sodir etishda jinoyatchilar shoshilganidan voqea joyida ba'zi buyum va predmetlarini qoldirib ketishi mumkin. Masalan: dastro'molini, bosh kiyimini, chekib tashlangan papiros qoldig'ini va hokazo. Ular daliliy ashyo sifatida olib maxsus moslamalarga solinishi, joylashtirilishi lozim.

Voqea joyini ko'zdan kechirishda, ayniqsa davlat va jamoat mulkini o'g'irlash jinoyatlari bo'yicha voqea joyida buyum va predmetlarning tartibsiz yotganligiga (tovarlarning har tomonga sohib tashlanganligi, polda pul va boshqa qiymatlarning tartibsiz yotishi va h.k.) konfet, shakar va boshqa oziq-ovqat maxsulotlarining yerda sochilib yotishi kabi holatlarga asosiy e'tiborni qaratmoq zarur. Bundan tashqari, voqea joyini ko'zdan kechirishda soxta o'g'irlik belgilarini ko'rsatuvchi salbiy holatlarga ham e'tibor berish lozim.

Davlat va jamoat mulkini o'g'irlash jinoyatini soxtalash belgilari quyidagilar:

1) polda yotgan halqasi kesilgan qulfdan arralanganlik alomatlarini ko'rsatuvchi belgilar (qirindilar)ning yo'qligi;

2) devorda o'yilgan teshik hajmi bilan o'g'irlangan deb ko'rsatilgan buyumning hajmi haqiqatga to'g'ri kelish va kelmasligi: masalan, do'kon devoridan o'yilgan teshikdan bir odam kirib

chiqishi mumkin bo'lsada, muzlatgich yoki mazkur teshikka sig'maydigan katta gabaritli buyum o'g'irlanganligi to'g'risida shikoyat qilingan bo'lsa;

3) devordagi teshikni ichkaridan o'yilganligini ko'rsatuvchi belgilar mavjud bo'lsa-da, eshik qulfini buzilganligi to'g'risida hech qanday iz bo'lmasa;

4) o'ta qimmatbaho predmetlarning yo'qligi to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lsa-da, ularning qayerda saqlanishi faqat moddiy javobgar shaxsga ma'lum bo'lsa.

Voqea joyini ko'zdan kechirish tamom bo'lgandan keyin darhol inventarizatsiya o'tkazish tayinlanadi, o'g'irlik soxtalashtirilgan degan taxmin tug'ilganda esa korxonada va tashkilotda taftish o'tkazish tayinlanadi.

Guvohlarni so'roq qilish. Davlat va jamoat mulkini o'g'irlash ishlari bo'yicha dastlabki tergov harakatlaridan biri moddiy javobgar shaxslarni, rahbar, qorovul va o'g'irlik sodir etilayotganda jinoyatchilarni bevosita o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilish hisoblanadi. Shaxsiy mulklarni o'g'irlash jinoyat ishlari bo'yicha guvoh sifatida o'g'irlik sodir etilgan xonadon a'zolari, qo'shnilar so'roq qilinadi. Mazkur guvohlarni so'roq qilishda o'g'irlik sodir etilgan ob'yektga nisbatan ushbu guvohning qanday munosabatda ekanligi aniqlanmog'i lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarni so'roq qilishda tergovchi quyidagi masalalarni hal etishga e'tibor berishi kerak:

1) tergovchi yetib kelguncha voqea joyidagi holatga qanday o'zgartirishlar kim tomonidan va qanday maqsadda kiritilganligi;

2) o'g'irlik qachon va qanday holatlarda sezilganligi;

3) mulk saqlanayotgan joydan nimalar o'g'irlanganligi (o'g'irlangan mulkning nomi, taxminiy soni, narxi va h.k.)

4) o'g'irlangan mulk qayerda turganligi;

5) mulk saqlanadigan joyni qo'riqlash qanday tashkil etilganligi (qorovul, signalizatsiya orqali);

6) mulk saqlanayotgan joy (omborxonada, baza va h.k.) qanday qulflanganligi, kalit kimda yoki qayerda saqlanganligi;

7) ob'yektning holati, unda qanday moddiy qiymatlar saqlanayotganligi to'g'risida kimlar qiziqib so'raganligi;

8) o'g'irlik sodir etilishi davrida ob'ektning yaqinrog'ida kimni ko'rganligi;

9) so'roq qilinuvchi mazkur jinoyatning sodir etilishida kimni

gumon qilishi.

Bu ko`rsatilgan holatlar albatta yo`nalish olish xususiyatga ega bo`lib, aniq voqea sharoitiga va kim so`roq qilinishiga qarab o`zgarishi ham mumkin. Masalan: jabrlanuvchini va moddiy javobgar shaxsni so`roq qilishda o`g`irlangan tovar va moddiy qiymatliklar o`g`irlangani, ularning hajmi to`g`risida ma`lumot olishi kerak. Bundan tashqari moddiy javobgar shaxs o`zini-o`zi hisob-kitob, kirim-chiqim ishlari bo`yicha tekshirib ko`rilganligini aniqlash lozim. Bu tekshiruv o`g`irlangan mulkning turi, narxi va qiymatini aniqlashga katta yordam beradi. Bu holatlarni aniqlash jinoyatini o`z vaqtida ochishga katta yordam beradi.

Jabrlanuvchi va moddiy javobgar shaxslarni so`roq qilish. Jabrlanuvchilar va moddiy javobgar shaxslarni so`roq qilish o`g`irlik jinoyatlarini terqashda o`tkaziladigan dastlabki tergov harakatlaridan hisoblanib, u orqali nafaqat jinoyatchini aniqlash, hatto ushbu ishlar bo`yicha muhim bo`lgan dastlabki ma`lumotlarni ham olish mumkin.

Ko`rsatilgan shaxslarni so`roq qilish o`g`irlik jinoyati qanday holatlarda sodir etilganligini aniqlashdan boshlanadi. So`roq qiluvchidan o`g`irlangan mulkni yoki moddiy qiymatliklarni qachon ko`rganligi va qachon yo`qolganligini aniqlab olish zarur bo`ladi. Jabrlanuvchini so`roq qilishda o`g`irlik qachon va qayerda sodir etilganligini, nima o`g`irlanganligini, ularning nomi, qiymati aniqlanishi lozim. O`g`irlangan mulkning bahosini (summasini) ba`zi vaqtlarda jabrlanuvchi yoki moddiy javobgar shaxslar o`z narxidan oshirib aytishlari ham ehtimol, hatto o`g`irlangan mulkning o`ziga xos belgilarini aytolmasligi ham mumkin. Bunday hollarda boshqa oila a`zolarini ham so`roq qilishga to`g`ri keladi. Agar xonadondan soat, radiopriyomnik, magnitofon, fotoapparat kabi buyumlar o`g`irlangan bo`lsa, uyda ularning texnik pasportlari bor yoki yo`qligi ham aniqlanishi lozim.

So`roq vaqtida jabrlanuvchidan o`g`irlikda kimni gumon qilishini so`rab bilish kerak. Turar-joylardan o`g`irlik sodir etilganda jabrlanuvchidan u bilan qo`shni bo`lib shubhali shaxslar yashash yoki yashamasligi, uyida qimmatbaho buyum yoki predmetlarning borligini kimlar bilishi mumkinligini, uyida oxirgi marta kim bo`lganligi, uydagi qimmatli buyumlar bilan kimlar qiziqqanligi kabi masalalar aniqlanishi lozim. Agar jabrlanuvchi o`g`irlikni kimlar sodir etishi mumkinligi, hatto aniq shaxsning ismi sharifini aytsa, unda gumon qilish asoslari aniqlanishi lozim.

Moddiy javobgar shaxsni so`roq qilishda quyidagi holatlar aniqlanishi lozim: o`g`irlik sodir etilganlik vaqti va kim xabar berganligi; tashkilotning ish tartibi qandayligi; mulk saqlanadigan joyga kimlar kirish huquqiga ega ekanligi; ob`yektning qo`riqlanish tartibi; ushbu tashkilotda shubhali shaxslardan ishlashi yoki yaqinda kimlar ishdan bo`shatilganligi; tergovchi kelguncha umumiy holat o`zgarmaganligi; qayerdan nima o`g`irlanganligi; agar pul o`g`irlangan bo`lsa, ular qancha ekanligi va qayerda saqlanganligi.

Gumon qilinuvchini so`roq qilish o`g`irlik jinoyati sodir etilgan paytda uning qayerda ekanligini aniqlashdan boshlanadi. Jinoyatni sodir etish vaqtida ushlangan jinoyatchilar asosan to`g`ri ko`rsatuv berishadi. Gumon qilinuvchi sifatida ushlangan shaxs esa jinoyat sodir etilgan vaqtda boshqa yerda ekanligini aytib jinoyatga hech qanday aloqasi yo`qligi to`g`risida ko`rsatuv berishi ham mumkin. Bunday hollarda uning bergan ko`rsatuvlari detallashtirilib, tekshirilib ko`riladi. Buning uchun voqea joyidan topilgan izlar, tintuv vaqtida olingan ashyoviy dalillar, o`g`irlik jinoyati sodir etilayotganini o`z ko`zi bilan ko`rgan guvohlar ko`rsatuvlari jinoyatchilarning yolg`on ko`rsatuvlarini fosh etish maqsadida foydalaniladi. Agar gumon qilinuvchi o`z aybiga iqror bo`lib, jinoyat sodir etilganini tan olsa, jinoyatni sodir etish bilan bog`liq bo`lgan barcha holatlar, unga tayyorgarlik ko`rish, qanday qurollardan foydalanganligi, ishtirokchilar aniqlanadi.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) larni so`roq qilishda qator masalalar hal etilishi lozim: gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) ning shaxsi to`g`risidagi ma`lumotlar, o`g`irlik qayerda sodir etilganligi, uni sodir etish vaqti va usuli, o`g`irlangan buyumlar va ularning o`g`irlangandan keyin qayerda saqlanayotganligi.

Agar ish bo`yicha bir necha gumon qilinuvchi bo`lsa, unda tergovchi qaysi birini birinchi so`roq qilish masalasini aniqlashi kerak.

Aybini tan olgan jinoyatchilarni so`roq qilishdagi asosiy shart-sharoitlardan biri ularning bergan ko`rsatuvlarini detallashtirish hisoblanadi. O`g`irlik sodir etilgan joy aniqlangandan keyin so`roq qilinayotgan shaxsdan o`g`irlik sodir etilgan ob`yekt qayerda joylashganligi, uning tashqi ko`rinishi, unga borish yo`llari va o`g`irlik sodir etilgan xona, do`kon, ombor va boshqalarning ichki holati qandayligi ham aniqlanishi lozim. Jinoyatni sodir etish usulini aniqlash paytida o`g`ri nima uchun aynan ushbu usulni tanlaganligi,

to'siqdan qanday o'tganligi, to'siqdan o'tishda, uni buzishda qanday qurol va predmetlardan foydalanganligi, ularni qayerdan olganligi va o'g'irangan buyumlarni qayerga qo'yganligi, qanday buyum va moddiy qiymatlar o'g'irlanganligi, ular xonaning, do'konning qayerida turganligi, o'g'irlangan buyumning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanishi lozim. Ko'rsatuvning bunday detallashtirish, uni tergov va tezkor qidiruv harakatlarini amalga oshirish davrida to'plangan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish uchun imkon beradi.

Gumon qilinuvchi ushlangandan keyin darhol shaxsiy tintuv qilinadi va uning turar joyida tintuv o'tkaziladi. Agar gumon qilinuvchi sifatida bir necha shaxs ushlangan bo'lsa ularning turar joylarida bir vaqtning o'zida tintuv o'tkaziladi. Shaxsiy tintuvni o'tkazishda asosiy e'tibor o'g'irlik sodir etilishida foydalanilgan qurollar yoki moslamalarni, turli hujjatlarni, o'g'irlangan buyumlar, predmetlarni qidirib topishga qaratilmog'i lozim. Tintuv o'tkazilayotgan shaxslarning cho'ntagidan uning shaxsini bildiruvchi hujjatlar, to'siqni buzishda (eshik, rom, devor va h.k.) kiyimlarida, badanida turli chang, metall qirindilari qolishi mumkin. Bu izlarga asosiy e'tiborni qaratmoq lozim bo'ladi.

Gumon qilinuvchilar va o'g'irlangan mulklar yashirilishi mumkin deb gumon qilingan shaxslarning turar joylarida ham tintuv o'tkaziladi. Ko'pincha jinoyatchilar o'g'irlangan buyumlarni yerto'la, chyerdak, molxona va shunga o'xshash joylarda saqlashlari mumkin. Shuning uchun bunday joylar diqqat bilan tekshirilishi lozim. Bundan tashqari hovli joylarda daraxt taglari, tomorqa joylari ham albatta tekshirilishi shart.

Tintuv jinoyatchini qidirib topish maqsadida ham o'tkazilishi mumkin. Bunday vaqtlarda jinoyatchining yashirilib turgan joyini u bilan aloqa qilib turgan shaxslarni ko'rsatuvchi turli yozishmalar, pochta kvitansiyalari va h.k.larga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim.

Gumon qilinuvchining badanida jinoyat izlarini, belgilarini aniqlash maqsadida guvohlantirish ham o'tkaziladi. Ko'pincha jinoyatchilar o'g'irlikni sodir etishda shoshilib biron a'zosini jarohatlantirishi, qo'lida turli dog'lar, chang, tirnoq tagida yog', un, shakar va hokazo mahsulotlarning qoldiqlari bo'lishi mumkin. Bunday holatlarga ham alohida e'tibor qaratilmog'i lozim.

Guvoh va gumon qilinuvchilarning ko'rsatuvlarini tekshirib ko'rish uchun tergov eksperymenti ham o'tkaziladi. O'g'irlik jinoyatini tergovda u yoki bu harakatni bajarish qobiliyatini

tekshirib ko`rish maqsadida tergov eksperymenti o`tkaziladi. Masalan: tintuv vaqtida gumon qilinuvchidan olingan kalit bilan o`g`irlik sodir etilgani uy yoki bino eshigidagi qulfnı echish mumkin yoki mumkin emaslik holatini tekshirib ko`rish.

O`g`irlikni terdashda turli sud ekspertizalari ham tayinlanishi mumkin. Ko`pincha kriminalistik, sud-tibbiyot, sud-ximiya, tovarshunoslik ekspertizalari tayinlanadi.

Kriminalistik ekspertizasi eng ko`p tarqalgan ekspertiza turlaridan hisoblanib, o`g`irlik jinoyatlarini terdashda trasologik xatshunoslik (dastxatlik) ekspertizalari tayinlanadi. Voqea joyidan ko`pincha barmoq izlari, poyabzallardan, buzish quollaridan qolgan izlar topiladi. Tergovchi izlardan nusxalar (namunalar) olib daktiloskopik yoki buzish quollari, oyoq izlari bo`yicha trasologik ekspertiza tayinlaydi. Sud-tibbiyot ekspertizasi o`g`irlik sodir etilgan joydan qonga o`xshash dog`lar, buzish quollari, buyumlar, oyna siniqlari hamda chekib tashlangan papiros qoldiqlari, soch tolalari topilganda tayinlanadi. Ekspertiza yordamida voqea joyidan qon dog`lari mavjud bo`lgan predmetlar, buzish quollaridagi qon guruhi gumon qilinuvchi sifatida ushlangan shaxsning qon guruhiga to`g`ri kelishi yoki kelmasligi masalalari hal etiladi. Bu ma`lumotlar gumon qilinuvchining o`g`irlik sodir etishga aloqador ekanligini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Sud-ximiya ekspertizasi gumon qilinuvchidan yoki buzish quollaridan topilgan turli moddalar (kley, buyoq, chang, turli kimyoviy modda dog`lari) tarkibi voqea joyidan olingan moddalar tarkibiga mos kelishi masalasini hal etish maqsadida tayinlanadi.

Tovarshunoslik ekspertizasi asosan o`g`irlangan predmetlarning gumon qilinuvchidan topilgan predmetlar bilan bir tarkibli yoki farq qilishi masalasini hal etish maqsadida tayinlanadi.

3-§. Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini terdash

Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari xavfli va og`ir jinoyatlar turkumiga kirib, davlat va jamoat hamda fuqarolarning shaxsiy mulkini egallashga qaratilgan bo`ladi.

Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari bo`yicha jinoyat ishini qo`zg`atish uchun asos qilib quyidagilar olinadi:

- 1) jabrlanuvchilarning bergan arizalari;
- 2) mansabdor shaxslarning davlat mulki saqlanayotgan joyga

yoki uni qo`riqlayotgan qorovulga hujum qilib mulkni o`g`irlaganligi to`g`risidagi arizasi;

3) talonchilik va bosqinchilik qilish maqsadida shikast yetkazilgan shaxsga tibbiy yordam ko`rsatayotgan tibbiy muassasalardan berilgan xabarlar;

4) ichki ishlar organlari bevosita talonchilik va bosqinchilikni aniqlaganligi.

Talonchilik yoki bosqinchilik jinoyati sodir etilganligi to`g`risida xabar olingandan keyin o`tgan vaqtni inobatga olgan holda ichki ishlar organi tezkor xodimlari yordamida zudlik bilan jinoyatchini ushlashga qaratilgan tezkor-qidiruv ishlarini amalga oshirish lozim. Undan keyin jabrlanuvchidan hodisa qanday holatda sodir etilganligi to`g`risida so`rab olinadi. So`rash qisqa bo`lishi, bu vaqt ichida tergovchi yoki surishtiruvchi jinoyat belgilari borligi to`g`risida bir xulosaga kelishlari lozim. Shu holatning o`zi jinoyat ishini qo`zg`atishga asos bo`ladi.

O`tkaziladigan dastlabki tergov harakatlarining ketma-ketligi jinoyatchining jinoyat sodir etish vaqtida ushlangani yoki jinoyatning sodir etish holati bo`yicha jinoyat ishi qo`zg`atilganligiga bog`liq. Agar jinoyat ishi jinoyatning sodir etish holati bo`yicha qo`zg`atilgan bo`lsa, tergov darhol jabrlanuvchini so`roq qilish, voqea joyini ko`zdan kechirish, jabrlanuvchining kiyimlarini ko`zdan kechirish va guvohlantirish, jabrlanuvchini sud-tibbiyot ekspertizasidan o`tkazish, guvohlarni so`roq qilishdan boshlanadi.

Jabrlanuvchini so`roq qilish. Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini terlashda jabrlanuvchilar ish uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan ma`lumotlarni berishlari mumkin. So`roq jarayonida jabrlanuvchining ruhiy holati albatta inobatga olinishi zarur. Jabrlanuvchi unga hujum uyushtirilganda qo`rqqanidan hushidan ketib qolishi yoki sodir etilgan hodisani barcha detallarigacha eslab qololmasligi mumkin. Ushbu turdagi jinoyatlar ko`pincha qorong`ulik paytida sodir etiladi. Jabrlanuvchi jinoyatchilarning tashqi ko`rinish belgilarini yaxshi eslab qololmasligi, qorong`ulikda ularning qo`lidagi qurol turlarini yaxshi ajrata olmay qolishlari mumkin. Ba`zi vaqtlarda jinoyatchilar haqiqiy to`pponcha o`rniga yog`ochdan yasalgan yoki o`yinchoq to`pponchalardan foydalanishlari ham uchrab turadi. Jabrlanuvchi qo`rquv yoki yaxshi e`tibor byermaganligi natijasida. jinoyatchilar qurollangan edilar,

degan ko'rsatuv beradi.

Jabrlanuvchi o'ziga nisbatan hujum uyushtirilgandan keyin to'laligicha o'ziga kelmagan yoki bo'lib o'tgan hodisani batafsil eslay olmaydigan holatda bo'ladi. Shuning uchun tergovchi uni tinchlantirishi zarur, xavf o'tib ketganligi, o'zini qo'lga olishi va bo'lib o'tgan voqeani yaxshi eslashini tushuntirishi kerak. Jabrlanuvchi es-hushini taklagandan keyin so'roq qilinib, quyidagilar aniqlanadi:

- talonchilik va bosqinchilik qachon va qayerda (shaHar, ko'cha, park va h.k.) sodir etilganligi;

- hujum uyushtirilganda jabrlanuvchi bir o'zi yoki u bilan boshqa shaxslar ham borligi, agar bo'lgan taqdirda kim bo'lganligi va ularni qanday topish mumkinligi;

- hujum qilingan joyga nima maqsadda borganligi;

- talonchilik va bosqinchilik sodir etilayotgan vaqtda jinoyatchilarning harakatlari nimalarda ifoda etilganligi: jinoyatchilar pul talab qilganligi yoki qo'lidan sumkachasini tortib olganligi, jinoyatchilar bir necha shaxs bo'lsa ular o'zaro nimalar to'g'risida gaplashganligi, bir-biriga ismi sharifi yoki laqab bilan murojaat etganligi;

- jabrlanuvchi talonchilik yoki bosqinchilik natijasida qanday zarar ko'rganligi: qancha so'm pulini olganligi, qanday narsalarni olgan bo'lsa ularning nomi, qiymati, o'ziga xos belgilari va raqamlari;

- jabrlanuvchining qarshilik ko'rsatgan yoki ko'rsatmaganligi;

- voqeani kimlar ko'rganligi yoki unga hujum qilinganligini kimlar tasdiqlashi mumkinligi;

- jinoyatchilar transport vositasidan foydalangan bo'lsalar, uning markasi, rangi va qaysi tomonga ketganligi.

So'roq vaqtida jabrlanuvchining ko'rsatuvi mumkin qadar aniqlashtirilishi va detallashtirilishi lozim. Ayniqsa, bayonnomada jinoyatchilarning tashqi ko'rinish belgilari jinsi, yoshi, bo'yi basti, tashqi qiyofasi, bosh va oyoq kiyimining turi, rangi batafsil yoritilishi lozim. Agar jinoyatchilar jabrlanuvchilarning ustki kiyimini yechib olgan bo'lsa, ularning cho'ntagida nimalar bo'lganligi aniqlanadi, agar davlat va jamoat mulki bosqinchilik yoki talonchilik bilan talon-taroj qilingan bo'lsa, jabrlanuvchi sifatida ushbu korxonaning xodimi so'roq qilinib o'g'irlangan mulk qayerda, qanday saqlanganligi, ularni kim tasarruf etganligi

aniqlanadi.

Jabrlanuvchi hujum natijasida qoʻrqqani tufayli jinoyatchilarning soni, tashqi koʻrinish belgilari, jinoyatning sodir etilish holati toʻgʻrisida notoʻgʻri koʻrsatuv berishi ham mumkin. Bunday vaqtlarda jabrlanuvchining bergan maʼlumotlari tanqidiy nuqtai nazardan baholanib, ular ish boʻyicha toʻplangan, maʼlumotlar bilan solishtirib koʻrilishi shart. Jabrlanuvchining dastlabki soʻroq vaqtida bergan koʻrsatuvlarini detallashtirish, aniqlashtirish maqsadida soʻroqni jinoyat sodir etgan joyga chiqib oʻtkazish maqsadga muvofiqdir. Bu oʻz navbatida koʻrsatuvning toʻgʻriligini, toʻlaligini taʼminlashga yordam beradi.

Talochilik va bosqinchilik bilan bogʻliq boʻlgan hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish jabrlanuvchi soʻroq qilingandan keyin darhol oʻtkaziladi. Hodisa joyi koʻchalar, qurilish maydonlari, shahar dam olish bogʻlari, shahar transport vositalari (avtobus, trolleybus, tramvay va h.k) salonlari, turar joylar boʻlishi mumkin. Koʻzdan kechirishni oʻtkazishda jabrlanuvchi va hodisani oʻz koʻzi bilan koʻrgan guvohning ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir, chunki ularning ishtiroki koʻzdan kechirish chegarasini aniqlab olishda va jinoyat izlarini qidirib topishda yordam beradi.

Voqea joyini koʻzdan kechirishda mutaxassis kriminalistning ishtirok etishi ham juda zarur, chunki u topilgan barmoq izlaridan, poyabzal, transport vositalari va buzish qurollaridan koʻchirma nusxalar olishda tergovchiga yordam beradi. Shu boisdan voqea joyiga chiqadigan guruh tarkibiga mutaxassis-kriminalistni ham kiritish zarur.

Talochilik va bosqinchilik jinoyatlari boʻyicha voqea joyini koʻzdan kechirishda inspektor-kinolog ham ishtirok etishi mumkin.

Voqea joyini koʻzdan kechirishda tergovchi quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qilishi lozim:

1. Jinoyatchilar tomonidan voqea joyida va unga tutash boʻlgan hududlarda qoldirgan turli izlarni poyabzal, transport vositasi, buzish qurollaridan qoldirilgan izlar, qon dogʻlarini qidirib topish;

2. Jinoyatchilar tomonidan esidan chiqib qoldirib ketgan yoki tashlab yuborilgan turli predmetlarni yoki oʻzlari bilan jabrlanuvchi oʻrtasida hujum vaqtida olishuv boʻlganda qoldirib ketgan predmetlarni (qurol, papiros qoldigʻi, bosh kiyimi va h.k.) qidirib topish;

3. Jinoyatchining voqea joyida boʻlganligidan dalolat beruvchi

izlar va predmetlarni, jinoyatchilarning kiyimlarida, foydalangan transport vositasida qoldirilishi mumkinligini aniqlash (Masalan: loy, tuproq, chang, bo`yoq, qon izlari va h.k.);

4. Voqea joyi holatini va izlarni kriminalistik-texnikaviy vositalar yordamida qayd etilishini ta`minlash chorasini ko`rish lozim. (Masalan: fotosuratga olish, videotasvirga tushirish, nusxalar olish).

Ko`zdan kechirishni hujum uyushtirilgan joydan boshlamoq lozim. Bu joylardan jinoyatchining oyoq izlari, tashlab yuborilgan yoki tushirib qoldirilgan jinoyat qurollari (pichoq, ustara, kastet va h.k.) otilgan gilza va o`qlar, jinoyatchilarning tish izlari qolgan predmetlar, papiros qutichasi va qoldig`i, dastro`mol, gugurt, olishuv vaqtida yulingan tugma, kiyim parchalari, bosh kiyim va boshqa buyumlar topilishi mumkin. Bu topilgan iz va buyumlarda jinoyatchilar to`g`risida muhim ma`lumotlar bo`lishi mumkinligini nazarda tutib, ular diqqat bilan ko`zdan kechirilishi lozim. Masalan: voqea joyidan topilgan poyabzal izlari jinoyatchilar kiyib yurgan poyabzal turi, razmyeri, jinoyatchilarning qayoqdan kelib, qaysi tomonga ketganligini, transport vositasi protektoridan qolgan izlar bo`yicha jinoyatchilar qanday transportdan foydalanganligini, bosh kiyimidan topilgan sochi bo`yicha, sochning rangi to`g`risida xulosaga kelish mumkin.

Hujum qilingan joy ko`zdan kechirilgandan keyin, unga tutash bo`lgan joylar ko`zdan kechiriladi. Voqea joyidan jinoyatchilar ketgan iz bo`yicha kuzatib borilsa, yo`lma-yo`l uncha ahamiyatli bo`lmagan, arzimaydigan predmet yoki buyumlarni tashlab ketgan yoki tushirib qoldirganligi aniqlanishi mumkin.

Masalan, jinoyatchilar sumkacha yoki hamyonni tortib olgandan keyin ichidagi pul va boshqa qimmatli buyumlarni olib, o`sha yerning o`zidayoq yoki voqea joyidan bir oz uzoqlashgandan keyin otib yuborishlari mumkin. Jinoyatchilar tashlab ketgan predmetlar, o`g`irlangan buyumlar topilganda ular diqqat bilan ko`zdan kechiriladi, chunki ularda jinoyatchilar o`zlarining barmoq izlarini qoldirgan bo`lishlari mumkin.

Agar talonchilik yoki bosqinchilik turar joylarda sodir etilgan bo`lsa, yuqorida qayd etilgan iz va predmetlardan tashqari xonadonlarga kirish joylarida, eshikda va ichida buzish alomatlari mavjud bo`lganda, buzish qurollarining turini aniqlash maqsadida ular diqqat bilan ko`zdan kechiriladi, buzish qurolini qidirib topish

choralari ko`riladi.

Jabrlanuvchini so`roq qilgandan va voqea joyida ko`zdan kechirishni o`tkazgandan keyin, kechiktirib bo`lmaydigan ba`zi tergov harakatlarini o`tkazish lozim bo`ladi. Ularga guvohlarni so`roq qilish, sud-tibbiyot ekspertizasini tayinlash, jabrlanuvchining kiyimini ko`zdan kechirish va guvohlantirish kabi tergov harakatlari kiradi.

Guvohlarni so`roq qilishda ularning kuzatuviga ta`sir etuvchi ob`yektiv va sub`yektiv omillarga ham e`tibor berish lozim. Masalan, jinoyat sodir etilgan joyning yoritilganligi, masofa, hodisaning tez bo`lib o`tganligi, ko`rish va shunga o`xshash holatlar. Shuning uchun ham ularni so`roq qilishda birinchi navbatda hodisa qachon sodir etilganligini, ob-havo qanaqaligi, yoritilish qanday ekanligi, hodisa sodir etilayotganda qayerda turganligi, ko`rish qobiliyati qandayligi, nima uchun hodisa sodir etilgan joyga o`z e`tiborini qaratganligi aniqlanadi. Kuzatish jarayonida u nimalarni ko`rganligi, ya`ni jabrlanuvchini ko`rgan bo`lsa, u qanday kiyimdaligi va hujum vaqtida nima qilganligi, agar jinoyatchilarni ko`rgan bo`lsa, ko`rinishi qanday ekanligi, qaysi tomondan kelganligi va har birining harakati nimalarda ifoda etilganligi va qaysi tomonga qarab ketganligini aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Sud-tibbiyot ekspertizasida jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohati, uning darajasi, tanaga yetkazilgan shikast (jarohat) vaqti, qo`llanilgan qurol, natijada jabrlanuvchining mehnat qobiliyatini yo`qotganligi aniqlanadi. Ba`zan jabrlanuvchi badaniga jarohatni o`zi yetkazishi mumkinmi, shikast etkazilishida jabrlanuvchi bilan jinoyatchi (hujum qilgan shaxs)ning o`zaro joylashishi qanday bo`lganligi kabi holatlar aniqlanishi lozim.

Agar sud-tibbiyot ekspertizasini tayinlash zarurati bo`lmasa, jabrlanuvchining badanida shikastlanish belgilari bor- yo`qligini aniqlash maqsadida guvohlantirish o`tkaziladi. Guvohlantirish Jinoyat protsessual kodeksining 142-147-moddalarida ko`rsatilgan talablar asosida o`tkaziladi.

Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini sodir etish vaqtida, agar jabrlanuvchi qarshilik ko`rsatgan bo`lsa, ular olishuv paytida har ikkalasining ham tashqi kiyimida ularning tolalari qolishi mumkin. Ularning kiyimlari olinib, JPKning 135, 140-moddalari talablariga rioya qilgan holda ko`zdan kechirish o`tkaziladi.

Kiyimlarni ko`zdan kechirish yaxshi yoritilgan xonada kattalashtirib ko`rsatadigan lupalar yoki mikroskoplardan foydalanib o`tkaziladi. Ko`zdan kechirishda hosil bo`lgan shikastlar asosida jinoyatchilar qanday qurollardan foydalanganligi hamda jabrlanuvchining kiyimida qolgan qon dog`lari va mikrozarachalar aniqlanadi.

Dastlabki tergov harakatlarini o`tkazish bilan birga ichki ishlar organlari xodimlariga jinoyatchilar va o`g`irlangan mulkni qidirib topish uchun tezkor-qidiruv ishlarini amalga oshirish to`g`risida ko`rsatmalar byeriladi. Jinoyat sodir etilishidagi aniq holatni, o`tkazilgan dastlabki tergov jarayonida to`plangan ma`lumotlarni inobatga olgan holda o`tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) jinoyatchi qochib ulgurgan bo`lsa, uning izidan quvish guruhi tarkibiga jabrlanuvchi yoki guvohni kiritish zarur;

2) yashiringan jinoyatchini qidirib topish maqsadida atrofdagi hududlarni qarab chiqish;

3) xizmat itidan foydalanish;

4) jinoyatchilar qochib ketishining oldini olish maqsadida militsiya xodimlari va jamoatchilik vakillari yordamida yo`llarda, stansiyalarda, pristanlarda to`siq o`rnatib ularning yo`lini to`shish ishlarini tashkil etish;

5) jinoyatchilar kelishi mumkin bo`lgan joylarda kuzatishni tashkil etish;

6) jinoyatchilarni ko`rgan shaxslarni aniqlash;

7) jinoyatchilar o`tishi mumkin bo`lgan aholi punktlari, militsiya organlarini, temir yo`l stansiyalarini va qo`shni tuman va viloyat ichki ishlar organlarini jinoyatchilarning belgilari va o`g`irlangan mulk turlari markasi va boshqalar to`g`risida xabardor qilish;

8) bozorlarda, lombardlarda, do`konlarda qo`l yukini saqlash kamepalarida, vokzal va aeroportlarda o`g`irlangan mulkni sotayotgan yoki saqlashga topshirayotgan shaxslarni ushlab maqsadida kuzatuvni tashkil etish.

Ushbu tezkor-qidiruv tadbirlarining qanchalik tez va mohirona o`tkazilishi jinoyatchilar va o`g`irlangan mulklarni o`z vaqtida ushlab va qidirib topishda katta ahamiyatga ega.

Tergovning vazifasiga mazkur jinoyatlarning oldini olish masalasi ham kiradi.

O`g`irlik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarining sodir

etilishiga olib kelgan holatlar va sabablarni aniqlashni tergovchi jinoyat ishi qo`zg`atish bosqichidan boshlaydi va dastlabki tergov tamom bo`lgunga qadar davom ettiradi.

Ma`lumki, bu jinoyatlarning sodir etilishining asosiy sabablari ayrim shaxslarning ongida jamiyat manfaatlariga zid bo`lgan qarashlar hisoblanadi. Tergovchining vazifalari, birinchidan, bunday qarashlarning paydo bo`lishiga olib keluvchi omillarni, ikkinchidan, bu omillarning amalga oshirilishiga imkon yaratuvchi holatlarni aniqlashdan iborat.

Talonchilik yoki bosqinchilik jinoyatlarining sodir etilishiga sabab bo`lgan holatlar ikki guruhga bo`linadi. Birinchi guruhga kiruvchi tipik holatlarga quyidagilarni kiritisa bo`ladi: yosh o`spirinlarning nazoratsiz qoldirilishi, ayrim oilalarda ularga nisbatan salbiy ta`sir ko`rsatilishi oilada surunkasiga spirtli ichimliklarning iste`mol qilinishi, oilada egoizm, qo`pollik, atrof-muhitga nisbatan mensimaslik, balandimog`lik bilan qarash. Bu holatlarga maktablarda, o`quv muassasalarida hamda ishlab chiqarish jamoalarida tarbiyaviy ishlarning sustligi, yashash joyidagi jamoat tashkilotlarining faoliyatsizligini qo`shish mumkin.

Biron-bir ma`naviy negizga ega bo`lmagan, o`zining bo`sh vaqtlarini qanday o`tkazishni bilmaydigan o`spirin ichkilikbozlikka, karta o`yinlariga byerilib ketadi, natijada avval kichikroq, kam ahamiyatli bo`lgan huquqbuzarliklarni sodir etadilar, keyinroq uning ongida jazosiz qolib ketish alomatlarining paydo bo`lishi natijasida og`irroq, ya`ni talonchilik yoki bosqinchilik jinoyatlarini sodir etishgacha olib keladi.

Ikkinchi guruh holatlariga quyidagilar kiradi: 1) ma`muriy organlar faoliyatida yo`l qo`yiladigan kamchiliklar: tekinox`rlarcha turmush kechirayotgan shaxslar jinoyatchilar muhitiga tushib (shaxslar) qolishi, jinoiy guruhlar bilan ishlashning sust olib borilishi; talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarining to`la ochilmay qolishi; o`q-otish va sovuq qurollarni tortib olishdagi beparvoliklar; jamoat tartibini qo`riqlash organlarining faoliyatsizligi; turar joy atroflarining yaxshi yoritilmaganligi;

2) jabrlanuvchilarning ma`naviy va axloqiy buzuqligi;

3) moddiy qimmatliklar bilan muomala qilish qoidalarining buzilishi. Masalan: g`aznachi yoki inkassatorlarning pul mablag`larini qo`riqchisiz transportda olib yurishi.

Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini keltirib chiqargan sabablar, holatlar aniqlangandan keyin tergovchi tegishli korxonaga,

muassasa va tashkilotlarga jinoyatlarning oldini olish to'g'risida taqdimnoma kiritadi. Taqdimnomada jinoyatning sodir etilishiga imkoniyat yaratib berganliklari ko'rsatilishi bilan birga ushbu holat va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ham ko'rsatadi.

Talotchilik va bosqinchilik jinoyatlarining oldini olish chora-tadbirlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ichki ishlar organlari, post-patrul xizmatini yaxshi tashkil etish;

2) ko'cha va jamoat joylaridan mast holatda yurgan shaxslarni chetlatish;

3) militsiya organlari va jamoatchilik yoshlarning o'q otish yoki sovuq qurollarini taqib yurishi bilan bog'liq holatlarga qarshi kurash olib borishi;

4) jabrlanuvchining xulqini ish joyi yig'ilishida muhokama etish.

Taqdimnomada, shuningdek, korxonra rahbariyati nomiga yoshlarni ishga joylashtirish, mehnat sharoitlari va dam olish vaqtlarini yaxshi o'tkazishni ta'minlash masalalariga e'tiborsizlik bilan qaraganliklari qayd etib boriladi.

1-§. Firibgarlikining kriminalistik tavsifi

Firibgarlik deganda o'zgarar mulkini (davlat, jamoat yoki fuqarolarning shaxsiy mulklari) aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qo'lga kiritish tushuniladi. Mazkur jinoyatni tergash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, firibgarlik jinoyatining sodir etilishi boshqa jinoyatlar sodir etilishidan farq qiladi. Jabrlanuvchilar firibgarlar bilan bir qancha vaqt, ba'zi vaqtlarda uzoq muddat davomida o'zaro munosabatda bo'ladilar. Shuning uchun ham jabrlanuvchilar jinoyat sodir etilgandan keyin firibgarning tashqi ko'rinishi, belgilari to'g'risida to'laroq ma'lumot berishlari mumkin.

Ikkinchidan, firibgar ma'lum darajada boshqa jinoyatchilardan (o'g'ri, talonchi, bezori) farq qiladi. Ko'p hollarda firibgarlik voyaga yetgan, yoshi katta shaxslar tomonidan sodir etiladi. Ular jinoyatni sodir etishda o'zlarining ayyorlik va chapdastlik qobiliyatlarini ishlatib odamlarni o'ziga jalb etadilar, ularda o'zlariga nisbatan ishonch va qiziqish uyg'otadilar.

Uchinchidan, firibgarlik ba'zi vaqtlarda fuqarolarning o'zlarini noo'rin istaklari natijasida sodir etiladi. Jabrlanuvchilar firibgarga nisbatan o'ta ishonch va ochiq ko'ngillik bildiradilar va shu bilan o'zlarini aldanib qolganlarini bilmaydilar.

Firibgarlarni shartli ravishda besh guruhga bo'lsa bo'ladi:

birinchi guruhga qo'nimsiz, doimiy ravishda daydib yuradigan firibgarlar- uchHarlarni (gastrolyer) kiritisa bo'ladi. Ular jinoyatni sodir etish bilanoq yashirinadi.

Ikkinchi guruhga doimiy yashash va ish joyi bo'lmagan, firibgarlik bilan bir necha bor sudlangan shaxslarni kiritish mumkin.

Uchinchi guruhga mayda firibgarlik sodir etadigan shaxslar kiradi.

To'rtinchi guruh o'zlarining yengiltakligi tufayli yoki boshqa shaxslar yoki holatlar ta'sirida birinchi marotaba firibgarlikni sodir etgan shaxslardan iborat.

Beshinchi guruhga oldin sudlanmagan, uzoq cho'zilgan firibgarlikni sodir etgan, jumladan, noqonuniy ravishda nafaqa (pensiya) olib turgan shaxslar kiradi.

Firibgarlik jinoyatini terdashda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar mavjud bo'lib, ularga jinoyatni sodir etish usuli, jinoyat sodir etilishida jabrlanuvchining roli, firibgarlik jinoyatining sodir etilishiga imkoniyat yaratgan sharoitlar kiradi.

FIRIBGARLIKNI TERGOV QILISH USLUBINING ASOSLARI

ANIQLANISHI KERAK BO'LGAN HOLATLAR

Firibgarlik sodir etilganmi?

Firibgarlik sodir etilgan joy, vaqti, sharoitlari, usullari, kim jinoyatning shohidi bo'lganligi

Firibgarlik kimga nisbatan sodir etilgan?

Firibgarlik predmeti, firibgar qancha miqdordagi pulni noqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritganligi

Jinoyatchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar

Firibgarlik jinoiy guruhi va uning harakatlarida ishtirok etgan boshqa shahslar haqida ma'lumotlar (tarkibi, soni, texnik jihozlanganligi, aloqalari, ixtisoslasghuvi)

Jabrlanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar, firibgar bilan muomala qilingan holatlar

Firibgarlik sodir etilishiga ko'maklashgan sharoitlar

2-§. Dastlabki tergov va tezkor-qidiruv harakatlari

Firibgarlikning sodir etilish usullarini bilish tergovni muvaffaqiyatli olib borishga imkon beradi, chunki shu asosda u yoki bu tergov harakatlarini o'tkazish rejalashtiriladi, ularni o'tkazishning ketma-ketligi va taktikasi aniqlanadi hamda tezkor-qidiruv tadbirlari belgilanadi. Firibgarlikning ko'p tarqalgan usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ijtimoiy ta'minot organlaridan davlat nafaqalari va boshqa to'lovlarni soxta hujjatlar yordamida noqonuniy yo'l bilan olish,

bunday hujjatlar korxonada, muassasa va tashkilotlar mansabdor shaxslaridan pora berish orqali sotib olinadi;

2) u yoki bu tovarlarni kreditga olish yo`li bilan davlat mulkini egallash va qolgan summani to`lashdan bosh tortish;

3) davlat va jamoat mulkini soxta yoki o`zgalarning hujjatini ko`rsatish yo`li bilan egallash;

4) davlat va jamoat mulkini ko`p miqdordagi pullarni maydalab olishda kassirlarni hisobda aldash yo`li bilan egallash.

Fuqarolarning shaxsiy mulkini firibgarlik yo`li bilan egallash usullaridan biri:

1) xaridorga u sotib olayotgan narsa o`rniga boshqa narsani berish tez-tez uchraydi. Bu hollarda tergov rejasi tuzishda va tegishli versiyalar yuritiladi. Yuritiladigan tipik versiyalarga shartli ravishda quyidagilarni kiritish mumkin:

1) firibgarlik haqiqatan ham yuz berganmi?

2) firibgarlik sodir etilmagan, lekin arizachi vijdonan adashgan?

3) firibgarlik sodir etilmagan, lekin arizachi ataylab yolg'on xabar bergan (firibgarlik).

Firibgarlik jinoyatini terlashda xususiy versiyalar ham yuritilishi mumkin, ularga quyidagilar kiradi.

1) firibgarlarni shaxsi to`g`risida;

2) sodir etilgan jinoyat natijasida olingan mulklarni saqlash va sotish joylari to`g`risida;

3) firibgarlik sodir etilish holatlari to`g`risida;

4) firibgarlik natijasida keltirilgan zarar miqdori to`g`risida.

Agar tergovning boshlanishida firibgarning shaxsi aniq bo`lmasa, dastlabki tergov harakatlarida quyidagilar amalga oshiriladi: jabrlanuvchini so`roq qilish, ko`zdan kechirish, fotosuratlar orqali tanib olish uchun ko`rsatish, gumon qilinuvchini ushlash, tintuv qilish, so`roq qilish.

Jabrlanuvchi yoki moddiy javobgar shaxsni so`roq qilishda jinoyat sodir etilishidagi barcha holatlar aniqlanishi kerak. Shuni nazarda tutish kerakki, ba`zi vaqtlarda jabrlanuvchilar sodir etilgan jinoyat to`g`risida qo`rqib yoki uyalib, istar-istamas ko`rsatuv beradilar. Tergovchi bu holatlarni e`tiborga olib u bilan psixologik aloqa o`rnatishga harakat qilishi kerak yoki shunday holat yaratish kerakki, jabrlanuvchi so`roq vaqtida o`zini erkin his etsin.

Firibgarlik jinoyatini terlashda firibgarlarning alohida va ko`zga tashlanib turadigan belgilarini aniqlash muhim ahamiyatga

ega. Ba'zi hollarda so'roq qiluvchiga shaxslarning tashqi ko'rinishini xarakterlovchi suratlarni ko'rsatish mumkin. Agar jabrlanuvchi firibgarning tashqi ko'rinishi belgilarini eslab qolgan bo'lsa, unga yuz tuzilishi belgilarini chizib ko'rsatish taklif etiladi.

Jabrlanuvchini so'roq qilishda quyidagi holatlar mumkin qadar mukammal aniqlanishi kerak:

- 1) firibgarlik qachon, qayerda sodir etilganligi;
- 2) jabrlanuvchi qanday holatlarga ko'ra, jinoyat sodir etilgan joyda hozir bo'lganligi;
- 3) firibgarlar necha kishi bo'lganligi, ular o'zlarini qanday tutganligi, bir-birlari bilan qanday muomala qilganliklari;
- 4) jinoyatchilar firibgarlikning qanday usullaridan foydalanganligi;
- 5) firibgarlar jabrlanuvchiga qanday predmet yoki hujjatlar berganligi;
- 6) qanday buyumlarni olganligi;
- 7) sodir etilgan jinoyat to'g'risida jabrlanuvchi kimga xabar berganligi.

Predmetlar, hujjatlar va voqea joyini ko'zdan kechirish.

Jinoyat izlarni va boshqa ashyoviy dalillarni qidirib topish, qayd etish va olish maqsadida ko'zdan kechirish o'tkaziladi. Jabrlanuvchilarning yonlaridan yoki jinoyat sodir etilgan joyidan hujjatlar, narsalar, qalbaki pullar, turli yozuvlar, kvitansiyalar, pasport, guvohnoma, ishonchnoma topilishi bilanoq darhol ko'zdan kechirilishi lozim, bu o'z navbatida jinoyatchining shaxsi to'g'risida ma'lumotlar to'plash imkoniyatini beradi.

Jabrlanuvchilar tomonidan tergovchiga byerilgan predmet va hujjatlarni ulardan firibgarlarning barmoq izlarini qidirib topish maqsadida diqqat bilan ko'zdan kechirish kerak.

Firibgarlik jinoyati sodir etilgandan keyin o'tgan vaqtni inobatga olgan holda voqea joyida ko'zdan kechirish o'tkaziladi. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha voqea joyi tushunchasi kengroq ma'noga ega. Firibgar jabrlanuvchi bilan bir joyda tanishib olishi mumkin, boshqa joyda uni aldashi va uchinchi joyda esa undan pul yoki qimmatbaho narsalarni olib yashirinishi mumkin. Aniq vaziyatga qarab qayerni va qanday holatlarni ko'zdan kechirishni tergovchi o'zi hal qiladi. Har ehtimolga ko'ra, firibgar va jabrlanuvchining oxirgi uchrashgan joyi albatta ko'zdan kechirilishi shart.

Voqea joyini ko'zdan kechirishda tergovchi uning umumiy holatini bevosita o'rganadi, firibgarlikning qayerda sodir etilganligini, jinoyatchi bu joyni oldindan bilishi yoki bilmasligini, kirish va chiqish yo'llarini bilishi kabi holatlarni aniqlaydi.

Firibgarlar tomonidan qoldirilgan qo'l izlarini qidirib topishda, jabrlanuvchilarning ishtirok etishi maqsadga muvofiq, chunki ular qanday predmetlarga firibgar qo'l urganligini aytishlari mumkin.

Dastlabki tergovni amalga oshirish bilan bir vaqtda firibgar va u g'ayriqonuniy erishgan mulkni qidirib topish maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlari ham olib boriladi.

Firibgarlik jinoyatini ochish va firibgarlarni qidirib topishda keng jamoatchilik yordamiga suyanish lozim. Ularning firibgarlarni qidirib topishdagi ishtirok etish imkoniyatlari turlicha bo'lishi mumkin: militsiya xodimlari ishchi-xizmatchilar yig'ilishlarida, mahalliy radio orqali, televideniye va matbuot vositalari orqali chiqishlaridan keyin ularning yordamlari tegishi mumkin.

Eng avvalo, firibgarlarni issig'ida qidirib topish tadbirlari amalga oshiriladi. Bu tadbirlarni maxsus tuzilgan tezkor-qidiruv guruhi amalga oshiradilar. Ular do'konlar, bozorlar, vokzal va metrolarda patrullik qilib firibgarlarni kuzatadilar. Firibgarlarni qidirib topishda jinoiy ro'yxatdan ham keng foydalaniladi.

Firibgarlar ushlanish vaqtida turli hiyla-nayrang ishlatishlari mumkin. Bunday vaqtlarda ushlanganlarning xatti-harakati zimdan kuzatilmog'i kerak, ularni qochib qolishining oldini olish, jinoyat qurollari, jabrlanuvchidan olgan pul va buyumlarni otib yubormaslik choralari ko'rib qo'yish kerak. Firibgarlikda gumon qilingan shaxslar ushlanganda darhol shaxsiy tintuvdan o'tkazish darkor va undan firibgarlik bilan topilgan barcha pul, qimmatbaho narsalar olib qo'yiladi.

3-§. Keyingi tergov harakatlari

Guvohlarni so'roq qilish. Firibgarlar jinoyatni odatdagidek, jabrlanuvchining va boshqa shaxslarning ishtirokisiz amalga oshirishga harakat qiladilar, shunday bo'lsa ham firibgarlikning sodir etilishi to'g'risida nimanidir gapirib berishi mumkin bo'lgan guvohlarni aniqlash mumkin. Bunday guvohlar jabrlanuvchining firibgarga pul yoki boshqa qimmatli buyumlarni berganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan, suhbatini eshitgan, firibgarning jinoyatni sodir

etishidan oldingi va keyingi harakatlarini kuzatgan bo'lishlari mumkin. Ba'zi vaqtlarda jabrlanuvchiga tanish bo'lgan odamlar jabrlanuvchi bilan firibgar o'rtasida bitim tuzilayotganda ishtirok etadilar. Bunday guvohlar ko'pincha jabrlanuvchini so'roq qilish jarayonida, jamoatchilik yordamida, voqea joyini ko'zdan kechirishda va ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv yo'li bilan aniqlanadi. Guvohlarni so'roq qilishda jinoyatni sodir etilishida ularga ma'lum bo'lgan barcha holatlar aniqlanadi, ayniqsa firibgarning tashqi ko'rinish belgilarini aniqlashga asosiy e'tibor qaratilmog'i lozim. Ba'zi vaqtlarda ayblanuvchi va jabrlanuvchining shaxsi to'g'risida hamda ular bilan o'zining o'zaro munosabatlari to'g'risida ma'lumot beruvchi guvohlarni so'roq qilishga ham to'g'ri keladi. Shuning uchun so'roq vaqtida ularning ayblanuvchiga nisbatan har qanday munosabati aniqlanishi kerak.

Guvohlarni so'roq qilishda quyidagi masalalar hal etilmog'i lozim: ayblanuvchining turmush tarzi, jinoyatni sodir etishdan oldin ishlagan-ishlamaganligi, ayblanuvchining boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabati, bo'sh vaqtlarini kim bilan va qanday o'tkazishi, uning do'stlari orasida muqaddam sudlanganlar bor-yo'qligi, ayblanuvchining jinoiy faoliyati to'g'risida guvohga nimalar ma'lumligi.

Gumon qilinuvchini so'roq qilish. Odatda gumon qilinuvchi ushlangan va tintuv o'tkazilgandan keyin darhol so'roq qilinadi. So'roqqa tayyorgarlik ko'rishda tergovchi ish bo'yicha to'plangan barcha materiallarni diqqat bilan yana bir bor tahlil qilib chiqishi tavsiya etiladi.

Jinoyatning ustida ushlangan firibgar, ko'pincha turli hiylanayrang ishlatib aybdor ekanligini darhol tan olmaydi. Ko'pincha u hech qanday jinoyat sodir etmaganligi to'g'risida gapirib, ushlanishi noqonuniy ekanligini bildiradi. Agar firibgar o'zining ishtirokchilari bilan birga ushlansa, ularni birinchi marta ko'rayotganligini gapirishi mumkin, ishtirokchi ekanliklari isbotlangan hollarda esa, ular bilan uchrashuv tasodifiy bo'lganligini tushuntirishga o'tib oladilar.

Gumon qilinuvchini so'roq qilishda undan firibgarlikni sodir etish usuli aniqlab olinadi, zarurati bo'lsa, uni qayta ko'rsatish taklif etiladi. Firibgarlikda ushlangan shaxsning ko'rsatuvini qayta tekshirish usuli firibgarga qo'yilgan aybni inkor etsa, unga ushlash to'g'risidagi bayonnoma, ushlash vaqtida ishtirok etgan militsiya

xodimining ko'rsatuvlari, shaxsiy tintuv bayonnomasi bilan tanishtiriladi va jabrlanuvchi bilan yuzlashtirish o'tkaziladi.

Jinoyat sodir etilgandan keyin bir muncha vaqt o'tgandan keyin ushlangan firibgarlar jinoyat sodir etilganda boshqa joyda ekanligini vaj qilib jinoyat sodir etmaganliklari to'g'risida ko'rsatuv beradilar. Bunday vaqtda tergovchi to'plangan materiallar asosida uni fosh etishi zarur.

Firibgarlik jinoyatini terlashda ko'proq o'tkaziladigan tergov harakatlaridan biri shaxs va buyumlarni tanib olish uchun ko'rsatish hisoblanadi. Firibgarlik ishlari bo'yicha shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish uslubi o'ziga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarga ega. Jumladan, firibgarlarni tanib olish uchun ko'rsatishda ular ishlatadigan turli nayranglarini hisobga olish zarur bo'ladi. Ko'pincha ular jinoyatni sodir etishdan oldin o'zlarining tashqi ko'rinishlarini o'zgartirishlari mumkin: kiyimini o'zgartirishi, sochini yasama soch bilan almashtirishi, soqol-mo'ylovini o'stirib yuborishi, ko'zoynak taqib olishi va hokazo. Shuning uchun ham shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishda jabrlanuvchini shoshiltirmaslik kerak, u tanib olinayotganning, tashqi ko'rinish belgilarini sinchiklab o'rganishi uchun to'liq imkoniyat yaratilib berilishi kerak.

Jabrlanuvchi yoki guvohlarga turli buyumlar ham tanib olish uchun ko'rsatilishi mumkin. Buyumlar oldin jabrlanuvchiga tegishli bo'lib, undan firibgarlar aldov yo'li bilan olgan bo'lib, tintuv vaqtda firibgardan topilgan bo'lsa tanib olish uchun ko'rsatiladi.

Ekspertiza tayinlash. Firibgarlik jinoyatini terlashda ko'pincha dastxatning ekspertizasi, hujjatlarni texnikaviy-kriminalistik ekspertizasi va trasologik ekspertizalari tayinlanadi.

Kriminalistik ekspertizasi yordamida shaxslarni dastxatlari bo'yicha identifikatsiya qilish, hujjatlarni yoki ularning ayrim rekvizitlarini (qismlarini) tayyorlash usullarini aniqlash, hujjatlardagi dastlabki yozuvlarni qayta tiklash kabi masalalar hal etiladi. Ba'zi vaqtlarda bo'laklardan bir butunlikni aniqlash uchun ham trasologik ekspertizasi tayinlanadi.

Firibgarlik jinoyatini terlashda sud-ximiya, texnikaviy ekspertizalar ham tayinlanadi. Ular yordamida suyuqliklarning ximiyaviy tarkibini, qalbaki pullarni tayyorlash usullari aniqlanadi.

Firibgarlik jinoyatini oldini olish choralari. Firibgarlik bilan bog'liq bo'lgan har qanday ishni terlashda mazkur jinoyatni keltirib

chiqargan sabab va sharoitlarni aniqlash zarur. Keyinchalik shu asosda bunday jinoyatning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Firibgarlikning sodir etilishidagi asosiy sabablar ayblanuvchilarning ongiga singib qolgan jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan egoistik ko'nikmalar hisoblanadi. Bu o'tgan davr eskilik sarqitlari bo'lmish tekinxo'rlik, xudbinlik, manfaatparastlik ko'rinishlarida ifodalanishi mumkin. Ko'p hollarda bunday xususiyatlarning yuzaga kelishiga ijtimoiy foydali mehnatdan qochish, firibgar ishlayotgan jamoada tarbiyaviy ishlarning sustligi, atrofdagi odamlarning salbiy ta'siri sabab bo'ladi.

Firibgarlikning sodir etilishiga ma'lum darajada ayrim shaxslarning, xususan jabrlanuvchilarning noto'g'ri harakatlari, ichki ishlar organlari va jamoatchilikning bu turdagi jinoyatning ochilish va uning oldini olishga qaratilgan ishlarning yetarlicha tashkil etilmaganligi, ayrim rahbarlarning ko'ngilchanligi, beparvoligi, shuningdek, turli xil hujjat qog'ozlarining o'g'irlanishi sabab bo'ladi. Ba'zi tashkilotlarda nazorat qilishning pastligi ushbu tashkilotda ishlayotgan shaxslar tomonidan qalbaki hujjatlararo orqali pul mablag'larini olishga imkoniyat tug'diradi.

Jinoyatni tergash jarayonida firibgarlikning sodir etilishiga olib kelgan barcha sabab va shart-sharoitlar aniqlangandan keyin, ularning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Jumladan, tegishli korxonalar, muassasa, tashkilotlar va jamoat tashkilotlariga aniqlangan holat va shart-sharoitlarni yo'qotish chora-tadbirlarini ko'rish to'g'risida taqdimnoma yuboriladi. Tergov davomida firibgarlikni jabrlanuvchining o'zi sodir etgan bo'lsa, bunga jabrlanuvchining diqqatini jalb etish zarur. Bunday jinoyatning oldini olishda televideniye, radio va ommaviy axborot vositalaridan ham foydalanish lozim.

1-§. Poraxo`rlikning kriminalistik tavsifi

Poraxo`rlik har doim mansabdor shaxsning xizmat vazifalarini o`z g`arazli maqsadlari yo`lida suiistemol qilishi bilan bog`liq va ko`pgina hollarda yashirincha, guvohlarsiz yuz beradi. Poraxo`rlikda jinoyat sub`yektlarining odatiy aloqa sxemasi quyidagicha: pora beruvchi – pora oluvchi, ba`zan esa, pora beruvchi – vositachi – pora oluvchidan iborat. Masalan, savdo sohasidagi poraxo`rlikda ko`pincha pora oluvchining bir necha vositachi bilan aloqasi bo`ladi. Bunda vositachilar mustaqil, ba`zan esa o`zaro xizmat bilan bog`liq bo`ladilar. Vositachi o`zining ulushini olgan holda jinoyatni sir tutishga harakat qiladi va odatda poraxo`rlik tashabbuskorining ishonchli odami bo`ladi. Bu aloqa bajarilishi jarayoni nihoyatda sir saqlanadi. Poraxo`rlar pora beruvchi jinoyat ustida qo`lga tushganda qanday bahona to`qishini avvaldan kelishib qo`yadi. Jinoyatni yashirishning turli usullari bor: «sovg`a qilish», «qarz berish», korxonaning shtatiga ishchi, xodim sifatida qabul qilish va maosh to`lash yoki moddiy rag`batlantirish va hokazo.

Poraxo`rlikning natijasi har doim ham moddiy qayd qilinmaydi. Ammo bir qator vaziyatlarda jinoyatga aloqador shaxslarning barmoq izlari pora predmetida, o`ramda qoladi, ba`zan esa poraxo`rlikning boshqa izlari ham saqlanib qoladi (tovar cheklari, etiketkalar, pul, qimmatbaho narsalar, jinoyatchilarning shaxsiy yozuvlari va boshqalar).

Poraxo`rlik ko`pgina hollarda davlat yoki jamoat mulkini talon-taroj qilish, xizmat vakolatlarini suiste`mol qilish va boshqa jinoyatlar bilan bog`liq.

Poraxo`rlikning kriminal tavsifi jinoyat sodir etishning quyidagi tipik holatlari bilan bog`liq: a) pora beruvchining manfaatlarini ko`zlovchi noqonuniy harakatlar bilan bog`liq poraxo`rlik; b) pora beruvchining manfaatlarini ko`zlovchi qonuniy harakatlar bilan bog`liq poraxo`rlik, masalan: uy-joy yoki biror mablag` olishni tezlashtirish maqsadida; v) vositachilarsiz pora berish va olish; g) vositachilar yordamida pora berish va olish; d) ta`magirlik yo`li bilan pora olish; e) ta`magirliksiz pora olish.

2-§. Tipik tergov vaziyatlari, versiyalari va tergovni rejalashtirish

Poraxo`rlik haqidagi jinoyat ishi jamoatchilik, mansabdor shaxslar vakillarining ma`lumotlariga ko`ra, fuqarolarning arizalari, matbuotdagi xabarlar va militsiya organlarining tezkor-qidiruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tergovchi, jinoyat ishi qo`zg`atish haqida qaror qabul qilarkan, yuz bergan tergov vaziyati va boshlang`ich ma`lumotlarni baholaydi va ularga asosan versiyalar ishlab chiqadi hamda tergov rejasini tuzadi.

Poraxo`rlikni tergov qilishning tipik vaziyatlariga quyidagilar kiradi:

PORAXO`RLIKNI TERGOV QILISHNING DASTLABKI BOSQICHIDAGI TIPIK VAZIYATLAR VA TERGOVCHINING XATTI-HARAKATLARI

PORA BERUVCHINING ARIZASI BOR VA U PORA OLUVCHINI FOSH ETISHDA HAMKORLIK QILISHGA TAYYOR

Pora oluvchini ashyoviy dalil bilan ushlab tezkor tadbirlarni va tergov harakatlari o`tkazish

Pora beruvchini so`roq qilish

Pora oluvchini ushlab va shaxsiy tintuv o`tkazish

Hodisa soir bo`lgan joyni ko`zdan kechirish

Hujjatlarni olib qo`yish va ko`zdan kechirish

Guvoh va boshqa xabardor shaxslarni so`roq qilish

Yuzlashtiri

Poraxo`rning yashash va ish joyida tintuv o`tkazish va uning mol-mulkiga band solish

Surishtiruv organlariga tezkor-qidiruv choralarini amalga oshirishni topshirish

Pora oluvchining mansabdor vakollatlari doirasi bilan tanishuv

PORA OLUVCHI VA PORA BERUVCHI O'ZARO KELISHIB HARAKAT QILGAN: JINOYAT HAQIDAGI AXBOROT TEZKOR MANBALARDAN TUSHGAN

Guvohlarni so'roq qilish

Hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish

Surishtiruv organlariga tezkor qidiruv choralarini amalga oshirishni topshirish

Pora beruvchi va pora oluvchini ashyoviy dalillar bilan ushlash; ularni shaxsiy tintuv qilish

Poraxo'rning yashash joyida tintuv o'tkazish; mol-mulkiga band solish

Gumon qilinuvchilarni so'roq qilish

PORAXO'RLIK FAKTI HAQIDAGI AXBOROT RASMIY MANBALARDAN TUSHGAN. PORAXO'RLARGA ULARNING HARAKATLARI BILAN HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARINING XODIMLARI QIZIQAYOTGANLIGI MA'ITIM

Guvohlarni so'roq qilish

Hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish

Surishtiruv organlariga tezkor qidiruv choralarini amalga oshirishni topshirish

KEYINGI TERGOV HARAKATLARI

Tanib olish uchun ko'rsatish

Guvohlarni so'roq qilish

Ayblanuvchilarni so'roq qilish

Yuzlashtirish

Sud ekspertizalarini tayinlash

Ma'lum bir mansabdor shaxs tomonidan pora olinganligi haqida aniq dalil mavjud. Bunday hollarda, odatda, jinoyat ishi qo'zg'atiladi va tergov rejasi tuziladi. Boshlang'ich tergov jarayonida: guvohlarni so'roq qilish, mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlovchi harakatlar qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish; pora beruvchini ushlash va so'roq qilish; sheriklarni tintuv qilish, pora predmetini ko'zdan kechirish; yuzlashtirish, kriminalistik ekspertiza tayinlash, kerak bo'lsa hujjatlarni sud-dastxat yoki kriminalistik texnik o'rganish, tovarshunoslik ekspertizasi tayinlash, tintuv paytida shubhalanuvchidan olib qo'yilgan narsalarning turi va sifatini aniqlash, sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlab, mablag' to'lovlari

to'g'riligini hisobga olish bilan bog'liq masalalarni hal qilish lozim. Tergov harakatlari bilan ayni vaqtda poraxo'ning sheriklarini va har bir shaxsning jinoyatdagi rolini aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkaziladi.

Ma'lum bir mansabdor shaxsga pora va'da qilinganligi yoki berilishi haqida ma'lumotlar bor bo'lsa, bunday holatda jinoyat ishi qo'zg'atishga asosni boshlang'ich tekshiruvdan o'tkazish, mansabdor shaxsning aloqalarini tekshirish, uning pora beruvchi manfaatini ko'zlagan holda xizmat doiratsi imkoniyatlari va harakatlarini aniqlash, pora beruvchi va pora oluvchini jinoyat ustida qo'lga tushirish bo'yicha tegishli tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish zarur. Bunday vaziyatda boshlang'ich tergov harakatlari quyidagicha tus oladi: da'vo qiluvchini so'roq qilish, jinoyat ustida qo'lga tushirish, pora oluvchining uy-joyi va ish xonasida tintuv o'tkazish, pora predmetlarini ko'zdan kechirish, guvoh va shubha ostidagilarni so'roq qilish, ekspertizalar tayinlash.

Porani tamagirlik yo'li bilan olinganligi haqida dalillar mavjud bo'lsa, olingan ma'lumotni dastlabki tekshiruvdan o'tkazish zarur. Haqiqatdan ham pora oluvchi o'ziga tobe shaxsni uning noqonuniy talablarini qondirishga majbur qiluvchi sharoit yaratganligini aniqlash zarur. Mansabdor shaxsga nisbatan ig'vogarlik boryo'qligini aniqlab, jinoyat ishi qo'zg'atish va tergov o'tkazish haqida qaror qabul qilish zarur. Dastlabki tergov vaqtida kriminal hisobotlar, arxiv materiallaridan foydalaniladi, tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkaziladi. Tergovchi mansabdor shaxsning vakolati bilan tanishadi, da'vo qiluvchi va boshqa shaxslardan tushuntirishlar oladi, zarur hollarda mansabdor shaxsning ma'lum bir muddatdagi mehnat faoliyatini tekshirish maqsadida reviziya yoki inventarizatsiya tashkil qiladi. Ko'rsatib o'tilgan vaziyatda quyidagi boshlang'ich tergov harakatlari amalga oshiriladi: arz qiluvchi va boshqa guvohlarni so'roq qilish, poraxo'ni jinoyat ustida qo'lga olish, uni tintuv qilish va so'roqqa tutish, pora predmetlarini ko'zdan kechirish, hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish, shubha ostidagilarni so'roq qilish, yuzlashtirish, ekspertizalar tayinlash. Masalan, buxgalteriya hujjatlarini to'g'ri va qonuniy hujjatlash-tirishni tekshirish uchun sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash lozim.

Poraxo'rlikni tergov qilish jarayonida quyidagi versiyalar yuzaga keladi va tekshiriladi:

- poraxo`rlik haqiqatdan ham jinoyat ishi qo`zg`atishga asos bo`luvchi materiallarda ko`rsatilgan sharoitlarda sodir bo`lgan;

- poraxo`rlik sodir etilgan, ammo soxta mansabdor-firibgar shaxsga berilgan;

- pul mansabdor shaxsga qonuniy ravishda berilgan (qarzni qaytarish), pora haqida ariza – vijdonan yanglishgan;

- mansabdor shaxsga pora berilmagan, chunonchi, noqonuniy talabni bajarishdan bosh tortgani uchun unga tuhmat qilingan;

- mansabdor shaxs boshqa shaxsning manfaatlarini ko`zlab ma`lum bir xizmat harakatlarini amalga oshirgan va pora olmagan.

Ko`pincha poraxo`rlik mansabdor shaxsni qalbakilashtirish harakatlari bilan ham bog`liq. Shuning uchun poraxo`rlikni tergov qilishda poraxo`rlikni boshqa jinoyatlar bilan aloqa versiyalarini ham tekshirish zarur. Versiyalardan kelib chiqqan holda, tergov harakatlarining ketma-ketligi, o`tkazish vaqtlari va ijrochilari rejalashtiriladi. Poraxo`rlik haqidagi ish odatda ko`p epizodli bo`ladi. Rejalashtirishda tashkiliy va tayyorlov tadbirlariga, tergov harakatlarini o`tkazishda kriminalistik texnik vositalar yordamiga va mutaxassislarni ishtirokiga yyetarli e`tibor berish zarur. Shuningdek, poraxo`rlikka imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlovchi tadbirlarni amalga oshirish ham ko`zda tutiladi. Murakkab, ko`p epizodli tergov ishi tergovchilar guruhiga topshiriladi.

3-§. Dastlabki va keyingi tergov harakatlari

Jinoyat ustida qo`lga tushirish – poraxo`rlarni fosh etishning samarali usulidir. Odatda, u da`vo qiluvchi shaxsning har tomonlama tekshirilgan pora ta`magirligi bo`yicha, arizasi bo`yicha amalga oshiriladi. Poraxo`rlarni fosh etish uchun sud-tezkor fotografiyasi, kinotasvir va tezkor-qidiruv vositalari qo`llanilishi mumkin.

Jinoyat ustida qo`lga olish ishning ma`lum holatlari bilan bog`liq bo`lib va porani berish-olish paytida yoki bergan zahoti amalga oshiriladi. Qo`lga olish vaqtida pora oluvchi ashyoviy dalillardan – pora predmetidan qutula olmasligi muhimdir. Sheriklarni aniqlash uchun qo`lga olishni pora predmetini uchinchi shaxsga berish yoki pullash vaqtida o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Jinoyat ustida qo`lga olishni sinchkov tarzda rejalashtirish zarur. Jinoyat ustida qo`lga olingandan so`ng pora oluvchini o`sha zahoti,

pora predmeti unga qay yo`nda kelib tushganligi haqida bahona topmasidan turib so`roq qilish kerak. Bunday holatlarda ko`pincha pora oluvchi o`z aybini tan oladi va haqqoniy ko`rsatuvlar bera boshlaydi.

Tintuv. Shaxsiy tintuv va poraxo`r sheriklarining uy-joylarini hamda mansabdor shaxsning-pora oluvchining ish joyini tintuv qilish mazkur jinoyatni tayyorlash to`g`risida guvohlik beruvchi hujjatlar va pora predmetlarini, jinoiy yo`l bilan topilgan moddiy boyliklarni topish va olib qo`yish maqsadida amalga oshiriladi. Odatda shaxsiy tintuv va xona tintuvi bir vaqtda amalga oshiriladi. Alohida e`tibor poraxo`rlik sheriklarining aloqasini tasdiqlovchi xatlarga, pochta kvitansiyalari, turli xil yozuvlar, telefon nomerlariga qaratilishi lozim. Tintuv paytida shuningdek, shifrlangan yozuvlar, shubha ostidagi shaxs o`z aloqasini inkor etuvchi shaxs tushgan fotosuratlariga e`tibor berish kerak.

Hujjatlarni ko`zdan kechirish juda muhim tergov harakatlaridan biridir. Ba`zi bir holatlarda u pora olish-berish holatlariga aloqadorlarni aniqlashga imkon yaratsa, boshqa bir holatlarda poraxo`rlikka yo`l ochib beruvchi hisobotni yo`lga qo`yilmaganligini aniqlaydi, uchinchidan mansabdor shaxsni pora beruvchining manfaatlarini ko`zlab ma`lum bir harakatlarni amalga oshirganligi yoki oshirmaganligini tasdiqlaydi. Hujjatlarni ko`zdan kechirish jinoyatchi kiritgan o`zgarishlar, qalbakilashtirish, hujjatlarni ratsmiylashtirishning noodatiyligi, tegishli rekvizitlarning mavjudligi, mansabdor shaxsning ish bajarilganligi to`g`risidagi viza va belgilarini aniqlashga yordam beradi. Poraxo`rlar o`z jinoiy kirdikorlari izlarini yo`q qila olmasliklari uchun hujjatlarni ko`zdan kechirishni kechiktirib bo`lmaydi.

Guvohlarni so`roq qilish. Poraxo`rlik bo`yicha guvohlik berishi mumkin bo`lgan shaxslar guruhi jinoyat ishi qo`zg`atilishiga asos bo`lgan materiallarga bog`liq. Quyidagilar odatda guvoh sifatida so`roq qilinadilar: ularga nisbatan ta`magirlik qilgan shaxslar, porani berish-olishni ko`rganlar; poraxo`rni jinoyat ustida qo`lga olishda ishtirok etganlar; poraxo`rlikda gumon qilinayotgan mansabdor shaxsning xizmat faoliyati bilan tanish bo`lganlar yoki uning ko`rsatmalarini bajarganlar; poraxo`rning shaxsi va axloqini ta`riflab bera oluvchilar (hamkasabalar, qo`shnilar, qarindoshlar). Bu guvohlar guruhi poraxo`rlik sheriklarining aloqalari va pora berishning shart-sharoitlari haqida foydali ma`lumot bera oladilar.

Guvohlik olingandan so`ng guvoh-xolisning pora berilgan (olingan) joyda ko`rsatuvlarini tekshirish mumkin.

Poraxo`rlikni tergov qilishning ba`zi hollarida pora berish-olish, shuningdek boshqa harakatlarni amalga oshirishda kuzatishni tekshirish uchun tergov eksperimentlari o`tkaziladi.

Poraxo`rlikni fosh etishda sud ekspertizalari katta rol o`ynaydi. Ko`p hollarda, pora predmetida yoki uning o`ramida qo`l barmoqlari va kaftning izi, kundalik, daftar, yon kitobchalarda – pora berish bilan bog`liq yozuvlar, bloknotlarning toza varaqlarida tekstning bosilgan izlarini aniqlash mumkin. Ularni o`rganish uchun hujjatlarni kriminalistik-texnik ekspertizasi, mikrozarachalar, material va moddalarni o`rganish uchun tratsologik ekspertiza, ba`zan esa kompleks ekspertizalar o`tkaziladi.

31-bob. MEHNAT XAVFSIZLIGI QOIDALARINING JINOIY TARZDA BUZILISHINI TERGOV QILISH

1-§. Ushbu turdagi jinoyatlar^{ning} kriminalistik tavsifi

Mehnat xavfsizligi qoidalarining jinoyatkorona buzilishi katta ijtimoiy xavf tug'diradi. Ular odamlar o'limiga sabab bo'ladi, ularning sog'lig'iga zarar yetkazadi, ishlab chiqarishga moddiy ziyon keltiradi. Mazkur jinoyatning barcha holatlarini o'z vaqtida, to'liq va xolisona aniqlash aybdorlarni javobgarlikka tortish uchungina emas, balki shu turdagi jinoyatlar sodir etilishiga imkon bergan sharoitlarni bartaraf etish uchun ham muhimdir.

Mehnat sharoitlarining xavfsizligini texnikadan foydalanish, sanoat sanitariyasiga oid umumiy va tarmoq qoidalari ta'minlaydi. Bunday qoidalar hukumat tomonidan kasaba uyushmalari va vazirliklar (idoralar) bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Ularga rioya etilishi ustidan nazorat qilish kasaba uyushmalari qo'mitalari, shuningdek maxsus nazorat organlari ("Sanoattexnazorat", "Energonazorat") zimmasiga yuklatilgan. Sanitariya nazoratini davlat sanitariya inspeksiyasi organlari, yong'indan saqlash nazoratini – yong'indan muhofaza qilish organlari amalga oshiradi.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarining odamlar bilan baxtsiz hodisalar yuz berishiga yoki boshqa oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan buzilishlari jinoyat deb topiladi. Yo'l qo'yilgan buzilishlar uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish va texnika xavfsizligini ta'minlash o'z vazifalari doiratsiga kiruvchi mansabdor shaxslar javobgar bo'ladilar.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari mehnatni muhofaza qilish qoidalari jinoiy tarzda buzilishining ikkita turini nazarda tutadi: 1) sog'liqqa zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan buzilishlar; 2) odam o'limiga sabab bo'lgan buzilishlar.

Kon ishlari xavfsizligi qoidalari buzilishi, qurilish ishlarini bajarish qoidalari buzilishi, portlash xavfi bo'lgan korxonalarda yoki sexlarda xavfsizlik qoidalari buzilishi alohida turlarini tashkil etadi. Tergov qilish uslubiyoti yo'l qo'yilgan buzilish turini va u sodir etgan muayyan sharoitlarni hisobga olib belgilanadi.

Buzilish sabablarini uch guruhga bo'lish mumkin: texnikaviy, tashkiliy, sanitariyaviy. Birinchi guruhga agregatlar, mashinalar,

jihozlar, asbob-uskunalarining konstruktiv xususiyatlari va nuqsonlari; ikkinchisiga - ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklar; uchinchisiga - sanitariya-gigiyena tusidagi kamchiliklar (binolar ichining axlat bosganligi, yyyetarlicha yoritilmaganligi va h.k.) kiradi.

Ko`rsatib o`tilgan sabablar kamdan-kam hollarda alohida-alohida uchraydi. Odatda ular o`zaro aloqador, bir-biri bilan bog`liqdir. Chunonchi, buzilishning sanitariyaga xos sabablari yuzaga kelishiga ko`pincha tashkiliy kamchiliklar sabab bo`ladi. Jarohatlanish hollari jabrlanuvchining o`z beparvoligi va boshqa qoidabuzarliklari oqibati bo`lishi mumkin.

Mehnat xavfsizligi qoidalarining jinoiy tarzda buzilishini tergov qilishda jinoyat protsessual qonunida ko`rsatilgan barcha holatlar isbotlanishi kerak bo`ladi. Quyidagilarni mumkin qadar to`liq aniqlash muhim: 1) hodisa sodir bo`lgan joy (korxonada, sex, uchastka, ularning aniq joylashuvi); 2) hodisa sodir bo`lgan vaqt (sana, soat, minut, ish yoki dam olish vaqti va h.k.); 3) hodisa kelib chiqish mexanizmi (hodisa manbai, uning holati, rivojlanish jarayoni boshlanishidan to eng yuqori nuqtasigacha va natija, jarohatlanish mexanizmi va h.k.); 4) yuzaga kelgan (yoki yuz berishi mumkin bo`lgan) oqibatlarining (odamlar sog`lig`iga ziyon, moddiy zarar, ishlab chiqarish manfaatlariga zarar) xususiyati; 5) ishlab chiqarish xususiyati, texnologiyasi, ularning belgilangan normalariga muvofiqligi; 6) jabrlanuvchining shaxsi (ixtisosiy-malakasi, ish staji, hodisa vaqtida qanday ahvoldaligi, mehnat intizomiga, texnika xavfsizligi qoidalariga munosabati); 7) mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi muayyan qoidalari buzilishining aniq dalillari; 8) baxtsiz hodisaning sabablari; 9) buzilish va yuzaga kelgan natija o`rtasidagi sababiy bog`lanish (hodisaning aniq sabablari, ular uchun javobgar shaxslar, ularning jinoiy oqibatlarga olib kelgan harakatlari yoki harakatsizligining aniq dalillari, jabrlanuvchi aybining darajasi, jabrlangan xodim va bexatar mehnat shart-sharoitlarini yaratishga mas`ul mansabdor shaxslarning har ikkisi aybli ekanligi); 10) tekshirilayotgan ob`yektda va umuman korxonada mehnatni muhofaza qilishning ahvoli hamda uning xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi; 11) tegishli mansabdor shaxslar javobgarligi darajasi va xususiyatiga ta`sir ko`rsatadigan, shu jumladan aybini yengillashtiradigan va og`irlashtiradigan holatlar.

Barcha hollarda tergovchi jinoiy tarzda buzilishlar sodir

etilishiga ko`maklashgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko`rishi shart.

Mazkur toifadagi ishlarni tergov qilish ancha murakkab. Hodisa joyini ko`zdan kechirish, ekspertizalar tayinlash, hujjatlar bilan ishlash o`ta qiyinchilik tug`diradi. Jinoyat ishlarini qo`zg`atishni asossiz rad etish va ularni asossiz ravishda tugatish hollari tergovni qiyinlashtiradi. Hodisa joyini ko`zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, hujjatlar bilan tanishish o`ta qiyinchilik tug`diradi, tergov qilish muddatlarining cho`zilib ketishi, uning rejasizligi, poyma-poyligi, hodisa joyini kamdan-kam va kechikib ko`zdan kechirish, hodisa mexanizmining texnik masalalarini inkor qilish, sud-texnika ekspertizalari imkoniyatlaridan va mutaxassislar yordamidan yyetarlicha foydalanmaslik tergovning odatiy xatoliklari hisoblanadi.

2-§ Jinoyat ishini qo`zg`atish. Tergov qilishning dastlabki bosqichi

Ko`pincha jinoyat ishini qo`zg`atishga kasaba uyushmalari tashkilotlari, maxsus nazorat organlari, baxtsiz hodisa sodir bo`lgan korxonalar ma`muriyatining xabarlarini sabab bo`ladi.

Mavjud normativ hujjatlarga muvofiq guruhli, o`lim bilan tugagan va boshqa og`ir oqibatlariga olib kelgan hodisalar darhol kasaba uyushmasining texnik inspektori tomonidan, «Sanoatkontekstnazorat» nazorati ostidagi ob`yektlarda esa – shu organlarning inspektori tomonidan tekshirilmog`i lozim. Tekshirishda ma`muriyatning, kasaba uyushmasi va yuqori xo`jalik organining vakillari ishtirok etishlari kerak.

Alohida hollarda, texnik inspektor darhol yyetib kelishining imkoniyati bo`lmaganda, tekshirish komissiyasi, kasaba uyushmasi qo`mitasi va korxonalar ma`muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Bundan qat`i nazar, korxonalar rahbari hodisa haqida prokuratura organlariga darhol xabar qilishi shart.

Tekshirish materiallari (baxtsiz hodisa to`g`risidagi dalolatnoma, texnik inspektorning xulosasi, ko`zdan kechirishlarning bayonnomalari, guvohlardan, jabrlanuvchidan so`rab fikr to`plash bayonnomalari va h.k.) hodisa sodir bo`lgan paytdan e`tiboran 7 kundan kechiktirmay tergov organlariga yuboriladi.

Jinoyat ishini qo`zg`atish va uni protsessual tergov qilish

yuqorida ko`rsatib o`tilgan tekshirish bilan bog`liq emas. Protsessual tergov, ilgari tekshirishdan qat`i nazar, texnik inspektorning va boshqa nazorat organlari vakillarining harakatlari bilan bir vaqtda o`tkazilishi lozim.

Hujjatlarni tekshirib chiqish, so`roqlar o`tkazish, zaruriy ekspert tekshiruvlarini amalga oshirish ko`rib chiqilayotgan turdagi jinoyatlarni tergov qilishning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu harakatlarning barchasi o`zaro bog`liq va bir-birini taqozo etadi.

Hodisa sodir bo`lgan joyini ko`zdan kechirishdan oldin va ko`zdan kechirish jarayonida tergovchi harakatlarining yo`nalishi, xususiyati va maqsadi ishni qo`zg`atishda ikkita ehtimol tutilgan vaziyat mavjudligiga bog`liq bo`ladi: 1) hodisa to`g`risidagi xabar baxtsiz hodisadan so`ng darhol kelgan bo`ladi; 2) xabar ancha vaqt o`tgandan keyin kelgan bo`ladi. Birinchi holda tergovchi hodisa sodir bo`lgan joyini darhol ko`zdan kechirishi kerak, ikkinchisida – oldingi tekshirish natijalari bilan tanishishdan boshlash lozim. Biroq ikkala holda ham hodisa joyini ko`zdan kechirish – bajarilishi shart bo`lgan harakatdir.

Afsuski, ba`zi amaliyotchi xodimlar ko`pincha mazkur qoidani inkor etib, baxtsiz hodisa moddiy iz qoldirmaydi, qanchadir vaqtdan so`ng ko`zdan kechirish behuda, texnik inspektor o`tkazgan ko`zdan kechirish, tergov ko`zdan kechirishning o`rniga o`tishi mumkin deb hisoblaydilar.

Albatta, hodisa sodir bo`lgan vaziyatni uzoq vaqt o`zgarishsiz saqlab turish qiyin, ishlab chiqarish sharoitida esa, ba`zan iloji yo`q. Boy berilgan vaqt esa, shubhasiz, salbiy omildir. Biroq, shunday hollarda ham ko`zdan kechirish zarur. Moddiy izlarning hammasi hamisha ham yo`qolib ketavermaydi. Ko`zdan kechirish natijalari jabrlanuvchining, ayblanuvchining, guvohlarning ko`rsatuvlarini to`g`ri baholash uchun zarurdir. Ko`zdan kechirish paytida hodisaning haqiqiy holatlarini yashirishga urinishlarni payqab qolish mumkin. Masalan, elektr tokini ulash va uzib qo`yish moslamasida uning dastasi almashtirilishi, harakatlanuvchi mexanizmlarda yangi to`siqlar paydo bo`lishi mumkin. Salbiy holatlar ish uchun muhim ahamiyatga ega. Lekin ular odatda ko`zdan kechirish natijasida aniqlanadi.

Nihoyat, nazorat qiluvchi organing texnik inspektori amalga oshirgan ko`zdan kechirish quyidagi sabablarga ko`ra tergovchi ko`zdan kechirishining o`rnini bosa olmaydi: 1) birinchi holdagi

ko`zdan kechirishda uning xolisonaligini kafolotlovchi protsessual talablarga rioya etilmagan bo`ladi; 2) bu ko`zdan kechirishning sub`yyektlari ko`zdan kechirishning texnik vositalari va taktik usullaridan, uning natijalarini qayd etib qo`yish usullaridan foydalanish boratsida yetarlicha malakaga ega bo`lmaydilar; 3) nazorat organining vakili baxtsiz hodisa sodir bo`lgan korxonada ustidan nazorat qilish vazifasini bajarishi bois noxolis bo`lishi mumkin. Korxonada ma`muriyatining vakillarida yanada ko`proq manfaatdorlik va noxolislik namoyon bo`lishi mumkin.

Ko`zdan kechirishni kechiktirib bo`lmasligi bois, unga har taraflama puxta tayyorgarlik ko`rish shart. Ko`zdan kechirish boshlangunga qadar guvohlarni topish, ularning yordamida hodisaning asosiy jihatlarini aniqlashtirish, shuningdek hodisa joyida qanday o`zgartirishlar qilinganini, ularni kim, qachon va qanday maqsadda amalga oshirganini albatta aniqlash zarur.

Ko`zdan kechirishdan oldin uning chegaralari, ketma-ketligi, tugunlari (qismlari, uzellari) belgilab olinadi. Bunda uslubiy tavsiyalardan, tergov tajribasidan foydalaniladi. Masalan, qaysi agregat yoki dastgohda ishlash paytida baxtsizlik sodir bo`lgan bo`lsa, faqat o`sha agregat yoki dastgohni emas, balki ishlab chiqarishda u bilan bog`liq bo`lgan uchastkalarni ham ko`zdan kechirish kerakligidan dalolat beradi. Bu uchastkalarga butun ustaxonani, sexni va boshqa shu singarilarni qo`shib ko`zdan kechirish chegaralarini yanada kengaytirish zarur bo`lishi mumkin. Masalan, elektr toki urishi bir joyda yuz berishi mumkin, baxtsiz hodisa sababini esa elektr energiyasi taqsimlanadigan energiya uzeli yoki elektr uzatish tizimini ko`zdan kechirgandagina aniqlashga erishiladi.

Ko`zdan kechirish ishtirokchilari to`g`risidagi masala ham uning boshlanishidan oldin hal qilinishi kerak. Unda mutaxassislar ishtirok etishini ta`minlash ayniqsa muhimdir. Hodisaning moddiy izlarini topish, qayd etib qo`yish va olishga ularning ko`maklashishi ko`zdan kechirishning samarali bo`lishini kuchaytiradi. Biroq har doim mutaxassislarning yyetarlicha bilimiga egaligi va xolisligiga, ularning ishning natijasidan manfaatdorligiga ishonch hosil qilish zarur. Ko`zdan kechirishda ishtirok etishga jabrlanuvchilar, guvohlar va texnika xavfsizligi qoidalarini buzgan mansabdor shaxslar jalb etilishi mumkin. Ko`zdan kechirish ishtirokchilarining soni to`g`risidagi masalani hal etishda shuni esda tutish kerakki, ortiqcha

odamlar, odatda, ko`zdan kechirishga xalal beradi.

Ko`zdan kechirish usuli ko`zdan kechirish chegaratsiga bog`liq bo`ladi. Hodisa sodir bo`lgan joy katta bo`lganda u ayrim uchastkalarga – tugunlarga (uzellarga) bo`linadi.

Ko`zdan kechirishni markaziy tugundan boshlash maqsadga muvofiqdir. Agar hodisa sodir bo`lgan joyda murda yotgan bo`lsa, ko`zdan kechirish undan boshlanadi.

Ko`zdan kechirish jarayonida quyidagilar tekshirib chiqiladi: 1) qaysi agregat yoki dastgohda ishlash paytida baxtsiz hodisa yuz bergan bo`lsa, o`sha agregat yoki dastgoh; 2) mazkur agregat yoki dastgoh bilan texnik jihatdan bog`liq kabellar, transmissiyalar, transportyorlar, o`lchov va qayd etuvchi asboblari hamda ob`yektlar; 3) ishlovda bo`lgan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar; 4) jabrlanuvchi va u bilan birgalikda ishlagan shaxslar foydalangan asboblari va himoya vositalari (ko`zoynaklar, qo`lqoplar va h.k.); 5) hodisa joyida qoldirgan moddiy izlar (mexanizmlar detallarining siniqlari, kiyim-kechak parchalari va h.k.); 6) murda, agar u hodisa joyida bo`lsa.

Ko`zdan kechirish jarayonida va uning natijalarini tahlil qilishda tergovchi quyidagi, ya`ni: 1) tekshirilayotgan hodisaning sabablari nima (qozonning portlashi, kranning qulab tushishi va h.k.) 2) mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari buzilganmi? 3) ana shu buzilishlar nimalardan iborat bo`lgan, ularga kim yo`l qo`ygan; 4) tergov qilinayotgan hodisaning oqibatlari qanday, qilmish va jinoiy natija (o`lim, mayib bo`lish va h.k.) o`rtasida sababiy bog`lanish bormi, degan savollarga javob topishga harakat qilish kerak. Agar ko`zdan kechirish o`z vaqtida, to`liq va xolisona o`tkazilsa, mazkur savollarning barchasiga yoki bir qismiga javob olinadi.

Hujjatlarni ko`zdan kechirishda, hodisa yuzasidan quyidagilar sinchiklab o`rganib chiqilishi kerak: 1) baxtsiz hodisa haqidagi dalolatnoma; 2) nazorat qiluvchi organ vakili (texnik inspektor, "Sanoatkontekstnazorat" vakili va h.k.)ning xulosasi; 3) baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada amalda bo`lgan mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari; 4) mazkur uchastka, sex, ustaxona va h.k. mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi uchun mas`ul shaxslar to`g`risidagi buyruqdan ko`chirma; 5) davolash muassasasining jabrlanuvchiga yyetkazilgan shikastlar xususiyati va darajasi to`g`risidagi

ma'lumotnomasi; 6) texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul shaxsning tushuntirishi.

Baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma alohida kriminalistik ahamiyatga ega. Unda hodisa sodir bo'lgan joy va vaqt, jabrlanuvchining shaxsi, baxtsiz hodisaning holatlari va sabablari, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida tergov uchun juda muhim ma'lumotlar mavjud bo'lishi mumkin. Biroq dalolatnomaning mazmunini to'g'ri deb qabul qilmaslik kerak, uni har doim sinchiklab tekshirish kerak bo'ladi.

Ko'pincha tergov qilishning boshlang'ich hujjati bo'luvchi texnik inspektorning xulosasi ham tanqidiy nazar bilan tekshirishni talab qiladi. To'g'ri, u ekspertning xulosasi o'rni bosmaydi, lekin hodisaning texnik holatlarini o'rganib chiqishda, shu holatlar to'g'risida ayblanuvchini, jabrlanuvchini, guvohlarni so'roq qilishda hamda sud-texnika ekspertizasini tayinlashda muhim rol o'ynashi mumkin.

Tergov qilish jarayonida boshqa materiallar: xodimlarga texnika xavfsizligi bo'yicha berilgan yo'l-yo'riqlar qayd etilgan jurnallar, mazkur agregat, qurilma, mexanizmida ishlash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, sinovlarga doir jurnallar, texnik pasportlar, texnologiya xaritalari singarilar ham tekshiriladi.

Jabrlanuvchini va guvohlarni so'roq qilish mazkur toifadagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari hisoblanadi. Bu bir qator holatlar bilan bog'liq. Jabrlanuvchi va guvohlarga odatda, sodir bo'lgan hodisaning barcha tafsilotlari ma'lum bo'ladi. Ularning hodisa ro'y bergandan so'ng darhol bergan ko'rsatuvlari ko'pincha ishonchliroq baladi. Ularda keyingi taassurotlar, manfaatdor shaxslarning ehtimol tutilgan tazyiqi va ko'rsatuvlarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir etadigan boshqa omillar aks etmagan bo'ladi. Bundan tashqari, tergovchi bunday shaxslarning ko'rsatuvlariga ega bo'lmasa, ular biladigan holatlarni boshqa manbalar yordamida aniqlashi qiyin.

Jabrlanuvchini so'roq qilish, shubhasiz, uning sog'lig'ini hisobga olib, zarar yetkazadigan tarzda olib borilishi mumkin emas. Jabrlanuvchining ahvoriga qarab uni so'roq qilish hodisa joyida, uyida, tergovchining xonasida yoki davolash muassasasida o'tkaziladi. Oxirgi holda faqat davolovchi vrachning ruxsati bilan so'roq qilish mumkin. Ana shu so'roqda hodisaning barcha holatlari, uning sabablarini jabrlanuvchi qanday baholashi batafsil

aniqlashtirilishi kerak. Shuningdek, jabrlanuvchining malakasi, uning kasbiy tayyorgarligi, texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilganligi, o`qitilgani, yo`riqnomalardan xabardorligi, u ishlagan uskunaning sozligi, muhofaza moslamalari mavjudligi, ulardan foydalanilgan-foydalanilmagani, baxtsiz hodisa oldidan ular qanchalik yaroqli bo`lgani to`g`risidagi ma`lumotlar aniqlashtiriladi. Jabrlanuvchi ishlab chiqarish operatsiyalari bajarilgan vaziyatni to`g`ri idrok etishiga halal beradigan kasalliklarga (eshitish, ko`rish qobiliyatining sustligi va h.k.) chalingan-chalinmaganini aniqlash muhimdir.

Baxtsiz hodisaning guvohlarini so`roq qilishda eng muhimi, ulardan tergov qilinayotgan hodisaning o`zlariga ma`lum kriminalistik ahamiyatga ega bo`lgan holatlari to`g`risida imkoni boricha ko`proq ma`lumotlar olishdan iborat. Mazkur shaxslar hodisa paytida qaysi joyda turganligi, baxtsiz hodisa sabablari, korxonada mehnatni muhofaza qilishning ahvoli, ishlab chiqarish operatsiyalarining o`ziga xosligi, jabrlanuvchi bilan o`zaro munosabatlari, u bilan mehnat jarayonidagi o`zaro aloqalari, jabrlanuvchining malakasi, u bajargan ish to`g`risida; ishlash paytida baxtsiz hodisa sodir bo`lgan dastgoh, agregat, boshqa mexanizmning holati to`g`risida; asboblarning, muhofaza vositalarining holati, texnika xavfsizligi bo`yicha yo`l-yo`riq berish o`tkazilgan vaqt va uni o`tkazish tartibi, ilgari yuz bergan texnika xavfsizligi buzilish hollari to`g`risida so`roq qilinadi.

Tergovchi ko`pincha o`z ixtiyoridagi dastlabki materiallar asosida tergov qilishni rejalashtirishga kirishadi. Xususan, texnik inspektor yoki korxonada ma`muriyatining tekshirish materiallarida odatda hodisa sabablari va uning aybdorlari haqida dastlabki ma`lumotlar bo`ladi. Biroq bu xulosalar tergovchining mustaqilligini cheklab qo`ymasligi kerak. Tergovchi ularga tanqid ko`zi bilan qarab, hodisa xususida o`z versiyalarini olg`a surishga haqli. Agarda tergovchi bunday materiallarga ega bo`lmasa, tergov qilish rejasi shoshilinch tergov harakatlari o`tkazilib, bunda olingan natijalar puxta tahlil qilingandan keyingina tuzilishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarining jinoyiy tarzda buzilishini tergov qilishda asosiy versiyalar jinoyatning ob`yektiv tomonini aniqlash bilan bog`liq, ya`ni: 1) buzilishning sabablari va uning natijalarini; 2) buzilishlar yuzaga kelishiga bevosita sabablar va shart-sharoitlarni oydinlashtirish bilan bog`liq bo`ladi. Jinoyat

sub'yekti, ya'ni baxtsiz hodisaga olib kelgan buzilishlarda aybdor shaxs to'g'risidagi versiyalarning ahamiyati kam emas. Versiyalar hodisa holatlarini to'liq, har taraflama va xolisona tekshirish uchun zarur bo'lgan tafsilotlar bilan bog'liqdir.

Rejalashtirish asosini, shubhasiz, mehnatni muhofaza qilish qoidalarining buzilishlari va bunda aybdor shaxslar xususidagi versiyalar tashkil etadi. Bu xildagi asosiy versiyalar taxminan quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: 1) yyetarlicha malakaga ega bo'lmagan hamda texnika xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq berilmagan shaxsni ishga qo'yishdan iborat; sodir bo'lgan baxtsiz hodisa yo'l qo'yilgan buzilish bilan sababiy bog'lanishga ega; 2) hodisa yo'l qo'yilgan buzilishlar bilan bog'liq bo'lmagan; foydalanilgan uskunalarning texnik nuqsonlari baxtsiz hodisaga bevosita sabab bo'lgan; 3) texnika xavfsizligi qoidalari buzilmagan; baxtsiz hodisa jabrlanuvchining o'z ehtiyotsizligi tufayli sodir bo'lgan. Biroq ba'zan hodisa ayondek tuyulganda paydo bo'ladigan bitta versiyaga ko'r-ko'rona ergashmaslik kerak. Ko'pincha bir qator o'zaro bog'liq sabablar mavjud bo'lib, ularni to'la ochish va tergov qilinayotgan hodisaning asosiy sababini aniqlash zarur bo'ladi.

3-§. Keyingi tergov harakatlarining tashkiliy va taktik xususiyatlari

Jabrlanuvchilar va guvohlarni so'roq qilishdan tashqari tergovning ikkinchi bosqichida tergovga dalil bo'luvchi ahamiyatga molik ma'lumotlarni berishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar so'roq qilinadi.

Shu shaxslar qatorida birinchi navbatda jabrlanuvchining u bilan bitta uchastkada ishlagan, lekin baxtsiz hodisa guvohi bo'lmagan hamkasblari so'roq qilinadi. Ular bajarilgan ishlarning xususiyati haqida, texnologiyaga, texnika xavfsizligi qoidalari va yo'riqnomalarga rioya etilgan-etilmagani, mavjud qoidalarga rioya etilishi ustidan nazoratning ahvoli xususida, shuningdek, jabrlanuvchining shaxsi, uning malakasi va tajribasi bajarilgan ishlar xususiyatiga muvofiqligi haqida so'roq qilinadilar.

Baxtsiz hodisa sodir bo'lgan uchastka, smena, sex, ishlab chiqarish rahbarlari so'roq qilinishlari kerak. Ulardan mehnat jarayoni qanday tashkil etilgani, jabrlanuvchiga ishni kim tomonidan buyurilgani, baxtsiz hodisa yuz bergan paytda ular qayerda turgani,

ularni qachon, kim va qay tarzda xodimlarga tanishtirgani, mazkur qoidalarga qanday rioya etilgani, ularning bajarilishi uchun kim mas`ul ekanligi, xavfsizlik qoidalariga amalda rioya etib kelinganmi, agar ular buzilgan bo`lsa, nima tufayli buzilgani aniqlashtiriladi.

Texnika xavfsizligi qoidalari jinoiy tarzda buzilgani to`g`risidagi ishlarni tergov qilishda faoliyati baxtsiz hodisa bilan bog`liq bo`linmalar va xizmatlarning rahbarlari (bosh elektrik, bosh texnolog va h.k.)ni so`roqdan chetda qoldirib bo`lmaydi. Umuman korxonada bo`yicha va uning ayrim bo`linmalarida texnika xavfsizligi uchun mas`ul shaxslar ham so`roq qilinadi. Ulardan baxtsiz hodisaning sabablari haqidagi, baxtsiz hodisa munosabati bilan va mehnatni muhofaza qilishni kuchaytirish uchun ko`rilgan choralar haqidagi ma`lumotlar aniqlanadi.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni bevosita amalga oshiruvchi shaxslar va korxonaning boshqa xodimlari ham ko`rib chiqilayotgan toifadagi ishlar bo`yicha guvohlar qatorida so`ralishi mumkin. Birinchi guruhga texnika xavfsizligi xizmati xodimlari, kasaba uyushmalarining mehnatni muhofaza qilish bo`yicha komissiya a`zolari, kasaba uyushmalari viloyat qo`mitalarining texnik inspektorlari, davlat nazorat organlari («Energonazorat», «Sanoatkontexnazorat» va h.k.)ning xodimlari kiradi. Ko`rsatib o`tilgan mansabdor shaxslar muayyan baxtsiz hodisa bilan bog`liq holatlarni tushuntirib berishlarigina emas, balki mazkur korxonadagi mehnatni muhofaza qilishning ahvoli va ilgari yo`l qo`yilgan buzilishlar, shu munosabat bilan ko`rilgan choralar, ularning natijalari haqida ham ma`lumot berishlari mumkin. Mazkur xodimlardan shu korxonada amalda bo`lgan qoidalar, idoraviy tekshirish materiallaridagi noaniqliklar, ishlab chiqarishni tashkil etish xususiyatlari va boshqa shu singarilar haqida tushuntirishlar olinishi mumkin.

Buxgalteriya xodimlaridan mazkur korxonada mehnatni muhofaza qilishga ajratilgan mablag`lar haqida, ularning sarflanishi, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi rejasini amalga oshirishning moliyaviy-moddiy imkoniyatlari haqida ma`lumot olish mumkin.

Bundan tashqari, guvohlar tariqasida ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lmagan shaxslar (jabrlanuvchining qarindoshlari, tanishlari) ham so`roq qilinishi mumkin. Mehnat sharoitidagi noqulayliklar, texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishlari,

yetarlicha tayyorgarliksiz, malakasiz, yo'l-yo'riqlar berilmasdan ishni bajarishni topshirish hollari haqida ularga jabrlanuvchi so'zlagan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarining jinoiy tarzda buzilishlari to'g'risidagi jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida tergovchi ko'pincha mutaxassislar yordamiga tayanishiga, sud-texnika, sud-tibbiyot va tibbiy-mehnat ekspertizalari tayinlashiga to'g'ri keladi.

Sud-texnika ekspertizalari maxsus bilimlar talab qilinadigan murakkab texnik masalalarini hal qilish zarur bo'lganda o'tkaziladi. Idoraviy tekshirish materiallarida va texnik inspektor xulosasida yetarlicha hamda xolisona ma'lumotlar bor bo'lsa, sud-texnika ekspertizasi tayinlanmasligi mumkin. Biroq yuqorida ko'rsatib o'tilgan xulosalar bo'lsa ham, ayniqsa ayblanuvchi ularga rozi bo'lmaganda yoki bu xulosalar bir-biriga zid bo'lganda sud-texnika ekspertizasi o'tkazishi shart.

Sud-texnika ekspertizasi vakolatlari jumlasiga barcha ishlab chiqarish masalalarini va baxtsiz hodisa bilan bog'liq texnik masalalarni tekshirish va hal qilish kiradi. Bu masalalarning aniq ro'yxatini berish qiyin. Ularning tarkibi baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada ishlab chiqarish faoliyatining xususiyatlariga, tergov qilinayotgan hodisaning o'ziga xos xususiyatlariga, boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Amaliyotda sud-texnika ekspertizasi oldiga, qoida tariqasida, quyidagi savollar qo'yiladi: 1) mazkur hodisaning sabablari qanday (texnikaviy va tashkiliy); 2) tegishli dastgoh, agregat, mexanizm va boshqalarning texnik holati qanday; 3) mazkur holda texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi qoidalari va mehnatni muhofaza qilishning boshqa sanoat sanitariyasi qoidalari va mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalari buzilganmi? 4) agar buzilish mavjud bo'lsa, u aniq nimadan iborat bo'lgan, uning hodisa bilan sababiy bog'lanishi bormi? 5) yo'l qo'yilgan buzilishlar yuzaga kelishiga nima yordam bergan? 6) qanday chora-tadbirlar mazkur hodisaning oldini olishi mumkin edi?

Texnik ekspertlar o'nlab maxsus masalalarni hal qiladigan ishlar uchraydi. Biroq tekshirilayotgan hodisaning bevosita sababi to'g'risidagi masala har doim ulardan eng muhimi hisoblanadi.

Hal qilinishi bir qancha bilim sohalarining mutaxassislarini jalb etishni talab qiladigan masalalar paydo bo'lganda kompleks ekspertiza tayinlanadi.

Ekspertlar tariqasida ixtisoslashuvi bo'yicha turdosh

korxonalarining mutaxassislari, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarining xodimlari taklif qilinishi mumkin. Ekspert ega bo`lishi shart bo`lgan asosiy fazilat – bu uning texnika sohasida maxsus bilimlarga va ishlab chiqarish faoliyati tajribasiga ega bo`lishidir. Davlat va kasaba uyushmalari nazorat qiluvchi organlarining mutaxassislari ham ekspert sifatida jalb qilinishi mumkin. Lekin ular mazkur korxonani nazorat qilmagan yoki unga xizmat ko`rsatmagan, shuningdek, idoraviy tekshirishda ishtirok etmagan – xolis bo`lishlari kerak.

Ekspertga jinoyat ishining barcha materiallari, idoraviy normativ hujjatlar, olingan namunalar va boshqa singarilar berilishi kerak. Tekshirish uchun zarur bo`lgan materiallar hajmini ekspert bilan oldindan kelishib olish foydalidir. Tabiiyki, ekspertga taqdim etiladigan ma`lumotlar to`la va aniq bo`lishi kerak. Aks holda, yanglisā xulosa chiqirilishi mumkin. Ekspertizaning muhim, lekin ish bo`yicha yagona dalil bo`lmagan natijasi ishning boshqa materiallari bilan birgalikda tekshiriladi va baholanadi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi mazkur toifadagi ishlar bo`yicha asosan o`limning sabablarini, badanga yyetkazilgan shikastlarning darajasini, jabrlanuvchining baxtsiz hodisa paytidagi ahvolini, jabrlanuvchining kiyim-kechagi va badanidagi izlarni hamda jarohatlovchi omillarni aniqlash uchun tayinlanadi. Sud-tibbiyot ekspertizasi tirik shaxslar, murda, kiyim-kechak yoki boshqa narsalarga taalluqli masalalarni hal qilishi mumkin. Tergovchi ekspertga hodisa joyini ko`zdan kechirish ma`lumotlarni, tibbiy hujjatlarni, idoraviy tekshirish materiallarini, ishning boshqa materiallarini taqdim etishi kerak. Ishlab chiqarish sanitariyasi va kasb kasalliklari bo`yicha tibbiyot mutaxassislarni jalb etgan holda kompleks sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanishi mumkin.

Nihoyat, to`plangan dalillar asosida ayblanuvchini so`roq qilishning o`ziga xos xususiyatlari tergov qilinayotgan hodisa sodir bo`lgan sohadagi ishlab chiqarish faoliyatining o`ziga xos jihatlaridan kelib chiqadi. So`roq qilish chog`ida aniqlanadigan masalalar texnologiya jarayonining xususiyatlari bilan, maxsus texnik tushunchalar va atamalar, ayblanuvchi lavozimiga ko`ra qanday mavqega egaligi va boshqa holatlar bilan bog`liq bo`ladi. Ayblanuvchini so`roq qilishda, qoida tariqasida, quyidagilarni aniqlash kerak: 1) mazkur mutaxassislik bo`yicha maxsus ma`lumoti va ish staji qanday? 2) mazkur uchastkada texnika xavfsizligi

qoidalariga rioya etilishi ustidan qanday nazorat choralarini ko`rilgan; 3) ayblanuvchi texnika xavfsizligi bo`yicha qoidalar va yo`riqnomalarni bilganmi hamda ularga rioya etishda unga nima xalaqit bergan? 4) mazkur uchastkada ilgari ham baxtsiz hodisalar yuz berganmi va shu munosabat bilan qanday choralar ko`rilgan? 5) ayblanuvchi sodir bo`lgan hodisa sababini nimada deb hisoblaydi va texnika xavfsizligi qoidalarini buzilishida o`z aybini tan oladimi?

So`roqning muvaffaqiyati ko`p jihatdan unga maxsus texnik adabiyotlar, texnika xavfsizligi bo`yicha qoidalar va yo`riqnomalar, korxonalar rahbari va yuqori organlarning buyruqlarini o`rganib chiqishdan iborat bo`ladigan tayyorgarlik ko`rishga bog`liq bo`ladi. Mehnat psixologiyasi, mehnatni ilmiy tashkil etish va hokozalar bo`yicha qoidalar va tavsiyalar bilan tanishish foydalidir. Ba`zan tegishli mutaxassislardan maslahat olish maqsadga muvofiq.

Ko`rsatib o`tilgan tergov harakatlaridan tashqari tintuv, olib qo`yish, tergov eksperimenti va boshqa shu singarilarni o`tkazish ehtiyoji paydo bo`lishi mumkin.

32-bob. O`T QO`YISH VA YONG`IN XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. O`t qo`yish va yong`in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

O`t qo`yish va yong`indan saqlash qoidasini buzish xavfli jinoyatlar turiga kiradi. Bunday jinoyatlar inson hayotiga, salomatligiga, davlat va shaxsiy mulkka jiddiy ziyon beradi.

Odatda yong`in to`g`risida jinoyat ishi qo`zg`atishga yong`in to`g`risida xabarning o`zi, shuningdek qasddan o`t qo`yib yuborish yoki yong`inga qarshi xavfsizlik qoidalarini jinoyatkorona buzish, shu jumladan olovga nisbatan ehtiyotsizlik sabab bo`ladi.

Bevosita yong`in chiqishiga sabablar xilma-xil bo`lib, ularni asosan to`rt guruhga bo`lish mumkin:

1) ochiq joydagi o`tning ta`siri (alanga, qizigan jism, uchqun, chaqmoq);

2) o`z-o`zidan o`t olish, ya`ni tashqi issiqlik ta`sirida buyumning yonib ketishi;

3) qizib o`z-o`zidan yonish, ya`ni kimyoviy reaksiya ta`sirida yong`in chiqishi va fizik hodisalar;

4) atrofdagi predmetlarning o`z-o`zidan yonishi va yong`in sodir etilishiga olib keladigan portlash.

Binoda yonuvchan materialning mavjudligi, binoning haddan tashqari ivirsib yotganligi, o`t o`chirishga mo`ljallangan dastlabki vositalar, yong`inga qarshi signalizatsiya bo`lmasligi yoki ularning yaroqsizligi, yong`inga qarshi xavfsizlik tartib qoidalariga rioya qilinmasligi, yong`in chiqishi, portlash yuz berishi, deformatsiyaga uchratishi va qulashi, o`t o`chirish idoralariga o`z vaqtida xabar bermaslik, ob`yekt xodimlarining yong`inni o`chirishga tayyor emasligi va boshqalar o`tning avj olib tez tarqalishiga olib keluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Mazkur jinoyatlarni sodir etish usullari ham xilma-xil, ammo ba`zi bir umumiy alomatlar mavjud.

Ko`pincha qasddan o`t qo`yishlar ma`lum tayyorgarlik bosqichlari bilan xarakterlidir. Bunda jinoyatchi tajovuz qilish yo`llari to`g`risida axborot to`playdi, o`z niyatlarini oldindan rejalashtirib oladi, o`t qo`yish uchun zarur bo`lgan texnik vositalar

va qurollar tanlaydi, ularni yashirish choralarini ko`radi.

O`t qo`yish usullarini bir necha guruhlarga bo`lish mumkin:

1) tez alanga oladigan va tez yonadigan materiallar yordamida o`t qo`yish;

2) maxsus tayyorlangan yonuvchi materiallar yordamida o`t qo`yish;

3) tashqi olov manбайдan tez o`t olishga yoki belgilangan vaqtda alanganishga mo`ljallangan maxsus tayyorlangan texnik moslama yoki maxsus yaratilgan sharoitdan foydalanib o`t qo`yish;

4) o`z-o`zidan yonib ketadigan biror buyum yoki material uchun qulay sharoit yaratish yo`li bilan o`t qo`yish.

Yong`inga qarshi xavfsizlik qoidalarini buzish bilan bog`liq jinoyatning mazkur turlari uchun tayyorgarlik ko`rish bosqichi mavjud emasligi xarakterlidir, ayni vaqtda u keyingi faoliyatini niqoblashga xizmat qiladi. Sodir etish usullariga ko`ra, mazkur huquqbuzarlik bir necha guruhlarga bo`linadi:

1) yoritgich, isitgich, gaz va kimyoviy qurilmalardan foydalanishda va saqlashda yong`inga qarshi qoidalarga rioya qilmaslik;

2) turli yong`in, alanga oladigan va portlash xavfi bo`lgan materiallarni saqlash, tashish, foydalanish va tayyorlashga oid texnik qoidalarga rioya qilmaslik;

3) elektr o`tkazgichlarni montaj qilish va yoritgich asboblarni saqlashda yong`inga qarshi tartib qoidalarga rioya qilmaslik;

4) yong`inga qarshi ishonchli himoya asboblari, qurilmalar, mashinalarni boshqa maqsadlarda, xususan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish va hokazo.

Ushbu jinoyatlarni sodir etadigan shaxslarning o`ziga xosliklari ham xilma-xildir. Yong`in sodir etganlar turar joyida va ish joyida salbiy tavsiflanadi, ularning oratsida ilgari sudlanganlar ko`proq uchraydi.

Yong`inga qarshi xavfsizlik tartib-qoidalarini buzib, jinoyat sodir etgan shaxs bilan mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligiga rioya etish qoidalarini buzgan shaxsni bir guruhga kiritish mumkin.

O`t qo`yish va yong`inga qarshi xavfsizlik qoidalarini jiddiy buzish tarzidagi jinoyatlarni tergov qilishda quyidagi holatlarga aniqlik kiritish kerak:

- 1) yong'in qachon yuz bergani;
 - 2) yong'in qayerdan boshlandi, uning manbalarining soni va tarqalishi;
 - 3) yong'in, uning chiqishi va tarqalishini kim ko'rgan, kuzatgani;
 - 4) yong'in chiqishiga qaysi voqealar sabab bo'lgani;
 - 5) agar yong'in xavfsizlik tartib-qoidalarining buzilishi natijasida chiqqan bo'lsa, unga rioya qilish uchun javobgarlikni kimning zimmasiga yuklangani; tartib-qoidalarining buzilishi nimalardan iborat va bunga kim tomonidan yo'l qo'yilgani;
 - 6) agar yong'in texnik sabablarga ko'ra chiqqan bo'lsa, aniqrog'i ular nimalardan iborat, texnik nosozliklar qachon paydo bo'lgani, ularni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etish imkoni bo'lganmi?
 - 7) agar qasddan o't qo'yilgan bo'lsa, uning sabablari, ijro usullari qanday, kim tomonidan va qanday vositalardan foydalangan holda sodir etilgani?
 - 8) agar yong'inida odamlar qurbon bo'lgan bo'lsa, u qanday vaziyatda yuz berdi, agar tan jarohati olgan bo'lsa, uning xarakteri va jiddiylilik darajasi qanday?
 - 9) yong'in chiqishiga kim aybdor, o'z harakatlari (yoxud harakatsizligi) bilan yong'in chiqishiga sabab bo'lgan shaxsning aybdorlik darajasi, aybni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi vaziyat qanday?
 - 10) yong'in yyetkazgan zarar xarakteri va miqdori;
 - 11) yong'in chiqishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlar.
- Yuqorida sanab o'tilgan vaziyatlar bilan birga boshqa jinoyatlar (qotillik, o'g'rilik va h.k.)ni yashirish niyatida qasddan amalga oshirilgan ishni tergov qilishda yong'in bilan niqoblashga mo'ljallangan jinoyatni dalillar bilan isbotlash kerak.

2-§. Dastlabki tergov harakatlarini tashkil etish va o'tkazish

Yong'in to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari ro'y bergan vaziyatga to'g'ri yo'nalish berish imkoniyatlarini ta'minlash, yong'inni birinchilar qatorida sezgan, ko'rgan, kuzatgan shaxs va dastlabki bosqichlarni topish so'roq qilish, qoldirgan izlarni ko'rib chiqish, belgilab olish, ashyoviy dalillarni qidirib topish va saqlab qo'yish kerak.

Yong'in to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi;

- 1) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish;
- 2) ekspertiza tayinlash va o'tkazish (texnik yong'inga oid, kriminalistik, tibbiy);
- 3) yong'in chiqishida gumon qilinayotgan shaxsni tintuv qilish;
- 4) o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxslarni so'roq qilish;
- 5) gumon qilingan shaxsni tekshirishdan o'tkazish.

Sanab o'tilgan tergov harakatlarini kechiktirmasdan, shu bilan birga jinoyat sodir etgan shaxsni topishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'z muddatida amalga oshirish kerak.

Militsiyaning tezkor-qidiruv xodimlari yong'in chiqqan atrofni tekshirib ko'rish, jinoyat izlarini qidirib topishi, maxsus itning qidiruv xizmatlaridan foydalanib, alohida shaxslarni kuzatib borishi, jinoyatchini "issig'ida" ta'qib qilish tadbirlarini amalga oshirish lozim.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda, kunning qaysi vaqti bo'lishiga qaramay, tekshiruvni tezroq boshlash kerak. Agar hodisa tunda sodir bo'lgan bo'lsa, kunduzi qo'shimcha tekshiruv o'tkazish tavsiya etiladi.

Tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyga borishda ilmiy-texnika vositalaridan tashqari yong'in tushgan joyni ko'zdan kechirish uchun mo'ljallangan maxsus asboblarga ham ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tekshirish ishlariga yong'in texnikasi va yong'in ishlari sohasidagi manfaatdor bo'lmagan mutaxassislarni, qurbonlar bo'lsa sud-tibbiy ekspertlarini jalb etishi zarur. Ba'zi hollarda tekshirishga muhandis elektrik, kimyogar, quruvchi va boshqa mutaxassislar ham jalb etiladi. Zarur holatlarda tekshirishning samarali texnik vositalarini ishlatish imkoniyatini beradigan maxsus qatnaydigan laboratoriya avtomashinasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tergovchi tekshirish oldidan yong'in chiqishiga guvoh bo'lganlar bilan qisqa so'rovlar o'tkazishi, shuningdek yong'in chiqqan joyga birinchi yyetib kelgan, ya'ni voqeani o'z ko'zi bilan ko'rganlar bilan ham savol-javob qilishi lozim:

- 1) yong'in qayerdan tarqala boshlagan?
- 2) ular boshqacha hidni sezmadilarmi (rezina, latta, kerosin yonganda chiqadigan hidlar)?

- 3) tutun va alanganing rangi qanday edi?
- 4) shamolning kuchi va yo`nalishi qanday?
- 5) yong'in chiqqanini ko`rganlar uni o`chirish uchun qanday choralar ko`rdi va ishlar kim tomonidan amalga oshirildi?

6) yong'in chiqqan vaqtda atrofda begona kishi borligi yoki u qayerda yurgani, qayerga ketgani, uning qanday belgilari mavjud?

Yong'in chiqqan joyni ko`zdan kechirish jarayonida quyidagilarga oydinlik kiritish zarur:

- 1) yong'in sodir bo`lgan joy vaziyati;
- 2) yong'in chiqqan joyning ko`rinishi va yong'inning tarqalish yo`llari;

3) yong'in chiqqan joy (yong'in manbai) binoning ichida yoki tashqarisida bo`lganligi, elektr ashoblarining ishlatilgan holda qoldirilganligi;

4) yong'in natijasida nimalar yonib ketdi yoki zararlandi?
Hodisa sodir bo`lgan joyni tekshirish quyidagi izchilikda amalga oshiriladi;

1) yong'in chiqqan joyni va unga yondosh hududlarni umumiy ko`zdan kechirish;

2) dastlab yong'in chiqqan manbani tekshirish;

3) yong'in chiqqan joyni uning tarqalish yo`nalishi bo`yicha ko`zdan kechirish;

4) voqea sodir bo`lgan joyga olib borgan, undan qaytgan kishi va transport izlari topilgan uchastkalarini sinchiklab tekshirish.

Ko`zdan kechirishning muhim vazifalaridan biri yong'in chiqqan manbani sinchiklab tekshirish hisoblanadi. Eng ko`p kuygan pol, devor, shift, o`ta qurum bosgan, shakli o`zgargan, sirti erigan va to`pon bilan qoplangan metal qismlari, tosh va beton ob`yektlarda hosil bo`lgan yoriqlar yong'in chiqqan manbalar uchun xarakterli belgilardir.

Yong'in chiqqan manbani ko`zdan kechirganda asosiy e`tibor yong'in chiqqishga sabab bo`lgan ob`yekt, predmet va buyumlarga qaratiladi. Shuningdek isitish, yoritish, maishiy elektr buyumlari, elektr o`tkazgichlari, tez alanga olib yonadigan yoki kimyoviy moddalar qoldirgan qoldiqlar, izlar sinchiklab tekshiriladi; yong'in qoldiqlari (kul, qurum, va boshqa buyumlar) o`rganiladi; yong'inga sabab bo`lgan vositalar aniqlanadi (yasama pilik, yonadigan buyumlar va h.k.)

Belgilangan yoki tahlil qilingan yong'in manbaini ko`zdan

kechirgandan keyin yong'in tarqalgan yo'nalish bo'yicha harakat qilish maqsadga muvofiq. Shuni unutmaslik kerakki, markazdan (yong'in manbaidan) chetga chiqib, bu yerda qasddan yong'in chiqargan yoki jinoyat izlari bo'lgan predmetga duch kelish mumkin.

Yong'in zonasida barcha uzellarni tekshirib bo'lgach, yong'in qoldiqlarini tekshirib ko'rish, ba'zan tekshirish uchastkasiga kirish imkoniyatini bermayotgan holatlarni bartaraf etishga to'g'ri keladi. Yong'in qoldiqlarini, ayniqsa yong'in manbaini alohida sinchkovlik bilan tekshirish voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning o'ziga xos tarkibiy qismi hisoblanadi. Yong'in qoldiqlarida yonilg'i suyuqligi, texnik moslama qoldiqlari va boshqalarni uchratish mumkin. Zarur holatlarda o't tushgan joydan olov chiqish sabablarini aniqlashga yordam beradigan kul, yonmay qolgan ob'yektlar namunalarini ajratib olish zarur. Tekshirish jarayonida daliliy ashyolarni olib, o'rab joylash va keyingi ekspertiza uchun saqlab qo'yish lozim. Kuygan hidli buyumlarni hidi yo'qolmasligi uchun gyermetik joylab qo'yish zarur.

Kuyib ketgan hujjatlarni fotosuratga tushirish va iloji boricha ajratib olib, joylash maqsadga muvofiq. Bu ishlarni bajarishda juda ehtiyot bo'lish lozim, aks holda esa ashyoviy dalillardan ayrilib qolish mumkin. Kuyib ketgan va kulga aylangan qog'ozlarni yig'ish va ajratib olishda kriminalist mutaxassislar jalb etiladi.

Kuyib ketgan joyni ko'zdan kechirishga borganda har bir predmet va topilgan izlarni sinchiklab o'rganish kerak. Yong'in jarayonida hosil bo'lgan izlarga alohida e'tibor berish zarur.

Yong'indan qolgan materiallar buyumlarning asl holatini aniqlash jarayonlarini tiklash imkoniyatini beradi. Agar yong'in sodir bo'lgan joyda odam jasadi topilsa, uni ko'zdan kechirish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1) yong'in manbaidagi bino konstruksiyasi qulab tushgan joyga nisbatan jasad topilgan o'rinni aniqlash;

2) jasad qanday holatda yotgan edi, undan o'lim oldidagi harakatini bilish mumkinmi?

3) o'lgan odam yong'indan himoyalani chorasini ko'rganmi?

4) jasadga yuqori harorat va olov izlari bormi?

5) jasadga mexanik tarzda yyetkazilgan jarohat mavjudmi (quroldan o't ochib yarador qilingan, shikast yyetkazilgan, bino

konstruksiyasi qulashi natijasida jarohat olgan, bug'ib o'ldirish, pichoq yoki chopqi izlari bormi va hokazo)?

Jasadni ko'zdan kechirishda shuni e'tiborga olish kerakki, yuqori harorat ta'sirida jasadning mushaklari keskin qisqaradi, qo'l-oyoq bo'g'imlari tortiladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, yuzasi bir-biriga zich tegib turgan qismi olov ta'siridan yaxshi saqlanadi. Jasadning xuddi shunday joylaridan hayotlik davridagi jarohatini qidirish kerak, bu o'ldirib, keyin o't qo'ygan qotillik to'g'risidagi ishlar bo'yicha muhimdir. Olovda kuyib o'lganlar jasadida dog'lar o'rnini bo'lmaydi, agar jasadga bunday dog'lar topilsa, demak jabrlangan yong'inga qadar o'ldirilgan deb hisoblanadi.

Guvohlar va jabrlanganlarni so'roq qilish. Yong'in sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirib bo'lgandan keyin tergovchi guvohlarni va jabrlanganlarni batafsil so'roq qilishi kerak.

Birinchi navbatda yong'in guvohlari so'roq qilinadi, so'ngra uni bartaraf etishda ishtirok etganlarga navbat keladi. Eng avvalo, yong'in chiqqan yoki xabar topilgan vaqtda yong'inning tarqalishi, uni o'chirish jarayonida vaziyatning o'ziga xos tomoni kabi masalalarga aniqlik kiritib olish lozim.

Jabrlanganlar so'roq qilinganda yong'inning kelib chiqish sabablari va vaziyatlari to'g'risida muhim ma'lumotlar olish mumkin. Ammo jabrlanuvchi ham adashib yong'in bilan bog'liq haqiqiy vaziyatni buzib ko'rsatishi ehtimolligini ham unutmaslik kerak. Bu ayniqsa ruhiy iztirob, qo'rquv, shuningdek odamlar, mol-mulkni qutqarish, yong'inni o'chirish voqealari bilan bog'liq ravishda yuz beradi.

Guvohlarni va jabrlanuvchilarni so'roq qilishda asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratilishi kerak:

- 1) yong'in chiqqan vaziyat, uning tarqalishi va o'chirilishi;
- 2) ob'yektdagi yong'inga qarshi xavfsizlik holati;
- 3) o't qo'yishda gumon qilingan aniq shaxsdan tegishli axborotni olish.

Masalan, yong'in guvohlari va hodisa sodir bo'lgan joyga birinchi bo'lib yyetib kelgan shaxs so'roq qilinganda ularning har biri qaysi vaqtda yyetib keldi va qanday vaziyat ustidan chiqqanligi aniqlanadi: yong'inni kim birinchi bo'lib ko'rdi va bu haqda kim xabar berdi; yong'in qachon, qaysi joyda va qanday sabablar bilan chiqdi, u bir vaqtning o'zida bir necha joyda paydo bo'lmadimi, ular o't qo'yishning boshqa alomatlarini ko'rmadilarmi; olovning

tarqalishi va uning avj olish vaziyati qanday, olovning kuchayishi va shamolning yo`nalishi; tutunning rangi va quyuqligi qanday, alanga xarakteri, hidi, yong'in kuchayishi va o`chirish davrida turli ta`m sezish holatlari bo`ldimi?

Guvohlar va jabrlanuvchilardan hodisa sodir bo`lgan joyda vaziyat o`zgardimi, yong'inni o`chirish qanday o`tdi? Shu kabi so`roqlarga javob olishlari kerak; qanday ashyoviy dalillar, aynan qaysi joyda topildi; jabrlanganlar qayerdan va qaysi sharoitda qutqarib olindi; o`tda qaysi mol-mulk kuyib ketdi; ob`yektdagi dastlabki yong'in o`chiradigan vosita qanday holatda edi, yong'in chiqqan joyda chetdan shubhali shaxs paydo bo`lmadimi, yong'in kelib chiqish sabablari va aybdorlari to`g`risida qanday takliflar aytilmoqda, ular nimalarga asoslangan va hokazo.

Yong'in chiqqan ob`yektda xavfsizlik holatini aniqlash uchun yong'inga qarshi tartib qoidalar buzilishga kim va qanday tarzda yo`l qo`ydi, isitish tizimi, yoritgich, ventilyatsiya, gaz va suv ta`minotining holati, yong'inga qarshi vositalar holati qanday edi, ob`yektda portlovchi, yonuvchi va o`z-o`zidan alanga oladigan moddalar bor edimi, yong'indan oldin portlash yuz bermadimi, yong'in chiqishiga sabab bo`ladigan boshqa sabab va sharoitlar yo`qmidi?

Gumon qilingan odamni tekshiruvdan o`tkazish, hodisa sodir bo`lgan joyni ko`zdan kechirish jarayonida surishtiruv organi xodimlari dastlabki tezkor-qidiruv tadbirlari o`tkazishda yong'in chiqishiga shubha qilingan shaxsni qo`lga olishlari kerak. Tergovchi uni qo`lga olish asosli ekanligini tekshirishi va uni aybli yoki aybsizligini isbotlovchi dalillar yig`ishga kirishishi zarur.

Tajribadan ma`lumki, qasddan o`t qo`yganlar kiyimida va tanasida yonuvchi moddalar izi, hidi, kuydirgan joyining o`rni, dog`i qoladi; kiyim cho`ntagida olov tutatgich vositalari, uning qismlari bo`ladi. Bular mazkur ish bo`yicha ashyoviy dalil bo`lishi mumkin.

Gumon qilingan odamning kiyimi, poyabzali, badanini ko`zdan kechira borib, qayerda, qanday dog` qolganligini aniq qayd etish, ularning shakli, hajmi, rangi, hidini belgilash, quydirib olgan kiyimi, sochi, boshi, yuzi va qo`lini sinchiklab tekshirish zarur.

Gumon qilingan odam poyabzaliga alohida ahamiyat berish kerak. Chunki unda tuproq zarralari, o`t, kul, barg, shuningdek yonuvchi modda izi qolishi mumkin. Bunday poyabzal ekspertiza uchun yuborilishi shart.

O't qo'yishda gumon qilingan shaxsni darhol tintuv qilish kerak. Bu o't qo'yish uchun foydalanilgan o't oldirish vositasi, ularning qoldiqlarini topish imkoniyatini beradi. Shuningdek, o't qo'yuvchining oyoq kiyimini ham tekshirish lozim.

Ko'p hollarda tintuv o'tkazilganda yong'in vaqtida o'g'irlangan predmetlar va hujjatlarni qo'lga tushirish mumkin. Ular mazmun-mohiyatiga ko'ra sodir etilgan yong'inga aloqador bo'lishi va jinoyat sabablarini ochishga xizmat qilishi mumkin.

Ba'zan ayrim hujjatlarni darhol olib qo'yish maqsadga muvofiq. Yong'inga qarshi xavfsizlik holati tekshiruvchiga oid hujjatlar birinchi darajali ahamiyatga ega: bularga portlovchi moddalarni saqlash va transportda jo'natish, ortish, tushirish holati, ob'yektdagi yonuvchi va o'z-o'zidan yonib ketadigan moddalar holatini xarakterlab beruvchi hujjatlar; yong'indan muhofaza qilish vakillari tomonidan tuzilgan yong'in to'g'risidagi hujjat; texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligining mahalliy instruksiyasi; kuygan ob'yekt mol-mulkinging inventarizatsiya ro'yxati kiritiladi.

3-§. Tergov o'tkazishni rejalashtirish va keyingi tergov harakatlari

Versiyalar ishlab chiqarish bilan bog'liq dastlabki tergov harakatlarining o'z vaqtida olingan natijalari, yong'in sabablari, ayrim hollarda uning aybdorlari to'g'risidagi materiallar asosida olg'a suriladi.

Tergovning birinchi bosqichida olingan ma'lumotlar asosida tergovchi hodisa xarakteri to'g'risida quyidagi asosiy taxminni olg'a surishi mumkin:

- 1) o't qo'yilgan;
- 2) ochiqdagi olovga ehtiyotsizlik bilan qilingan munosabat natijasida yong'in chiqqan;
- 3) yong'indan xavfli qurilma, asboblari, elektr o'tkazgichlar va boshqalar texnik nosozligi oqibatida yong'in chiqqan;
- 4) o'z-o'zidan yonib ketadigan mahsulotlar noto'g'ri saqlangan;
- 5) chaqmoq urishi va boshqalar.

Yong'in chiqishiga sabab bo'lgan asosiy taxmin asosida turli masalalarga oid juz'iy taxminlarni olg'a suradi, bunda ishning aniq vaziyati va yig'ilgan materiallar hisobga olinadi. Masalan, o't qo'yish to'g'risidagi asosiy taxmin olg'a surilganda qasddan

qilingan o't qo'yish sabablariga oid masala muhokama etiladi. O't qo'yish quyidagi sabablar bilan sodir etilgan: 1) boshqa jinoyatni yopish uchun; 2) o'ch olish maqsadida; 3) sug'urta va boshqa moddiy qulayliklarni olish maqsadida qilingan.

Yong'inda odam jasadi topilsa, o'lim qanday sodir bo'lganligi to'g'risida taxmin olg'a suriladi, jumladan: 1) jabrlangan odam yuqori harorat ta'sirida halok bo'lgan, gaz hididan zaharlangan; 2) jabr ko'rgan, o'ldirilgan va keyin qotillikni yashirish maqsadida o't qo'yilgan; 3) yong'in joyida topilgan jasad yong'in chiqqanga qadar o'z ajali bilan o'lgan.

Keyin vaziyat to'g'risida taxmin olg'a surilishi mumkin. Bunda jabrlangan ochiq olov va yuqori harorat ostida o'lgan, (jabrlangan, kasal bo'lgan, mast holatda edi, chiqadigan yo'l olov bilan to'silgan) qotillik sabablari to'g'risida, uni ijro etgan shaxs to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

Olov bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lgan yoki qurilma va asboblarning texnik nosozligidan kelib chiqadigan yong'in to'g'risida olg'a surilgan asosiy taxminda mazkur ob'yektda olov bilan bog'liq munosabatlar mavjud emasligi, yong'inga qarshi asboblarning nosoz holati to'g'risida taxmin olg'a suriladi.

Tergov o'tkazishni rejalashtirish. Qilingan versiyalar rejalashtirishning asosi hisoblanadi. Yong'in to'g'risidagi ishlar bo'yicha tergov o'tkazishni rejalashtirish olg'a surilgan taxmin mazmuni va tergovning aniq bir bosqichda hal etiladigan vazifalar bilan asoslangan o'ziga xos jihatlariga egadir.

Agar yong'in chiqishiga asosiy sabab olov bilan xavfsizlik qodalariga rioya qilinmagan holda munosabatda bo'lish oqibati ekanligi taxmin qilinsa, tergov o'tkazishni rejalashtirishda yong'in ro'y bergan vaqtda binoning ichida bo'lgan shaxsning axloqini o'rganish nazarda tutiladi.

Agar yong'in chiqishiga texnik nosozlik sabab, deb taxmin qilinsa, uni topish imkoniyatini beradigan tegishli ekspert tadqiqoti rejalashtiriladi. So'ngra yong'inga qarshi xavfsizlik tartib-qoidalariga rioya qilishga javobgar va mavjud asboblarning, mashinalar, mexanizmlar holatini nazorat qilishga mas'ul shaxslarni so'roq qilish nazarda tutiladi.

Ayni vaqtda yong'in chiqqan binoda ishlayotgan xodimlarni guvoh sifatida so'roq qilish rejalashtiriladi. Shuningdek, rejada tegishli texnikaga oid hujjatlarni ajratib olish ko'zda tutiladi.

Agar qasddan o't qo'yish to'g'risidagi taxmin asos qilib olinsa, jinoyat sodir etish sabablarini ochib berishga yo'naltirilgan tergov harakatlarini o'tkazish rejalashtiriladi. Bunda tergov rejasi jinoyatning barcha tarkibini o'z ichiga olgan voqeaning haqiqiy xarakteri to'g'risidagi bir necha taxminni bir vaqtning o'zida tekshirishni nazarda tutishi kerak. Masalan, do'kon, ombor va boshqalarga o't qo'yishdan maqsad u yerdagi o'g'irlikni niqoblash, turar joy binosiga o't qo'yishda esa qotillikni niqoblash nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda yong'in bilan bog'liq sharoitni tadqiq etishda o'g'irlik, qotillik to'g'risidagi taxmin rejalashtiriladi va tekshiruv o'tkaziladi.

Ekspertizalar. Yong'in bilan bog'liq ishlar ekspertizasining asosiy turlari texnik-yong'in, kimyoviy-sud, kriminalistik va texnik ekspertizalarni o'z ichiga oladi. Odam qurbon bo'lgan bo'lsa sud-tibbiyot ekspertisasi, agar hayvon o'lgan bo'lsa veterenariya ekspertisasi o'tkaziladi.

Yong'in chiqqan joyni tekshirib, guvohlar so'roq qilinib, boshqa tergov harakatlaridan keyin darhol yuqoridagi ekspertizalar boshlanishi kerak. Texnik-yong'in ekspertiza ishlari yong'in bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida boshlansa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Texnik-yong'in ekspertizasini o'tkazishda, qoidaga ko'ra, quyidagilarni aniqlab olish masalasi qo'yiladi:

- 1) yong'in manbai va yong'in chiqishining sabablari;
- 2) yong'inga qarshi xavfsizlik tartib-qoidalarini buzish va o't qo'yish bilan bog'liq dalillar;
- 3) yong'in chiqqan vaqtda shart-sharoit va uning rivojlanishining o'ziga xos tomonlari (ba'zi materiallar va buyumlar yonuvchanlik darajasi, olovning tarqalish ketma-ketligi, ayrim holatlarning yong'in avj olishiga ta'siri va h.k.);
- 4) vujudga kelgan oqibatlar va o't qo'yish yoki yong'in xavfsizligi tartib-qoidalari texnik talablariga rioya qilmaslik sabablari o'rtasidagi aloqalar;
- 5) mazkur ob'yektda yong'inga qarshi vositalar holati va oldini olish choralari oid tavsiyalar.

Kimyoviy sud ekspertisasi. Ushbu ekspertiza quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan: 1) u yoki bu kuygan predmetlar qanday buyumlar tarkibiga kiradi; 2) yong'in manbai ichida nimalar bor edi, yonuvchan moddalar izlari yo'qmi; 3) yong'in chiqishiga

sabab bo'lgan o'z-o'zidan yonuvchi moddalarning kimyoviy tarkibi qanday edi?

Kriminalistik ekspertiza. Kriminalistik ekspertizada ko'rilayotgan ishlar quyidagi masalalarga javob topishga yordam beradi: 1) mazkur poyabzalning yong'in chiqqan joyda izlari qolganmi? 2) barmoq izlari mazkur shaxsga tegishlimi? 3) yong'in chiqqan joyda topilgan predmetlarda yo'l izi qolganmi; (chiroq, dazmol va h.k)? 4) yong'in chiqqan joydan topilgan va gumon qilingan shaxs tintuv qilinganda olib qo'yilgan predmetning qismlari yaxlit biror narsaga tegishlimi?

Tovarshunoslik ekspertizasi. Gazlama va shunga o'xshash ma'lum guruhga tegishli predmetlar qasddan o't qo'yuvchi tomonidan jinoyat quroli sifatida foydalangani, olovda kuyib ketgan tovarlarning taxminiy qiymati aniqlanadi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi quyidagi masalalarga javob topishga yordam beradi: 1) kuyish va boshqa sabablar natijasida o'lim yuz berganmi? 2) tirik odam yoki jasad olov ta'siri ostida qolganmi? 3) nima ta'sirida kuygan (alanga, yonuvchi eritma, yonib turgan gaz va boshqalar ta'sirida)? 4) jasadida olov ta'siridan tashqari yana qanday jarohat o'rinlari bor? 5) ularga qanday qurollar yordamida zarba yetkazilgan? 6) jasadida aniqlangan jarohat olovning yuqori haroratimi yoki mexanik sabablar tufaylimi? 7) jabrlangan odam qanday darajada kuygan; 8) jabrlangan o'lim oldidan alkogol ichimliklar va giyohvand vositalar qabul qilganmi?

Texnik ekspertiza yordamida quyidagi masalalarga aniqlik kiritiladi: 1) o'z-o'zidan yonib ketadigan material yong'in chiqishiga sabab bo'lganmi? 2) mazkur turdagi material qanday sharoitda o'z-o'zidan yonib ketadi? 3) ma'lum sharoitda saqlanayotgan mazkur predmetlar o'z-o'zidan yonib ketishi uchun qancha vaqt talab etiladi? 4) mazkur materialni saqlash sharoiti tegishli qoida talablariga javob bera oladimi? 5) o'z-o'zidan yonib ketishning oldini olish qoidalari buzilishiga yo'l qo'yilgan emasmi? 6) qurilishning qaysi qoidalaridan chekinish yong'in chiqishiga sabab bo'lgan? 7) elektr o'tkazgichlar, isitish, gaz va ventilyatsiya tizimining texnik holati qanday, mavjud nuqsonlar yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkinmi? 8) mazkur material (eritma) nimalardan iborat, u yong'inga sabab bo'ladimi?

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish. Yong'in to'g'risidagi ishlar bo'yicha gumon qilinuvchi va ayblanuvchini dastlabki so'roq qilishda ularning yong'inga qarshi xavfsizlik

qoidalarini jinoyatkorona buzishda va o't qo'yishda bilvosita ishtirokini tasdiqlovchi vaziyatni aniqlashga qaratish maqsadga muvofiq. Agar yong'in joyida topilgan predmet, aynan gumon qilingan shaxsdan ham chiqsa, (masalan, o't yoqish vositalari) so'roqni o'shani aniqlab olishdan boshlash kerak. Gumon qilinuvchi topilgan bu predmetni olgan va undan foydalangan sharoit to'g'risida to'la ma'lumot berishi lozim.

Agar tintuvda yoki gumon qilinuvchini tekshirganda uning kiyimida, poyabzalida yoki badanida yonuvchi materiallar, kul va kuygan izlari topilsa, yoxud hodisa ro'y bergan joydagi tuproq zarralari chiqsa, so'roqni shu dalillar qayerdan kelib qolganligini aniqlashdan boshlash kerak.

Gumon qilinuvchi so'roq qilinganda yong'in chiqqanga qadar bu yerda bo'lganligi yoki o't o'chirish vaqtida hozir bo'lish sabablari to'g'risida yong'inni o'chirishda ishtirok etgan guvohlar ko'rsatuvidan ham, joyni ko'zdan kechirish natijasidan ham foydalanishi mumkin. Bunda, yong'in yuz bergan joyga qachon keldi, qaysi yo'nalish bo'yicha yurdi, hodisa sodir bo'lgan joyda o'zini qanday tutdi, uning ko'rsatmalari o'sha joyda topilgan izlarga mos keladimi, shular haqida bilib olinadi.

Ayblanuvchi o'z aybiga iqror bo'lmasa, ekspertizaga ma'lumotlaridan foydalanish kerak. Ekspertiza xulosalari ayblanuvchi bergan javobiga zid kelganda bu usul ancha samarali bo'ladi.

Tabiiyki ayblanuvchi yong'inga qarshi xavfsizlik tartib-qoidalarini bilmasligini aytadi, xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra olmaganligini bildiradi. Bunday tushuntirishni ayblanuvchining boshqa ko'rsatuvlari kabi sinchkovlik bilan tekshirish kerak. Bunday holda, so'roq qilishda, ob'yektda yong'inga qarshi xavfsizlik holati va uni ta'minlashda mansabdor shaxsning mas'uliyati aniq ko'rsatilgan buyruq, nizom, instruksiya va boshqa hujjatlardan unumli foydalanish zarur.

Yong'inning oldini olish choralari: 1) jinoyat ishini tergash jarayonida yong'inning kelib chiqishiga qanday sabab va holatlar yordam bergan yoki yengillashtirgan, 2) yong'in xavfsizligiga oid choralar tashkil qilinganmi, yo'qmi? 3) shu ob'yektda yong'in xavfsizligi ishlarining umumiy ahvoli qandayligi kabi masalalar aniqlanishi lozim.

Tegishli mutaxassis ishtirokida ob'yektda yong'inga qarshi

kuratsh qurollari, transport vositalari, suv va signalizatsiya kabi sharoitlar mavjudmi yoki mavjud emasligi va ularning holati aniqlanadi. Ko`rsatilgan sharoitlar yo`q bo`lsa yoki yetarli darajada bo`lmasa, buning uchun mansabdor shaxslardan kim javobgarligi aniqlanib, ularga nisbatan tegishli choralar ko`riladi.

Kadrlar bilan ishlash, ularning yong'inga qarshi kuratsh sohasidagi malakasini oshirish, aholi o`rtasida yong'in xavfsizligi qoidalari haqida suhbatlar o`tkazish va boshqa tarbiyaviy ishlar ham yong'inning oldini olishga yordam beradi. Tergovchi yong'inning kelib chiqish sababi va u yuz bergan sharoitlarni inobatga olgan holda bu haqda ma`lumotnomalar yozishi va tegishli idoralarga yuborishi kerak. Qonunni targ'ib qilish, matbuotda, radio va televideniyelarda chiqish va yirik ob`yektlarda (korxonalarda, zavod va fabrikalarda, omborlarda, paxta punktlarida, maktablarda) suhbatlar o`tkazish yuqoridagi kabi hodisalarning oldini olishga yordam beradi.

33-bob. YO'L HAKKATI XAVFSIZLIGI QOIDALARINI JINOIY TARZDA BUZGANLIK HOLLARINI TERGOV QILISH.

1-§. Yo'l-transport hodisalarining kriminalistik tavsifi

Yo'l harakati xavfsizligi (YHX) qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlarning eng ko'p tarqalgan turlaridan hisoblanadi. Bunday qoidabuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi nafaqat ularning keng tarqalganligi, balki kelib chiqadigan oqibatlarining og'irligi, ya'ni jarohatlarning ko'pligiga, qurbonlar bo'lishiga, mulkiy ziyon jiddiyligiga bog'liqdir. Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik hollarini tergov qilishning murakkabligi asosan yo'ldagi holat bami soli yashin tezlikda o'zgaradigan bir sharoitda hodisa sabablarini aniqlash zaruratidan kelib chiqadi. Muhimi vaziyatni aniqlashtirib olish, hodisa mexanizmini tiklash-tergovchi uchun doimo murakkab texnik va yuridik vazifa hisoblangan. YTHlarining umumiy kriminalistik tavsiflarini bilish tergovchi oldidagi muammoni hal etishga muayyan darajada ko'maklashadi. Bunday tavsiflar negizida transport vositalarining havfsiz harakat qilishining shart-sharoitlarini, bu shart-sharoitlarga rioya etishi shart bo'lgan shaxslarning xulq-atvoridagi qoidadan chetga chiqishlarni, sodir etilgan qoidabuzarliklar natijasida kelib chiqqan zararli oqibatlar o'rtasidagi aloqani aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi yotadi.

Agarda transport vositalarining harakatini boshqarishga nisbatan muayyan tizim sifatida qaraladigan bo'lsa, haydovchi, transport vositasi va yo'ldagi holat ushbu tizimning shart bo'lgan va o'zaro bog'liq elementlarini tashkil etadi. Yo'l harakati xavfsizligi ana shu uchala elementning to'g'ri ishlashi va bir-biriga bog'liq holda amal qilishi orqali ta'minlanadi. Ulardan istalgan birining boshqalariga nisbatan nomuvofiq kelishi tufayli xavfli vaziyat, ya'ni haydovchining favqulotda choralar ko'rishi orqali YTHni chetlab o'tish uchun hali imkoniyatlar mavjud bo'lgan muhit yuzaga keladi. Biroq, bunday vaziyat haydovchi, u boshqarayotgan transport vositasi va yo'ldagi holat o'rtasida aloqadorlik buzilishi natijasida avariya hodisasiga aylanishi mumkin.

YTHlari mexanizmidagi sababiy bog'lanishni quyidagi tarzda tasavvuf etish mumkin: haydovchi-transport vositasi-yo'ldagi holat tizimidagi nomuvofiqlik xavfli holat yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Agar lozim choralar ko'rilmasa, bu hol avariya vaziyatiga aylanib ketishi mumkin, bu esa muqarrar ravishda ziyon ko'rilishiga olib keladi.

Shuningdek, "haydovchi-transport vositasi-yo'l-vaziyat" tizimidagi nomuvofiqlik haydovchilar, piyodalar yoki yo'lovchilarning, transport vositalari va yo'llarning texnik holati. Yo'l harakatini tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning xatti-harakatlari tufayli kelib chiqishi mumkin.

Haydovchi bo'g'inida qoidalardan chetga chiqish sabablari ob'yektiv yoki sub'yektiv tusga ega bo'ladi. Odamlar va boshqa narsalarni urib ketish, transport vositasi bilan to'qnashish va boshqa xavfli oqibatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida haydovchini boshqarishning odatdagi usullarini o'zgartirishga yoki yo'l harakati qoidalarini buzishga majbur etadigan har qanday tashqi sharoitlar ob'yektiv sabablar jumlasiga kiradi. Belgilangan tartib-qoidalarni bayon etilgani tarzda buzish hollari, odatda, agar haydovchi shunday choralar ko'rmasa yo'l holatida yuqorida ta'kidlanganiga o'xshash yomon oqibatlar kelib chiqishi mumkin, degan xulosaga kelsa, ro'y beradi. Haydovchining ko'pincha o'rinli bo'lib chiqadigan harakatlari ana shundaydir. Afsuski, ba'zan u yo'l qo'ymaslikka yoki oldini olishga harakat qilgan oqibatlardan ham og'irroq vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, yo'lda haydovchi uchun kutilmagan to'siqning to'satdan paydo bo'lganligi tufayli harakat yo'nalishini keskin o'zgartirib boshqa transport vositalari bilan to'qnashib ketishga, piyodalarni turtib ketish va shu kabi boshqa hodisalarga sabab bo'lishi mumkin.

"Haydovchi" bo'g'inida tartib-qoidalardan chetga chiqishning *sub'yektiv sabablariga* quyidagilarni kiritish mumkin: a) zarurat taqozo etmagan bir paytda yo'l harakati qoidalarini qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida buzganlik: tezlikni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajadan oshirish, chorrahalaridan o'tish qoidalarini buzish, yo'l belgilariga rioya etmaslik va shu kabilar; b) kasbiy jihatdan yetarli darajada tayyorgarlikka ega emaslik, yo'ldagi holatni noto'g'ri baholash yoki tajribaning etishmasligi oqibatida transportni boshqarishning noto'g'ri usullaridan foydalanganlik; v) haydovchi holatidagi uning ish qobiliyati va tashqi vaziyatni sezish hissini

pasaytiruvchi psixofiziologik o'zgarishlar (transport vositasini uzoq vaqt boshqarish oqibatida haddan ziyod toliqish, alkogoldan mast bo'lish, tan nosog'ligi va shu kabilar).

Haydovchi tartib-qoidalarni buzish oqibatida yuzaga keladigan vaziyatlar xavfliligi shundaki, u boshqarayotgan transport vositasi muayyan yo'nalishda yoki vaqtda harakat man etilgan hududga kirib qolib, yo'l harakati qatnashchilari uchun tahdid soladi. Bunday hududlar: qarama-qarshi harakat yo'ldagi, piyodalar yo'li, svetoforning taqiqlovchi signali bilan yurish man etilgan chorraha va shu kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Xavfli vaziyat hamisha ham o'z-o'zidan avariyalarga olib kelavermaydi. Qarama-qarshi harakat o'tib ketish, masalan, ro'paradan transport vositasi kelayotgan bo'lsa, katta xavf tug'diradi. Bunday vaziyatlarda haydovchi o'z vaqtida zarur choralarni ko'rsa (Harakat yo'nalishini o'zgartirsa, transportni keskin to'xtatsa va boshqa usullar qo'llasa), YTHlari sodir bo'lishining oldi olinadi.

Qay paytda xavfli holat yuz berishi mumkin? Belgilangan xavfsizlik qoidalarini buzgan, transport vositasi yaqinida yo'l harakatining boshqa qatnashchilari yoki to'siq mavjud bo'lsa va qoidabuzarning har qanday harakati ham odamlar (boshqa to'siqlar)ni urib ketishi, transport vositalari to'qnashib ketishi va boshqa og'ir oqibatlarining oldini olishga qodir bo'lmay qolsagina, bu kabi ko'ngilsiz voqea yuz berishi mumkin. YTHlarini tergov qilish vaqtida haydovchi avariyaning oldini olish imkoniyatiga ega bo'lgan yoki bo'lmaganlik masalasini ayniqsa sinchiklab o'rganish lozim.

“Transport vositasi” bo'g'inida chetga chiqishlar transport vositalarining texnik jihatidan nosozligi va ulardan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lib, ayni ana shu salbiy ko'rinishlar YTHlari yuz berishiga sabab bo'ladi. Rulni boshqarish va tormoz tizimidagi nosozliklar yo'l harakati xavfsizligi uchun tahdid soladigan eng jiddiy sabablar hisoblanadi. Bunday nosozliklarning yo'l harakati qatnashchilari uchun xavflilik darajasining yuqoriligi shu bilan izohlanadiki, bu kabi nosozliklar harakat davom etayotgan bir paytda to'satdan, haydovchi uchun kutilmaganda paydo bo'lib, transport vositasini boshqarolmay qoladi. Shuning uchun xavfli vaziyatni avariya holatiga aylanib ketishini to'xtatib bo'lmaydi. Transport vositasining dvigateli,

harakatlanuvchi qismi, boshqa uzellar va agregatlaridagi nosozliklar YTHlariga nisbatan kamroq sabab bo`ladi.

“Yo`l” transport vositasi harakatini boshqarish tizimining elementi sifatida:

Harakat amalga oshirilayotgan hududdagi yo`lning texnik holatiga (yo`lning profili, ulanish qismi, qoplamasi, nuqsonlari, to`siqlar va shu kabilarga);

yo`lning xavf to`g`risida ogohlantiruvchi, to`siqni aylanib o`tishni ko`rsatuvchi va shu kabi boshqa zarur yo`l belgilari va ishoralari bilan qay darajada ta`minlanganligiga;

yo`lning harakat amalga oshirilayotgan qismida piyodalar va boshqa transport vositalarining bor-yo`qligiga, ularning harakat yo`nalishlari va tezligiga doir masalalarni o`z ichiga oladi.

Sanab o`tilgan sharoitlarning barchasi tratssada muntazam ravishda o`zgarib boradi va haydovchidan o`z harakatlarini mavjud sharoitlarga moslab borishni talab qiladi. Ushbu bosqichda yo`llarning holati va yo`l harakatini tashkil qilish uchun javobgar bo`lgan yo`l xizmatining, boshqa transport vositalari haydovchilari va piyodalarning harakatlari (harakatsizligi) tufayli ham avariya vaziyatiga olib keladigan tarzdagi tartib-qoidalardan chetga chiqish hollari ham kuzatilishi mumkin. Chunonchi, yo`llar holatining qoniqarsizligi harakatlanish vaqtida transport vositasining buzilib qolishiga sabab bo`ladi, bu esa haydovchini ham, buzilgan transport vositasining bevosita yaqinida bo`lgan yo`l harakatining boshqa qatnashchilarini ham xavfli vaziyatga soladi. Yo`llardagi o`nqir-cho`nqirlar, chuqurliklar, ochiq qolgan kanalizatsiya lyuklari va boshqa to`siqlar o`rab qo`yilgan bo`lib, tegishli yo`l belgilari (yo`lda ta`mirlash ishlari olib borilayotganligidan ogohlantiruvchi, to`siqni aylanib o`tishni anglatuvchi va boshqa shu kabi belgilar) bilan ko`rsatilgan bo`lishi kerak. Bunday belgilar bo`lmasa, ayniqsa yo`lning ko`rinishi yomon sharoitlarda avariya yuz berishi mumkin. Yo`l harakatining belgilangan qoidalari: yo`lning transport vositalari harakatlanadigan qismidan o`tish tartibiga yoki svetoforning taqiqlovchi signaliga rioya qilmaydigan, jamoat transporti harakatlanib turgan paytda unga chiqishga urinadigan va shunga o`xshash noto`g`ri harakat qiladigan piyodalar ko`pincha YTHlari sodir etilishida aybdor bo`lib qoladi.

Haydovchi, transport vositasi va yo`l yuqorida ko`rib chiqilgan barcha holatlar hamda ular tufayli yuzaga keladigan turli vaziyatlarga bog`liq, chunonchi: 1) piyodalar, velosipedchilar,

mototsiklchilar va boshqa harakatlanuvchi ob`yektlar bir-birini urib yuborishi; 2) harakat qilmaydigan ob`yektlarni (yoritgich, telegraf ustunlari va boshqa ustunlarni, yo`l bo`yidagi inshootlarni, to`xtab turgan transport vositalari va boshqa shu kabilarni) urib yuborish yoki ular bilan to`qnashish; 3) harakatdagi transport vositalari bilan to`qnashish; 4) keskin to`xtatilishi yoki yo`ldagi to`siqlarga urilishi tufayli yoxud boshqa sabablarga ko`ra turg'unlikni yo`qotishi natijasida transport vositasining ag`darilishi; 5) harakatdagi transport vositasidan yo`lovchilarning ag`anab tushishi; 6) transport vositasining ag`darilishi (masalan, ko`prikdan); hamda 7) transportda (elektr simlarida transport vositalarining to`qnashishi natijasida yoqilg'i uzatish tizimida yuzaga keladigan nosozliklar, yoqilg'ining portlashi va boshqa sabablarga ko`ra) kelib chiqadigan yong'indan iborat bo`lishi mumkin.

Sanab o`tilgan vaziyatlarning har biri o`ziga xos qonuniyatlarga, o`z dinamikasiga ega bo`lib, bu xususiyatlar o`z navbatida iz hosil bo`lishining spetsifikasi va qonuniyatlarini belgilab beradi.

YTH yuz bergan joydagi izlar ko`pincha voqea sodir bo`lganligidan dalolat beruvchi yagona manbadir. Ularni o`rganish esa, tergovning dastlabki bosqichida hodisa mexanizmini bilish va baho berishning yagona usuli bo`lib qoladi.

2-§. Tergov yo`nalishlarini aniqlash

Yo`l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlikni tergov qilishning yo`nalishlarini belgilash- tergovchining dastlabki vazifalarini aniqlashi va ularni hal etishning yo`llarini tanlab olishini anglatadi. Bunday vazifa negizida tergovchi olib borayotgan tergov ishlarining dastlabki bosqichida yuzaga kelayotgan vaziyatlarning tahlili yotadi. Ushbu bosqichda tergov vaziyatlarining o`ziga xos xususiyatlari, asosan, avariya yuz berishi bilanoq yo`l xavfsizligi qoidalarini buzgan shaxslar va hodisa boshqa ishtirokchilarining xulq-atvori qanday bo`lganligiga, hodisaning shohidlari bor-yo`qligiga, moddiy holatning qay ahvoldaligiga, tergovchi hodisa yuz bergan joyga yyetib kelganida izlar saqlangan-saqlanmaganligiga va boshqa holatlarga bog`liq bo`ladi. Sanab o`tilgan faktorlar ob`yektiv va sub`yektiv sabablar bilan bog`liq bo`lgan turli rivojlanishiga sabab bo`ladi. Vaziyatning qulay yoki noqulay deb e`tirof etilishi ish olib borilayotgan paytda tergov

qilinayotgan voqeaning holatlari to'g'risida axborot olish imkoniyatiga bog'liq.

Aybdorlarning jinoyat izlarini yashirgan holda voqea sodir bo'lgan joydan yashirinishi, guvohlarning yo'qligi yoki ularning yashash joylari noma'lum, hodisa yuz berganligi haqidagi ma'lumot YHXX xodimiga yoki tergovchiga juda kech xabar qilingan bo'lib, vaziyat jiddiy o'zgarib ketgan bo'lsa, eng murakkab, binobarin, eng noqulay vaziyat hisoblanadi. Bunday hollarda tergovning asosiy yo'nalishi axborot manbalarini qidirish: yashiringan haydovchilarni qidirish, voqeaning guvohi bo'lishi ehtimol tutilgan shaxslarni aniqlash, voqea holatlariga aniqlik kiritish mumkin bo'lgan jinoyatning saqlanib qolgan moddiy izlarini topish va shu kabilardan iborat bo'lishi kerak. Bunday vaziyat uchun noaniqlik darajasining yuqoriligi xos xususiyat bo'lib, isbotlovchi axborotlarning ehtimol tutilgan manbalari aniqlanmaguncha boshqa biror-bir masalaning hal etilishi mumkin emas.

Tergov uchun qulay vaziyat yuzaga kelayotganida, masalan, hodisa qatnashchilari va guvohlar tergovchi yetib kelguniga qadar o'z joylarida qolsa, izlarni saqlab qolish uchun o'z vaqtida choralar ko'rilsa va hodisa sodir bo'lgan joydagi holatning o'zgarishsiz qolishi ta'minlansa, tergov yo'nalishini belgilovchi vazifa xarakterini, ya'ni qatnashchilarning xatti-harakatlarida jinoyat tarkibi belgilari bor-yo'qligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Buning uchun, eng avvalo, hodisa yuz bergan joyda hozir bo'lgan barchaning (YTH qatnashchilari, guvohlar, jabrlanuvchilar) ko'rsatuvlari va tushuntirishlarini protsessual vositalar yordamida mustahkamlash va bu dalillarni hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirish jarayonida o'rganilgan moddiy holat bilan taqqoslash zarur. Agar tergovchi tergov yo'nalishini belgilab va keyinchalik isbot qilinishi lozim bo'lgan aniq vaziyatlarda barcha holatlarni aniqlab olsa, u jarayon davomida katta qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Dastlabki bosqichda YTHni tergov qilishning yo'nalishlarini belgilab olish-tekshirilayotgan voqega doir ma'lumotlar o'ta taqchil bo'lgan bir sharoitda tergovchi ishini aniq maqsadga qaratilishiga yordam beradigan eng umumiy tarzda harakat rejasinigina ishlab chiqishni anglatadi, xolos. YTH yuz bergan joyni ko'zdan kechirishdan oldinoq, hodisa ishtirokchilari, shohidlari va hodisa yuz bergan joyni qo'riqlayotgan YHXX xodimlaridan olingan

tushuntirishlar dastlabki ma'lumotlar hisoblanib, tergov taxminlarining asosini tashkil etishi mumkin

To'g'ri, tergovning dastlabki bosqichida bunday ma'lumot hodisaning xarakteri, avariya olib kelgan sabablar, hodisa aybdorlari va boshqa shu kabilar to'g'risida umumiy versiyalar tuzish uchungina yetarli bo'ladi, xolos. *Voqeaning xarakteri to'g'risidagi odatdagi versiyalar quyidagicha bo'lishi mumkin:* 1) YTH yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik natijasida ro'y bergan; 2) YTH jinoyat tarkibi alomatlarining doiratsiga kirmaydigan harakatlar tufayli kelib chiqqan; 3) YTH boshqa jinoyatni yashirish uchun niqob sifatida tashkil etilgan; 4) YTH transport vositasidan jinoyat quroli sifatida qasddan foydalanilganligi oqibatida yuz bergan.


Voqeaning xarakteri to'g'risidagi versiyalarni taqsimlash yoki rad etish hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirishning dastlabki natijalari va voqea qatnashchilarining dastlabki tushuntirishlari olinganidan keyinoq mumkin bo'ladi. huddi mana shu ma'lumotlar YTHning sabablari, yo'l harakati xavfsizligi boratsida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar, uni sodir etgan shaxslar, yashash joylari va boshqa shu kabilar to'g'risida xususiy versiyalar qilish uchun dastlabki ma'lumot sifatida xizmat qiladi. Tergovning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi vazifalarga, shuningdek, ilgari surilgan tergov versiyalarini tasdiqlash yoki rad etish uchun zarur javoblar topish maqsadida hal etilishi lozim bo'lgan aniq masalalarga asoslangan holda tergovning eng umumiy rejasini tuziladi. Dastlabki tergov harakatlari va tezkor qidiruv chora-tadbirlari yordamida hali aniqlanmagan, ammo isbot qilinishi lozim bo'lgan taxminlarni ilgari surishga, tergovni davom ettirishning keng rejasini ishlab chiqishga kirishish imkonini beradigan ma'lumotlar bazasini yaratadi.

3-§. Dastlabki tergov harakatlari va tezkor qidiruv chora-tadbirlari

Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari va tezkor qidiruv chora-tadbirlari yordamida qanday voqea yuz berganligi, avariya kelib chiqishining sababi, aybdor kim ekanligi va qanday moddiy zarar yetkazilganligi aniqlanadi.

**YO'L TRANSPORT HODISALARINI TERGOV QILISHNING
DASTLABKI BOSQICHIDAGI TIPIK HOLATLAR VA
TERGOVCHINING HARAKATLARI**

**HAYDOVCHI VA TRANSPORT VOSITASI HODISA SODIR BO'LGAN JOYDA
TURIBDI**



Tergovning dastlabki bosqichida eng muhim tergov harakatlari jumlasiga: YTH joyini ko'zdan kechirish; murdani va hodisada ishtirok etgan transport vositalarini ko'zdan kechirish; haydovchini guvohlantirish, jabrlanuvchilar, shohidlar va gumon qilinayotganlarni so'roq qilish kiradi. Tergovni boshlash paytidagi yuzaga kelgan tergov vaziyatiga va uning yangi ma'lumotlar olish natijasida o'zgarishi tamoyiliga qarab boshqa shakllardagi dastlabki tergov harakatlarini: jabrlanuvchilarni sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish, avtotexnika ekspertizasi o'tkazish, guvohlarni so'roq qilish (masalan, hodisada ishtirok etgan transport vositasini tasarruf etuvchi aniq avtokorxonada transportning texnik holati uchun javobgar bo'lgan xodimlaridan birini) va boshqa shu kabi ishlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'lishi mumkin. Dalil-isbot materiallarining asosiy qismini olish va tekshirilayotgan voqea to'g'risida xolis tasavvur hosil qilish imkonini beradigan YTH joyini ko'zdan kechirish texnik va taktik jihatdan eng murakkab ish hisoblanadi.

Tergovning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan tezkor qidiruv chora-tadbirlaridan ko'zlangan asosiy maqsad-yashiringan haydovchilarni, YTHda ishtirok etgan transport vositalarini, hodisaning guvohlari va shohidlarini qidirib topishdan iborat. Shu maqsadda yo'llarni to'sish chora-tadbirlari amalga oshiriladi, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida, avtokorxonalarda tekshiruvlar o'tkaziladi, davlat avtomobil nazorati organlaridan transport egalari to'g'risida ma'lumotlar olinadi, hodisaning aniqlangan guvohlari, shuningdek boshqa shaxslar so'roq qilinadi.

Yo'l-transport hodisasi yuz bergan joyni ko'zdan kechirish. YTH yuz bergan joydagi moddiy holatni o'rganish ko'zdan kechirishning asosiy vazifasidir. Olingan natijalar tekshirilayotgan voqeani tiklash, hodisa mexanizmi to'g'risida tasavvur hosil qilish va uning sabablarini aniqlash imkonini beradi. Ko'rib chiqilayotgan toifadagi ishlar bo'yicha hodisa yuz bergan joyini ko'zdan kechirishning spetsifik xususiyatlari ushbu tergov harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitlar bilan belgilanadi. Ushbu sharoitlar yo'l harakatining o'ta zichligi tufayli holatning o'zgarishi va izlarning yo'q bo'lib ketishi xavfining kattaligi bilan ajralib turadi. harakatni to'xtatish esa avtomagistrallarda boshqa xavfli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu kabi tez-tez bo'lib turadigan majburiy o'zgarishlar tergovchi uchun doimo ortiqcha qiyinchilik tug'diradi. Mana shundan kelib chiqqan holda YTHlari to'g'risidagi har bir xabarga darhol munosabat bildirish va avariya yuz bergan hududda yo'l harakatini tez va to'g'ri tashkil etish: xavfli hududni aylanib o'tilishini ta'minlash, ogohlantiruvchi belgilar o'rnatish va shu kabilar zarurligi talab etiladi.

YTH yuz bergan joyga, qoida tariqasida, ma'lumot olinganidan keyin birinchi bo'lib YHXX xodimlari yetib kelishadi. Ularning zimmasidagi vazifa – tergovchi yetib kelguniga qadar YTHni qo'riqlash va yo'l harakati boshqa qatnashchilarining xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Biroq, ko'zdan kechirish boshlanguniga qadar hodisa yuz bergan joyni o'zgarishsiz saqlashga hamisha ham muvaffaq bo'linavermaydi. Bunday o'zgarishlarga ko'pincha avariya natijasida jabr ko'rgan transport vositasidagi yo'lovchilarga tibbiy yordam ko'rsatish zarurati sabab bo'ladi, negaki, bu ishni bajarish uchun avtomashina oynalarini sindirishga, eshiklarini sug'urib olishga to'g'ri keladi. Avariya ishtirok etgan

avtomashinalarni yo`ning transport vositalari harakatlanadigan qismidan boshqa joyga olish ehtiyoji ularning bu yerda turishidan yo`ldagi holatning murakkablashishi, ayniqsa, yo`lda transportning normal harakatlanishiga xavf solishi va shu kabi boshqa sabablardan kelib chiqadi.

Jabrlanganlarga yordam ko`rsatish hodisa sodir bo`lgan joyga yetib kelgan YHXX xodimlarining birinchi galdagi vazifasidir. Basharti, jabrlanuvchi davolash muassasasiga jo`natilguniga qadar yo`ning transport vositalari harakatlanadigan qismida yotgan bo`lsa, u yotgan joy va gavdasining holati tegishli tarzda qayd etiladi (chiziladi, masalan, murda asfaltga chiziladi va shu kabilar).

YHXX xodimlari tergovchi yetib kelguniga qadar YTHda ishtirok etgan transport vositalarining haydovchilarini ushlash, ularning haydovchilik guvohnomasini va boshqa hujjatlarini, masalan, yuk tashish huquqini beruvchi hujjatlarini, transport vositalarining texnik pasportlari va boshqa shu kabilarini olib qo`yish chora-tadbirlarini ham ko`rishlari kerak. Izlarning saqlab qolinishiga alohida e`tibor qaratish lozim. Negaki, izlar ob-havo sharoitlari, yo`lda yuzaga kelayotgan holat va boshqa shu kabilarining ta`siri natijasida yo`qolib ketishi turgan gap.

Ko`zdan kechirish boshlanguniga qadar tergovchi shohidlardan so`ratish orqali voqea qanday yuz berganini, moddiy holatga qanday o`zgarishlar kiritilganligini umumiy tarzda aniqlaydi. Basharti, haydovchi avariya aybdori bo`lib, hodisa sodir bo`lgan joydan yashiringan bo`lsa, avariya ishtirok etgan transport vositasining turi, rusumi va rangini, qoidabuzar qochib ketgan yo`nalishni aniqlash juda muhim. Bu qidiruvni «issig`ida» tashkil etishga yordam beradi. Qidiruv hodisa yuz bergan joyni ko`zdan kechirish bilan bir vaqtda olib boriladi. Hodisada ishtirok etgan haydovchilar mast degan shubha paydo bo`lsa, ularni YHXX xodimlarining hamrohligida qondagi alkohol tarkibini aniqlash maqsadida tibbiy tekshiruvga yuborish lozim.

Tergovchi YTHning *umumiy manzaratsi* bilan tanishib, ko`zdan kechirishning chegaralarini belgilaydi va shu chegaralar doiratsida qo`riqlash ta`minlanadi. Ko`zdan kechirish boshlanguniga qadar hodisa yuz bergan joydan shatak yordamida tortilgan transport vositalarining qayerda turganligini, ular dastlab yo`ning transport vositalari harakatlanadigan qismining qayerida turganligini ko`rsatuvchi belgilar bor-yo`qligini, kasalxonaga jo`natilgan

jabrlanuvchining turgan joyi va gavda ko`rinishi hamda boshqa shu kabilar belgilangan-belgilanmaganini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

YTH yuz bergan joyning moddiy holatini tashkil etuvchi va sinchiklab o`rganilishi lozim bo`lgan asosiy ob`yektlar quyidagilar: 1) yo`lning avariya ro`y bergan qismi; 2) hodisa ro`y bergan joydagi voqea mexanizmini tiklash imkonini beradigan transport vositalarining izlari va boshqa izlar; 3) murdalar (agar avariya odamlarning qurbon bo`lishiga olib kelgan bo`lsa); 4) hodisada ishtirok etgan transport vositalari.

YTH yuz bergan joyning holatini o`rganish tergov uchun muhim ahamiyatga molik qator vaziyatlarni oydinlashtirish imkonini beradiki, ular yordamida:

xavfli vaziyat yuzaga kelgan joy va yuzaga kelish sabablarini; yo`lning bevosita avariya ro`y bergan qismining ahvolini va undagi yo`l holatini;

hodisa qatnashchilaridan har birining xavfli vaziyat yuzaga kelishidagi rolini va avariyaning oldini olish yuzasidan qilgan xatti-harakatlarini;

xavfli vaziyat yuzaga kelgan paytdan boshlab, to zararli oqibatlar kelib chiqquniga qadar davr ichidagi hodisa mexanizmini aniqlash imkonini beradi.

Ko`zdan kechirishni yo`lning transport vositalari harakatlanadigan va yo`l harakatini tezda tiklash talab qilinadigan qismidan boshlash kerak. Bunda harakatlarning ketma-ketligi yuzaga keladigan vaziyatga bog`liq bo`ladi. Eng avvalo, izlarga putur yetishi yoki ular yo`q bo`lib ketishi xavfi mavjud va avtomagistral bo`ylab transport zich harakat qiladigan joylar ko`zdan kechirilishi kerak. Ko`zdan kechirish bahonasida transport vositalarining harakatini to`xtatib qo`yish yo`l harakatini tartibga solishda qiyinchiliklar tug`dirib, avtomobillarning to`p bo`lib qolishiga, xavfli vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Agar yo`l harakati qoidalarini buzgan haydovchi hodisa yuz bergan joydan mashinada g`oyib bo`lgan bo`lsa, ko`zdan kechirishni haydovchining yo`nalishini ko`rsatuvchi izlar orqali topilishi mumkin bo`lgan joydan boshlab, shu yo`nalish bo`yicha qidiruvni tashkil etgan ma`qul.

Yo`lning transport vositalari harakatlanadigan qismini ko`zdan kechirish jarayonida uning profilini (balandliklari, pastliklari,

burilish joylari va shu kabilarini), yo'l ishoralari va belgilarining bor-yo'qligini, yo'l yoqasini, to'siqlarni, transport vositalari harakatlanadigan qismining kengligi va shu kabilarini albatta qayd etish shart. Ushbu ma'lumotlarni hisobga olgan holda keyinchalik hodisaning har bir qatnashchisi yo'lining mazkur qismini ko'z bilan qamratish va YTHning oldini olish uchun qay darajada imkoniyatga ega bo'lganligiga baho beriladi.

Xavfli vaziyat yuzaga kelgan joy va vaqtni aniqlash ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi.

Xavfli vaziyatning paydo bo'lishi ham, avariya ham ayni bir joyning o'zida bir vaqtda yuz bergan bo'lishi mumkin. Biroq, ko'pincha makon o'lchovi ham, vaqt o'lchovi ham turlicha bo'ladi. Yo'ldagi xavfli vaziyat bilan avariya vaziyatini bir-biridan muayyan muhlat ajratib turadi. Ana shu muhlat ichida haydovchilar, piyodalar avariya yo'l qo'ymaslikka urinib ko'radilar. Xususan, shu muhlatda transport vositasi va piyodalar o'z harakat tezliklariga mos keladigan masofani bosib o'tadilar. Hodisa barcha qatnashchilarining xatti-harakatlariga imkon qadar to'liqroq baho berish uchun xavfli vaziyat yuzaga kelgan joyni aniqlash favqulodda muhimdir. Joyda amalga oshiriladigan ushbu ish transport vositalarining (harakat yo'nalishini, tormoz va boshqa shu kabilar) izlarini, yo'lining transport vositalari harakatlanadigan qismida piyodalarning izlarini qidirish va ularning holatiga baho berish zarurati bilan bog'liq bo'lib, aksariyat hollarda hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirishning doiratsi kengaytirilishini taqozo etadi. Tormoz izlari alohida muhim ahamiyatga ega. Bunday izlarning boshlanish qismi, odatda, xavfli vaziyat yuzaga kelgan joyga mos keladi va unga qarab, transport vositasining harakat tezligi haqida xulosaga kelish mumkin. Izlarda aks etgan tormoz yo'lining uzunligi ayniqsa sinchiklab o'lchanadi. Yo'l qoplamasining (asfalt, tuproq yo'l, quruq yoki ho'l asfalt va boshqa shu kabilar) holati albatta qayd etiladi. Shuning yordamida muayyan darajada tormoz yo'li aniqlanadi.

G'ildirak qoplamasining shakli aks etadigan va ko'pincha YTH yuz bergan joyda topiladigan izlarga qarab, ushbu izlarni qoldirgan avtomashinaning rusumi, modeli aniqlanadi. Mana shu ma'lumotlar yashiringan haydovchilar va transport vositalarini qidirishga yordam beradi.

YTH har bir qatnashchisining rolini aniqlash va uning mexanizmini tiklash uchun boshqa izlar: nur tarqatadigan faralar oynalari, old oynaning siniq parchalari, ularning transport vositalari harakatlanadigan yo'l qismidagi joylashuvi; xuddi mana shu joylardan va ularga tutash hududlardan topiladigan transport vositalarining to'qnashishi natijasida buzilgan yoki uzellar va agregatlarning texnik jihatdan nosozligi tufayli ishdan chiqqan detallar; tormoz suyuqligining izlari, asfaltdagi moy dog'lari, piyodalarning izlari, kiryalanish izlari, transport vositalari va piyodalarning o'zlarida mavjud bo'lgan nuqsonlarning izlari muhim rol o'ynaydi. Bularning hammasi tegishli shakllari, miqdorlari, xarakteri va o'zaro joylashuvining xos xususiyatlarini hisobga olgan holda hodisa mexanizmini tiklash uchun favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi va ular kriminalistik vositalar: fotosuratga olish, kinosuratga tushirish, turli tarx va sxemalar tuzish orqali, hozirgi zamon nusxa ko'chirish vositalari va boshqa shu kabilar yordamida sinchkovlik bilan qayd etilishi lozim.

Transport vositalarini ko'zdan kechirish. Avariya qatnashgan transport vositalarini ko'zdan kechirish hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirishning bir qismi yoki mustaqil tergov harakati bo'lishi mumkin. Transport vositalarini ko'zdan kechirishning asosiy vazifalari, birinchidan, yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik natijasida avariya qatnashgan transport vositalarida paydo bo'lgan izlar va putur yyetgan joylarni, ikkinchidan, ularning texnik holatini aniqlashdan iborat. Ushbu masalalarni hal etish uchun, odatda, maxsus bilimlar talab qilinadi, shuning uchun ko'zdan kechirishga avtotexnika mutaxassisini, ba'zida esa: kriminalistni taklif etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirishning muayyan qismi hisoblangan transport vositasini ko'zdan kechirishni boshlashdan oldin uning turgan joyi va boshqa mo'ljallarga (boshqa transport vositalari, murda, yo'l yoqasi va boshqa shu kabilarga) nisbatan joylashuvini qayd etish zarur.

Transport vositasini ko'zdan kechirishni avariya natijasida putur yyetgan joylaridan boshlash lozim. Bunda transport vositalarida mavjud bo'lgan boshqa izlar: qon izlari, bo'yoq zarrachalari, tratsologik izlar va boshqa shu kabilarga ziyon yyetkazmaslik yoki ularni yo'q qilib yubormaslik uchun ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Putur yetgan joy qayerda joylashganligi, shakli, o`lchami ko`rsatilgan holda bayonnomada batafsil tavsiflanishi lozim. Agar transport vositasida qirilgan joylar paydo bo`lgan bo`lsa, ularning gorizontal bo`ylab yo`nalishini ko`rsatish kerak. Putur yetgan joylar avtomashinaning qayerida ekanligini ko`rsatishdan tashqari o`lchash yo`li bilan ham qayd etiladi. O`lchov vositasining bir uchi doimo yer sathida bo`lishi kerak. Shu orqali putur yetgan joy qanday balandlikda aniqlangani ma`lum bo`ladi. Ko`zdan kechirilayotgan avtomobil` qanday holatda ekanligini va undagi putur yetgan joylar haqida tasavvur hosil qilish uchun umumiy va mukammal suratga tushirish qoidalari bo`yicha *fotosuratga olish* lozim. Umumiy fotosuratlarda transport vositasining har bir tomondan umumiy ko`rinishi qayd etiladi. Keyin masshtabli chizg`ich bilan har bir putur yetgan joy alohida suratga olinadi.

Ko`zdan kechirish paytidayoq boshlanishi lozim bo`lgan transport vositasidagi putur yetgan joylarni o`rganish, ularni boshqa ob`yektlardagi (murda tanasi, to`siqlar, hodisada ishtirok etgan boshqa transport vositalari) putur yetgan joylar bilan taqqoslash avariya mexanizmini tanlash, to`qnashish, urib ketish vaqtida transport vositalarining, piyodalarning, yo`lning transport vositalari harakatlanadigan qismidagi to`siqlarning o`zaro qay tarzda joylashganligini, o`zaro to`qnashilganda mexanik kuchlarning harakat yo`nalishi va boshqa shu kabilarni aniqlash imkonini beradi.

Transport vositasidagi barcha putur yetgan joylar va izlar aniqlanib, qayd etilganidan keyin ko`zdan kechirilayotgan transport vositasining texnik holatini aniqlashga kirishish mumkin. Texnik holat avtotexnik mutaxassisning ishtirokida tekshiriladi. Bu ish, agar tergovchi YTHga transport vositasining texnik jihatdan nosozligi sabab bo`lgan, degan asosli fikr bildirsa, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport vositasini ko`zdan kechirish jarayonida yorug`lik signalizatsiyasi, tormoz tizimi, harakatlanuvchi qismi, uning harakat xavfsizligini ta`minlash nuqtai nazaridan boshqa muhim uzellari va agregatlarining holati tekshiriladi. Basharti, avtomashinaning texnik holatini aniqlash uchun murakkab diagnostika va boshqa priborlardan foydalanish talab qilinsa, nafaqat nosozliklar bor-yo`qligini, balki ko`zdan kechirish paytida topilgan nosozliklarning sabablarini ham aniqlash vazifasi ko`ndalang bo`lsa, avtotexnika ekspertizasi tayinlanadi.

Hodisa yuz bergan joyda bir necha avtotransportni ko`zdan kechirish chog`ida nafaqat ulardagi izlar va putur yetgan joylarni aniqlash, balki bir-biriga taqqoslash ham ijobiy natija beradi.

Murdani ko`zdan kechirish. YTH yuz bergan joyda murda umumiy qoidalarga binoan tekshiriladi. Ayniqsa murdadagi izlar va shikastlarga alohida e`tibor qaratish, odam urib ketgan haydovchi yashiringan, guvohlar yo`q bo`lgan noqulay tergov vaziyati yuzaga kelgan paytda hal etuvchi muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Buning uchun kiyim-kechak ham, poyabzal ham alohida sinchkovlik bilan tekshiriladi, negaki, ularda ko`p hollarda keyinchalik transport vositasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan g`ildirak qoplamasi izlari va boshqa izlar qolgan bo`ladi.

Hodisa yuz bergan joyda murdani ko`zdan kechirish natijalarini qayd etish vaqtida yo`lning transport vositalari harakatlanadigan qismining qayerida, avariya ishtirok etgan transport vositasiga, mavjud izlarga (murdani sudratsh, tormoz izlari va shu kabilar) nisbatan qayerda ekanligini aniq ko`rsatish muhimdir. Bu hodisa mexanizmini tiklash imkonini beradi. Murdaning gavadasi, kiyim-kechagining holati, ulardagi izlar va putur yetgan joylar ham qayd etiladi. Ko`zdan kechirish jarayonida barcha manzara fotosuratga olinadi, o`lchanadi. Natijalar bayonnomaga batafsil yoziladi. Murdadagi putur yetgan joylar, ularning lokallashgani, og`irlik darajasi va murdaning kiyim-kechaklaridagi izlarga qarab, zarba avtotransportning qaysi qismi bilan yetkazilganligi, zarbning kuchi, yo`nalishi va boshqa shu kabilar to`g`risida xulosaga kelish mumkin.

Yo`l-transport hodisasida qatnashgan haydovchilarni so`roq qilish. So`roq qilishdan oldin haydovchining shaxsini aniqlash va hujjatlari: haydovchilik guvohnomasi, avtomashinaning texnik pasporti, yuk tashishga taalluqli hujjatlar, yo`l varaqalari va boshqa shunga o`xshash hujjatlarini tekshirish zarur.

Haydovchini so`roq qilish vaqtida quyidagi holatlarni aniqlash lozim:

1) so`roq qilinayotgan shaxs boshqaruvidagi transport vositasining holati hodisaga qadar qanday bo`lgan. Agarda transport vositasi nosoz bo`lsa, bunday nosozlik qanday namoyon bo`lgan, nosozlik qachon ma`lum bo`lgan va unga barham berish uchun qanday choralar ko`rilgan;

2) xavfli vaziyat yuzaga kelgan paytda haydovchi qanday holatda bo`lgan va normal holatni yo`qotishning sabablari nimada

(transportni uzoq boshqarish natijasidagi toliqish, alkogoldan mast bo`lish va boshqa shu kabilar);

3) haydovchi rulni uzluksiz qancha vaqt boshqargan va bunday uzoq yurishga qanday zarurat bo`lgan;

4) xavfli vaziyat paydo bo`lishida bevosita oldin yo`ldagi holat qanday bo`lgan: haydovchi qanday tezlikda harakat qilgan; yo`lda boshqa transport vositalari, piyodalar bormidi; ular o`rtasida oraliq masofa qancha, ular qaysi yo`nalishda va taxminan qanday tezlikda harakat qilishgan; yo`lning ushbu qismida xavf to`g`risida qanday ogohlantiruvchi belgilar bor; yo`l qoplamasining holati va ko`rish sharoiti qanday bo`lgan;

5) so`roq qilinuvchining fikricha, xavfli vaziyat yuzaga kelish paytida yo`lning holati qanday bo`lgan va bunday vaziyat yuzaga kelishining sababi nimada, vaziyatning xavfliligi nimada namoyon bo`lgan; so`roq qilinayotgan shaxs yo`lning transport vositasi harakatlanadigan qismida piyodani ko`rganmi va u transport vositasiga bevosita yaqin joyda qayerdan paydo bo`ldi; so`roq qilinayotgan shaxs avariyaning oldini olish uchun qanday choralar ko`rgan; u yo`l harakati qoidalarini buzganmi yoki xavfli vaziyat boshqa sabab bilan paydo bo`lganmi; u svetoforming qaysi signaliga ko`ra chorraha tomon harakat qilgan va boshqa shu kabilar;

6) odam urib ketishda to`qnashuv qanday sodir bo`lgan; piyodaga transportning qaysi qismi urilgan; avariya vaziyatida va avariya dan keyin so`roq qilinayotgan haydovchi o`zini qanday tutgan;

7) hodisa yuz bergan joyga bevosita yaqin turgan transport vositalari haydovchilaridan qaysi biri uning ko`rsatmalarini tasdiqlashi mumkin; so`roq qilinayotgan shaxs haydovchilar hodisani kuzatganligi ehtimol tutilgan avtomashinalarning raqam belgilarini eslab qolganmi;

8) so`roq qilinayotgan shaxs YTHda jabr ko`rganlarga yordam ko`rsatish uchun qanday choralar ko`rgan.

Hodisada qatnashgan transport vositalari haydovchilarini so`roq qilish uchun yuqoridagi savollar doiratsi tugal emas. Bu doira so`roq qilinayotgan shaxsning hodisa mexanizmidagi roliga, ayb darajasiga, avariya oqibatlarining xarakteri va og`irlik darajasiga hamda boshqa shu kabilarga qarab kengaytirilishi yoki toraytirilishi mumkin. Masalan, odam urganlikda gumon qilish bo`yicha qidiruv chora-tadbirlarini o`tkazish vaqtida ushlangan haydovchini so`roq qilish

avariya paytida u qayerda bo'lganligi, u avariya sodir etilgan joydan boshqa joyda bo'lganligini kim tasdiqlashi mumkinligini, hodisa yuz bergan joydan yashirinishga uni nima majbur etganligini va boshqa shu kabilarni aniqlashdan boshlash kerak.

YTHda qatnashgan haydovchini so'roq qilish to'g'risida qaror qabul qilinar ekan, u ishning qanday tugashidan manfaatdor ekanligini unutmazlik kerak, negaki, haqiqat qaror topishi uchun sidqidildan yordam ko'rsatish istagidagi tajribali haydovchilar ham yo'lda yuzaga kelgan vaziyatni xolis baholashga, belgilangan qoidalarni kim buzgan-u, kim bundan jabr ko'rganini farqlashga qodir bo'lmaydilar. Biroq, o'z xatti-Harakatlariga baho berishdagi sub'yektivlik hamisha ham javobgarlikdan qochish yoki aybni birovga ag'darish maqsadini ko'zlamaydi. Masalaning bu jihati transport vositalari haydovchilarini so'roq qilish taktikasini belgilab berishi kerak. Ular berayotgan ma'lumotlarning qay darajada to'g'riligiga esa, to'plangan dalil-isbotlarning jamlamasi bo'yicha baho berish mumkin.

Jabrlanuvchini so'roq qilishning xususiyatlari. YTH bo'yicha piyodalar, velosipedchilar, transport vositalaridagi yo'lovchilar jabrlanuvchi bo'lishlari mumkin. Avariya ishtirok etgan transport vositalarining haydovchilari bilan birga bo'lgan, ziyon ko'rgan va aybsizligi aniqlangan shaxslar ham jabrlanuvchi sifatida e'tirof etiladi.

Transport urib ketishidan jabrlanganlarni va avariya jabrlangan passajirlarni so'roq qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, jabrlanganlar transport vositalari haydovchilarining harakatlari yo'l harakati qoidalariga qanchalik muvofiqligi xususida fikr yuritishga qiynaladilar, ayniqsa, fikr yuritish maxsus tayyorgarlik talab qilinsa, ish yanada murakkablashadi. Shu sababdan voqeaga tavsif berar ekanlar, jabrlanuvchilar ko'proq ob'yektiv kategoriyalarga emas, balki his-hayajonga amal qiladilar. Boshqa tomondan, hodisa uchun aybdor bo'lgan transport vositalarining haydovchilari (ularning qarindoshlari, tanishlari) aksariyat hollarda javobgarlikdan qochish yoki aybni engillashtirish maqsadida jabrlanuvchilarga tazyiq o'tkazib, yetkazilgan zarar uchun pul berish taklifi bilan ularni ko'rsatma berishdan bosh tortishga yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan dalillarni yashirishga ko'ndirish uchun harakat qiladilar. Bunday tazyiq o'tkazilishi ehtimolini nazarda tutib, YTHda jabr ko'rganlarni so'roq qilish

birinchi vazifa deb hisoblanadi, soʻroq oʻtkazishga jabrlanuvchining sogʻligi toʻsqinlik qilgan hollar bundan mustasno. Bunday paytlarda soʻroq faqatgina davolovchi shifokorning ruxsati bilan oʻtkaziladi.

Piyodalarni (velosipedchilarni) avtomashina urib ketganligi toʻgʻrisidagi ishlar boʻyicha jabrlanuvchilarni soʻroq qilish jarayonida quyidagilar aniqlanadi:

1) jabrlanuvchi qay tarzda, qanday tezlikda, qanday jadallikda va yoʻnalishda harakat qilgan;

2) jabrlanuvchi oʻziga yaqinlashib kelayotgan transport vositasini koʻrganmi va agar koʻrgan boʻlsa, u qaysi tomondan va taxminan qanday tezlikda harakat qilgan;

3) jabrlanuvchi transport vositasi kelib urilganda qayerda turgan;

4) kelib urilgan transport vositasining turi, rusumi, modeli, rangi qanday edi va agar u voqea sodir boʻlgan joydan yashiringan boʻlsa, qaysi yoʻnalish boʻylab ketgan.

YTHga shohid boʻlgan guvohlarni soʻroq qilish. Yoʻl harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlikni tergov qilishning dastlabki bosqichida hodisaga shohid boʻlgan guvohlarni soʻroq qilish alohida muhim ahamiyatga molik. Bunday shaxslar jumlasiga hodisada ishtirok etmagan, biroq, avariya joyiga bevosita yaqin turib, uni kuzatishi mumkin boʻlgan piyodalar, yoʻlovchilar, transport vositalarining haydovchilari kiradi. Harakat xavfsizligi ustidan nazoratni amalga oshirish boʻyicha zimmasidagi vazifalarni bajarayotgan YHXX xodimlari ham hodisa shohidlari boʻlishi mumkin. Shohidlarni soʻroq qilish vaqtida olinadigan maʼlumotlar yuz bergan voqega xolis baho berishda doimo katta qimmatga ega boʻladi.

Hodisa shohidi boʻlgan guvohlarni soʻroq qilish jarayonida, birinchidan, hodisa sodir etilganida ularning oʻzi qanday sharoitda boʻlganligi (hodisa yuz bergan joyga qanday kelib qolganligi, aniq turgan joyi, hodisani qayerdan turib kuzatganligi va shu kabilar), ikkinchidan, hodisa mexanizmi (yoʻlning mazkur qismida transport vositalari qaysi yoʻnalishda harakat qilganligi; yoʻlning transport vositalari harakatlanadigan qismida piyodalar boʻlgan-boʻlmaganligi, agar bor boʻlsa, aniq qayerda boʻlganligi; hodisada ishtirok etgan transport vositalarining haydovchilari uchun atrofni koʻrish sharoiti qanday boʻlganligi, atrof manzarani koʻrish uchun ularga nima xalaqit qilganligi; avtomashinalarning toʻqnashishi,

odam urib ketish yo`lning transport vositalari harakatlanadigan qismining aniq qaysi joyida yuz berganligi; haydovchi to`qnashib ketish yoki odam urishning oldini olish uchun choralar ko`rgan-ko`rmaganligi, agar ko`rgan bo`lsa, bu harakatlar nimada namoyon bo`lganligi; odam urib ketgan transport vositasi svetoforming qaysi signaliga binoan chorrahaga kirib kelganligi yoki piyoda svetoforming qaysi signaliga binoan chorrahani kesib o`tganligi va boshqa shu kabilar) aniqlanadi.

Hodisa joyidagi yashiringan haydovchilarni qidirish uchun haydovchining tashqi qiyofasi, u qochib ketgan transport vositasiga taalluqli ma`lumotlar (turi, rusumi, modeli, raqam belgisi va boshqa farqlovchi belgilari) muhim ahamiyatga egadir. Yuz bergan hodisaga xolis baho berish nuqtai nazaridan olganda kasbiy ko`nikmaga ega bo`lgan shohidlar: hodisada ishtirok etmagan transport vositalari haydovchilarining, yo`lning mazkur qismida harakat xavfsizligi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi YHXX xodimlarining fikrlari alohida e`tiborga ega bo`ladi. Ular to`qnashish, odam urish va boshqa shu kabilar sodir bo`lgan paytda yo`lda yuzaga kelgan holatda aniq baho berishlari, yo`l harakati qoidalarini buzganlik oqibatida xavfli vaziyatni yuzaga keltirgan shaxs kim ekanligi, bunday vaziyatda avariyaning oldini olish mumkin bo`lgan-bo`lmaganligi va shu kabilar haqida asosli mulohazalar bildirishlari mumkin.

Yashiringan haydovchilar va transport vositalarini qidirish. YTH yuz bergan joydan yashiringan haydovchilar avariya tufayli avtomashinada paydo bo`lgan nosozliklarga, putur yetgan joylarga imkon qadar tezroq barham berishga, undagi izlarni yo`q qilishga urinadilar. Avtomobil` yaxshilab yuviladi, to`qnashish, odam urish va boshqa shu kabilar natijasida shikast yetgan detallar yangilariga almashtiriladi, qiyshaygan kuzov to`g`rilanadi, umuman kamchiliklarga barham beriladi. Jinoyat izlarining yo`q qilib yuborilishi xavfi yashiringan transport vositalari haydovchilarini jadal qidirish yuzasidan chora-tadbirlar ko`rishni taqozo etadi. Hodisaning shohidlaridan, jabrlanuvchilardan olingan ma`lumotlar tezkor qidiruv chora-tadbirlari o`tkazish uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Hodisa yuz bergan joydan topilgan izlar: avtomobilning turi, rusumi haqida fikr yuritish imkonini beradigan g`ildirak qoplamalarining izlari; harakat yo`nalishini va yashiringan transport vositalarini qidirish yo`nalishlarini belgilovchi izlar

qidirilayotgan transport vositalariga taalluqli muhim axborot manbai hisoblanadi.

Haydovchilar va transport vositalarini qidirish hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirish bilan bir vaqtda tashkil etiladi. Bunda olinayotgan ma'lumotlarni ayirbosh qilish va bundan keyingi qidiruv chora-tadbirlarini birgalikda rejalashtirish maqsadida tezkor qidiruv xodimlari, YHXX xodimlari va tergovchi o'rtasida muntazam aloqa o'rnatilishi kerak. Haydovchilar yashiringan yo'nalishdagi YHXX postlari ular xizmat o'tayotgan hududda qoidabuzar paydo bo'lishi ehtimoli borligi va uning belgilari haqida ogohlantirilishi lozim. Yana shuni unutmaslik muhimki, qidirilayotgan haydovchilar avtomobildagi nosozlikka barham berish, avariya izlarini yo'qotish maqsadida biror joyda to'xtashlari ham mumkin. Bunday to'xtashlardan yo'ldagi yonilg'i-moylash materiallaridan paydo bo'lgan dog'lar, yo'lning yoqasi yoki transport vositasi harakatlanadigan qismidagi haydovchining oyoq izlari, yo'lyoqasidagi g'ildirak qoplamasi izlari va boshqa shu kabilar darak berishi mumkin. Transport vositasi to'xtab o'tgan joyda avariya natijasida putur yetgan detallar, faralarning siniq parchalari, kuzov bo'yog'ining zarrachalari topilishi mumkin. Bular ham «issig'ida» jinoyatchining ketiga tushgan xodimlarning e'tiboridan chetda qolmasligi kerak, negaki, bular hodisa to'g'risida yangi daliliy ma'lumotlar beribgina qolmay, qidiruv to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganligini ham tasdiqlaydi.

Tezkor xodimlar ega bo'lgan dastlabki axborotlarda qidiruvni aniq yo'nalishlarda olib borish uchun zarur bo'lgan hodisa joyidan qochgan haydovchilar va transport vositalariga taalluqli ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lmasa yoki mavjud bo'lsa-yu, bir-birini inkor etsa, yangi axborot manbalarini qidirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- avtotratssadan sirtida ko'zga tashlanadigan putur yetgan joylari bor transport vositasi o'tganligini kuzatgan shaxslar;

- transport vositalarining haydovchilari nosozlikka barham berishda yoki nosoz avtomobilni tashishda yordam ko'rsatish iltimosi bilan murojaat qilgan shaxslar;

- avtokorxonalarining safardan qaytgan transport vositalarida shikast yetgan joylari borligini payqagan xodimlari va boshqa shu kabilar.

Mazkur guvohlarni qidirib topish huquqni muhofaza qilish organlari va yo'l xizmatining ko'p sonli xodimlaridan yuksak darajadagi uyushqoqlikni, tajriba va mahoratni, rejali ish maromini talab qiladi, ko'p vaqt va kuch sarflanishini taqozo etadi. Shuning uchun bunday ishga ommaviy axborot vositalarini jalb etish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ba`zida yashiringan haydovchilar o`zlari qochib ketgan transport vositalarini hodisa yuz bergan joydan ancha olisda tashlab ketadilar. Bunga avariya tufayli avtomashinaning nosoz holatga kelishi oqibatida harakatni davom ettirishning iloji yo`qligi; yonilg`i tugab, uni yana quyishning imkonidan mahrumlik, ya`ni yaqindagi YHXX postida qo`lga tushib qolish mumkinligi va boshqa shu kabi holatlar sabab bo`lishi mumkin. Jinoyatchilar tashlab ketgan transport vositalari topilganida YHXX organlaridagi mavjud qayd etish materiallari bo`yicha darhol uning egasini aniqlash lozim. Ayni bir vaqtning o`zida topilgan transport vositasini ko`zdan kechirish orqali qidirilayotgan haydovchi to`g`risidagi axborotga ham ega bo`lish mumkin. Buning uchun esa, haydovchining qo`li tegishi mumkin va shart bo`lgan rul boshqaruvi agregatlarida, priborlar qutichasi va avtomashinaning boshqa qismlarida qoldirilgan qo`l izlari, tashlab ketilgan transport vositasi atrofidagi oyoq izlari, sigareta qoldiqlari va boshqa shu kabilar asqotadi. Transport vositasining salonida yaxshi saqlanib qoladigan hidlardan qidiruv xizmati itlari yordamida yashiringan haydovchini topish va ushlab, keyinchalik esa, to`g`ri qayd etilgan hid izlaridan gumon qilinuvchini tanlash deb atalmish ishlarda foydalanish mumkin. Bunday ish natijalari dalil-isbotlar manbai sifatida e`tirof etilmasada, biroq ulardan taxminlar qilish va ishni tergov qilishning bundan keyingi rejalarini tuzishda foydalanish mumkin.

4-§. Yo`l-transport hodisalari tergovining davomi

Tergovning davomi YTHning sabablari to`g`risidagi dastlabki xulosani oydinlashtirish, tekshirilayotgan voqeaning hali noma`lum bo`lgan holatlarini, hodisa har bir ishtirokchisining roli va ayb darajasini aniqlash, tergovning dastlabki bosqichida olingan ma`lumotlarni tekshirish maqsadini ko`zlaydi. Buning uchun *ekspertizalar, tergov eksperimentlari, so`roq va boshqa tergov harakatlari o`tkaziladi.*

Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlikka doir ishlarni tergov qilishda ko'pincha ekspertizalar o'tkazish talab qilinib, ular oratsida eng ko'p *tarqalganlari avtotexnika, kriminalistik, sud-tibbiyot va sud-kimyo* ekspertizalaridir. Hozirgi kunda hodisa yuz bergan paytda haydovchilarning psixofiziologik holati qanday bo'lganligini aniqlash uchun *sud-psixologik* ekspertiza tez-tez tayinlanadigan bo'lib qoldi. Psixofiziologik holatning normadan chetga chiqishiga sabab yo'lda xavfli vaziyat yuzaga kelishi bo'lgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, tilga olingan shakldagi ekspertiza o'tkazish zarurati paydo bo'ladi.

Avtotexnik ekspertiza tekshiruvi ko'rib chiqilayotgan toifadagi ishlarning deyarli barchasi bo'yicha o'tkaziladi, negaki bunday ekspertiza texnika nuqtai nazaridan qaraganda, ko'pincha YTH mexanizmidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlash va ularga baho berishning yagona usuli bo'lib qoladi. Bu kabi texnik jihatdan baho berish usuli yo'q bo'lsa, hodisa ishtirokchilarining harakatlari (harakatsizligi) bilan kelib chiqqan zararli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlab bo'lmay qoladi, boshqacha aytganda, tekshirilayotgan voqeaga yuridik jihatdan baho berishning ham imkoni qolmaydi. Avtotexnika ekspertizasi ushbu toifadagi ishlar tergovini amalga oshirayotgan tergovchi oldida ko'ndalang bo'ladigan asosiy savollardan biriga javob beradi, ya'ni, transport vositasining haydovchisi yuzaga kelgan vaziyatda hodisaning oldini olish uchun texnik imkoniyatga ega bo'lgan-bo'lmaganligi masalasini hal qilib beradi.

Avtotexnika ekspertizasi hal etadigan masalalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

1. Avtomashinaning (mototsikl va shu kabilarning) texnik holati. Bunday paytda transport vositasining texnik holatini o'rganish vazifasi faqatgina u yoki bu nosozlikni aniqlash emas, balki bu nosozlik yuzaga kelishining sababini ochib berishdan ham iboratdir. Avtotexnika ekspertizasi avtomashinaning aniq uze'i yoki agregati avariya oqibatida ishdan chiqqanmi yoki avtomashinadagi nosozlik ta'mirning, texnik xizmat ko'rsatishning qoniqarsizligi, zavodda yo'l qo'yilgan nuqson, haydovchi tomonidan boshqaruvning noto'g'ri usullari qo'llanilishi yoki boshqa sabablar natijasimi degan savolga javob berishi kerak.

2. Hodisaning ayrim detallariga qarab, uning mexanizmini aniqlash. Ushbu masalalarni hal etish davomida transport vositalari

harakatining tezligi, yo`nalishi, trayektoriyasi, to`qnashilgan joy, izlar hosil bo`lish (putur etish) mexanizmi va avariyaning boshqa holatlari, ularning dinamikasi aniqlanadi.

3. Hodisada ishtirok etgan transport vositalari haydovchilarining xatti-Harakatlari. Ushbu xatti-harakatlarga ekspertiza haydovchi yo`lda yuzaga kelgan vaziyatda transport vositasini haydash va boshqarish usullaridan qay darajada to`g`ri yoki noto`g`ri foydalanganiga baho beradi. Ekspertiza haydovchi foydalangan haydash usullari texnika xavfsizligi talablariga qay darajada mos kelishi, ushbu vaziyatda avariyaning oldini olish uchun qanday usullar ko`proq samara berishi mumkinligi va boshqa shu kabi masalalar haqida ham o`z mulohazalarini bildirishi kerak.

Avtotexnika ekspertizasi haydovchining xatti-harakatlariga baho berishda ushbu harakat tezligiga, yo`nalishiga, avtomobilning turg`unligiga, tormoz yo`lining uzun-qisqaligi va boshqa shu kabilarga qanday ta`sir ko`rsatganligini ham aniqlaydi.

Uqtirib o`tilgan masalalarni hal etish uchun ekspertizaga tergov paytida olingan zarur materiallar: ashyoviy dalillar, ko`zdan kechirish, tergov eksperimenti bayonnomalari, hodisada bevosita ishtirok etgan transport vositalari yoki ularning agregatlari; hodisa yuz bergan joyning chizgilari va fotosuratlarini; shohidlarni so`roq qilish vaqtida olingan ma`lumotlar va boshqa zarur narsalar taqdim etiladi.

YTH mexanizmidagi sababiy bog`lanishlarni aniqlashga yordam beradigan texnik ekspertiza tadqiqotlari oratsida tergov qilinayotgan voqea yuz bergan *yo`l qismi texnik holatining ekspertizasi* muhim o`rin tutadi. Bunday tekshiruv davomida yo`lning ushbu qismi belgilangan texnika talablariga (qoplamaning sifati, yoritilganlik darajasi, kengligi, to`siqlar bor-yo`qligi va boshqa shu kabilar) javob berish-bermasligi aniqlanadi. Yo`l holatining qoniqarsizligi YTHga sabab bo`lgan hollarda yuqoridagi kabi tadqiqot o`tkazish taqozo etiladi.

Kriminalistik ekspertizalar oratsidan ko`proq g`ildirak qoplamlarining izlari (transport vositasini identifikatsiyalash maqsadida), oynaning siniq bo`lakchalari, avariya natijasida uzilib tushgan yoki putur yetgan detallar va uzellar (bo`laklanishning umumiy chizig`i ma`lum bo`lsa, bo`lakchalardan yaxlit qism yasash), avtomashinaning turli qismlarida jabrlanuvchining kiyim-kechaklaridan qolgan izlar (identifikatsiyalash maqsadida) bo`yicha

trasologiya tadqiqotlari o`tkaziladi.

Hodisa yuz bergan joydan yashiringan haydovchilarni fosh qilish maqsadida *identifikatsiyaviy daktiloskopik ekspertizalar* tayinlanishi mumkin. Bunday ekspertizalar uchun hodisada ishtirok etgan transport vositasining salonida, uzellari va agregatlarida topilgan barmoq izlari ob`yekt sifatida xizmat qiladi. Tergov vaqtida boshqa kriminalistik ekspertizalar, xususan, haydovchilik guvohnomasida, yuk tashishga doir hujjatlarda, transport vositalarining pasportlari va boshqa hujjatlarda qalbakilik belgilari bor-yo`qligini bilish uchun hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi tayinlash zarurati tug`ilishi mumkin.

Materiallar va moddalarning kriminalistik ekspertizasi ushbu toifadagi ishlar bo`yicha o`tkaziladigan kriminalistik ekspertizalar tadqiqotining eng ko`p tarqalgan turi hisoblanadi. Ekspertiza ob`yektlari: yonilg`i-moylash materiallari, sirlash uchun ishlatilgan lak-bo`yoq va boshqalar. Bu o`rinda ularning qaysi guruhga mansubligi yoki paydo bo`lish manbaiga doir masala hal etiladi.

Yo`l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlikka doir ishlar tergov qilinayotganida jabrlanuvchilar, belgilangan qoidalarni buzgan haydovchilar, biologik manba hosilalarining izlari: qon, soch tolalari, miya moddasi va boshqa shu kabilar sud-tibbiyot ekspertizasi ob`yektlari bo`lishi mumkin. Sud-tibbiyot ekspertizasi o`lim sabablari, tan jarohatining og`irlik darajasi va hodisa yuz bergan joyda topilgan biologik ob`yektlarning qaysi guruhga mansubligiga doir masalalarni hal etadi. Sud-tibbiyot ekspertiga hodisada ishtirok etgan transport vositalari haydovchilarining sog`lig`i, qay paytda nosog`lom holat YTHga sabab bo`lganligiga doir savollar berilishi mumkin.

Yo`l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlikni tergov qilish vaqtida boshqa turdagi ekspertizalar: materialshunoslik (metall detallarning buzilishi sabablarini aniqlash uchun); defyektoskopik (transport vositasining turli konstruksiyalarida, detallarida va boshqalarda yashirin, ichki nuqsonlarni aniqlash uchun); tovarshunoslik (variya tufayli yetkazilgan ziyon miqdorini belgilash uchun) ekspertizalari va bir qator boshqa ekspertizalar o`tkazish ehtiyoji paydo bo`lishi mumkin.

Tergov eksperimenti – ancha keng tarqalgan tergov harakati bo`lib, asosan gumon qilinayotganlar, aybdorlar, jabrlanuvchilar, hodisa guvohlari yoki shohidlarining ko`rsatmalarini tekshirish

maqsadida o`tkaziladi. Bu shaxslar tergovchiga voqeaga sub`yektiv baho bergan holda dalillarni ma`lum qiladilar. Ushbu dalillarni ob`yektiv tasdiqlash uchun so`roq vaqtida ma`lum qilingan voqea yuz berishi va hodisa ishtirokchilarining xatti-harakatlari manzaralari tiklanadi. Izlar hosil bo`lishi mexanizmini aniqlashtirish, turli yo`l sharoitlarida avtomobilning ekspluatatsiya sifatlarini tekshirish uchun tergov eksperimentlari kamroq o`tkaziladi.

Eng ko`p tarqalgan tergov eksperimentlari quyidagi maqsadlarda, chunonchi:

1) transport vositalarining, piyodalarning harakat tezligi to`g`risida, hodisa yuz bergan paytda ular orasidagi va boshqa ob`yektlar orasidagi masofa to`g`risida voqeani chetda turib kuzatgan guvohlar aytib bergan ma`lumotlarni tekshirish va tasdiqlash;

2) transport vositasi yoki piyoda aniq masofani bosib o`tishi uchun zarur bo`lgan vaqtni aniqlash;

3) transport vositasida muayyan vaqt ichida, yo`ldagi muayyan sharoitlarda transport vositasini boshqarishning tegishli usullaridan foydalangan holda bosib o`tish mumkin bo`lgan oraliq masofani topish;

4) avtomobil yo`lining transport vositasi harakatlanadigan qismida turgan bir paytda aniq joydan turib hodisani kuzatish, haydovchi kabinasidan qandaydir to`siqlar yoki yo`l belgilarini ko`rish yoxud kunning muayyan vaqtida, muayyan ob-havo sharoitlarida, ko`chaning kerakli darajada yoritilganligi va boshqa shu kabi sharoitlarda ko`rish chegaratsini belgilash imkoniyatini tekshirish uchun o`tkaziladi.

Yuqorida keltirilganlar tergov eksperimenti vositasida hal etiladigan masalalarning tugal ro`yxati emas, albatta. Biroq, bu muammolarning istalgan birini hal etish uchun muayyan tergov harakatlarini o`tkazish sharoitlari eksperiment orqali tekshirilayotgan voqea sodir bo`lgan sharoitlarga imkon qadar mos tushishi muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun esa, ayni o`sha avariya uchragan transport vositasidan (buning iloji bo`lmasa, o`sha rusum, model, rang, texnik tavsifi va shu kabilari o`xshash avtomobildan), bo`y-basti, jinsi, yoshi o`xshash piyodadan, xuddi o`sha joydan, o`xshash ob-havo sharoiti va yoritilganlik darajasidan foydalanish kerak.

Ayblanuvchini so`roq qilishga ayb e`lon qilish uchun yetarli darajada dalil-isbotlar to`plangani va ayb e`lon qilinganidan keyin kirishiladi. Ayblanuvchini so`roq qilishning mohiyati undan tegishli tushuntirish va ma`lumotlar olishdir. Bunday tushuntirishlar ko`pincha yangi tergov eksperimentlari, so`roqlar, ekspertizalar, boshqa tergov harakatlari yoki tezkor qidiruv chora-tadbirlari orqali qo`shimcha tekshiruvlar o`tkazishni taqozo etadi. Agar, ayblanuvchi tekshirilayotgan voqeaga yangi tushuntirishlar bersa va ularni mantiqan asoslay olsa, yuqoridagi kabi tekshiruvni o`tkazish zarur.

Yo`l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik to`g`risidagi ishlar bo`yicha ayblanuvchilarni so`roq qilishning xos xususiyatlari so`roq vaqtida aniqlashtirilayotgan masalalar ko`pincha maxsus, texnik yo`nalishlarga ega ekanligida namoyon bo`ladi. Masalan, suhbat so`roq qilinayotgan shaxs boshqargan transport vositasining ekspluatatsiya xususiyatlari; avtomashinani haydaganida uning uzellari va agregatlarida sezgan o`zgarishlar; harakat xavfsizligi qoidalari va shu kabilar haqida bo`lishi mumkin. Shuning uchun mazkur tergov harakatining samaradorligi ko`p jihatdan tergovchining avtomobil` sohasini, avtotransportni boshqarishni qay darajada mukammal bilishiga, so`roqqa qay darajada puxta tayyorgarlik ko`rganligiga bog`liq. Shu maqsadda ko`pincha oldindan maxsus adabiyotlar bilan tanishish yoki avtotexnika mutaxassisidan maslahat olish ham talab qilinadi.

1-§. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oqibatlari

Hozirgi sharoitda ekologik muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Tuproq, yer osti boyliklari, havo, suv muhiti, o'simlik va hayvonot olamiga juda katta zarar yetkazib kelayotgan ekologik jinoyatlarga qarshi samarali kuratishish muhim ahamiyatga ega.

Ekologik jinoyatlar tergovining samaradorligi, eng avvalo, tergovchining mazkur korxon va tozalash inshooti ishlashini tashkil etishning o'ziga xos tomonlarini bilishiga bog'liq.

Bu jinoyatlarning barchasi tergov uslubi nuqtai nazaridan bir xil ko'rinishga ega va o'z kriminalistik belgilariga ko'ra, ya'ni sodir etilish tarzi, mexanizmi va shart-sharoiti, sodir etgan shaxs va keltirgan zarar xarakteri jihatdan bir-biriga juda o'xshashdir. Mazkur toifadagi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni tergov qilish va ochish ekologik jinoyatlar qoldirgan tipik moddiy izlarda kriminalistik alomatlar butunlay aniq namoyon bo'lishi va uyg'unligiga bog'liq. Masalan, tabiiy muhitning ifloslanishi turli kimyoviy vositalardan foydalanish, energetik issiqlik, shovqin, tebranish, radiatsiya tarzida haddan ziyod tarqalishi atrof-muhit tarkibiy qismini biologik va fizik tuzilmalar va sifat jihatdan jiddiy og'ishlarga olib keladi.

Tuproq va yer osti boyliklari, daryo, ko'llar, suv omborlari, kanallar, suv havzalari, sizot suvlari, muzliklar va hokazolar asosan sanoat, transport, kommunal xo'jaliklar va boshqa korxonalardan chiqqan tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqovalardan ifloslanadi. Havo bo'shlig'i esa asosan qora va rangli metallurgiya korxonalari, kimyoviy, energetik, neftni qayta ishlash sanoati tomonidan normativ hujjatlarda belgilangan va ruxsat etilgan konsentratsiya (REK)dan yuqori miqdorda chiqariladigan uglevod oksidi, oltingugurt, qo'rg'oshin, azot oksidlari, simob, vodorod sulfidi va boshqa jonli mavjudot uchun xavfli bo'lgan moddalardan ifloslanadi.

Ekologik zarar keltiradigan qilmishlarni aniqlashda quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak: 1) mazkur hududda mavjud chiqindi chiqaradigan tabiatni ifloslaydigan manbalar ishlab chiqarish korxonalari qancha ekanligi; 2) chiqindining REKdan yuqoriligi, ularning miqdori, ifloslanishning davomiyligi, vujudga kelgan ekologik xavflilik darajasi; 3) tozalanmagan va

zararsizlantirilmagan oqovalar, tashlandiq va chiqindilarni suv havzalari va atmosferaga chiqarish sabablari; 4) atmosfera va suv muhitini ifloslashda aybdorlar, ayniqsa noto`g`ri ko`rsatmasi tufayli halokatli oqibatlarga sabab bo`lgan shaxslar; 5) jinoiy oqibatlarga olib kelgan xatti-harakatlar, ularning yuz bergan va davom etgan vaqti, zararli oqibatlarni bartaraf etish imkoniyatlari va boshqalarni belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

Bir qator holatlarda davlat organlarining sanitariya nazorati va boshqa inspeksiya xodimlarining talablari, yo`l-yo`riq va ko`rsatmalarini bajarmaslik, tozalash inshootlarini qurish yoxud ta`mirlashdan bosh tortish natijasida havo va suvlar ifloslanmoqda. Bunda ko`rsatmalarni bajarmaslik sabablari va vajlarini belgilash, korxonalar rahbari yoxud bevosita ijrochilar aybini aniqlab olish zarur. Tergov ishlari mukammalligini ta`minlash uchun jinoyat sodir etishga olib kelgan yengillashtiruvchi va og`irlashtiruvchi vaziyat bo`yicha ayblanuvchilarni shart-sharoitlarini aniqlash lozim. Ishlab chiqarishni tashkil etish, texnologik rejim talablariga rioya qilish tozalash inshootlari, chang va turli gazlarni tutib qoladigan qurilmalarni o`rganishda muhim o`rin tutadi.

2-§. Jinoyat ishini qo`zg`atish

Ekologik jinoyat to`g`risida ish suv-texnika nazorati, baliqchilik nazorati, sanitariya-epidemiologiya stansiyasi organlari, korxonalar ma`muriyati, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, alohida fuqarolar axborotlariga asoslanib qo`zg`atiladi.

Ekologik jinoyat bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan aniqlanishi ham mumkin. Dastlabki tekshirishda jinoyat ishi qo`zg`atishga asos bo`ladigan holatlarni aniqlash, suv havzalari, tuproq yoxud havo qanchalik ifloslanayotganligi, bu ifloslanishning xarakteri va hajmi, ularning odamlar sog`ligiga, hayvonot dunyosiga, qishloq xo`jaligi, baliqchilik xo`jaliklari yoki boshqa ishlab chiqarishlarga keltiradigan zararini belgilab olish kerak. Mavjud jinoyat belgilarini tekshirish uchun qo`shimcha materiallar talab qilish va tushuntirish xatlari olish mumkin. Jumladan, jinoyat ishi qo`zg`atishga oid xulosa chiqarishga quyidagi tahlillar asos bo`lishi mumkin:

1) suv resurslarini muhofaza qilish va undan foydalanish qoidalari, baliq zahiralarni muhofaza qilish yoki tabiat muhofazasiga oid boshqa normativ qoidalar buzilganligi to`g`risida

hujjatlar;

2) odamlar tomonidan tuproq, suv resurslari, baliq zahiralari, hayvonot va o`simlik dunyosiga yetkazilgan zarar yoxud atmosfera havosi ifloslangani to`g`risida hujjat;

3) oqova suv, tuproq, havodan olingan namuna tahliliga oid hujjat;

4) shohidlarning xabari yoki tushuntirish xati, shuningdek o`z xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan ekologik zararli oqibatlariga olib kelgan shaxsning ko`rsatuvlari.

To`plangan axborot va ma`lumotlarni tekshirish maqsadida jinoyat ishi qo`zg`atganga qadar hodisa ro`y bergan joylarni ko`zdan kechirish lozim.

Tergovning dastlabki bosqichida ifloslanish mexanizmi va manbaiga nisbatan turli farazlar olg`a suriladi. Bunda ob`yektni ifloslayotgan chiqindilar, moddalar va tashlandiqlarning turi, tabiatni muhofaza qilish qoidalarining buzilish sabablari, ularga rioya qilmagan mansabdor va boshqa shaxslar ishtiroki o`rganiladi.

Farazni olg`a surish jinoyat ishi qo`zg`atish vaqtida vujudga kelgan vaziyatga bog`liq. Qoidaga ko`ra vaziyatning uchta turi mavjud:

a) suv manbalari, tuproq va atmosfera havosi ifloslanganlik fakti ma`lum;

b) sodir etilgan qoidabuzarliklar odamlar salomatligi, hayvonot va o`simlik dunyosi, baliq zahiralari zarur keltirgani ochiq-oydin ko`rinib turibdi;

v) ilgari yo`l qo`yilgan ekologik jinoyat belgilarini ko`rsatuvchi materiallar mavjud.

Shunga muvofiq tergovchi oldida turgan vazifalaridan kelib chiqib ish bo`yicha tergov yo`nalishi, bu harakatlarning birinchi navbatdagi tadbirlari belgilab olinadi. Eng avvalo, jinoiy xatti-harakatning kelib chiqish sabablari va ekologik ob`yektlar ifloslanishining intensivligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagilarni bajarish zarur:

- voqea sodir bo`lgan joy va tozalash inshootlarini ko`zdan kechirish;

- atrof muhitni ifloslanishiga olib kelgan ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishish;

- ifloslayotgan manbalarni bartaraf etish choratsini ko`rish;

- ekologik qoidani buzganlikda aybli shaxs, jabr ko`rganlar,

guvohlarni so`roq qilish;

- ifloslanishning texnologik jarayonini ko`rsatadigan hujjatlarni olib qo`yish, ichki boshqaruv nazoratining holati, ekologik nazoratni amalga oshiradigan inspeksiya va organlarning ma`lumotlari;

- ifloslanganlik darajasini tahlil etish uchun tuproq, suv va havodan namunalari olish;

- tibbiy, biologik, kimyoviy, ixtiologik va boshqa ekspertizalarni belgilash.

Bo`lib o`tgan hodisa to`g`risida axborot olish uchun tergov harakatlarini tezkor-qidiruv tadbirlari bilan qo`shib olib borish tavsiya etiladi.

Militsiya xodimlariga topshiriq berib, unda tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqova suvni tashlaganlarni ko`rgan guvohlarni bilib olish, atrofdagi joylarni tekshirib chiqish yo`li bilan moddiy dalillarni aniqlash, harakatdagi vositalar (avtomashina, kema va hokazo)ni to`xtatish, joylarni aylanib chiqish va izidan kuzatib borish yo`li bilan ifloslangan joydan yashiringanlarni aniqlash kerak.

3-§. Jinoyat mohiyatini isbotlash

Atrof muhit ifloslanganlik fakti va darajasini isbotlash uchun to ifloslanganga qadar tuproq, suv ob`yekti va atmosfera havosining holati (kimyoviy tarkibi, ba`zi moddalar bo`yicha REM, mahalliy tabiiy sharoitlar), ro`y bergan hodisalar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va ifloslashni to`xtatish yuzasidan ko`rilgan choralar to`g`risida axborotga ega bo`lish kerak. Shuningdek, yuqorida tilga olingan ob`yektlarni ifloslanishiga yo`l ochadigan vaziyatni (tozalash qurilmalari nosozligi, ishlab chiqarishning texnologik talablariga rioya qilmaslik, chiqindi va tashlandiqlarni zararsizlantirish va tozalash jarayonining buzilishi, sanoat, kommunal-maishiy xo`jaliklardan chiqadigan oqovalar tozalanishni ta`minlovchi qurilmalar bir me`yorda ishlamasligi, nazoratining susayib ketganligi) aniqlash ham maqsadga muvofiq. Tergovning oxirigacha kutib o`tirmay tergovchi jinoyatni kelib chiqishiga yo`l ochgan aniq sabab va sharoitlarni belgilashi, uni bartaraf etish imkoniyatlarini o`rganishi va oldini olish to`g`risida tegishli organlarga taqdimot kiritishi shart.

Ekologik jamiyatlarni tergov qilishda haqiqiy holatni tez, to`la

va samarali aniqlab olish kerak. Tergov harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan bir qator o'ziga xos taktik yo'nalishlar mavjud.

Voqea ro'y bergan joyni ko'zdan kechirish jarayonida ifloslangan suv havzasi, yer uchastkasi, o'simlik va hayvonot dunyosiga duch kelish mumkin. Bunda ifloslanish xarakteri, uning boshlanishi, rivojlanishi va jadallashish darajasi aniqlanadi. Suv va yer neft mahsulotlari bilan ifloslanganda yuzada yupqa qatlam hosil bo'ladi, u ichki qatlama o'tishi, tuproq shimib olgan bo'lishi mumkin. Natijada ifloslangan yer va suvning fizik xossasi o'zgaradi (yaltiraydi, hid chiqaradi, rangi o'zgaradi). Atmosfera havosi ifloslanganda zararli chang-tuzon va turli gazlarni shamol yo'nalishi bo'yicha o'z manbalaridan uzoqlarga olib ketadi. Ifloslangan havo turli darajada flora va faunalarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ifloslangan joyda o'ziga xos tomonlarni isbotlash uchun tekshirish ishlariga turli mutaxassislar – tegishli ishlab chiqarish tarmoqlari, sanitariya-epidemiologiya, suv muhofazasi, baliq muhofazasi va boshqalar bilan shug'ullanadigan xodimlarni jalb etish kerak. Bundan maqsad ilmiy metodlar va maxsus asboblarni, qurilmalar va boshqa texnik vositalardan foydalanib, olingan axborot va namunalar to'la-to'kis aniqligi ta'minlanadi.

Ifloslangan joyni ko'zdan kechirganda ko'p hollarda markazdan boshlab keyin chetga chiqiladi., ya'ni ifloslash manbaidan tozalash inshootiga, suv to'planadigan joyga, so'ngra chiqindilar to'kiladigan va ko'miladigan yaqin hududga o'tish, xullas spiral bo'yicha harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, faqat ifloslanayotgan manbanigina emas, balki chiqindilar, tashlandiqlar, o'lgan baliq va boshqa hayvonlar to'planib qolgan uchastkalarni ham o'rganish imkoniyati yaratiladi. Bu uchastkalardagi suv, tuproq, o'simlik va havodan namunalar olinadi. Videoga olish, suratga tushirish, shuningdek ifloslanish manbai, uning qoldiqlari, izlari va namuna olingan uchastkalarining chizmasi ko'zdan kechirish bayonnomasiga ilova qilinadi.

Hujjatlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ular suv havzalari, tuproq va havoni zararlayotgan dalillar, shuningdek faunalarning qirilib ketishi, o'rmon va boshqa o'simliklarning yo'qolishi to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Ekologik huquqbuzarlik to'g'risidagi eng qimmatli ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) sanoat ob'yektlari qurilishi, qayta qurish va ta'mirlash

loyihasi, tozalash, fil`trlash va suv to`plash inshootlarini qabul qilinganligi to`g`risidagi hujjat;

2) sanoat, kommunal xo`jaligi va boshqa ob`yektlardan chiqadigan chiqindilar hisobini yuitish, ularning soni, kimyoviy tarkibi va konsentratsiyasiga oid hujjat;

3) sanoat ob`yektlari, kanalizatsiya va tozalash inshootlarini ko`rish, ta`minlash va foydalanish tartibiga oid instruksiya va boshqa normativ hujjatlar;

4) ishlab chiqarish chiqindilarini tashish to`g`risida hujjatlar;

5) chiqindilarni tekshirish va laboratoriya tekshiruviga oid hujjatlar;

6) sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, davlat o`t o`chirish nazorati, davlat baliqchilik nazorati va boshqa inspeksiyalarning suv havzalari, tuproq, havoni ifloslantirish faktlariga oid hujjatlari va ko`rsatmalari.

Hujjatlar bilan tanishuv orqali, ba`zi mansabdor shaxslar vakolati, hujjatlarning talablariga rioya etish darajasi to`g`risida xulosa qilish mumkin. Bu ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni ifodalaydigan va jinoyat ishiga tirkab qo`yadigan asosiy hujjatlar darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hujjatlarni ularning to`la-to`kisligi va mantiqiyligi nuqtai nazaridan ham, tuzatish va qo`shimcha kiritish imkoniyatlarini texnik-kriminalistik vositalarni joriy etish orqali aniqlash bilan ham chuqur o`rganish zarur.

Hujjatlar bilan tanishib chiqish natijasida aniqlangan faktlardan so`roq qilishda, ekspertiza tayinlashda va boshqa tergov harakatlarini o`tkazishda foydalanish mumkin.

Tergovchi voqea sodir bo`lgan joyga oid hujjatlarni o`rganish jarayonida sud ekspertizasini tayinlash to`g`risidagi masalani hal qilib, zarur hujjatlarni tayyorlab qo`yishi kerak. Shuningdek, suv havzalari, tuproq va atmosfera havosining ifloslanganligiga qadar va undan keyingi holatini ko`rsatadigan ashyoviy dalillar va olingan namunalarga ega bo`lishi zarur. Ekspertiza ifloslangan makon, uning vaqti, davomiyligi, jadallashuvi va kelib chiqish sabablari, tozalash inshootidagi kamchiliklar, atrof muhitni muhofaza qilishda yo`l qo`yilgan xatolarni belgilashga yordam beradi.

Mazkur toifadagi ishlar bo`yicha quyidagi ekspertiza turlari o`tkaziladi:

- sud-tibbiyot ekspertisasi – odamlar vafot etgan yoki

zaharlanganligi sabablarini belgilash, chiqindi va tashlandiqlar (qurum, ko'l, chang, gaz, turli suyuqliklar va moddalarning) odam sog'lig'iga xavflilik darajasi, ularning ta'sir ko'rsatish mexanizmi, oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish va hokazolar uchun;

- sud-veterinariya ekspertizasi – hayvonlarning o'lish va kasallanish sabablarini, suv, tuproq va havo ifloslanishining hayvonlar hayotiga ta'sirini aniqlash uchun;

- ixtiologik ekspertiza – baliqlarning o'lish sabablari, unga sabab bo'lgan moddalarni aniqlash uchun;

- kimyoviy ekspertiza – suv havzalari, tuproq va atmosfera havosini ifloslovchi moddalar tarkibi, konsentratsiyasi, manbalarini aniqlash uchun;

- texnologik ekspertiza – suv havzalari, tuproq va havoni ifloslovchi texnologik jarayonda yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni, sanoat oqovalarini tozalash, suyuqlik va gaz chiqindilarini zararsizlantirish qoidalariga rioya qilmaslik sabablarini aniqlash uchun;

- texnik ekspertiza – tozalash inshootlari, chang va gazlarni tutib qoladigan qurilmalarni ishdan chiqishi, tuzatilmasligi sabablari, ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash uchun.

Ba'zan boshqa turdagi ekspertizalarni (gidrotexnik, iqtisodiy, buxgalteriyaga oid), shuningdek kompleks ekspertiza (tibbiy-biologik, texnik-sanitariya, kimyoviy-veterinariya va boshqa)larni belgilash zarur bo'ladi.

Ekologik jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalari muhim dalillar manbai hisoblanadi. Amalda mazkur ish bo'yicha guvoh sifatida bir necha guruhdagi guvohlar bo'lishi mumkin:

1) ifloslanish faktlari va zararli oqibatlarga oid ma'lumotlarni beradigan guvohlar. Ular orasida turli inspeksiyalar va nazorat organlari mansabdorlari va oddiy fuqarolar bo'lishi mumkin;

2) tozalanmagan va zararsizlantirilmagan sanoat, kommunal va boshqa chiqindilarni suv havzalari va havoga chiqarilganligini bevosita kuzatgan guvohlar; ifloslantirayotgan manbalarni biladigan shaxslar. Ular asosan, tozalash inshootlarida ishlovchi xodimlar bo'lib, o'zlarining kamchiliklarini yashirish va sanoat ob'yekti rahbari bilan munosabatni buzmaslik uchun ifloslanish vaziyatlarini sir tutishga harakat qiladi;

3) tozalash inshootlaridan noto'g'ri foydalanish sabablari va

ba`zi shaxslarning noto`g`ri bergan ko`rsatmasi tufayli suv havzasi, tuproq va atmosfera havosining ifloslanishi haqida xabardor bo`lgan shaxslar.

So`roq qilish yo`li bilan ifloslanishgacha bo`lgan vaziyat, tozalash inshootlarining avvalgi holati, texnologiya qoidasiga mas`ul shaxsning faoliyati va ko`rsatmalari, ilgari qanday ifloslanish faktlari kuzatilgani kabi masalalar aniqlab olinadi. Ko`p hollarda oqova suvlar, zararli moddalar, gazlarni tashlash, ifloslanish oqibatlariga barham berish va ekologik jinoyatni sodir etishga olib keladigan vaziyatni bartaraf etishga yo`naltirilgan boshqa tadbirlar yuzasidan guvohlar muhim ko`rsatuvlar berishi mumkin.

Gumon qilingan va ayblanayotganlarni so`roq qilish samaradorligini ta`minlash uchun, qoidaga ko`ra, sodir etilgan jinoyat ishi yuzasidan ishonchli dalillar yig`ilgan bo`lishi kerak. Ularni so`roq qilish taktikasi so`roq qilinuvchini o`z aybini inkor etishi bema`ni ekanligiga ishontiradigan ma`lumotlarning mantiqiy tahliliga asoslangan bo`lishi kerak. Bunday toifadagi ishlar bo`yicha ayblanuvchilar o`z aybini boshqalarga, ayniqsa, bo`ysunuvchilarga to`nkashga moyil bo`ladilar, tajribalari yetishmaganliklari, normativ hujjatlar talablarini buzish xavfliligini bilmaganliklarini ro`kach qiladilar. Ba`zan ular o`z ayblarini tan olib uni yumshatishga harakat qiladilar, zararli oqibatlarni inkor etadilar yoki unchalik emas deb hisoblaydilar, ba`zan ishlab chiqarish manfaati uchun shunday qilganliklari, yuqori lavozim shaxs ko`rsatmalari mavjudligini pesh qiladilar.

Ekologik jinoyat to`g`risidagi ishlar bo`yicha ayblanuvchi shaxslar maxsus bilimga, professional tajribaga ega ekanligini e`tiborga olib, tergovchi so`roqqa jiddiy tayyorgarlik ko`rishi va normativ materiallarni o`rganishi, korxonalar va uning tozalash inshootlari faoliyatining o`ziga xos tomonlari, jinoyat ishi materiallarini bilib olishi, mutaxassislar bilan maslahatlashishi zarur.

Tergovchi ayblanuvchini so`roq qilayotganda uning shaxsi, professional staji, zararli chiqindilarni qayerga va qancha tashlashga oid ko`rsatma berishda nimalarga asoslanganligi to`g`risida ma`lumotlarga ega bo`lishi kerak. Mazkur ish bo`yicha ayblanuvchi ko`rsatmasini ekspertiza xulosasi va boshqa ma`lumotlar bilan taqqoslab ko`rish kerak.

Ayblanuvchini so`roq qilish jarayonida va boshqa tergov harakatlarini mazkur jinoiy qilmishni sodir etish sabablari va

sharoitlarini belgilashga alohida ahamiyat berish kerak: bu ishlab chiqarishni tashkil etishda va faoliyat ko`rsatishidagi nuqsonlar, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishda ba`zi mansabdor shaxslarning e`tiborsizligi, tozalash inshootlari ishi bo`yicha nazoratning yo`qligi, texnik vositalar va transport bilan yomon ta`minlanganligi, ba`zi bir ishlab chiqarish jarayonlarida hisob ishlarini yuritish, chiqindilar saqlash va ularni hisobga olib borish va boshqalar talabga javob bermaydi. Tergovchi mutaxassislar yordamida xuddi shunday jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish choralarini ko`rishga majbur.

35-bob. KONTRABANDA JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. Kontrabandaning kriminalistik tavsifi

So`nggi yillar O`zbekiston hududiga xom-ashyo, sanoat mollari, badiiy va bebaho qadriyatlar, savdodan chiqarilgan tovarlarni kontrabanda yo`li bilan olib kirish va olib chiqish keng avj olganligi bilan ajralib turadi. Bunga:

- MDH respublikalari bilan mavjud ochiq chegaralar;
- O`zbekiston iqtisodiy tizimining o`zgarishi va Bojxona nazoratining faoliyati yetarlicha takomillashmaganligi;
- suveren hududlar huquqni muhofaza qilish organlarining o`zaro munosabatlari va hatti-harakatlarini yo`lga soluvchi huquqiy-shartnoma bazasining kamchiliklari keng yo`l ochib beradi.

Hozirgi sharoitda kontrabanda juda keng ko`lamda yoyilgan bo`lib, u uyushgan jinoyatchilik tomonidan korxonalar rahbarlari, bojxona xodimlari, mahalliy ma`muriyat vakillari va hatto huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini o`z faoliyatiga jalb etish yo`li bilan amalga oshirilmoqda.

Hozirda giyohvand moddalarning yangi turlari (kokain, LSD), qurol-yarog`, qalbaki pul va xalq iste`moli mollari kontrabandasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, boshqa MDH mamlakatlariga tranzit uchun hujjat ratsmiylashtirish orqali kontrabanda olib kirilishi keng tus olgan. Buning natijasida har yili davlatga milliardlab ziyod zarar yetkazilmoqda. Kontrabandaning bu usuli juda oddiy: tovar tranzit sifatida hujjat rasmiylashtirish orqali olib kiriladi va soxta firmalar orqali sotiladi. Ba`zan chegaradagi manfaatdor bojxona xodimlari esa pora evaziga yuk chegarani kesib o`tishiga ko`maklashadilar.

Kontrabandaning xuddi shunday usullari mahsulot va xom-ashyoni O`zbekistondan olib chiqishda ham ishlatiladi. Ko`pincha oziq-ovqat va neft mahsulotlari bilan to`ldirilgan avtomashinalar rasmiylashtirilmay, tashqariga olib ketiladi.

Keyingi yillarda rangli metallarni kontrabanda yo`li bilan olib chiqib ketish keng tus olmoqda. Bu usul ham soxta hujjatlar yoki pora berish orqali yukni transport vositalarida ko`rinishini o`zgartirish yo`llari bilan amalga oshiriladi.

Kontrabandaning «an`anaviy» usuli ham katta hajmda saqlanib

qolgan, ya'ni qimmatbaho buyumlar va valyutani yashirin joylarda O'zbekistonga olib kirish va olib chiqish. Kontrabandaning bu usulida ko'plab xorijiy fuqarolar ishtirok etadi.

Hozirgi vaqtda kontrabandani tergov qilishning oddiy holatlari quyidagilar:

1. Chegara yoki bojxona nazoratida soxta hujjatlar bilan kontrabanda qilgan shaxslarni qo'lga olish.

2. Hujjatlarni taftish qilish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlar chog'ida xom-ashyo yoki tayyor mahsulotni kontrabanda yo'li bilan olib chiqish holatini aniqlash.

Birinchi holatda tergovchilarning xatti-harakatlari qo'lga olish holatini ratsmiylashtirishga va kontrabanda mahsulotini musodara qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunda musodara qilinayotgan mahsulotning miqdori, markalanganligi, o'ralganligi, ilova qilingan hujjatlari, maxfiy joylarning mavjudligi kontrabanda ko'rinishini aniq fiksatsiya qilish juda ham muhimdir. Bularning hammasini bayonnomalarda aniqlik bilan qayd etish kerak. Qo'lga olish va musodara qilishni aniq fiksatsiyalash uchun videotasmaga olish maqsadga muvofiq bo'lib, alohida e'tibor kontrabanda va kontrabandani olib kirish yoki olib chiqishga harakat qilgan shaxs o'rtasidagi aloqani aniqlashga qaratilishi kerak. Ba'zan, qo'lga olingan shaxsning his-tuyg'ularini - (so'kish, haqorat, do'q-po'pisa, pora berishga harakat qilish, kontrabandani amalga oshirish niyatini boshqa shakllardagi ko'rinishini) fiksatsiyalash ham yordam berishi mumkin. Shuning uchun magnit va videotasmalar yordamida faqat qo'lga olish va kontrabandani musodara qilish jarayoninigina emas, balki qo'lga olingan shaxsning qo'lga olingandan va tergov organlariga olib borilgandan keyingi xulq-atvorini yozish ham e'tiborga molikdir.

So'ngra quyidagilarga qaratilgan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari majmui amalga oshirilishi lozim:

- kontrabandani olib o'tishga harakat qilgan shaxsning aybini aniqlash;

- sheriklarni aniqlash;

- kontrabanda mahsulotini kelib chiqishini aniqlash;

- olib chiqishga mo'ljallangan kontrabanda mahsulotlarining boshqa partiyalarini aniqlash.

Qo'qqisdan amalga oshirilgan harakat omilini ishlatish birinchi navbatda jinoyat ishi qo'zg'atish bilan bog'liqdir.

Tergov ishlarini iloji boricha tezroq boshlash maqsadga

muvofigidir. Tergov qo`lga olingan va kontrabandaga aloqasi bor boshqa shaxslar o`z xatti-Harakatlarini kelishib olmasliklari uchun iloji boricha tezroq o`tkazilishi lozim.

Ikkinchi holatda tergovchilar va tezkor xodimlar odatda kontrabandani qo`lga tushirishga qaratilgan taktik operatsiyani tayyorlash uchun yetarli vaqtga egalar. Bunda kontrabandani yangi partiyasini olib o`tish vaqtida ko`rsatilgan shaxslarni qo`lga olishdan boshlash zarur. Bir vaqtning o`zida tergovchilar va tezkor xodimlar:

a) kontrabandaga aloqasi bor shaxslarning uy va ish joylarini tintuv qilish;

b) kontrabandani qo`shimcha holatlari qayd etilishi mumkin bo`lgan hujjatlarni olib qo`yish;

v) kontrabandaga aloqasi bor barcha shaxslarni darhol so`roq qilish;

g) aniqlangan kontrabanda holatlari bo`yicha qo`shimcha taftishlar belgilash ishlarini amalga oshirishlari zarur.

2-§. Kontrabanda ishini tergov qilish

Kontrabandaning mohiyati bojxona chegaratsi orqali tovar yoki boshqa qimmatbaho buyumlarni maxfiy yoki aldash yo`li bilan olib o`tishdan iborat. Ushbu masala uchun O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasiga binoan javobgarlik o`rnatilgan. Maxfiy harakat usullari quyidagilar:

- «ko`rinmas» yoki yaxshi qo`riqlanmaydigan chegaralarni kesib o`tish uchun aylanma yo`l yoki yashirin so`qmoqlardan foydalanmoq;

- tovar yoki boshqa qimmatbaho narsalarning transport vositalarida maxsus joylashtirilgan maxfiy joylardan foydalanmoq;

- tovar yoki boshqa qimmatbaho buyumlarga boj to`lanmaydigan va deklaratsiya talab qilmaydigan ob`yektlar kabi tus berish.

- ob`yektlarni inson tanasining a`zolarida yashirish.

Bojxona organlarini aldash yo`li bilan kontrabanda quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1. Bojxona nazoratiga qalbaki hujjatlar taqdim etish;

2. Soxta tamg`alar, muhrlar, identifikatsiya belgilari va hokazolarni ishlatish;

3. Ob`yektni nohaqqoniy deklaratsiya qilish.

Ushbu jinoyat qasddan amalga oshiriladi. Kontrabandani davlat

chegaratsidan noqonuniy olib o'tishda ko'pinchalik chegara va bojxona xodimlari, kuzatuvchilar ishtirok etishadi. Sheriklik odatda shaxsiy g'araz xususiyatiga ega va uyushgan guruh tarkibida epizodik yoki doimiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Kontrabandaning eng ko'p tarqalgan ob'yektlari giyohvand moddalar, qurol-yarog', zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar va antikvariatdir. Ba'zan bu O'zbekiston orqali o'tayotgan, jo'natuvchisi va qabul qiluvchisi soxta firma yoki shaxs bo'lgan tranzit yukdir. Shu kabi ob'yektlarning bojxona nazoratidan ozod qilingan diplomatik pochta yoki diplomatik immunitetga ega bo'lgan shaxslar orqali o'tkazish kontrabandaning alohida, o'ziga xos turlaridan biridir.

Boshlang'ich tergov harakatlari. Kontrabanda ishini tergov qilish odatda bojxona yoki chegara xodimlari tomonidan uni fosh etilishidan boshlanadi. Agar kontrabanda ob'yektiga ega bo'lgan shaxs qo'lga olinsa jinoyat ishi qo'zg'atiladi va quyidagi tergov ishlari amalga oshiriladi:

Ko'zdan kechirish. Kontrabanda ob'yektlari va oshkor qilingan yashirin joylarni ko'zdan kechirish. Yashirin joylar transport vositalarida joylashtirilgan bo'lishi mumkin: eshiklarda, o'rindiqlarda, yukxonada, kapot ostida, yoritgichlarda va hokazo. Kontrabanda predmetlari yoqilg'i bakida, g'ildirak kameralarida, pritsep bortlarida va hokazolarda bo'lishi mumkin.

Topilgan narsalarning hammasi sinchiklab ko'zdan kechiriladi va zarurat bo'lsa mutaxassis ishtirokida xususiyatlari, maqsadi va joylashishi ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd qilinadi. Kontrabandaga oid daliliy ashyolar qiymatini aniqlash uchun ekspertlar taklif qilinishi mumkin.

Qalbaki hujjatlar, tamg'alar, muhrlar va soxtalashtirilgan identifikatsiya belgilari ko'zdan kechirilishi shart.

Kontrabandachini qo'lga olish va so'roq qilish. Qo'lga olishda kontrabandistni shaxsi aniqlanadi va shaxsiy tintuv o'tkaziladi. Agar qo'lga olingan shaxsning tanasida kontrabanda ashyolari (giyohvand moddalar, qimmatbaho buyumlar) yashirilganlik ehtimoli bo'lsa, rentgenoskopik tekshiruv, ich suradigan dorilarni ishlatish, tananing tabiiy teshiklarini ko'zdan kechirish yordamida sud-tibbiyot tekshiruv amalga oshiriladi. Sud-tibbiyot eksperti xulosasiga tekshiruv paytida topilgan hamma kontrabanda ob'yektlari ilova qilinadi va so'ngra ko'zdan kechirish

tergov harakati o`tkaziladi.

Qo`lga olingan shaxsni so`roq qilishda quyidagi holatlar aniqlanishi zarur:

1) qo`lga olingan shaxsning oilaviy va xizmat holati, turar joyi va boshqa aloqalari;

2) kontrabanda ashyolari kimga tegishliligi; qo`lga olingan shaxs tashuvchi bo`lsa, kimning topshirig`iga binoan, qanday shart bilan tashuvchi bo`lishga rozi bo`lganligi, transport vositasi kimga tegishliligi; kontrabanda egasining xodimi bo`lsa, avvallari shunday tashuvchilikni amalga oshirganligi;

3) transport vositasidagi yashirin joylar kim tomonidan joylashtirilgan va jihozlangan, avvallari ham shu kabi maqsadlarda ishlatilganligi, kontrabandani maxfiy tashish uchun oshkor etilmagan boshqa joylar borligi;

4) qayerda, qachon va kim tomonidan kontrabanda yukni qabul qilib olganligi, qayerda, kimga va qanday sharoitda topshirishi; so`roq qilinayotgan shaxsga yuk haqida, uni jo`natuvchi va qabul qiluvchi shaxslar haqida nimalar ma`lumligi;

5) kim va qanday holatda tashuvchini bojxona nazoratidan o`tish uchun qalbaki hujjatlar va boshqa vositalar bilan ta`minlaganligi; muvaffaqiyatsizlik holatida qanday yo`l tutish to`g`risidagi ko`rsatuvlar;

6) chegarani qiyinchiliksiz kesib o`tishda bojxona xodimlari yordami to`g`risida kelishuv borligi va bu kelishuv qanday shartlar asosida amalga oshirilishi kerakligi, o`z ichiga nimalarni olishi, avval ham bunday yordam ko`rsatilganligi;

7) yuk tashish to`g`risida kontrabanda egasidan boshqa yana kim xabardor ekanligi, bu shaxslar yuk egasining faoliyatiga, yukning o`ziga qanday aloqasi borligi; tashuvchining kontrabanda egasining sheriklari, kontrabandaning kelib chiqishi manbalari to`g`risida xabardorligi.

Agar kontrabanda qo`lga olingan shaxsga tegishli bo`lsa, qo`lga kiritish manbalari va sotish kanallari to`g`risidagi savollardan tashqari sheriklarning shaxsi va kontrabandachining boshqa aloqalarini aniqlash, kontrabandachi a`zo bo`lishi mumkin bo`lgan uyushgan jinoiy guruh mavjudligi haqidagi taxminni va uning jinoiy faoliyatining boshqa epizodlarini tekshirib ko`rish kerak. Qo`lga olingan shaxsning kiyimida yoki tanasida giyohvand moddalar topilganda giyohvand yoki toksikoman emasligi aniqlanishi zarur va

bu narsalar kim uchun mo'ljallanganligi va kim orqali sotish rejalashtirilganligini aniqlash lozim. Qo'lga olingan shaxsning giyohvandligi masalasi uni tekshiruv davrida sud-tibbiyot ekspertizasi oldiga ham qo'yiladi.

Kontrabandachi bilan birga qo'lga olingan olib o'tuvchilarni so'roq qilishda chegarani kesib o'tish bilan bog'liq bevosita savollardan tashqari ularning kontrabandachi bilan aloqalari xususiyatlari, shu kabi urinishlar ular ishtirokida yoki unga tanish bo'lgan shaxslar yordamida avval ham amalga oshirilganligi, ularning shaxsi; chegaradan nima olib o'tilganligi, chegarani kesib o'tgandan so'ng ularni kim, qayerda va qanday sharoitda qabul qilib olganligi aniqlanadi.

Tintuv. Kontrabanda ashyolari va ularni tashish vositalarini ko'zdan kechirish yoki qo'lga olingan shaxsni so'roq qilish natijasida aniqlangan shaxslarning uy va xizmat joylari, transport vositalari va yuk saqlaydigan joylari tintuv qilinishi kerak. Agar bu joylar chegara yoki bojxona nazorati bekatlaridan uzoqda joylashgan bo'lsa ichki ishlar organlariga prokurorning sanksiyasi olingan qaror bilan tintuv qilish to'g'risida talabnoma jo'natiladi. Tezkor harakat maqsadida bu talabnoma va sanksiyalangan qaror faks bilan, bir vaqtning o'zida asl nusxalarini xizmat pochta orqali jo'natiladi. Sustkashlik muhim dalillarni yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Tintuv qo'lga olingan shaxsning turar joyi bo'yicha ham amalga oshirilishi kerak; agar u xorijlik fuqaro bo'lsa, uning vaqtincha turar joyi va yukni topshirish joyi ham tintuv qilinishi kerak.

Keyingi tergov harakatlari. Ularning asosiylari kontrabanda sheriklarini aniqlash va so'roq qilish, kontrabanda qilishga mo'ljallangan yuklar, jinoiy faoliyatning dalili bo'lgan boshqa narsalar saqlanishi mumkin bo'lgan joylarni tintuv qilish va topilgan ob'yektlarni ko'zdan kechirishdir.

So'roq qilishning maqsadi-sheriklar o'rtasidagi aloqani aniqlash, kontrabanda asosiy daromad manbai bo'lgan uyushgan jinoiy guruhni, kontrabanda tovarlari yoki qimmatbaho buyumlarni qo'lga kiritish manbalarini, bojxona yoki boshqa davlat strukturalarida jinoyatchilarning g'arazli aloqalarini, jinoiy faoliyatning hamma epizodlarini aniqlash.

Antikvariat yoki san'at asarlari bo'lgan kontrabanda qo'lga kiritish manbaini aniqlash juda ham muhimdir. Bunday vaziyatlarda muzey, ko'rgazma va shaxsiy kolleksiyalardan o'g'rilik qilishga

ixtisoslashgan uyushgan guruhlar iziga chiqish imkoniyati mavjud.

Ekspertizalar. Bu toifa ishlarda quyidagi ekspertizalar o`tkaziladi:

kriminalistik kontrabanda ashyolaridagi qo`l izlariga muvofiq shaxsni aniqlash; qalbakilashtirilgan muhr, shtamp, identifikatsiya belgilari va hokazolarni tekshirayotgan hujjatlarni texnik-kriminalistik ekspertizasi; soxta hujjatlardagi qo`lyozma tekstlarni tekshiruvchi yozuvga oid; tratsologik, yashirin joylar va ularning jihozlanishiga oid;

materiallar va moddalar ekspertizasi: narkotik, kuchli ta`sir qiluvchi va zaharli moddalar tarkibini, ob`yektlarning o`zaro ta`siri faktini, umumiy kelib chiqish manbaini belgilashga oid;

san`atshunoslik: san`at asarlari va uning atribusiyasi, antikvariat predmetlar, kolleksiyaviy buyumlarning haqiqiyligi bilan shug`ullanuvchi; shuningdek, kontrabanda ob`yekti ko`krak belgilari va kolleksiyaviy tangalar bo`lsa numizmatik ekspertiza o`tkazilishi mumkin; kolleksiyaviy qurol-yarog`ni noqonuniy yo`l bilan olib chiqib ketish bilan bog`liq bo`lsa, qurolga oid;

kontrabanda hajmini belgilash maqsadida ashyolarning qiymatini aniqlash uchun tovarshunoslikka oid. Agar kontrabanda tovarlarining qiymati yuzdan uch yuzgacha bo`lgan eng kam ish haqi miqdoridan oshsa, JK 8-bo`limidagi izohga binoan u katta hajmda amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Kontrabanda qiymati undan ortiq bo`lsa – juda ko`p miqdorda amalga oshirilgan deb hisoblanadi va JK 182-modda 2 qismi bilan kvalifikatsiya beriladi.

Kontrabanda egasi aniqlanmagan hollardagi tergovning o`ziga xos xususiyatlari. Amaliyotda kontrabanda egasi topilmagan hollar ham uchrab turadi. Bu narsa poezd; dengiz kemalari, ba`zan samolyotlarni tekshirganda uchrab turadi. Bunday hollarda jinoyatchini aniqlash uchun choralar ko`riladi: kontrabanda berkitilgan joy ustidan yashirin kuzatuv o`rnatiladi, pistirma tashkil qilinadi, kontrabanda predmetlari lyuminofor bilan belgilanadi va hokazo.

Agar shu kabi tezkor tadbirlar natijasida kontrabandachi topilmasa, jinoyat ishi qo`zg`atilib, birinchi navbatda poezd brigadasi, kema va samolyot ekipajlari so`roq qilinadi. Oralarida kontrabandist bo`lishi mumkin bo`lgan aynan shu shaxslarning kontrabandachiga tegishliligi to`g`risidagi taxmin sinchiklab tekshirilishi kerak. Lekin kontrabandachi passajir bo`lishi ham

mumkin, shuning uchun so`roq jarayonida passajirlardan birortasi o`zining g`ayritabiiy xatti-harakatlari bilan o`zgarlar e`tiborini tortgan-tortmaganligini aniqlash lozim.

Kontrabanda yuk yoki bagaj aniq bir shaxsga tegishliligini aniqlash maqsadida sinchiklab ko`zdan kechirilishi lozim.

Ma`lum bir holatlarda kontrabanda yukni oshkor etilganligi sir saqlanadi va oshkor etadigan harakatlar bajarilmaydi:

1) kontrabandani faqat tashuvchisi emas, balki qabul qiluvchisi va sotish yo`llarini aniqlash lozim bo`lganda. Bu holat giyohvand moddalar yoki qurol-yarog` kontrabandasida yuzaga kelishi mumkin. Tezkor usul bilan kontrabanda harakatining to`liq «zanjiri»ni kuzatish imkoniyati tug`iladi: tashuvchi-yu qabul qiluvchidan, sotuvchigacha;

2) yuk O`zbekiston orqali tranzit bo`yicha olib o`tilayotganda bizning bojxona organlarimiz tegishli xabarnoma yuborib, yukni qabul qiluvchilarni manzilda jinoyat ustida qo`lga olishni uyushtirilishi lozim bo`lganda;

3) chegara yoki bojxona xodimlarini kontrabanda bilan aloqalari borligi to`g`risida asosli shubhalar bo`lsa va bu shubhalar Ichki xavfsizlik organlari tomonidan tekshirilayotganda.

Kontrabanda holati bo`yicha qo`zg`atilgan jinoyat ishi bo`yicha tergov jarayonida qo`shni chegara o`tish bekatlari va bojxona strukturalari xabardor qilinadi. Kontrabanda uchun ilgari ma`muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar tomonidan kontrabanda holatlari sodir etilganida ularning avvalgi harakatlarining mohiyati nimadan iboratligi aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda ma`muriy javobgarlikka oid harakatlar jinoiy javobgarlikka oid keyingi harakatlar bilan taqqoslanib avvalgisi sinov tarzida qilinganmi yoki yo`qligi aniqlanadi.

36-bob. JINOYATLARNI «IZLAR BOSILMAY TURIB» TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1-§. Jinoyatlarni «izlar bosilmay turib» fosh qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari

Jinoyatni izidan, tezlik bilan fosh qilmoq - mazkur masalani o'ta qisqa muddatda - jinoyat belgilari aniqlangan yoki u to'g'rida xabar olingan vaqtdan boshlab uch kun ichida hal qilmoq demakdir. Ichki ishlar va prokuratura organlari amaliyotida «izlar bosilmay turib» iboratsi ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Unga etimologik jihatdan «...shu zahoti, darhol» deb ta'rif beriladi.

Ko'p hollarda o'g'rilik, bosqinchilik, talonchilik, zo'rash, qotillik, bezorilik, firibgarlik kabi ba'zi jinoyatlar «izlar bosilmay turib» tergov qilinadi. Bu xil tergov ishlari o'ziga xos sharoitda olib boriladi:

zudlik bilan chora ko'rishni talab etgan vaziyatning to'satdan yuzaga kelishi;

tergovchi va dastlabki tergov organlari qaror qabul qilishi va uni amalga oshirishi uchun vaqt tanqisligi;

tergov jarayonining jadal rivoji, shart-sharoit, tergov vaziyatining tezkor o'zgarishi;

zarur ma'lumotlar etishmasligi va yangi ma'lumotlardan kechiktirmasdan foydalanish zarurati;

izlar va jinoyat belgilarini yo'qotish va hokazo.

Ushbu shart-sharoitlar «izlar bosilmay turib» tergov qilishni tashkil etish va amalga oshirishga bo'lgan quyidagi asosiy talablarni belgilab beradi:

1) tergov-tezkor guruhining hodisa ro'y bergan joyga imkon boricha tezroq yetib kelishi, jinoyat ishi qo'zg'ash va dastlabki tergov ishlarini boshlash to'g'risida tezkorlik bilan qaror qabul qilish;

2) barcha zarur kuch va vositalarni kechiktirmay ishga jalb etish;

3) odatdagi harakatlar dasturining qabul qilingan yo'llari bilan birga tergovning o'ziga xos usullaridan ham foydalanish; o'rganilayotgan masalalar doiratsini jarayonni olg'a siljitish uchun ko'proq xizmat qiladiganlari bilan vaqtincha cheklab qo'yish, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini qat'iy tanlab olish va har ikkovining birin-ketinligi tartibiga rioya qilish;

4) tergov tadbirlarining (intensivligi), tezkorligi, uzluksizligiga rioya qilib, ularni barcha tergov-tezkor guruhining tarkibidan foydalangan holda «keng front» bo`ylab o`tkazish;

5) o`ta kam vaqt sarflagan holda imkon boricha ko`proq ma`lumot yig`ish va ularni qayd etish maqsadida texnik vositalarni keng qo`llash, birga ish yuritayotgan organlarga tezkorlik bilan ma`lumot uzatish; muayyan ma`lumotdan xabardorlarni tezda tadqiq etish uchun mutaxassis va ekspertlar yordamidan har tomonlama foydalanish.

Mazkur talablarning bajarilishi markazlashtirilgan boshqaruv tomonidan ichki ishlar organlarining kuchi va vositalari bilan ishtirok etayotgan IIB va boshqa organlar bo`linmalari o`zaro harakatining uzluksizligini ta`minlash, shu bilan birga yuzaga kelayotgan vaziyatga muvofiq ravishda harakatlanish imkonini beradigan choralar qo`llash maqsadida ta`minlanadi. Ana shunday choralar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) tergov-tezkor guruhining hodisa sodir bo`lgan yerga yetib kelishga va texnik vositalarning izlar va boshqa daliliy ashyolar bilan ishlashga doimo tayyor bo`lib turishini ta`minlash;

b) istalgan vaqtda tergov-tezkor guruhi tarkibiga vaziyat taqozo etgan mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatini ta`minlash. Mazkur mutaxassislar to`g`risidagi ma`lumotlar ichki ishlarining navbatchi qismida yoki prokuratura organlarida bo`lishi;

v) hodisa yuz bergan joyga yo`l olgan tergov-tezkor guruhini tegishli vaziyatlar uchun mo`ljallangan kechiktirib bo`lmaydigan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarining namunaviy dasturlari bilan ta`minlash. Ushbu harakat dasturlari eng zarur tashkiliy hamda taktik tusdagi ko`rsatmalarni o`z ichiga olgan bo`lib, ularda izoh, ilmiy jihatdan asoslash kabi ortiqcha ma`lumotlarga hojat yo`q. Odatda, bunday dasturlar hamda tadbirlar ro`yxatini ularning maqsadi, biror muammoga duch kelinganida imkoniy variantlari bilan birga o`z ichiga olgan bo`lishi shart. Dasturlar to`plami ichki ishlar navbatchi bo`limida bo`lishi lozim;

g) hodisa joyini tergov-tezkor guruh yetib kelguniga qadar qo`riqlashning puxta ishlab chiqilgan choralari tizimi.

Ma`lumki, hodisa joyini ko`zdan kechirish ko`pincha jinoyat ishi qo`zg`atishdan avval amalga oshiriladi. Biroq ba`zi hollarda jinoyat sodir etilganligining belgilari ochiq-oydin bo`lib, birinchi navbatda jinoyatchini qo`lga tushirish choralarini ko`rish talab

etilganda yoki jinoyatchi jinoyat ustida dalil bilan qo`lga olinganida jinoyat ishi ko`zdan kechirishdan avval ham qo`zg`atilishi mumkin. Sodir etilgan jinoyat fakti bo`yicha jinoyat ishi qo`zg`atish «izlar bosilmay turib» amalga oshiriladigan barcha keyingi harakatlar uchun zarur huquqiy asos bo`lib xizmat qiladi.

2-§. Dastlabki tergov harakatlari

Hodisa joyini ko`zdan kechirishning asosiy vazifasi jinoyat va uni sodir etgan shaxsga oid ma`lumotlar, u hodisa joyidan qaysi tarafga qochganligi, jinoyatchini aniqlashdan iborat. Bu ma`lumotlar jinoyatchini, transport vositasini ta`qib etish va ushlash, o`g`irlangan mol-mulkni izlab topishni tashkil etish uchun zarur. Ma`lumotlarni zudlik bilan to`plash, yo`lni to`shish hamda qidiruv tadbirlari rejasini ishga tushirish maqsadida ichki ishlar organi navbatchi qismiga yetkaziladi. Qidiruv tadbirlariga, odatda, patrul - post xizmati naryadlari, yo`l harakati xavfsizligi xizmati (YHXX), transport militsiyasi bo`linmalari va boshqalar jalb qilinadilar. Bu ishlarning barchasi navbatchilik qismi va ichki ishlar organi boshlig`i rahbarligida hodisa joyini ko`zdan kechirish bilan birga qo`shib olib boriladi.

Ko`zdan kechirish vaqtida uning har bir ishtirokchisi bo`lib o`tgan hodisaning umumiy tasvirini tiklashga ko`maklashishi, tegishli sud ekspertizalarini o`tkazish uchun zarur bo`lgan dastlabki ma`lumotlarni aniqlashi lozim. Tezkor xodim bu vaqtda jabrlanuvchi va guvohlarni aniqlab oladi va aybdorlarni izlash uchun muhim shart-sharoitlar bo`yicha savol-javob qiladi va bu to`g`rida ko`zdan kechirish rahbarini xabardor qiladi.

«Izlar bosilmay turib» ekspertiza tayinlashda ham o`ziga xos vazifalar hal etiladi. Ekspertiza o`tkazish yo`li bilan quyidagi masalalar hal etiladi:

- hodisa xususida, uning jinoiy ta`rifi, **mexanizmi to`g`risida boshlang`ich ma`lumotga ega bo`lish;**

- **muayyan shaxsning mazkur jinoyatga aloqador yoki aloqador emasligi xususida ma`lumot olish;**

- zudlik bilan maxsus ilmiy darslar yordamida paydo bo`lgan gumonni tekshirib ko`rish, gumon ostidagi shaxsni izlab topish va tutib keltirish uchun talab etilgan ma`lumotlarni olish;

- jinoiy hodisani keyinchalik tadqiq etish, shuningdek gumon

ostidagi shaxslar yoki dastlabki ko`zdan kechirishda olingan daliliy ashyolarni qiyoslash talab etilgan yangi izlar paydo bo`lganida yangidan ekspertizalar o`tkazish, «izlarga oid ma`lumotlar bazasini» mustahkamlash va kengaytirish;

- gumon ostidagi shaxs tomonidan (aynan shu yo`l bilan, ana shu qurollardan foydalangan holda va hokazo) sodir etilgan boshqa jinoyatlarni ham aniqlab, bundan qator xodimlar va hatto turli tergov va dastlabki tergov organlarining mazkur jinoyatlarni ochish yo`lidagi harakatlarini birlashtirish uchun foydalanish.

Jinoyatchining shaxsi va jinoyat qurollariga oid ma`lumotlarni ichki ishlar organlaridagi kriminalistik va tezkor ro`y`atlar bo`yicha tekshirish hodisa joyidagi izlarga ko`ra, ular haqidagi ma`lumotlar biror turdagi ro`yxatda mavjud bo`lsa, shaxsini aniqlash imkonini beradi; o`qlar gilzotekasi bo`yicha tekshiruv o`qotar qurolning aynan shu ruxsasi boshqa jinoyatlar sodir etishda qo`llanilgan-qo`llanmaganligini ochishga ko`maklashadi. Hisob-ro`yxatga olish ma`lumotlaridan shu bilan birga qidiruv ishlari jarayonida ham tezkorlik bilan foydalanish darkor.

Jabrlanuvchi va guvohlarni so`roq qilish bu bosqichda, boshqa tergov harakatlari kabi birinchi navbatda qidiruv ishlari uchun ma`lumot yig`ish maqsadiga xizmat qiladi. So`roq mazmuni quyidagicha bo`ladi:

jinoiy tajovuzkorlik qachon, qayerda va qanday qilib sodir etilgan, u nimadan iborat bo`lgan va nima maqsadda amalga oshirilgan;

jinoyatni kim amalga oshirgan, jinoyatchilar qancha bo`lgan, ularning tashqi ko`rinishidagi belgilari, chizgilari; ular o`rtasida rollar qanday taqsimlangan, kim rahbarlik qilgan; jinoyatchilar bir-biriga qay tarzda murojaat qilishgan, ulardan birortasida ovoz yoki nutqqa oid xususiyatlari (shevaga xos so`zlash, «s» ni aytolmaslik, duduqlanish, jinoyatchilar shevasida so`zlash) bor-yo`qligi;

jinoyatchilarning transport vositalari bo`lganmi, qanday, ularning belgilari, raqamli belgilari yoki biror xususiyati, ularni kim boshqargan;

nima o`g`irlangan, o`g`irlangan buyumlarning nomi va belgilari; qimmatbaho buyumlarning tavsifi va ularning qiymati; o`g`irlangan pul miqdori va nominali;

gumon ostidagilardan birortasi jinoyat sodir etilgan joyda u sodir etilgunga qadar bo`lmaganmi, nima sababdan yo qanday

bahona bilan, nimalar bilan qiziqqan;

kim jinoyat qilganlikda gumon qilinadi, nima asos bor, jinoyatchilar o`g`irlangan buyumlardan qay tarzda foydalanishlari mumkin; jabrlanuvchilar turar joyini sotish, ayirboshlash, buyumlar sotilishi, xizmatlar taklif qilib e`lon bermaganmilar va boshqa shu kabilar.

Jabrlanuvchi yoki guvohlar tomonidan jinoyatchilarning tashqi belgilari tasvirlab berilganidan so`ng ko`p hollarda ularning sintetik suratlari tayyorlanib, qidiruv guruhleri jinoyatchilarni ular paydo bo`lishi mumkin bo`lgan joylardan izlash ishlarini tashkil etib, bu ishga jabrlanuvchi va guvohlar jalb etiladilar.

Jinoyatchilar tomonidan o`g`irlangan yoki ular foydalangan avtomobilni qidirish YHXX xodimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Avtokorxonaga garajlari, pulli to`xtash joylari **tekshiriladi**, avtomobil yashirilishi yoki uni qayta bo`yash, ehtiyot qismlarga ajratish mumkin bo`lgan hovli, boshi berk ko`chalar va boshqa joylar ko`zdan kechiriladi.

3-§. Keyingi tergov harakatlarining xususiyatlari

Gumon ostidagi shaxsni tutish va so`roq qilish. Gumon ostidagi shaxsning aniqlanishi va qo`lga olinishi «izlar bosilmay turib» qidirish ishlarining ijobiy natijasidir. Uning shaxsiga oid va qurolli qarshilik ko`rsatish imkoniyatiga oid mavjud ma`lumotlarni hisobga olib tezkor guruh tarkibi va qo`lga olish taktikasi hal qilinadi. Jinoyat hozircha tarkibi aniqlanmagan guruh tomonidan sodir etilgan bo`lsa, u holda qo`lga olish faktining o`zini ham muayyan vaqt sir saqlash kerak bo`ladi. Bir necha odamni turli joylarda qo`lga olish talab etilganida keraklicha alohida tezkor guruhlar tuziladi va harakat qilish vaqti o`zaro kelishib olinadi. Qo`lga olish maxsus yoki tezkor harakat bo`linmalariga topshirilishi mumkin **va ular bu ishni yuksak mahorat bilan va sharoit taqozo etganda atrofda gilara sezdirmasdan amalga oshiradilar.**

Olingan ma`lumotlardan tezkorlik bilan foydalanish maqsadida gumon ostidagi shaxs qo`lga olinishi bilanoq so`roq qilinishi maqsadga muvofiq. U so`roq qilinganda quyidagilar aniqlanadi:

jinoyat sodir etish niyati qanday qilib va nima sababdan paydo bo`ldi; tajovuz qilingan shaxs (buyum) ga oid, jinoyatni sodir etishning qulay vaqti va sharoiti xususidagi ma`lumotlar kimdan olindi, avvaldan jinoyatni yashirish to`g`risida kelishilganmidi;

jinoyatni sodir etishda qo`lga olingan shaxsdan boshqa yana kim ishtirok etgan, mazkur shaxslar qo`lga tushirilgan shaxs bilan uyushgan guruh tuzganmide, uning tarkibi, boshlig'i kim, guruh a'zolari o`rtasida rollar qanday taqsimlangan va boshqa ushbu guruhga oid barcha ma`lumotlar;

jinoyat sodir etilgan shart-sharoit, ishlatilgan qurollar, ular hozirgi vaqtda qayerda, ular qayerdan olingan, agar transport vositalaridan foydalanilgan bo`lsa, u holda qanday va kimga tegishli, haydovchining jinoyatdagi tutgan o`rni;

jinoyatda buyum yoki boshqa moddiy boyliklar, pul o`g`irlangan bo`lsa, u holda ular hozir kimda va qayerda, qaysi yo`l bilan, kim orqali pullandi yoki pullash ko`zda tutilgan, ana shu shaxs ilgari ham o`g`irlangan buyumlarni sotib olish bilan shug`ullanganmi?

Mazkur ro`yxat taxminiy ekanligi o`z-o`zidan ma`lum.

So`roq o`tkazilishi bilan, ba`zan esa u bilan bir vaqtda hibsga olingan shaxsning uyi va u kirishi mumkin bo`lgan boshqa binolar tintuv qilinadi. Tintuv u bilan aloqador shaxslar, shuningdek aniqlangan hamtovoqlarining uyida ham amalga oshirilishi mumkin. Bunga qo`yiladigan asosiy talab - qo`qqisdan va tezkor harakat qilish, bir vaqtning o`zida bir necha yerda tintuv o`tkazayotgan guruhlar o`rtasida qat`iy va aniq axborot almashuvini tashkil etish. Bu esa olingan ma`lumotlardan ham qidiruvda, ham dalil to`plash, isbotlashda hamda hibsga olinganlar tergov ishiga ko`rsatishi mumkin bo`lgan qarshilikni bartaraf etish uchun zarur.

«Izlar bosilmay turib» tergov ishlari yuritish jarayonida jabrlanuvchiga va guvohlarga tanib olish uchun shaxslar va buyumlarni ko`rsatish mumkin. Bunday zarurat shaxsan jinoyatni sodir etmagan, lekin avvallari jabrlanuvchi yoki guvohga duch kelgan jinoyat guruh rahbariga nisbatan paydo bo`lishi mumkin.

«Izlar bosilmay turib» tergov qilish jarayoni tashkiliy nuqtai nazardan quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin:

1) hodisa sodir bo`lgan joyga yo`l olgan tergov-tezkor guruh, vaziyat taqozosi bilan (misol uchun, zudlik bilan yana bir hodisa joyini ko`zdan kechirish talab etilsa) o`zining shu ish yuzasidan faoliyatini yakunlab, tergovni davom ettirishni esa boshqa tergovchi yoki tergov-tezkor guruhiga topshiradi;

2) **h**odisa ro`y bergan joyda ish boshlagan tergov-tezkor guruhi imkon boricha tergov ishlarini to`liq amalga oshiradi va

boshqa vazifalarni bajarish uchun jalb etilmaydi;

3) tergov-tezkor guruhi boshlang'ich bosqichdagi to aybdor hibsga olinguniga qadar barcha harakatlarni amalga oshiradi, so`ng ish materiallarini boshqa tergovchi yoki tergov-tezkor guruhiga topshiradi.

«Izlar bosilmay turib» jinoyatni muvaffaqiyatli ochish tergovchi hamda tezkor xodimdan yuksak mahorat talab qilish bilan birga jamoatchilik oratsida huquqni muhofaza qilish organlari obro`-e`tiborining ham yuksalishiga sabab bo`ladi.

37-bob. XORIJ FUQAROLARI TOMONIDAN VA ULARGA QARSHI SODIR ETILGAN JINOYATLAR TERGOVI

1-§. Xorij fuqarolarining huquqiy holati

Xorij fuqarolari tomonidan va ularga qarshi sodir etilgan jinoyatlarni ochish va tergov qilish uslubi o'ziga xosdir. Mazkur jinoyatlarni aniqlashga imkoniyat beruvchi xususiyatlari tajovuz sub'yekti yoki bevosita ob'yektiga qaratilgan jinoiy harakatlarda ifodalanadi. Bu turdagi jinoyat ishlarini olib borayotganda xorijlik fuqarolarning huquqiy mavqeini, vujudga kelishi mumkin bo'lgan tarjima muammolari, xorijliklar uchun g'ayritabiiy sharoit, turmush tarzi, yurish-turish qoidalari, mamlakatimizning urf-odat va qonunlari, sud ishlari jarayonini yaxshi bilmaslik kabi ayrim psixologik omillarni hisobga olish zarur. Psixologik jihatdan yana bir holatni ko'zda tutish kerak: MDHning ko'pchilik fuqarolari O'zbekistonda bo'lgan paytlarida o'zlarini butunlay chet ellik deb hisoblamaydilar, «o'zimizniki» degan ichki tuyg'u ularning yurish-turishi va xatti-harakatlarida aks etadi. Bu huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xatti-harakatida ham namoyon bo'lishi mumkin: dastlabki tergov jarayonida xorijliklar va ularning konsulxonalari bilan muloqotda zarur qoidalarni e'tiborga olmasliklari ehtimoldan holi emas.

Xalqaro huquq qoidalariga muvofiq xorijlik deb ushbu davlat hududida bo'la turib boshqa davlat fuqaroligiga mansub bo'lgan har qanday shaxs tushuniladi. Xorijlik o'z fuqaroligining dalili sifatida milliy pasporti yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga ega bo'lishi shart. O'zbekiston fuqarosi bo'lmagan, lekin mamlakatimiz hududida yashayotgan, biror xorijiy davlat fuqarosi ekanligini tasdiqlovchi hujjatsiz shaxs fuqaroligi yo'q shaxs (apatrid) deb tan olinadi.

Xorijliklar mamlakatimizda ko'zda tutilgan hollardan tashqari, O'zbekiston fuqarolari bilan, bir xil huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar. Bu holat javobgarlik tartibining bir xilligini ham anglatadi. Bundan mustasno holat O'zbekiston Respublikasi JPK 11-modda 4-qismida ko'zda tutilgan: xorijiy davlat fuqarolarining jinoiy javobgarlik masalasi xalqaro huquq qoidalariga muvofiq hal etiladi».

O'zbekiston JPKda (4-modda 2-qism) «immunitetga ega

shaxslar»ning, ya`ni diplomatik (konsullik) vakillarining o`z shaxsi, uy-joylarini, arxivlarini, o`zaro xat yozishuvlari va pochtasini yashayotgan davlatdagi ma`muriy yoki boshqa organlarining majburiy xatti-harakatidan to`liq himoya huquqi nazarda tutilgan. Diplomatik (konsullik) vakillari har qanday holatda qamoqqa olinishi yoki ushlab turilishi mumkin emas; ularning ish va yashash joylari, xizmat xonalari, shaxsiy va xizmat avtomobillarining saloni tintuv qilinishi, tekshirilishi, olib qo`yilishi, musodara qilinishi mumkin emas; arxivlar, pochta va o`zaro yozishuvlar ochilishi yoki ushlab qolinishi mumkin emas; ular sudda guvohlik berishga majbur emaslar, guvohlik berishga rozi bo`lgan holatda tergov yoki sud organlariga kelishga majbur emaslar.

Quyidagi xorij fuqarolari guruhi O`zbekiston jinoyat sudlov jarayonidan daxlsizdir:

1. Diplomatik vakillar xodimlari: a) O`zbekiston fuqarosi bo`lmagan diplomatik personal va ular bilan yashayotgan oila a`zolari; b) O`zbekiston fuqarosi bo`lmagan ma`muriy-texnik xodimlar va ular bilan yashayotgan oila a`zolari; v) O`zbekiston fuqarosi bo`lmagan, lekin yurtimizda muqim (doimiy) yashaydigan, xizmat qiluvchi xodimlar; g) diplomatik kuryerlar; d) diplomatlarning shaxsiy xizmatidagi shaxslar-uy xizmatchilari;

2. Konsullik xodimlari: a) konsullik rahbarlari; b) konsullikning mansabdor shaxslari; v) konsullikning O`zbekiston fuqarosi bo`lmagan va O`zbekistonda muqim yashamaydigan ma`muriy va texnik xodimlari;

3. O`zbekiston orqali o`tib ketayotgan, boshqa davlat diplomatik vakolatxonalarining xodimlari va ularning oila a`zolari va diplomatik kur`yerlari;

4. O`zbekistonga ratsmiy tashrif bilan kelgan yoki hududimiz orqali o`tib ketayotgan xorijiy parlament va davlat delegatsiyalarining xodimlari;

5. Xalqaro davlatlararo tashkilotlarning xodimlari.

Diplomatik va konsullik muassasalarida xizmat qiluvchi xodimlarining imtiyozlari va daxlsizligining hajmi, qoida bo`yicha, o`zaro tarzda aniqlanadi. Masalan, konsullikning mansabdor shaxslari yo`l transport hodisalari natijasida yetkazilgan zararni to`lash davosidan ozod etilmaydilar.

Yuqorida ko`rsatilgan qoidalarni hisobga olgan holda JPK shunday qoida o`rnatganki, bu qoidaga muvofiq «diplomatik

daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan protsessual xatti-harakatlar shu shaxslariga iltimosi yoki ularning roziligi bilan amalga oshiriladi. Bunday xatti-harakatlarning amalga oshirish roziligi Tashqi ishlar vazirligi orqali so'raladi» JPK qo'shimcha ravishda vakolatxonalarida va konsullik joylarida olib qo'yish va tintuv paytida, albatta TIVning vakili va prokuror bo'lishi shartligini talab qiladi (JPK 165-moddasi).

Daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan shaxs jinoyat haqida arz qilsa, buni uning ishtirokida barcha zarur tergov xatti-harakatlarini olib borish iltimosi yoki roziligi deb baholash kerak emas, ayniqsa bunday arz og'zaki ravishda ifodalangan bo'lsa. Bunday iltimos yoki rozilik yozma ravishda ifodalanishi kerak. Tergovchi bu haqda ichki ishlar organlari yoki prokuratura rahbariyati orqali Tashqi ishlar vazirligi (TIV)ning tegishli muassasalariga ma'lum qiladi. Bunday iltimos yoki rozilik bo'lmaganda, tergovni kechiktirib bo'lmasa, diplomatik daxlsizlikka ta'sir etmasdan xorij fuqarosining ishtirokisiz zarur tergov xatti-harakatlarini amalga oshirish zarur, bayonnomada sababi ko'rsatilgan holda esa qayd etish shart. Alohida hollarda xorijiy diplomat tomonidan og'ir jinoyat sodir etilganda, tergov manfaati shoshilinch xatti-harakatlar amalga oshirilishi talab etilganda (jinoyat qurolini olib qo'yish, aybdorni sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish va boshqalar) hodisa joyiga TIVning vakilini, u orqali esa tegishli elchixonona yoki konsullik vakilini chaqirish tavsiya etiladi.

Keyingi tergov harakatlari masalasi elchixonona yoki konsullik xodimlari kelganidan so'ng hal qilinadi va agar ularda bunday harakatlarni amalga oshirishni iltimos qilish yoki rozilik bildirishga haqli bo'lsalar, tegishli bayonnomada bu haqda qayd etiladi, shaxslarni mansabini va shaxsni tasdiqlovchi hujjatini ko'rsatgan holda ularning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Shuni hisobga olish kerakki, yuqorida aytib o'tilgan xorij fuqarolarining ba'zi toifalari daxlsizlikka o'z xizmat vazifasini bajarayotgandagina ega bo'ladilar. Bular – diplomatik vakillikning xizmat ko'rsatuvchi, ma'muriy-texnik va konsullikda xizmat qiluvchi va ba'zi boshqa xodimlar. Shuning uchun, jinoiy tajovuz o'z xizmat vazifasini o'tayotganda sodir etilganligini aniqlash zaruriyati tug'ilganda TIVga xorij fuqarosi va jinoyat tafsilotlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan yozma so'rov yo'llanadi. Vatanimizga turist sifatida yoki sport musobaqalari, festival,

konkurs va boshqalarda ishtirok etish uchun, shuningdek ilmiy konfyerensiya, simpozium qatnashchilari, aspirantlar, talabalar, praktikantlar, xorijiy bank, firma, korxonalarining xodimlari, mutaxassis va ishchilari hech qanday imtiyozga ega emaslar va sud qilish daxlsizligiga ega emaslar. Ular bizda sodir etilgan jinoyatlari uchun jinoiy javobgardirlar va O'zbekiston fuqarolari bilan teng ravishda jinoiy-protsessual huquq va majburiyatlarga egadirlar.

2-§. Xorij fuqarolari bilan bog'liq ishlar bo'yicha tergov olib borishning xususiyatlari

Xorijlik fuqarolarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilganda yoki jabrlanuvchi xorij fuqarosi bo'lgan hollarda, odatdagi masalalardan tashqari bir qancha o'ziga xos masalalar hal qilinadi: xorijlik fuqaroning mavqei, O'zbekistonda bo'lishining qonuniyligi, qonuniy yashashning belgilangan muddati.

Xorij fuqarosini ushlab turish yoki qamoqqa olish haqidagi xabarnoma TIV orqali qaysi davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning elchixonasi yoki konsulligiga jo'natiladi. Ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan xorijiy davlat fuqarosini borib ko'rishga ruxsat elchixonaga xizmatchilariga yoki konsullikning mansabdor shaxslariga ular ushlab olingan yoki qamoqqa olingandan so'ng imkon boricha vaqtli berilishi kerak. Ruxsat O'zbekiston Bosh prokurori yoki uning muovini tomonidan TIV bilan kelishilgan holda beriladi va zaruriyat tug'ilganda O'zbekiston Respublikasi MXX, IIV yoki Oliy sudi bilan kelishiladi. Agar ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxs bunday uchratshuvdan voz kechsa va bu haqda yozma xabar bersa ruxsat berilmaydi va bu haqda TIVga ma'lum qilinadi. Jinoyat ishi qo'zg'atilganda xorijlik fuqaro o'zbek tilini bilishi, qay darajada bilishi va tarjimon kerakligi, tushuntirish, ko'rsatmalar qaysi tilda berishni afzal ko'rishi aniqlanadi. Agar o'zbek tilida ko'rsatmalar bera olmasa, tarjimon taklif etiladi va barcha protsessual harakatlar uning ishtirokida olib boriladi. Bu holda tarjimonga uning huquq va majburiyatlari tushuntiriladi va u JK 238-moddasiga asosan qasddan noto'g'ri tarjima qilish uchun jinoiy javobgarligi haqida ogohlantiriladi; xorij fuqarosiga o'zi tanlagan tilida ko'rsatma berish va tarjimonni rad qilish huquqini tushuntiradilar.

Tilga oid to'siqdan tashqari tergovni qiyinlashtiradigan muayyan psixologik omillar ta'sirini ham hisobga olish kerak.

Begona davlatda turgan chet ellik sharoitni tushunmasligi,

huquqni muhofaza etuvchi organlar ishiga ishonchsizlik bilan qaratshi, ba`zan ularni umuman tushunmasligi mumkin. O`zbekiston Respublikasi sud jarayonining qoidalarini bilmaslik, tergovchining qarorlari va harakatlari go`yoki noqonuniyligi xorijlik fuqaroda haqqoniy yanglish fikrga olib kelib, u tomondan qarshilik ko`rsatishga olib kelishi mumkin.

Bunday hollarda tergovchi xorijlik fuqaroga uning yanglishganini odob va sabr bilan tushuntirib yordam berishi kerak. Bu masalada himoyachi ham yordam berishi mumkin.

Xorijlik fuqaro mamlakatimizdagi mavjud davlat tuzumi xususida yanglish fikrga, O`zbekiston fuqarolarining huquqlari va majburiyatlari va ularni cheklash qoidalari haqida noto`g`ri fikrlarga ega bo`lishi mumkin. Psixologik aloqa o`rnatilayotganda, shu kabi hollarda unga ishning haqiqiy holatini yotig`i bilan tushuntirish zarur.

Tergovni tashkil etish va taktikasiga xorijlik fuqaro ish bo`yicha jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida qatnashganda bizning hududimizda qisqa muddat bo`lishi jiddiy ta`sir etishi mumkin. Bu holda tergov xarakatlarini o`ta tezkor ravishda va shunchalik sifatli o`tkazish kerakki, uni qayta o`tkazish zaruriyati tug`ilmasligi lozim.

Yuqorida ta`kidlanganidek, O`zbekiston sud qilish huquqidan daxlsizlikka ega xorijlik fuqaroni tergov harakatlariga jalb etish faqatgina ularning iltimosi yoki roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin va bu narsa yozma ravishda qayd qilinadi. Ularni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortish qaysi mamlakat vakili bo`lsa, faqatgina o`sha mamlakat organlari tomonidan daxlsizlikdan mahrum etilgandan so`nggina mumkin bo`lib, bu holat amaliyotda kamdan-kam uchraydi.

Xorijlik fuqarolarga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar tizimida mulk va tajovuz-zo`rlik jinoyatlari ko`pchilikni tashkil etadi: o`g`rilik, talonchilik va qurolli bosqinchilik.

Odatda o`g`rilikni xorijlik fuqarolar joylashgan hududda yashovchi shaxslar (mehmonxona, kemping, kurort va boshqalar), xorijlik fuqarolar bilan aloqa qilishga «ixtisoslashgan» fohishalar yoki ularning sheriklari amalga oshiradi; bu holda qiz ko`p hollarda xo`rak vazifasini o`taydi va xorij fuqarosini sheriklari talaydigan va qurolli bosqinchilikni amalga oshiradigan yerga olib keladi. Jinoiy guruh sherigi bo`lib aeroport yoki vokzalda uning xizmatidan foydalanishni taklif etuvchi taksi yoki boshqa transport vositasining

haydovchisi bo`lishi mumkin.

Xorij fuqarosi ishtirok etishi talab qilinmaydigan tergov harakatlari qabul qilingan ratsmiy tartibda olib boriladi. Jabrlanuvchi yoki guvoh bo`lgan xorij fuqarosi O`zbekiston hududidan chiqib ketgan bo`lsa, muayyan qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Bu birinchi navbatda odamlar va buyumlarni tanib olish uchun ko`rsatishga tegishli. Bu holda ikkita yo`l mavjud: agar bu davlat bilan huquqiy yordam haqida shartnoma tuzilgan bo`lsa, foto yoki video tasvirlardan foydalanib ularni tegishli idoralar orqali xorij fuqarosi yashayotgan yerga yuborish (bunday shartnoma bo`lmasa, bu harakat Interpol orqali amalga oshirilishi mumkin); agar xorij fuqarosi so`roq qilingan bo`lsa, so`roq bayonnomasidagi tavsifga ko`ra ob`yektni identifikatsiya qilish. Aynan o`xshashlik haqidagi tergovchining xulosasini isbotlash uchun tegishli ekspertiza o`tkazilishi talab qilinishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas.

Jabrlangan yoki guvoh xorijlik fuqaroni so`roq qilish alohida ahamiyatga ega. Uning mamlakatimizda bo`lishi qisqa muddatli bo`lganda, so`roq tezlik bilan amalga oshirilishi kerak va tergov harakatlari zudlik bilan o`tkazilgan bo`lishi kerak. So`roqning vaqti va joyi shu hollarni va xorijlik fuqaroning turar joyini hisobga olgan holda aniqlanadi; uni so`roq qilish haqida alohida talabnoma jo`natish ehtimoli ber.

Delegatsiyalar, turistik guruhlar va shu kabilarning tarkibida mamlakatga kelgan xorijlik fuqarolarni shu guruhlar, delegatsiyalar rahbarlari orqali so`roqqa chaqirilishi tavsiya etiladi. O`quvchilar ular a`zo bo`lgan o`quv muassasalari, hamshahar va boshqa tashkilotlarning ma`muriyati orqali chaqirilishlari mumkin. O`zbekistonga doimiy asosda kelayotgan mutaxassis va ishchilar firma yoki muassasalarning ma`muriyati orqali chaqirilishlari mumkin. Bu holda tergovchi til va shaharni bilmaydigan xorijlik fuqaroni qanday qilib so`roq joyini topib kelish masalasini puxta o`ylab ko`rmog`i kerak.

So`roqda tarjimonidan tashqari so`roq qilinuvchining iltimosiga ko`ra, uning mamlakatining diplomatik yoki konsullik vakolatxonasining xodimi ishtirok etishi mumkin. Bu shaxslar ishtirokida so`roqning joyi, vaqti haqidagi barcha muzokaralar tergov bo`limi rahbari tomonidan faqat TIV orqali olib boriladi.

Gumon ostidagi xorij fuqarosining so`rog`i paytida diplomatik yoki konsullik xodimining ishtiroki haqidagi iltimosi ko`rib

chiqilishi shart. Iltimosni qondirish rad etilganda, tergovchi buni maxsus qaror bilan asoslashga majbur; iltimos qondirilganda vakilning ishtiroki haqidagi iltimos TIV organlari orqali jo`natiladi. Qayta so`roq o`tkazish zaruriyatida bunday chaqiruvchining ratsmiy tartibi qaytariladi.

So`roqqa tayyorgarlik reja tuzishni o`z ichiga oladi. Eng muhim savollarni oldindan ma`lumot beriladigan tilga tarjima qilish va mumkin bo`lganda tarjimaning aynan to`g`ri ekanligiga ishonch hosil qilish kerak. Agar so`roqda hujjatlarni taqdim qilish ko`zda tutilsa, ish uchun muhim qismini mazmuni ham oldindan tarjima qilinishi mumkin. Bu holat ashyoviy dalillarga ham taalluqli: ularning nomlari va ulardagi belgilar, ular topilgandagi tekshirish yoki tintuv bayonnomasining qismlari oldindan tarjima qilinishi kerak. Oldindan qilingan bunday tarjima so`roq qilinayotgan shaxsga bu buyumlarni to`satdan taqdim etgandagina zarur taktik ta`sirni ta`minlaydi.

Xorijlik fuqaroni so`roq qilishni bayonnomadan tashqari magnitofon tasmasi yoki videomagnitofon lentasi yordamida yozib olish maqsadga muvofiqdir. Bu xorijlik fuqarolarni yoki xorijlik fuqarolar ishtirokidagi yuzlashtirishda ayniqsa muhimdir.

MDH davlatlarida yashovchi shaxslar ma`lumotlarni rus tilida berishni xohlaydilar va bu narsa so`roq bayonnomasida qayd qilingan bo`lishi kerak.

Shunday sharoit vujudga kelishi mumkinki, tergovchi xorijlik fuqaro ma`lumot bermoqchi bo`lgan tilni biladi. Qonun bu tilda so`roq olib borilishiga qarshi emas, agar tergovchi unda bimalol gaplasha olsa, bu albatta, so`roq qilinayotgan shaxs bilan muloqotni ancha engillashtiradi, psixologik aloqa, ishonchli munosabatlarning o`rnatilishiga yordam beradi. Lekin bunda shu tilda so`roq bayonnomasini ham tuzish, keyinchalik taklif etilgan tarjimon yordamida bayonnomani sud olib borgan tilga tarjima qilish va mustaqil tarjimani ishga tikib qo`yish tavsiya etiladi.

Daxlsizlikka ega bo`lmagan guvoh yoki jabrlanuvchi xorijlik fuqaroni so`roq qilayotganda, tergovchi uni o`z ko`rsatmalaridan bosh tortgani va yolg`on ma`lumotlar berishi uchun jinoiy javobgarligi haqida ogohlantiradi. Bu ogohlantirish so`roq bayonnomasida uning imzosi bilan tasdiqlanadi. Daxlsizlikka ega bo`lgan shaxs so`roq qilinganda uni ma`lumot berishdan bosh tortishi uchun javobgarligi haqida ogohlantirish ahamiyati yo`qligi

shubhasiz. Yolg'on ma'lumotlarni berganligi uchun javobgarlikka kelsak, bu holat ma'lum darajada ahamiyatga ega, chunki bunday javobgarlik haqidagi masala diplomatik yo'l bilan hal etiladi, ya'ni, ogohlantirish taktik ma'noga ega bo'ladi. Yana shuni ko'zda tutish kerakki, bir qancha davlatlarda ko'rsatmalarning haqqoniyligini isboti sifatida qabul qilingan qasam O'zbekiston qonunchiligida nazarda tutilmagan, bu hol esa xorij fuqarosiga tushuntirilishi kerak.

So'roq qilinuvchiga erkin hikoyadan so'ng beriladigan savollar o'z mohiyatiga ko'ra har xil sharhlarga yo'l qo'ymasligi kerak. So'roq qilinayotgan shaxs tushunmaydigan va aniq tarjima etilmaydigan iboralar, maqol va matallarni ishlatishdan o'zini tutishi kerak.

Yuzlashtirishda ma'lum qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Uning ishtirokchilari turli tilda gaplashuvchi xorijlik fuqarolar bo'lishi mumkin va bu holda tarjimon va qo'shaloq tarjima kerak bo'ladi. Bu haqda tarjimonga aytish va unga yuzlashtirishda ishtirokchilarning bir-biri bilan tergovchini chetlab muloqot qilishining oldini olish vazifasini yuklash kerak.

Sud ekspertizasini amalga oshirish jinoyat ishi bo'yicha o'tayotgan shaxslardan ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishni talab qilishi mumkin. Agar bunday shaxslar daxlsizlikka ega bo'lmasalar, bu ratsmiy protsessual tartibdan chetga chiqmaydi, lekin bunda quyidagi muhim holni ko'zda tutish kerak. Ba'zi davlatlarning urf-odatlariga ko'ra, begonalarga inson a'zolarining birorta qismini, shu jumladan sochlar, qon, sperma, tirnoq va shu kabilarni berishga yo'l qo'yilmaydi. Tarqalgan rivoyatlarga ko'ra, bularning hammasi insonga sehrigarlik tarzida zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun namunalar olishga urinish tergovchining nuqtai nazaridan asossiz qarshilikka uchrashi mumkin, majburiy choralar esa (qonunda ko'zda tutilgan hollarda) butun tergov jarayonini anchagina murakkablashtiradigan qattiq qarama-qarshilikka olib kelishi mumkin.

Shu singari qarshilikka uchragan tergovchi uning sabablarini aniqlash va agar sabablar an'anaviy yoki diniy marosimlarga oid bo'lsa, sub'yekt egallagan nuqtai nazarni o'zgartirishga, yotig'i bilan tushuntirish yo'li orqali harakat qilib ko'rishi kerak. Buni zamonaviy qaratshdagi xorijlik fuqaro uchun nufuzli bo'lgan dindoshlar yoki yurtdoshlarni taklif etib amalga oshirish mumkin.

Ekspertiza tayinlanganda gumon ostiga olingan yoki

ayblanayotgan xorijlik fuqaro qarorlarning tarjimasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, unga albatta huquqlari tushuntirilishi kerak, u yozgan iltimoslar diqqat bilan ko'rib chiqilishi kerak. Xuddi shu tartibda ekspert (mutaxassis)ning xulosasi bilan tanishtirish va qo'shimcha yoki qayta ekspertiza tayinlash haqidagi iltimosi huquqini unga tushuntirish kerak.

Ayblanadigan xorijlik fuqaroni tugallangan ishning hujjatlari bilan tanishtirish umumiy qoidalar asosida tarjimon ishtirokida amalga oshiriladi.

38-bob. KOMPYUTERDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISH

1-§ Kompyuterdan foydalanish bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi

90-yillarning birinchi yarmida boshlangan yoppasiga kompyuterlashtirish (AQSH va G'arbiy Evropadagidan kechroq) kompyuter va dasturlar bilan ta'minlash bozorini rivojlantirishga, foydalanuvchining professional tayyorgarligini o'sishiga, tashkilotlarda ma'lumotlarni texnologik ishlab chiqarishni takomillashishi va o'sishiga olib keldi. Keng foydalanish tarmoqlariga tobora ko'proq ulanayotgan EHM tatbiq qilish sohasini sezilarli kengaytirdi. Buxgalterlik va boshqa ishlab chiqarish hujjatlaridan, «qog'ozsiz» avtomatik foydalanish joriy etilmoqda. Kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotlar ko'pincha qog'ozda saqlanmaydi. Kompyuter amalda nafaqat rahbarlarning, hatto oddiy xodimlar ish stolining tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Bu jarayonning natijalaridan biri kompyuter ma'lumotlarini ishlatish sohasida jinoyiy xatti-harakatlar yuz bera boshladi, bu esa mana shu sohada sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoyiy javobgarlikni qonun asosida qat'iy belgilab qo'yishga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 191-moddasiga binoan sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki shu kabi axborotlarni ruxsatsiz to'plash va oshkor qilish, shuningdek, buning orqasida ko'p miqdorda zarar yetkazish uchun jinoyiy javobgarlik belgilangan. JK 174-moddasiga binoan kompyuter tizimlarida saqlanayotgan ma'lumotlar yoki dasturlarni o'zgartirish maqsadida tegishli ruxsatsiz kompyuter viruslari yoki dasturlarini ishlab chiqish va tarqatish, shuningdek, ruxsati bo'lmagan holda axborot tizimidan foydalanish ma'lumotlarining buzilishi, olib tashlanishi, yo'q qilib yuborilishi yoki bu tizimning ishdan chiqishiga sabab bo'lish uchun jinoyiy javobgarlik belgilangan.

Kompyuterdagi ma'lumotlarni ko'pincha «an'anaviy» bo'lib qolgan o'zlashtirish, firibgarlik, qalbaki pul yasash, soxta ishbilarmonlik va boshqalarda qo'llaydilar, masalan: to'lov hujjatlarini soxtalashtirish; hisob raqamlariga o'tkazish yo'li bilan naqd va naqd bo'lmagan pul mablag'larini o'g'irlash; pullarni

o'zlashtirishi (oshkorlash); tegishli pullarni ikkinchi marotaba olish; qalbaki yoki o'g'irlangan elektron to'lov vositalari yordamida (kredit karta) xaridlar qilish; maxfiy ma'lumotlarni sotish va boshqalar uchramoqda.

Kompyuterda shaxslar, ashyolar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar to'planadi va tizimga solinadi.

EHMdagi, EHM tarmog'idagi – kompyuter ma'lumoti ham jinoyat sodir etilishi ob'ekti (kompyuterning o'g'irlanishi, mashina vaqtdan noqonuniy foydalanish) yoki vositasi (EHMdand ma'lumot yig'ish uchun, hujjatlarini qalbakilashtirish uchun) foydalanish bo'lganda ham tergov qilish jarayonida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Programmallashtirilgan mahsulotlar jinoyat ob'ekti sifatida ham (noqonuniy ko'chirish, buzuvchi programmalar - viruslar yordamida zarar yetkazish), jinoyat sodir etish quroli sifatida ham (tarmoqqa ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarni buzish va qalbakilashtirish) ishlatilishi uchraydi.

Kompyuter ma'lumoti bo'lib quyidagilar xizmat qiladi: mashinkada bosib chiqarilgan; magnit, optik va boshqa omillardagi to'plagichlar; EHM xotirasidagi tezkor ma'lumotlar bazasi. EHMga ma'lumot standart (klaviatura va to'plagichlar), elastik va qattiq magnit disklari hamda nostandart («sichqon», didjitayzer, skaner, o'xshashlik asosidagi raqamli o'zgartirgich) moslamalar orqali kiritiladi.

Ma'lumotni chiqarish moslamasining bloki kompyuter ishining natijalarini iste'molchi uchun odatiy moslamalari - monitor (displey), printer, modem, plotter (grafoquruvchi) va boshqalar qabul qilish imkonini yaratadi. Ma'lumotlarni uzoq muddatli va ishonchli asrash uchun ko'pgina moslamalar ishlab chiqilgan: magnit va magnitooptik disk to'plagichlar va hokazo.

Kompyuterda jinoyat sodir etish usullarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Ushlab olish usullari Ma'lumotlarni bevosita tutib olish bevosita telefon tarmog'i orqali, yoki kompyuter tarmoqlariga ulanish orqali amalga oshiriladi. Barcha ma'lumot yozib olinadi. Yashirincha eshitish ob'ekti bo'lib turli tarmoqlar xizmat qiladi - kabel va o'tkazuvchi, yer usti mikroto'lqinlar, sputnik va hukumat aloqalari.

Ma'lumotlarni elektromagnit yordamida, bevosita aloqasiz ishlaydigan asboblardan: markaziy protsessor, displey, telefon,

printer, mikroto'liqlar aloqasi orqali ushlab olish mumkin. Jinoyatchilar avtomashinadan yoki portfeldagi priyomnik bilan binodan uzoq bo'lmagan joydan, birovning e'tiborini tortmasdan EHM xotirasidagi yoki ish jarayonida ishlatuvchilar ma'lumotlarni osonlik bilan bilib olishlari mumkin. Eksperimentlar paytida bir biriga yaqin joylashgan 25 displey terminalidan bir paytda chiqarilayotgan ma'lumotlarni olish va har bir ekranga chiqarilgan ma'lumotlarni ajratishga muvaffaq bo'ldi. Agar televizorga videomagnitofon ulansa, ma'lumotlarni nafaqat to'plash, keyinchalik bema'lol tahlil qilish ham mumkin.

Ba'zan kichik mikrofonlar kompyuterlarga xodimlarning o'zaro gap-so'zini eshitish maqsadida yashirin o'rnatiladi.

«Axlatni yig'ib olish» deb nomlangan usul kompyuter bilan ishlagandan so'ng iste'molchi qoldirgan ma'lumotlarni axtarishdan iborat. Axlat soladigan savatlarning ichidagi yozishmalarni yig'ish kabi elektron yo'l bilan saqlanib qolgan ma'lumotlarni izlash ish tugallangandan so'ng o'chirilmagan ma'lumotlarni tanlab avvalgi yozuvlarini yozib olishda ifodalanadi.

Yopiq terminallarga kirish uchun shaxs o'zining kompyuter terminali haqiqiy iste'molchisining yo'llariga telefon kanallari orqali (internet) bog'langanda yoki iste'molchi terminalni faol rejimda qoldirib ketganda amalga oshiradi. Bunday yo'llardan biri «dumidan ushlab» deyiladi: ruxsati yo'q iste'molchi aloqa yo'llariga ulanadi, so'ngra ish tugashini bildiruvchi ishorani kutadi, uni ushlab oladi va iste'molchi ishni tugatgach tarmoqqa kirib oladi.

«Kompyuterni iskanjaga olish» usulida tavakkaliga birin-ketin raqamlarni tyerib, simning narigi uchida begona kompyuterni javob berishi kutiladi. Shundan so'ng telefon EHMdagi signallar qabul qilish qurilmasiga ulanadi va aloqa o'rnatiladi. Faqat kodni topish qoladi.

«Niqoblanish» yoki «qalloblik» - o'zini haqiqiy iste'molchi deb ko'rsatib kompyuter tarmog'iga kirishdan iborat. Uni amalga oshirishning eng oson yo'li haqiqiy iste'molxilarining kod va shifrlarini qo'lga kiritishdir. Masalan, shaxs kompyuterlarining iste'molxilariga uning telefon raqami o'zgarganligini bildirib, yangi raqamni jo'natadi. So'rovnomaga jo'natayotgan iste'molchi o'z shaxsiy kodini tyeradi va undan shaxs o'z maqsadlarida foydalana oladi.

Shuningdek, Mistiikatsiya deb nomlangan usul ham bor.

Xususan, qaysi tarmoq bilan ulanmoqchi bo'lsa, o'sha tarmoq bilan bog'langaniga yuz foiz ishongan olisdagi terminal iste'molchisi nogahon kimningdir tarmog'iga ulanadi. Bu tarmoq egasi, haqqoniyga o'xshash javoblar berib, bu yanglishuvni birmuncha vaqt bildirmay turishi va shu paytning o'zida ba'zi bir ma'lumotlarni, xususan kodlarni bilib olishi mumkin.

«Halokat» usulida kompyuter markazida EHM ishida og'ish yoki boshqa chetlanishlar yuz bergan chog'da ishlatiladigan maxsus programma mavjudligidan foydalaniladi. Bunday programma yovuz niyatli odamning qo'lida qudratli va xavfli quroldir. Shu yo'l bilan N'yu-Jyersidagi bankdan katta pul miqdori o'g'irlangan edi.

«Devorsiz ombor» usulida ruxsatsiz kirish tarmoq buzilishi natijasida amalga oshiriladi. Masalan, iste'molchining ba'zi fayllari ochiq qolsa ma'lumotlar bankining unga tegishli bo'lmagan qismlariga kirish imkoniyati vujudga kelishi mumkin.

«Troyan oti» usuli programmaning ish qobiliyatini o'zgartirmasdan muayyan vazifalarni amalga oshiruvchi buyruqlarni begona programmaga kiritishdan iborat. Bu usul bilan jinoyatchilar odatda o'z hisob raqamlariga har bir operatsiyadan muayyan pul miqdorini chegirishadi. Bu usullardan biri «salyami» deb ataladi, bunda chegirmalar miqdori kichik bo'ladi va ularning yo'qotilishi amalda sezilarli emas (masalan, har bir operatsiyadan 1 dollar)

«Bomba»-muayyan bir sharoitda yoki muayyan bir vaqtda o'z-o'zidan ishlab kyetishi kerak bo'lgan (yoki har safar ishlab ketadigan) buyruqlar to'plamini programmaga kiritish usulidir.

Jinoyat usulining eng qulay yo'lini tanlash uchun jinoyatchilar aralashishni xohlagan jarayonlarining modelini tuzadilar va tajovuz qilish va uni yashirish usullarini rejalashtiradilar. Buning yo'llaridan biri - revyersiv modeldir. Bunda aniq tarmoq modeli yasaladi, unga haqiqiy boshlang'ich ma'lumotlar kiritiladi va rejalashtirilgan harakatlar hisobga olinadi. Olingan to'g'ri natijalardan haqiqatga o'xshashlarining keraklisi tanlab olinadi. So'ngra modelni qaytarish yo'li bilan natijalarni aniqlaydilar va boshlang'ich ma'lumotlar bilan qanday o'zgartirishlar kiritishni aniqlaydilar.

«Varrak» - ko'proq qo'llaniladigan usul. Bir nechta bankda ko'p mablag' qo'yilmagan hisob raqami ochiladi va pulni bir bankdan ikkinchisiga sekin-asta ko'payib boruvchi pul miqdori o'tkaziladi. Firibgarlik shundan iboratki, pul o'tkazish xabarnomasi zarur mablag' bilan ta'minlanmaganligi bankda aniqlanguncha birinchi

pul o'tkazish haqidagi talabnomadagi pul mablag'ini qoplaydigan umumiy mablag'ini bu bankka o'tkazish haqida xabarnoma keladi. Bu ko'p marotaba, hisob raqamida durustgina mablag' yig'ilguncha davom etadi. So'ngra pul tezda hisobdan olinadi va hisob raqamining egasi g'oyib bo'ladi.

Qoida bo'yicha kompyuter bilan bog'liq jinoyatlar bir necha usulda olib boriladi.

Kriminalistik tavsifning keyingi tarkibiy qismi bo'lib jinoyatchining shaxsi xizmat qiladi. Kompyuter sohasida jinoyat sodir etuvchilarni adabiyotda uch guruhga bo'lish qabul qilingan desa bo'ladi.

Kompyuter sohasida jinoyatlarning paydo bo'lishi «xakerlar» bilan bog'liq. Avval ularning maqsadi programmalashgan mahsulotning muhofazasini «buzib» qo'yishdek qiyin masalani yechish bilan yoki o'z izzat-nafsini qondirish, hazillashish uchun kompyuter viruslarini yaratish bilan bog'liq faqatgina oddiy qiziqish sifatida ro'y bergan. Xakerlarni o'ziga xos kompyuter ishqibozligi bilan birgalikda yuqori darajadagi mohirlik ajratib turadi. Guruhga ko'pxiligi o'tkir aql-idrokka ega bo'lgan va nostandart tafakkuri bilan ajralib turadigan professional programmistlar kiradi. O'z kompyuter tarmoqlari uchun xavfsizlik choralarini ishlab chiqish va begona vositalarni «buzish» ular uchun yagona vazifani o'taydi va bu jarayon ularga o'zicha zavqlidir. Sekin-asta ulardan ba'zilar o'z ishidan bir qancha moddiy foyda olishga o'tadilar.

Professional jinoyatchilarning qilayotgan ishlarida g'arazli niyatlar yaqqol ifodalangan. Ular barqaror jinoiy mahoratga ega. Mazkur jinoyatlarni ko'p marotaba sodir etadilar va ularni albatta yashirish harakatlari bilan birga olib borishadi. Bular odatda texnik jihatdan juda yaxshi ta'minlangan, uyushgan jinoiy guruh va to'daga kiruvchi, oliy matematik, muhandis-texnik yoki iqtisodiy ma'lumotli yuqori malakali mutaxassislardir. Bu guruh hissasiga mansab, kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanish, o'ta katta miqdordagi mablag'larni o'g'irlash, firibgarlik bilan bog'liq o'ta xavfli jinoyatlar to'g'ri keladi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bu soha jinoyatchisining tavsifini berish mumkin. Ularning ko'pxiligini erkaklar tashkil etadi (taxminan 80 foiz), lekin kompyuter texnikasini egallash bilan bog'liq jinoyatlarda ayollar hissasi kotibalar, ish yurituvchilar, hisobchilar, g'aznaxilar hisobiga juda tez ko'paymoqda. Ko'pchilik

qonunbuzarlarning yoshi 15-45 yoshni tashkil etadi, 33 foiz jinoyatchilarning yoshi 20dan oshmaydi.

Tajovuz qilish sabablari va maqsadlari orasida quyidagilarni ajratish mumkin: g'arazli (mablag'lar va mol-mulkni o'zlashtirish), siyosiy (josuslik, mamlakatning moliyaviy, pul-kredit va valyuta tizimini qo'porishga qaratilgan), tadqiqotchilik ehtiyoji, bezorilik va sho'xlik, qasos va boshqa istaklar.

Kriminal tavsif tizimida jabrlangan tomon haqidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Jabrlangan tomon haqidagi ma'lumotlar kriminalistik jihatdan shubhasiz muhimdir, chunki jinoyatchining shaxsini, uni qidirish kerak bo'lgan shaxslar davrasini to'liqroq tavsiflashga imkon beradi. Odatda jinoyatchi jabrlanuvchi tomonini o'z tajovuz ob'ekti sifatida tanlashi tasodifiy emas.

Kompyuter sohasidagi jinoyatchilik bo'yicha xalqaro qo'mitaning ma'lumotlari bo'yicha bu turdagi harakatlar jiddiy xavf tug'diradi. Masalan, texnik-hisoblash tizimi ko'zda tutmagan texnik holatning yoki jinoyatning vujudga kelishi eng katta bankni ham bir necha kun ichida moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin.

Jabrlanganlarni uch asosiy guruhga bo'lish mumkin: kompyuter tizimining egalari, ular xizmatidan foydalanayotgan mijozlar va boshqa shaxslar. Ayniqsa birinchi guruhga tegishli bo'lgan jabrlanuvchilar kompyuter ma'lumotlari harakatlari sohasidagi jinoiy hodisalar haqida huquqni muhofaza qilish organlariga ko'p hollarda quyidagi sabablarga ko'ra noilojlikdan xabar beradilar yoki xabar byermaydilar: huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining bu masalada tajribasizligi; tergov oqibatida keltiriladigan ziyon yetkazilgan zarardan ortib kyetishidan xavfsirash va shu bilan birga firmaning obro'siga putur yetishi; sud jarayoni vaqtida tashkilot xavfsizligi tuzilishining oshkor etilishidan hadiksirash; o'zining noqonuniy harakatlarini aniqlanishidan qo'rqish, mansabdor shaxslarni tergov natijalarining biri ularning professional yaroqsizligi (tajribasizligi) haqidagi xulosa bo'lishidan hadiksirash; mavjud ma'lumotlarning haqiqiy qiymatini tushunmaslik. Bu holatlar shubhasiz shu turdagi jinoiy harakatlarni sodir etish imkonini yaratadi.

2-§. Tergov taktikasining xususiyatlari

Ushbu sohadagi jinoyatlarni tergov qilishda uch xil vaziyatni uchratish mumkin:

1) hamma narsa aniq – jinoyatning xususiyati va holatlari ma`lum (masalan: qanday virus va qay yo`l bilan kompyuter tarmog`iga kiritilgan) va jinoyat jabrlanuvchining o`z kuchi bilan aniqlangan, jinoyatchi ma`lum va qo`lga olingan, o`z aybiga iqror bo`lgan vaziyat;

2) Jinoyatni sodir etish usuli ma`lum, ammo jinoyat mexanizmi qisman noaniq, masalan kompyuter tarmog`i himoyasining zaif joylari orqali foydalanuvchilarni internet fayllariga noqonuniy kirganlarida jinoyatchining shaxsi aniq bo`lib, ammo u yashiringan;

3) faqat jinoiy natija aniq, masalan, bank kompyuter tarmog`ini ishdan chiqarish; jinoyatchining shaxsi va jinoyat mexanizmi noaniq.

Birinchi holatda kompyuter tizimiga noqonuniy kirish va yuzaga kelgan natijalar o`rtasida aloqa borligi (ishdan chiqish, kompyuterga virus tushirish va boshqalar), keltirilgan zararining hajmini aniqlash zarur. Ikkinchi holatda – yuqorida qayd etilgan vazifalardan tashqari, jinoyatchini qidirish va qo`lga olish zarur. Nihoyat, eng noqulay (uchinchi) holatda jinoyat mexanizmini aniqlash zarur.

Tergov taktikasining bir qismi bo`lgan kompyuter informatsiyasini oshkor qilish, fiksasiyalash va olib qo`yish to`g`risida to`xtalib o`tsak, aniqrog`i: jinoyat sodir etilgan joy, binoni, buyumlarni, hujjatlarni ko`zdan kechirish, tintuv qilish (shuningdek o`sha joydagi va binodagi shaxsiy tintuv), olib qo`yish (buyumlarni, hujjatlarni, pochta-telegraf korrespondensiyasini, davlat sirini o`z ichiga olgan hujjatlarni), telefon va boshqa so`zlashuvlarni yashirin eshitish to`g`risida. Bu tergov harakatlarini amalga oshirganda kompyuterdagi ma`lumotni yo`q qilish yoki unga zarar yetkazishga yo`l qo`ymaydigan kompyuter ma`lumotini qidirishni taktik to`g`ri bajarish, kerakli ma`lumotni topish; qayd etish va protsessual me`yorga muvofiq olib qo`yish kerak.

Tergov, taftish yoki olib qo`yishga tayyorgarlik ko`rishda tergovchi qaror qabul qiladi. Bu ehtiyoj kompyuter harakati sohasidagi jinoyat tarkibi belgilaridan tashqari quyidagilarga asoslangan bo`lishi mumkin:

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchilar, ba'zi guvohlar hisoblash texnikasi va informatika sohasida maxsus ma'lumotga, shuningdek, shaxsiy kompyuter texnikasiga ega bo'lsa; ish materiallari hujjatlarida EHM orqali yozilgan hujjatlarning borligi (so'rovnomalarga javob, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi tarafidan olingan ma'lumotnomalar);

kompyuter ma'lumotini tarqatuvchi buyumlarni o'g'irlash; yuqorida ko'rsatilgan shaxslarni hisoblash texnikasi, programmashtirish bilan qiziqishi yoki ularning shunday qiziqishga ega bo'lgan shaxslar bilan aloqasi borligi.

Ko'zdan kechirish yoki tintuvga tayyorgarlik ko'rish chog'ida ishlatilayotgan EHMning turi va konfiguratsiyasi to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotga ega bo'lish zarur; mahalliy yoki global tarmoqqa (internetga) ulanganligi; informatsiyaviy xavfsizlik va noqonuniy foydalanishdan himoya xizmati mavjudligi; hisoblash texnikasi o'rnatilgan joydagi elektr ta'minlash tizimi; foydalanuvchilar malakasi; hisoblash texnikasiga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar to'g'risida ma'lumot to'plash zarur. Bunday ma'lumotga ega bo'lish tergovchiga kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotga ega bo'lishni yengillashtiradi va uning daliliy kuchini maksimalashtiradi.

Kompyuter ma'lumotini tezda yo'q qilish mumkin bo'lganligi uchun qo'qqisdan qilingan tintuv yoki tezkorlik bilan o'tkazilgan ko'zdan kechirish ko'pinchalik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar kompyuterlarda mahalliy kompyuter tarmog'i hosil qilganligi to'g'risida ma'lumot olinsa, bu tarmoqqa ulangan barcha kompyuter texnikasi joylashgan joyni aniqlash va EHM o'rnatilgan barcha joylarda bir vaqtning o'zida tintuv tashkil qilish zarur. Tintuvdan (ko'zdan kechirish)dan avval kompyuter informatsiyasini yo'q qilish yoki unga zarar yetkazish imkoniyatini oldini oluvchi choralar ko'rish lozim. Buning uchun ko'zdan kechirish paytida EHMni elektr quvvati bilan uzluksiz ta'minlash, ko'zdan kechirish yoki tintuv o'tkazilayotgan joydan begonalarni chiqarib yuborish va hech kimni qo'ymaslik; qolgan shaxslarni hisoblash texnikasi va elektr toki ta'minoti moslamalariga tegish imkoniyatidan mahrum qilish uchun choralar ko'rish zarur. Agar ob'ektda portlovchi, tez alanganuvchi, zaHarli moddalar, elektromagnit nur tarqatuvchi buyum va apparatlar bo'lsa, ularni bartaraf qilish kerak. Ko'zdan kechirish yoki tintuvni informatika va hisoblash texnikasi

mutaxassisi bilan o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Xolislar sifatida ham EHMda ishlash bilan tanish bo`lganlarni taklif qilish foydadan xoli emas.

Ma`lumotni faqat kompyuterdagina qidirib qolmasdan, hamma hujjatlarni, (qog`oz parchalarigacha), sinchiklab ko`zdan kechirish zarur, chunki programmistlar ko`pincha, o`z xotiralariga ishonmasdan qog`ozda parollar, konfiguratsiya tizimlari haqidagi o`zgarishlar, kompyuter ma`lumot bazasi tuzilishi xususiyatlari to`g`risida yozuvlar qoldirishadi. Ko`pgina foydalanuvchilar kompyuter ishdan chiqqanda ma`lumotlarni yo`qotmaslik uchun fayllar nusxalarini disketlarda saqlashadi. Shuning uchun, topilgan barcha ma`lumot tarqatuvchi buyumlar olinib tekshirilishi kerak.

Faqat sanab o`tilgan tayyorgarlik choralaridan so`nggina tergovning keyingi bosqichiga o`tish kerak. Amaliyotni o`rganish shuni ko`rsatadiki, oddiy qoidalarga amal qilmaslik oqibatida tergovchining kompyuter ma`lumotini yig`ish borasidagi faoliyati o`z maqsadiga erishmaydi. Tintuv paytida, gumon qilinuvchi tezkor tergov guruhi a`zolariga sezdirmasdan EHM kuchlanishi tumblyerini muruvvatini 220 dan 115 ga o`zgartirib qo`yadi. Ta`minot bloki yoqilgandan biroz o`tgach so`ng ishdan chiqadi va kompyuter umuman ishlamasligiga sabab bo`ladi.

Kompyuter ma`lumotini qidirish taktikasi, birinchidan, ma`lumotning himoyalaniish darajasi, ikkinchidan, tergov harakatlari davrida kompyuterning va periferiya moslamalarining funksional holatidan kelib chiqqan holda tanlanishi zarur.

Kompyuterni yuqori darajada himoyalanganligiga noqonuniy ma`lumotdan foydalanishga qarshi va yoki syertifikatlangan maxsus himoya vositalarining mavjudligi; kompyuter tizimi joylashgan hudud va binolarni (texnik vositalar va maxsus pyersonal yordamida), uzluksiz qo`riqlash, jiddiy kirib-chiqish rejimlarini qo`llash, binolarni maxsus jihozlash; ma`lumot muhofazasi ma`muriyati mavjudligi, normal ishlashi va ish nazorati guvoh bo`ladi.

Himoyalaniishning past darajasi kompyuterdan foydalanishning oddiy algoritmi (masalan, ma`lumotlar faqat parol bilan himoyalangan), uni yengib o`tish to`g`risidagi ishonchli ma`lumotlar olish bilan ifodalanadi, bunda ma`lumotga yetishish uchun maxsus vositalar ishlatilmaydi.

Kompyuter ma`lumotlariga noqonuniy erishishga qarshi

himoyani yengib o'tish tergovchi faoliyatida eng mas'uliyatli ishlaridan biridir. Aynan noto'g'ri muomala natijasida ma'lumotlar (maxsus programmalar yordamida) yo'q qilinishi, shu jumladan o'z-o'zidan, o'zgartirilishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun tergov harakatiga tayyorgarlik ko'rish chog'ida kompyuterning himoya darajasini (himoya vositalari, parollar, muhim so'zlar va hokazo) iloji boricha aniq va to'liq aniqlash zarur.

Bir tarafdand, programmalashtirish va hisoblash texnikasi mutaxassislarining umumiy fikrlariga ko'ra, himoyani to'la kafolatlaydigan texnika va programma vositalari bugungi kunda mavjud emas. Shu bois, umuman olganda, ma'lumot izlashda har qanday to'siqni yengib o'tish mumkin. Boshqa tarafdand, mavjud himoya vositalari shunchalar xilma-xil va ular har-xil algoritmlar va himoyalalanish ko'rinishiga egaki, ularni yengib o'tish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. «Xakyerlar» orasida biror maqsadga erishish himoyasini yengib o'tish yuqori mahorat sanaladi.

Kompyuter ma'lumotlarini himoyalashning sabablari turlicha. Jinoyatni tergov qilish va ochishga to'sqinlik qilish maqsadidan tashqari iste'molxilar ma'lumotlarini EHMda ishlovchining yetarli bilim va mahoratga ega emasligi va betartibligidan himoyalashadi. Kompyuter ma'lumotlarini himoyalash identifikatsiya (iste'molchini aniqlash) va autentifikatsiya (asliga to'g'riligini tekshirish) yo'li bilan amalga oshiriladi. Ikkinchi taraf sub'ekt haqiqiyiligiga ishonch hosil qiladi. Asliga to'g'rilik parolni bilish, shaxsiy identifikatsiya nomyeri, kriptografik kalit; shaxsiy kartochka yoki shu kabi moslama; ovoz, barmoq izlari va boshqa biometrik xususiyatlar bilan tasdiqlanadi.

Parollar avvaldan operatsiyaviy tizim va boshqa syervis programmalarga o'rnatiladi. To'g'ri ishlatilganda, ular ko'pgina tashkilotlarga xavfsizlikning maqbul darajasini ta'minlay oladi. Shunday bo'lsa-da, xususiyatlar majmui bo'yicha ular asliga to'g'rilikni tasdiqlovchi eng zaif vositadir. Parollarning ishonchiligi ularni esda saqlash va sir tutish qobiliyatiga asoslangan. Parol esda qoladigan bo'lishi uchun uni oddiy tuzishadi, biroq qonuniy iste'molxilarning qiziqishlari, tanishlari doirasi avvaldan o'rganib chiqilsa, parolni topish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ba'zi parollar boshidan sir tutilmaydi, chunki ular hujjatlarda ko'rsatilgan standart ma'noga ega bo'ladi va tizim o'rnatilganda har doim ham o'zgartirilmaydi. Parolni kiritishni optik vositalar va protsessor va

monitor tarqatuvchi elektromagnit nurni qo`lga olish mobaynida aniqlash mumkin.

Kompyuter texnikasini ko`zdan kechirish yoki tintuv paytida parol yordamida himoya qilishning analizi kompyuterda topilgan kriminalistik ma`lumotning haqiqiy egasini aniqlashda tergovchiga yordam berishi ehtimoli kattadir. Boshqacha qilib aytganda, parol tizimi ishonchliligi qancha katta bo`lsa, uning haqiqiy egasi kimligini ishonch bilan aniqlash mumkin bo`ladi va topilgan ma`lumotning daliliy kuchi shuncha yuqori bo`ladi.

Qog`ozsiz texnologiya mashinaviy tarqatuvchilar yoki aloqa tarmoqlari orqali hujjatlar almashinuvida bir qator afzalliklarga ega. Ammo bunda hujjat muallifi va hujjatni identifikatsiyalash muammosi turadi. Odatiy (qog`ozli) texnologiyada bu narsa hujjatdagi ma`lumot jismoniy tarqatuvchi (qog`ozli) bilan uzviy bog`liq. Bu muammo qisman «raqamli imzo» ishlatish orqali hal etiladi. Texnologiya shundan iboratki, hujjatni tuzgan shaxs, uni maxsus programma – elektron kalit yordamida kodlashtiradi. Bunda ikkita kalit qo`llaniladi. Birinchisi, sir tutilmagani, shifrovka uchun ishlatilib, iste`molchining adresi bilan birga e`lon qilinishi mumkin, ikkinchisi, maxfiy rasshifrovka qilish uchun ishlatilib, faqatgina bir shaxsga ma`lumdir. Bu programma odatda, hujjatning muallifi yoki jo`natilgan tarafga ma`lum bo`lib maxsus disketda saqlanadi. Raqamli imzo ikkita funksiyani bajaradi-ma`lumotning daxlsizligini ta`minlaydi va hujjat muallifining shaxsini tasdiqlaydi. Kriptografik himoya kompyuter yoki magnit tarqatuvchidagi ma`lumotning maxfiyligini ta`minlovchi eng ishonchli vositalardan sanaladi. Shuni yodda tutish kerakki, tasarrufda kompyuter yoki magnit tarqatuvchi bo`lsa-da, elektron kalit topilmagan bo`lsa, ma`lumotni «o`qish» va muallifni identifikatsiyalashning iloji bo`lmaydi.

Kriptoalgoritmarni ishlatishdan tashqari yana bir qator shifrotekst analizi va uni ochishga urinishning turli sharoitlarini inobatga oluvchi programmalash vositalari mavjud. Ularga qisman, ma`lumotni magnit tarqatuvchilarni shifrlashdan tashqari klavitura va EHM ekrani faoliyatini vaqtincha to`xtatuvchi (qimmatli ma`lumotni yo`q bo`lib qolishi), shuningdek, vinchestyer virtual disklari yoki fayllar darajasida ma`lumot ob`ektlarini himoyasini ko`zda tutuvchi Norton Utilities paketidagi Diskreet programmasini misol qilish mumkin. EHMning normal ish faoliyatini davom ettirish uchun parol kiritish kerak bo`ladi.

Mashinaviy ma'lumotga yetishishni boshqaruvchi barcha himoya programmalari savolga javob berish prinsipi bo'yicha ishlaydi: kim, qanday operatsiyalar va qanday ma'lumotlar bilan ishlay oladi. Ma'lumotdan foydalanish quyidagicha belgilanishi mumkin:

- umumiy (albatta har bir iste'molchiga taqdim etilgan imkoniyat);

- rad (qat'iy rad, masalan, ma'lumotning bir qismini yo'q qilishga ruxsatni);

- hodisaga bog'liq (hodisa tomonidan boshqariluvchi);

- iste'molchi murojaatini blokirovka qilish, masalan, ma'lum vaqt oraliqlarida yoki ma'lum bir terminal kompyuter tizimlariga murojaat qilganda;

- ma'lumotlar mazmuniga bog'liq (bu holatda ma'lumotdan foydalanish ma'lumotlarning joriy mohiyatiga asoslanadi, masalan, ba'zi bir istemolcxilarga u yoki bu ma'lumotlarni o'qish taqiqlanadi);

- holatga bog'liq (kompyuter tizimini dinamik holatidan), himoya tizimi va programmalarni boshqaruvchi kompyuter tizimining joriy holatiga bog'liq holda amalga oshiriladi;

- takrorlashga bog'liq (masalan, iste'molchiga faqat bir yoki muayyan marotaba ma'lumotdan foydalanishga ruxsat beriladi);

- iste'molchining ismi yoki boshqa belgilari bo'yicha (masalan, iste'molchi 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak);

- vakolatlarga bog'liq, ya'ni taqdim etilgan rejimga binoan moslama, ma'lumot, programmalarga murojaat etish, masalan, «faqat o'qish», «o'qish va yozish», «faqat bajarish»ga ruxsat berilishi mumkin.

Avvalgi murojaat va ma'lumotlardan foydalanishni boshqarish bilan avvalgi murojaatlar va ma'lumotlar orasidagi semantik aloqani inobatga oluvchi vakolatlarga bog'liq (programma avvalgi so'rovnomalarni o'z ichiga oluvchi kontekst tahlilini, joriy so'rovnoma muhitini va ma'lumotlar o'rtasidagi semantik aloqalarni analiz qiladi);

Ruxsatnoma bo'yicha (parol yoki boshqa identifikator: kartochka, nishon va hokazo bo'yicha) identifikatsiya ostida kompyuter tizimiga kirayotgan iste'molchining haqqoniyligini aniqlash tushuniladi;

Taomil bo'yicha (bu holatda tizim o'z tartibiga ega:

ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi o'z qoidalarini avtomatik ravishda jamlaydi).

Yangi elektron texnologiyalarga elektron kalitlarni ishlatish kiradi. Elektron kalit kattaligi gugurt qutisidan katta bo'lmagan mikrosxemada ishlangan xotirali moslamadir. Kompyuterni ko'zdan kechirish paytida himoyalangan programma ishlatilsa, u o'z kaliti mavjudligini tekshiradi. Kalit topilsa, programma bajariladi; aks holda xato to'g'risida ma'lumot paydo bo'ladi va ish jarayoni to'xtatiladi. Kalitning o'zi printer ulanadigan portga kirgiziladi va osonlikcha chiqariladi.

Shunday qilib, tezkor ma'lumotning mavjudligi va qo'llanilishi, ko'pincha EHMdagi qidiruvda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Biroq, himoyani muvaffaqiyatli yengib o'tish kompyuterdagi dalillarni yig'ish muammolarini hal qilmaydi. Kompyuter ma'lumotini qidirish, ko'zdan kechirish yoki tintuv paytida EHM va uning periferiya moslamalarining funksional holatiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumot doimiy tarqatuvchida yoki EHMning faqat ish davrida saqlanishi mumkin, shuning uchun tergovchi tergov harakatlari boshida kompyuter yoqilgan yoki o'chirilganligidan kelib chiqqan holda turli taktik usullar qo'llashi lozim.

Kompyuter yoqilganda elektron moslamalar ma'lumot va programmalar uchun mo'ljallangan «joriy xotira» hajmini tashkil etadi va ularning ish jarayonida xotirada saqlab turadi. Kompyuter yoqilganda biror programma bilan ishlashni tugatganda OZU tozalanadi va yangi ma'lumotlarni kiritishga tayyorlanadi. Kompyuterning ish jarayonida OZU maxsus programmalar vositalarida programma va ma'lumotlarni alohida saqlaydigan maxsus qismlarga bo'linadi. Bunday qismlarning ichida, iste'molchining xohishiga ko'ra tashqi moslama - ma'lumot to'plovchiga o'xshash maxsus qism ajratilishi mumkin. Bu to'plovchi qism («virtual disk» yoki «pseudodisk») ma'lumotga yetishishni katta tezligi va EHM moslamalari bilan programma almashish borasidagi maxsus operatsiyalarni tez bajarish bilan ajralib turadi. Kompyuter ishlayotganligiga sistema bloki panelidagi indikatorlarni yonishi, lipillashi, tumblyerlarning holati, displeydagi tasvir, kichik vibratsiya va ventilyatorlarning ichidagi past ovoz guvohlik beradi.

Agarda kompyuter ko'zdan kechirishdan avval yoqilgan bo'lsa, u holda displeyda tasvirlangan ma'lumotni to'g'ri baholay olish

kerak. Birinchi navbatda qanday programma bajarilayotganligini aniqlash kerak. Standart programma ishlayotganda (masalan, ekranda Norton Commander yoki Windows programmalarini tasvirlangan bo'lsa), texnik vositalarni ko'zdan kechirmay turib har xil manipulyatsiyalarni bajarmaslik kerak. Displey ekranini suratga olish lozim. Kompyuterga ulangan barcha telefon liniyalarni o'chirib qo'yish zarur. Kerak bo'lsa, sistema bloki qoplamasini ochib, EHM konfiguratsiyasini vizual usulda aniqlash, elektron platalarni joylashish tartibini yozib olish kerak. Bu qoidalarga amal qilish ma'lumot bazasi va apparat vositalarini ishdan chiqishi va ularga zarar yetkazishdan saqlaydi. Bunday vositalarga elektron kalitlar, «radiozakladka», tovush o'chirgichlar va boshqalar kirishi mumkin. Apparat vositalarini ko'zdan kechirganda ushbu tergov harakati, (tintuv) qatnashchilariga noma'lum vositalar (kengaytirish platalari, nostandart bog'lama va boshqalar) uchrasa, kompyuter darhol o'chirilishi kerak. Bu holatda ta'minot bloki tumblyerini o'chirmay turib vilkani rozetkadan chiqarish kerak. So'ngra simlarni uzishdan avval barcha portlar, ulanish tizimi va qismlarini keyinchalik kabel, kengaytirish platalarini va boshqa moslamalarini aniq o'z holiga keltira olish uchun belgilab qo'yish zarur.

Agar protsessorning konfiguratsiyasi standart bo'lsa, joriy paytda bajarilayotgan programma bilan ishlashni to'g'ri yakunlash yoki u bilan ishlashni qo'shimcha, balki qidirilayotgan ma'lumotlar chiqquncha davom ettirish zarur. Ko'zdan kechirishda (tintuvda) hozir bo'lganlarga tergovchi mutaxassislarning EHM manipulyatsiyasi davridagi barcha xatti-Harakatlarini tushuntirib berishi kerak. Ma'lumot bazasiga yaqqol va yengil izohlarsiz kirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har qanday klavishani bosilishi yoki «sichqon»ning harakati izohlangan bo'lishi kerak.

Agar ma'lumot qidiruvi uchun tergovchi ishlatayotgan, lekin kompyuterda bo'lmagan programma mahsulotlari ishlatilsa, bu narsa tekshiruv yoki tintuv bayonnomasida qayd etilishi kerak. Bunday programmalar standart bo'lishi kerak. Nazorat yaqqolliigi, ya'ni, programma ishining asosiy etaplarini displey ekranida ko'rinishi, tergovchi va mutaxassisning izoh berishi zarurdir. Xolislarining maksimal faolligi qidirilayotgan programma, tekst yoki grafik hujjat emas, balki audio yoki videorolik (vyerbal yoki vizual ma'lumot) bo'lishi mumkinligi uchun juda muhimdir. Programma ishining bunday natijasi betakror bo'lib, bayonnoma yordamida qayd etiladi.

Qidirilayotgan ma'lumot topilganda displeyning joriy tasviri suratga tushirilishi va standart vositalar yordamida ma'lumotni doimiy tarqatuvchiga (odatda - magnit disk) yozib olish yoki printer orqali qog'ozga chiqarish zarur.

Kompyuterni yoqib o'chirish va ular bilan manipulyatsiya qilish faqat hisoblash texnikasi mutaxassisi ishtirokida bajarilishi mumkin. Agar ob'ektda elektr ta'minoti o'chirib qo'yilgan bo'lsa, yong'in yoki portlash bilan bog'liq holda, uni yoqishdan avval kompyuter va hamma periferiya moslamalari o'chirilganligini tekshirish kerak. Ob'ektda mavjud barcha kompyuterlar (yoki xotira bloklari) va magnit tarqatuvchilar olib qo'yilishi kerak. Ularni ob'ektda yoki begonalar kirishi mumkin bo'lgan yerlarda saqlash mumkin emas. Magnit tarqatuvchilardagi ma'lumot jinoyatchi tomonidan osongina yo'q qilinishi mumkin. Bu holatni vizual yo'l bilan aniqlab bo'lmaydi.

Kompyuter va uning moslamalari muhrlanadi: razyemlarga qog'oz qo'yib, egasi yoki ekspert yo'qligida foydalanishning oldini olish uchun uning chetlarini kompyuterning yon devoriga quyuq kley yoki yopishqoq lenta yordamida mahkamlanadi. Magnit tarqatuvchilar turli xil elektromagnit va magnit maydonlarning ta'siri va yo'naltirilgan nur tarqatishning salbiy ta'sirini oldini olish uchun maxsus ekranlashtirilgan konteyner yoki futlyarlarda saqlanadi. Faqat konteyner va futlyarlarga muhrlanadi. Izohlovchi yozuvlar disketaga yopishtiriluvchi maxsus etiketkalariga yoziladi. Bunda avval etiketkaga yozuv tushiriladi va so'ngra disketaning maxsus mo'ljallangan yeriga yopishtiriladi. Agar disketada yozuvli etiketka mavjud bo'lsa, u holda faqat tartib raqami qo'yiladi, izohlovchi yozuvlar esa shu raqam ostida alohida varaqqa yozilib, korobkada saqlanadi. Magnit tarqatuvchilarni bevosita kanop bilan o'rash, ularni teshish va ularga imzo, belgi va muhr qo'yish mumkin emas.

Tergov harakati bayonnomasida magnit va boshqa doimiy magnit tarqatuvchilarning jismoniy xususiyatlari, apparaturaning syeriya nomyerlari va ularning individual belgilari qayd etiladi. Mashinkada yozilgan tekstlar bayonnomaga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

Ko'pincha apparat vositalarida ma'lumot izlaridan tashqari kriminalistika uchun odatiy izlar ham uchrab turishi sababli, ko'zdan kechirishga mutaxassis-kriminalistni taklif qilish ham maqsadga

muvofigidir. Tergov amaliyotida kompyuter vositalarining ichki elementlarida barmoq izlari, metallni qayta ishlash asboblari, qo'lda ulash izlari qolganligi holatlari ma'lum.

Guvohlar va jabrlanuvchilarni boshlang'ich so'roq qilishda kompyuter tizimining funksiyasi va maqsadi, kompyuter texnikasi va u joylashgan yerga kim bema'lol kirishi mumkinligi, u yerda begonalarni paydo bo'lishi va qanday himoya vositalari ishlatilganligini aniqlash zarur. Agar ma'lumotning bir qismi maxfiy bo'lsa, kim undan foydalanishga ruxsat bergan va aslida kim foydalangan: Jinoyat natijasida qanday zarar (mulk, nomulk shaklida) yetkazilgan va uni kamaytirish yo'li bormi?

3-§. Ekspertiza tadqiqotining imkoniyatlari

Yuqorida mazkur toifa ishlari yuzasidan ashyoviy dalil yig'ish bo'yicha mutaxassisning ishtirok etishi naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tgandik. Lekin uning bo'lg'usi tahlili, ekspert tadqiqotlari jarayonida dalillarni tekshirish yanada muhimdir.

Mazkur ishlarda o'tkaziladigan ekspertizalarning asosiy turi - kompyuter-texnik ekspertizasidir. Bu turdagi ekspertizalar ichida ularning vazifalariga va tadqiq etish ob'ektlariga bog'liq ravishda yana ikki ko'rinishini ajratish mumkin:

- kompyuterlar va ularning ehtiyot qismlarining texnik ekspertizasi, kompyuterning konstruktiv xususiyatlari va uning holatini, uning periferiya moslamalari, magnit tashuvxilari va hokazolar, kompyuter tarmoqlari holatini, shuningdek ishda nuqsonlar paydo bo'lishi sabablarini o'rganish maqsadida o'tkaziladi;

- ma'lumotlar va dasturiy ta'minot ekspertizasi, kompyuterda va magnit tashuvxilardagi axborotni o'rganish maqsadida amalga oshiriladi.

Kompyuter-texnik ekspertiza hal qilishi zarur bo'lgan masalalarni ham ikki guruhga ajratish mumkin. Kompyuterlar va ularning butlovchi qismlarining texnik ekspertizasi tomonidan hal qilinadigan (diagnostik) savollar:

1) tadqiq etishga kompyuterning qaysi modeli taqdim etilgan; uning tizim bloki va periferiya moslamalarining texnik tavsifi; mazkur hisob tarmog'ining texnik tavsifi;

2) mazkur kompyuter va uning butlovchi qismlari qachon va qayerda tayyorlangan va yig'ilgan; kompyuter zavod sharoitida

yig'ilganmi yo xonaki sharoitdami;

3) kompyuter va periferiyasining ichki tuzilishi ilova qilingan texnik hujjatlarga muvofiqmi; kompyuter konstruksiyasiga o'zgarishlar kiritilmaganmi (masalan, qo'shimcha o'rnatilgan moslamalar, qattiq disklar, tezkor xotirani kengaytirish, optik diskarni ko'chirib olish moslamalari va konfiguratsiyaning o'zgarishlari);

4) kompyuter va uning butlovchi qismlari sozmi; ularning ishlatilganlik darajasi; kompyuter va periferiya moslamalari nosozligining sabablari; magnit axborot tashuvxilarning jismoniy nuqsonlari yo'qmi;

5) kompyuter o'ziga xos foydalanuvxilar (chapaqay, ko'zi ojiz va boshqa) ishlashi uchun moslanganmi;

6) axborotni qabul qilish, yig'ish va uzatishga moslashgan boshqa elektron vositalarining (peydjyer, elektron yon daftarcha, telefon syervyeri) texnik tavsifi; bu vositalar sozmi; nosozligining sabablari.

Ma'lumotlar va dasturiy ta'minot ekspertizasiga hal etish uchun taqdim etiladigan diagnostik masalalar:

1) kompyuterda qanday operatsiya tizimidan foydalanilgan;

2) ichki va tashqi magnit tashuvxilardagi axborot mazmuni nimadan iborat, shu jumladan u yerda qanday dasturiy mahsulotlar joylashgan; dasturiy mahsulotlari nimani ko'zlagan; ularning ishlash algoritmi, axborotni kiritish va chiqarish uslubi qanaqa; mazkur kompyuter dasturi, ma'lumotlar bazasi ishlaganida ma'lumotlar kiritilib, natijalar namoyish etilguniga qadar qancha vaqt o'tadi;

3) mazkur dasturiy mahsulotlar standart tizimlarning litsenziyali (yoki ruxsat etilmagan) nusxasimi yo o'ziga xos (original) ishlanmami;

4) ushbu tizim mahsuloti dasturlariga ba'zi operatsiyalarning (qaysi) bajarilishini o'zgartiradigan biron o'zgarishlar (qanday) kiritilmaganmi;

5) mazkur o'ziga xos kompyuter mahsuloti texnik vazifaga muvofiq keladimi; uni ishlatishda barcha ko'zda tutilgan funksiyalarining bajarilishi ta'minlanadimi;

6) axborotdan foydalanishni cheklash uchun parollar, yashirin fayllar, himoya dasturlari va boshqalar qo'llanganmi, yashirin axborotning mazmuni nimadan iborat; parol tanlab kirish, himoya vositalarini buzish va boshqa ruxsat etilmagan yo'llar bilan

axborotga ega bo`lish harakat qilinganmi;

7) o`chirilgan fayllarni, nuqsonli magnitli axborot tashuvxilarni tiklashning imkoniyati bormi; tiklangan fayllarning mazmuni qanday;

8) korxonada ichki (lokal) hisoblash tarmoqlari, global tarmoqlar va ma`lumotlarning taqsimlangan bazalaridan axborot ketib qolishining sabablari, mexanizmi;

9) kompyuter, alohida dasturlar faoliyatida nuqsonlar mavjudmi; ushbu nuqsonlarning sababi nimada; kompyuter faoliyatidagi nuqsonlar qanday virusning ta`siri tufayli yuz bergan; virusning salbiy ta`siri ko`pchilik dasturlarga tarqaladimi yo faqat ayrim dasturlar bilan cheklanadimi; virus shikastlagan mazkur dastur (matn fayli) faoliyatini to`liq hajmda tiklash imkoni bormi;

10) peydjer, elektron yon daftarchadagi ma`lumotlarning mazmuni nimalardan iborat; daftarchada yashirin ma`lumot bormi va uning mazmuni;

11) mazkur faylga qachon so`nggi bor tuzatish kiritilgan yoki dasturiy mahsulot qachon amalga oshirilgan;

12) mazkur harakatlarni amalga oshirgan shaxsning dasturlashtirish va kompyuter texnikasi bilan ishlash sohasida mahorati qay darajada bo`lgan.

Kompyuter-texnika ekspertizalari yordamida ba`zi qiyoslashga oid masalalar ham hal qilinishi mumkin:

1) kompyuterning butlovchi qismlari (pechat platalari, magnit tashuvxilari, diskovodlar va hokazo) bir joyda ishlab chiqarilganmi;

2) mazkur kompyuter dasturi muayyan shaxs tomonidan yozilmaganmi (kompyuter-texnika va mualliflik ekspertizalarini o`tkazishda birgalikda hal qilinadi).

Kompyuter-texnika ekspertizasi ob`ektlari quyidagilardir: yig`ilgan holdagi kompyuterlar, ularning tizim bloklari;

periferiya moslamalari (displeylar, printerlar, diskovodlar, modemlar, klaviaturalar, skanerlar, «sichqon» tipidagi manipulyatorlar, joystiklar va hokazo), kompyuter va hisoblash tarmoqlarining kommunikasion moslamalari;

magnit axborot tashuvxilar (qattiq va floppy-disklar, optik disklar, tasmalar);

dasturiy va matn fayllarining yozma bayonlari; tizimlar qidiruv belgilarining lug`atlari (tezauruslar), tasniflagichlar va boshqa texnik hujjatlar, masalan texnik vazifa va

hisobotlar;

elektron yon daftarchalar, peydjerlar, harfli yoki raqamli matnlar axborotlarining elektron tashuvxilari, ularning texnik hujjatlari.

Mazkur toifa ishlari yuzasidan boshqa sinflarga oid va ko`rinishdagi: trasologik - buzib kirish izlarini, daktiloskopik - kompyuterlarning ham tashqi, ham ichki yuzasidagi qo`l izlarini tahlil qilish uchun ekspertizalar tayinlanishi ham mumkin. Sud-iqtisodiy, xususan, moliya-iqtisodiy va Buxgalteriya ekspertizalari, misol uchun, kompyuter axborotlari harakati sohasidagi jinoyatlar kredit-moliya sohasidagi jinoyatlar bilan bog`liq bo`lganda tayinlanadi. Kompyuterdan qalbaki hujjat, qalbaki pul biletlari tayyorlash maqsadida texnik-kriminalistik ekspertizalardan foydalanish keng tarqalgan. Ovoz (suhbat)ni yashirin eshitish vositalaridan foydalanilganida fonoskopik ekspertiza o`tkaziladi.

*1-§. Voyaga yetmaganlar sodir etgan
jinoatlarning kriminalistik tasnifi*

Ma'lumki, jinoyat sodir etilish vaqtida hali 18 ga to'lmagan shaxslar voyaga yetmagan deb e'tirof etiladi. Mazkur tergov metodikasining yaratilishi ana shu yoshdagi shaxslarning ob'ektiv va sub'ektiv ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bog'liqdir. Uning ob'ektiv qismini ushbu yoshdagi shaxslar organizmida kechayotgan ruhiy-fiziologik jarayonlar tashkil etsa, sub'ektiv qismi muayyan shaxsning shakllanish xususiyatlaridan iborat. Ham ob'ektiv, ham sub'ektiv omillar voyaga yetmagan shaxsning ijtimoiy va huquqiy ongi, qonun talablarini qabul qilishi, xulq-atvori, o'zga insonlarga bo'lgan munosabati kabi shaxsiy xususiyatlariga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Jinoiy-huquqiy hamda jinoiy-protsessual qonunlar voyaga yetmaganlarga alohida yondashadi. Misol uchun, JKda voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligiga bag'ishlangan alohida VI bo'lim mavjud. Ushbu bo'limning 81-90-moddalarida uning o'ziga xos tomonlari aks ettirilgan. Xususan, jinoiy jazo bilan bir qatorda majburlov choralari (88), jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan (87, 89-modda) ozod etish imkoniyatlari ko'zda tutiladi.

JPKda voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha jinoiy ishlarni yuritish maxsus 60-bob sifatida ajratilgan. Uning xususiyatlari ana shunday shaxslarni ayblash bo'yicha jinoyat ishlarini yuritish tartibi, umum qabul qilingan isbotlanishi talab etilgan holatlardan tashqari aniqlanishi kerak bo'lgan qo'shimcha shart-sharoitlar, voyaga yetmaganlar ishlarining alohida ko'rilishi, so'roqda pedagog ishtirok etishi, sudda jinoyat ishini ko'rib chiqishning o'ziga xosligi va boshqa masalalarga oiddir.

Qonunlarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga alohida e'tibor berilganligi bolalikni himoya qilish haqidagi konstitutsiyaviy qoidalarni, shu bilan birga xalqaro-huquqiy ahamiyatga molik, xususan BMT Bosh Assambleyasi 1989-yil 20-noyabrda qabul qilgan Bola huquqlari haqidagi Konvensiyaning tegishli nizomlarini aks ettiradi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini tergov qilish metodikasi dastlabki tergovning umumiy maqsadlari va tamoyillariga tayanadi va ayni vaqtda voyaga yetmaganlar shaxsiga bog'liq qator xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlar ular tomonidan huquqqa qarshi harakat sodir etilganda va dastlabki tergov vaqtida shakllangan tushuncha va mulohazalarga asoslangan o'smir xulqida namoyon bo'ladi.

Ruhiy-pedagogik adabiyotlarda 14-17 yoshlar o'smirlik yoki yigitlikning boshlang'ich davri deb ataladi. Biologik jihatdan o'smirlik jismoniy rivojlanishning yakuniy davri bo'ladi. Mazkur toifaga oid shaxslarning ijtimoiy ahvoli turlicha bo'lib, ular orasida talabalar, ishchilar va ishlamaydiganlar bor. Shu bilan birga ular xulqi va harakatlari ongli-irodali ko'rinishga ega va bu o'z o'rnida 16 yoshdan umumiy jinoiy javobgarlik, 14 yoshdan boshlab esa qasddan odam o'ldirish, o'g'rilash, zo'rlash, jinsiy ko'rinishdagi zo'rlik ishlatish, o'g'rilik, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, transport vositasini olib qochish, mol-mulkni qasddan yo'q qilish yoki unga zarar yetkazish, o'qotar qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar va portlatish moslamalarini, shuningdek, narkotik moddalar yoki psixotrop vositalarni, radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash, temir yo'l, havo, dengiz, daryo transport vositalari yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holga keltirish, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi ayrim jinoyatlar uchun, 13 yoshdan esa aybini og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun javobgarlik davri boshlanishini belgilab beradi (JK 17-moddasi).

Kriminalistikaga oid adabiyotlarda voyaga yetmagan qonunbuzarlarni, ular orasidagi farq birmuncha nisbiylikni qayd etgan holda, to'rt guruhga ajratib tasniflash qabul qilingan.

Birinchi guruhga ilk bor jinoyatga qo'l urgan shaxslar kiritiladi. Ularning jinoyat qilishdan avvalgi xulqi va ma'naviy qiyofasi birmuncha ijobiy. Odatda bunday o'smirlar u qadar jiddiy bo'lmagan jinoyatlarni murakkab yoki favqulodda vaziyat ta'sirida sodir etadilar.

Ikkinchi guruhga kiritilgan ilk marta jinoyatga qo'l urganlarning avvalgi xulq-atvorini benuqson deb bo'lmaydi. Ular spirtli ichimliklar, narkotiklar iste'mol qiladilar, chekadilar va uydan qochib ketish kabi odatlarga egadirlar.

Uchinchi guruh - ma'naviy qarashlari buzuvchi o'smirlar. Ular

avval ham turli qonunbuzarliklar sodir etib, ma'muriy jazoga tortilgan, maxsus maktab va kasb-hunar bilim yurtlaridan yo'llanganlardir. Jinoyatning sababi va maqsadi ularda ongli ravishda, katta yoshli shaxs yoki o'ziga nisbatan buzuq tengdoshining ta'sirida shakllanadi. Mushtlashishlarda qatnashish, bezorilik, ojizroqlarni tunash kabi ko'pgina jinoyatlarni ular dabdurustdan sodir etishadi.

Ma'naviy buzuqligi bilan jamiyatga jiddiy xavf tug'dirib, xulq-atvori har qanday me'yorlardan butkul chiqib ketgan shaxslar to'rtinchi guruhga kiritiladi. Bu toifaga muqaddam sudlanganlar (shartli hukm qilingan, muddatidan avval ozod qilingan va h.) ham kiradi. Odatda, bular ishlash yoki o'qishdan bo'yin tovlab, jinoiy guruhlarga uyushgan yoki kattalarning jinoiy guruhi tarkibiga kirgan shaxslardir. Ular qo'rs va berahm, uyat hissi nimaligini unutkanlar. Asosiy maqsadi - ta'magirlik va boyish. Manfaati - vaqtni bekorchilik bilan o'tkazish, qimor o'ynash, spirtli ichimlikliklar iste'mol qilish va jinsiy aloqa.

Jonsaraklik va ta'sirchanlik tufayli o'smir odam tanlay olmaydi, janjalga moyil bo'ladi. Mustaqillikka bo'lgan tabiiy intilish atrof muhit, jamiyatga qarshi bo'lgan kattalar ta'siri tufayli salbiy rivoj topishi mumkin. Tortinchoq, jur'atsiz bolalarga behurmat munosabatda bo'lib, ular nafsoniyati poymol qilingan oilada o'sgan o'smirlar ham shunday ta'sirga berilishi mumkin. O'smir xulq-atvoridagi ko'p narsani uning o'z mavqeini ko'tarishi, tengdoshlari orasida obro'-e'tibor qozonishi, dovyurak, qat'iy deb nom olishga intilishi belgilaydi.

Ko'pgina o'smirlarga yaxshi tarbiya olmaslik oqibatida dag'allik, o'jarlik, behayolik, jizzakilik xosdir. Ular bilan muomalaga kirishganda ushbu omillarni e'tiborga olish talab etiladi. Voyaga yetmaganlarga yolg'onchilik ham xos ekanligini yodda tutmoq zarur. Mardlik va do'stlik tushunchalarini noto'g'ri anglash, o'zini ko'rsatish, e'tibor qozonishga intilish ham ularga xos bo'lishi mumkin.

Do'stlikka intilish ko'p hollarda birgalikda ko'ngilxushlik qilish, keyin esa jinoiy guruhga kirish, kattalar yoki voyaga yetmagan o'ta xavfli qonunbuzarlar ta'sirida nazoratsiz qolishga olib keladi.

Hayotiy tajriba yetishmasligi o'ziga va atrofdagilarga baho berish mezonlarining shakllanib ulgurmaganligi natijasida ularda

bo`lib o`tayotgan voqeliklarning asl mohiyatini anglab yeta olmaslik; ishonuvchanlik, tez his-hayajonga berilish, asabiylik, do`q-po`pisaga ko`nuvchanlik, betayinlik xislatlari o`rmashib qoladi.

Ushbu omillar ko`p jihatdan tergov uslubiyoti xususiyatlarini belgilab beradi. Voyaga yetmaganlar bilan munosabatlarda tergovchi protsessual me`yorlarga rioya qilishidan tashqari keng miqyosdagi ma`naviy va ruhiy bilimlarga tayanishi lozim. Voyaga yetmaganlar bilan ishlaydigan tergovchi kasbiga xos fazilatlar bilan birga insonparvarlik, o`smirni qayta tarbiyalash va kamol topishi imkoniyatiga ishonch kabi xususiyatlarni namoyon etishi shart. O`smirlar o`zlariga nisbatan adolatli munosabatni ayniqsa qadrlaydilar. Tergovchi voyaga yetmagan qonunbuzarni muntazam o`rganib, uning ruhiyatidagi o`ziga xos tomonlarini aniqlashi, ichki dunyosini tushunib yetishga intilishi kerak. Bunda o`smirlar guruhlariga xos qiziqishlar; sport, musiqa, texnika, kompyuter o`yinlari va boshqa narsalarni bilish ham katta yordam berishi mumkin. Tergovchi o`smir nazarida obro`-e`tibor qozonib, taqlid uchun namuna bo`lib qolishi o`ta muhim. O`smirga ayb shunday qo`yilishi kerakki, u yig`ilgan ma`lumotlar yetarli ekanligiga amin bo`lsin. Shu bilan birga o`smirga qo`yilayotgan ayb mohiyati hamda u qilgan harakatlarning ijtimoiy zararini, o`zi, qarindoshlari, yaqinlari va jabrlanuvchilarga qanday zarar yetkazganligini ochib berish zarur.

Ham taktik, ham tarbiyaviy nuqtai nazardan ruhiy muloqot ruhini o`rnatish tergovning muhim jihatlaridan biridir. Buning uchun o`smirga tergovchining so`zlari va harakatlarigina emas, balki uning tashqi ko`rinishi, e`tiborlilik, ish materiallarini bekamu-ko`st bilishi ham jiddiy ta`sir ko`rsatadi.

O`zaro so`zlashuv, bahs yuritish, gap ohangi ishga munosabatni anglatishini yoddan chiqarmaslik kerak, chunki o`smirlar bu xil xususiyatlarga nisbatan o`ta sezgir bo`ladilar. Voyaga yetmaganlar ishini tergov qilishda ularning tez toliqib qolishini ham e`tiborga olish shart. Jumladan, ular ishtirokidagi so`roq va tergov amallari bir soatdan ko`p davom etmasligi lozim (JPK 553-moddasi).

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo`yicha isbotlanishi talab etiladigan umum qabul qilingan holatlar bilan birga qo`shimcha ravishda quyidagi shart-sharoitlar aniqlanishi shart:

voyaga yetmagan ayblanuvchining yoshi (tug`ilgan kuni, oyi, yili);

turmush va tarbiyalanish sharoiti;

voyaga yetmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etishga olib

kelgan sabablar va shart-sharoit;

katta yoshli dalolatxilar va boshqa hamtovoqlarining bor-yo`qligi (JPK 548-moddasi).

Voyaga yetmaganing aqlan zaifligi ma`lum bo`lsa, u o`z harakatlari oqibatini to`liq anglay olgan-olmaganligi aniqlanishi kerak. Mazkur jihatlarni aniqlash maqsadida voyaga yetmaganing ota-onasi, o`qituvchilari va tarbiyaxilari so`roq qilinishi shart.

Voyaga yetmaganlarni kattalarga nisbatan jinoyatga yetaklovchi sabablar ko`proq, chunki ular o`rtoqlariga ko`maklashishga intilish, sho`xlik, ulfatlari o`rtasida e`tibor qozonib, dadilligi, kuchi va chaqqonligini namoyish etishga intiladilar.

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo`yicha uchastka inspektorlari bilan jips aloqa o`rnatish lozim. Bu o`smirning turmush, o`qish, mehnat sharoitiga oid, uning atrofidagi odamlar, uning xulqi va avvallari sodir etgan harakatlari xususida zarur ma`lumotlarga ega bo`lish imkonini beradi. Xuddi ana shu maqsadlarda ta`lim-tarbiya muassasalari, korxonalar, havaskorlik to`garaklari (sport-sog`lomlashtirish, madaniyat va boshq.) bilan ham aloqa bog`lash foydali.

2-§. Jinoyat ishini qo`zg`atish va dastlabki versiyalar

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo`yicha tergov ishining sifati va samaradorligi ko`p jihatdan o`z vaqtida jinoyat ishi qo`zg`atilishiga bog`liq. Mazkur masalani hal etishdagi oz bo`lsa ham kechikish, o`smirlar tomonidan yangi, ba`zida yanada og`irroq jinoyatlarni sodir etilishiga, shuningdek dalil-isbotlar yo`qotilishiga olib keladi. Bu bo`lg`usi tergov ishini ancha og`irlashtiradi.

Shu bilan birga o`z vaqtida jinoyat ishi qo`zg`atish katta yoshli dalolatxilarning jinoyat izini yashirish maqsadida o`smirga salbiy ta`sir o`tkazishlariga chek qo`yadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyati to`g`risidagi xabar kelib tushgan hamon tergovchi jinoyat ishi qo`zg`atishi va kechiktirib bo`lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishi, jumladan jinoyatning oldini olish va bartaraf qilish choralarini ko`rishi, gumon ostidagi shaxsni JPK 220-moddasiga binoan ushlab olishi, jinoyat joyini ko`zdan kechirishi va guvohlar, jabrlanuvchilarni aniqlashi lozim.

Jinoyat belgilarini aniqlash jarayonida tushuntirishlar olinadi, zarur materiallar to`planadi. O`smirning yoshini aniqlash uchun

uning pasport yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi bo'lmaganida bu narsa yoshiga tegishli hujjatlar - tibbiyot kartasi, ta'lim muassasalaridagi ish qog'ozlari, kadrlar bo'limidagi shaxsiy varaqasi orqali aniqlanadi. Ana shu maqsadda guvohlar (ota-ona, vasiylar, qarindosh-urug'lari va h.) ham so'roq qilinishi mumkin. Boshqa imkoniyat bo'lmagan taqdirda sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkaziladi.

Voyaga yetmagan shaxs o'qiydimi yoki ishlaydimi, qayerda, kim bo'lib, uning o'qishga va ishga munosabati, kundalik xulqi, o'rtoqlari bilan munosabatlarini ham aniqlab olish zarur. Voyaga yetmagan shaxs ishlamaydigan va o'qimaydigan bo'lsa, buning sababi va o'qishni qachon tashlab ketgani, qachon va kim tomonidan qanday choralar ko'rilganligi aniqlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarni yig'ish jarayonida tergovchi o'smirning asosiy fe'l-atvor belgilari, uning orzu-havaslari, odatlari, uning qiziqishlari, vaqtni qanday o'tkazishi, yoshiga va xususiyatlariga oid ma'lumot olish zaruratini doimo nazarda tutishi shart. Tergovning boshlanishidayoq, har bir ish bo'yicha quyidagi versiyalar ilgari surilishi shart:

- katta yoshdagi dalolatni, jinoyatga undovchi shaxs va boshqa ishtirokchilarning bor-yo'qligi;

- jinoyatga qo'l urgan o'smirlar yoxud kattalar guruhi mavjudligi;

- o'smir o'g'irlagan buyumlarni saqlash uchun qoldirgan, ularni sovg'a qilgan shaxslar va xabar bermaslik yoki avvaldan va'dalashilmagan yashirish faktlarining bor-yo'qligi;

- voyaga yetmaganlarni tilanchilik, ichkilikbozlik, qimorga o'rgatish, narkotiklar iste'mol qilish, daydilik kabi ishlarga jalb qilish hollari.

O'smirning tergov vaqtida aybini tan olmasligi yoki aksincha, sodir etilgan jinoyatni to'laligicha o'z zimmasiga olish istagi ham alohida e'tiborga molik.

O'smirlar guruhi tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda ushbu guruh qachon va qay tarzda uyushganligi, u qanday jinoiy niyatlarni amalga oshirish maqsadida tuzilgan ekanligini belgilab olish zarur. Guruh ishtirokchilaridan har birining rolini aniqlab olish vazifasi ham muhim. Bu ularning aybdorligi darajasini aniqlash, shu bilan birga alohida tergov harakatlarini rejalashtirish uchun zarur. Xususan, jinoiy tuzilmalar faoliyati tergov qilinganida

so'roq qilish guruhning oddiy ishtirokchilaridan boshlanadi. Tashkilotchi, rahbar, ularning yordamchilari keyinroq, ularning yetakchilik o'rniga oid yetarlicha ma'lumot yig'ilganidan so'ng so'roq qilinishi maqsadga muvofiq.

Guruh tarkibida muqaddam sudlangan o'smirlar bo'lsa, takroriy jinoyat sabablarini tadqiq etish shart hamda ilgarigi jinoyat ishlari, jazoni ijro qilish muassasalari, maxsus ta'lim muassasalaridan tavsifnomalar talab qilib olinadi.

Muayyan tergov harakatlarining rejaga kiritilishi va ular muddati hamda ketma-ketligini aniqlab olish jinoyat turi va jinoiy ish qo'zg'atilgan vaqtga kelib yig'ilgan yoki tergov vaziyatining ushbu vaqtiga kelib mavjud bo'lgan dastlabki ma'lumotlarga bog'liq. Tergov ishida katta tanaffuslarga yo'l qo'ymaslik, so'roqlar uchun kattalar yoki yoshi katta o'rtoqlari ta'sir ko'rsatishining oldini olishni unutmazlik kerak.

3-§. Alohida tergov harakatlari taktikasining o'ziga xos jihatlari

Voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar shunday xususiyatga egaki, bunda hodisa joyini ko'zdan kechirish - dastlabki tergov harakatidan biri hisoblanadi. Joyni sinchiklab ko'zdan kechirish jinoyat o'smirlar tomonidan sodir etilganidan dalolat beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va qayd etish imkonini beradi.

Hodisa aniqlangan quyidagi belgilar jinoyatni o'smirlar sodir etganidan dalolat beradi:

- avvaldan puxta o'ylangan va amalgam oshirilgan harakatlarning yo'qligi, binoga bir necha usullar va yo'llar bilan kirishga intilganliklaridan dalolat beruvchi izlar;

- jinoyat izlarini yo'qotish choralarining ko'rilmaganligi;

- jinoyat joyida beadab, bezorilarga xos qiliqlar qilinganligi, tovarlar shikastlangan, buyumlar besabab sindirilgan, behayo yozuv va suratlar chizilganligi;

- jinoyat uchun tanlangan joy ham uni o'smirlar sodir etganidan dalolat berishi mumkin; masalan, maktab oshxonasidan yoki internat oldidagi do'konchadan qilingan o'g'irlik.

- o'smirlar tomonidan o'g'irlanishi mumkin bo'lgan buyumlar ham o'ziga xos bo'ladi: a) musiqa asboblari, video va fototexnika, sport buyumlari, zamonaviy rusumdagi kiyim, shirinliklar, spirtli ichkiliklar. Shu bilan birga ancha qimmat, osori atiqqa, qadimgi buyumlarga tegilmagan bo'lishi mumkin.

Quyidagi faktlar jinoyat o`smirlar tomonidan sodir etilganligi yoki jinoyiy guruh tarkibida o`smirlar borligidan dalolat berishi mumkin: kichik hajmdagi oyoq, qo`l izlari; odatda o`smirlar kiyadigan poyabzal tagcharmining izlari; tashlab ketilgan, yo`qotilgan ko`pincha o`smirlar olib yuradigan buyumlar (qo`lbola sovuq qurol, zanjirlar, bezaklar, qoldirilgan iz va yozuv kabilar).

Jinoyat joyida qoldirilgan ba`zi ob`ektlar, sigareta qoldiqlari, shishalar va boshqa narsalar bo`yicha yoki o`g`irlangan buyum turiga qarab uning odatlari, chekishi, narkotiklar, toksik moddalar iste`mol qilishi to`g`risida xulosa qilish mumkin. Voyaga yetmagan shaxsning ko`nikmalari, mahorati va qiziqishlari xususida radiotexnika, elektronika, kompyuter bilan ishlagan izlariga qarab fikr yuritish mumkin.

Olib qochilgan, so`ng tashlab ketilgan transport vositasini ko`zdan kechirishda avtomobil qulflarini ochish usullari mazkur turdagi avtomashina elektr sxemasi bilan tanishmi, signalizatsiyani o`chira olish-olmasligi to`g`risida tasavvur hosil qilish mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsni qo`lga tushirish va uni hibsga olish alohida hollarda, xususan JPK 221-moddasida ko`rsatilgan asoslar mavjud bo`lgandagina qo`llanadi. Mazkur masalani to`g`ri hal qilish uchun sodir etilgan jinoyatning og`irligiga hamda o`smirning shaxsiy xususiyatlariga baho berish talab etiladi. Bunda uning sodir etilgan jinoyatdan keyingi harakatlari, jinoyatning takroran sodir etilish ehtimoli, tergovdan qochib qutilish imkoniyati hisobga olinadi.

Voyaga yetmaganlarni hibsga olish imkon boricha unga ortiqcha e`tibor jalb etmaydigan tarzda tayyorlanib o`tkazilishi: o`smir maktabda, ish joyida, o`rtoqlari davrasida va boshqa shu kabi joylarda qo`lga olinmasligi maqsadga muvofiq. Qarshilik ko`rsatish imkoniyatini, shuning o`zida o`qotar yoki sovuq qurol, maxsus vosita va boshqa narsalardan foydalanish imkoniyatini ham e`tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

O`smir hibsga olingani va ushlab turilgan joyi xususida uning ota-onasiga xabar berilishi shart.

Voyaga yetmaganlarning ishlari yuzasidan tintuv o`tkazish o`g`irlangan mol-mulk, jinoyat qurollari va vositalari, o`smir jinoyatni sodir etganda kiygan poyabzalni izlab topishga, tanish-bilishlarini, aniqlashga, o`smirning turmush va tarbiya sharoiti to`g`risida ma`lumot to`plashga imkon beradi.

Tintuv vaqtida, odatda, ayblanuvchining qonuniy vakili hozir

bo'lishi lozim. Buning iloji bo'lmaganda turar joy boshqarmasi yoki mahalla vakili taklif etiladi. Yotoqxonaga yoki ish joyida tintuv o'tkazilganida tarbiyachi yoki ma'muriyat vakili hozir bo'ladi. Tintuvni boshlashdan avval o'smirga va u bilan birga yashaydigan shaxslarga izlanayotgan buyumni o'z ixtiyori bilan topshirish taklif etiladi. O'smirlar tez-tez mayda o'g'riliklarga qo'l urishini e'tiborda tutib, ularda o'zlariga tegishli bo'lmagan buyumlar bor-yo'qligini surishtirib aniqlash maqsadga muvofiq.

Tintuvga tayyorgarlik ko'rishda o'smirning ota-onasi va oiladagi o'zaro munosabatlar haqida ma'lumotga ega bo'lish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, tintuvga tayyorgarlik paytida umumiy tusdagi harakatlar ham amalga oshiriladi: tintuv joyi bilan tanishuv, tezkor-tergov guruhi tarkibini belgilash, mutaxassislarni jalb qilish, xolislar bo'lishini ta'minlash va h.

Bosqinchilik va talonchilik jinoyatlarini sodir etishda o'smirlar o'zlarini ko'proq qiziqtirgan mayda-chuyda buyumlar: saqich, zanjir, pichoq, soat va boshqa buyumlarni tortib oladilar. Bu buyumlar o'smir xonasida yoki uning yonida bo'lishi mumkin.

Kelib chiqishi shubhali bo'lgan ob'ektlar aniqlanganida ular uyda qanday sababdan saqlanayotganligini shu zahoti surishtira boshlash maqsadga muvofiq.

Tintuv vaqtida o'smir spirtli ichimliklar, narkotiklar iste'mol qilishidan dalolat beradigan holatlar aniqlanishi, behayo ko'rinishdagi buyumlar, uyatsiz yozuv va asarlar topilishi mumkin.

Tabiiyki, tintuv vaqtida hozir bo'lgan oila a'zolari kuzatib boriladi. Tintuv vaqtida o'smirni kuzatib borish ayniqsa muhimdir. Yoshiga xos bo'lgan ta'sirchanlik, o'zini boshqara olmaslik tufayli u tajribali katta yoshdagi shaxsga nisbatan tergovchining so'zlari va harakatlariga asabiyroq munosabatda bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarni so'roq qilishda so'roq qilinayotgan shaxsning protsessual mavqei, shuningdek, uning shaxsini ta'riflaydigan ma'lumotlar e'tiborga olinadi. Bu ikki jihat ham so'roq ishtirokchilari doirasini, so'roqni qayerda, qachon o'tkazishni va unga oid, maqsadga muvofiq taktik uslublarni, so'roqqa chaqirtirish uslubini belgilab olish uchun ahamiyatlidir.

JPK 121-moddasiga muvofiq 16 yoshga to'lmagan guvohni so'roq qilish qonuniy vakili, katta yoshdagi yaqin qarindoshi yoki pedagog ishtirokida o'tkaziladi. Mazkur qoida voyaga yetmagan jabrlanuvchilarni so'roq qilishga ham taalluqlidir. Voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilishda tergovchi yoki prokuror ixtiyoriga

ko`ra pedagog ishtirok etishi mumkin (JPK 554-moddasi). Shu bilan birga voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoyachi ishtirokidagina so`roq qilinadi (JPK 553-ioddasi).

Voyaga yetmaganlar so`roqqa, odatda, ularning ota-onasi yoki qonuniy vakillari orqali chaqirtiriladilar. Tergovchi o`smirni o`z xizmat xonasiga chaqirishi mumkin. Shu bilan birga uni so`roq qilish uchun maktabga kelish va u ko`nikkan sharoitda so`roq qilish samaralidir. Keng ovoza bo`lish ehtimoli tufayli telefonogramma orqali chaqirish maqsadga muvofiq emas. O`smirning ruhiy holatiga salbiy ta`sir ko`rsatishi va ruhiy aloqa o`rnatishni murakkablashtirishi sababli kuch ishlatib olib kelish ham ma`qul emas.

Odobsiz, bezori voyaga yetmagan shaxslar rasmiy sharoitda so`roq qilingani maqsadga muvofiq. Bu o`smirning intizomni saqlashi va axloqiga mas`ul bo`lib turishiga ko`maklashadi.

So`roq taktikasidagi ko`pgina holatlar voyaga yetmagan shaxsning protsessual mavqeidan kelib chiqadi. Gumon ostidagi shaxs, ayblanuvchi, guvoh va jabrlanuvchini so`roq qilishning o`ziga xos tomonlariga e`tibor berish lozim. Voyaga yetmagan gumon ostidagi shaxsni so`roq qilishga tayyorlanishning o`ziga xos tomoni shundaki, tergovchi ushbu bosqichda ko`pincha hali uning jinoyat sodir etishdagi ishtirokiga oid yetarlicha dalil-isbotga, o`smir shaxsi haqida kerakli tasavvurga ega emas, so`roqqa tayyorlanish uchun ham vaqti cheklangan. Biroq, ana shunday sharoitda ham o`smir xususida hech bo`lmasa uning ota-onasi, o`qituvchilari, qo`shnilaridan surishtirish orqali dastlabki ma`lumot to`plashi zarur. Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha uchastka inspektorida kerakli ma`lumot bor-yo`qligini surishtirib ko`rish lozim.

Zudlik bilan o`tkazishning iloji bo`lmaganda, so`roq o`smir hibsga olinganidan so`ng 24 soat ichida o`tkazilishi shart. Bunday tarzda o`tkazilgan so`roq qonun talablarini bajarish bilan o`smirning muayyan ko`rsatuv berishini o`rgatish ehtimoli bo`lgan katta'lar bilan aloqada bo`lishidan saqlaydi.

So`roq vaqti va taktikasini tanlashda o`smirlarning ruhiy holatini e`tiborga olish zarur. Odatda ular hayajonlangan va yangicha sharoitdan ruhan ezilgan holatda bo`ladilar. Buning ustiga jazo oldidagi fosh bo`lish, ota-onasidan qo`rqish hissi qo`shiladi. Ana shu vaqtda o`smirga uning ahvoli jiddiyeligini tushuntirish so`roq uning uchun muhimligiga ishontira bilish kerak. Tergovga

yordam berish uning manfaati uchun ekanligini anglata olish o'ta muhimdir. Bu maqsadda uning asabiy holatini biroz bo'lsada yengillatish, tinchlantirish, ruhiy aloqa o'rnatish choralari kerak.

Ob'ektiv va to'liq ma'lumot olishga erishishda birinchi so'roqning o'rni beqiyosdir. Gapni o'smirning turmush, o'qish va tarbiya sharoiti haqidagi suhbatdan, uning qiziqishlaridan boshlagan ma'qul. O'smir bu savollar sodir etilgan jinoyatga aloqasi yo'q deb o'ylab, o'zi va do'stlari haqida ishtiyoq bilan hikoya qilib berishi mumkin. Tarjimai holi to'g'risidagi batafsil suhbatdan so'ng u qaysi jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotganligi xususida unga batafsil va sodda qilib tushuntirib beriladi.

Savollarni to'g'ri tuzish muhim o'rin tutadi. Ular aniq, lo'nda bo'lib, o'z ichiga o'smiringa biror nimani shama qilishi mumkin emas. O'smiringa oid ishonuvchanlik xususiyatini ham unutmash kerak. Gumon ostidagi voyaga yetmagan shaxs ishonuvchanligi va mantiqiy fikrlash qobiliyati hali rivoj topmaganligi tufayli tergovchi savollaridan olgan ma'lumotlarga tayanib o'zini nohaq ayblashi, aybdor deb tan olishi mumkin.

Gumon ostidagi shaxs jinoyat sodir etganligini tan olib, bu haqida so'zlab berishga tayyor bo'lsa, uning ko'rsatuvlarini muntazam tahlil qila borib, har bir jihati yuzasidan so'roq qilish zarur. Shu bilan birga u keltirayotgan faktlarni ikir-chikirigacha so'zma-so'z bayonnomaga kiritish lozim. Shu tarzda olingan ma'lumotlar kelajakda ularning naqadar to'g'ri ekanligini, o'smir haqiqatda ham jinoyat sodir etganmi yo ma'lumotlarni boshqa manbalardan olganligini aniqlash imkonini beradi.

Tergovchining sodir etilgan jinoyat jihatlaridan xabardorligini namoyish etishi ham ish holatlarini aniqlashga yordam berishi mumkin. Biroq bu faktlar aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi shart. Gumon ostidagi shaxsga u qadar jiddiy bo'lmagan, biroq ishonarli dalilni dabdurustdan namoyish etish uni haqiqatni so'zlashga majbur etishi mumkin. Shu bilan birga, u yoki bu dalillarni namoyish qilishda o'smir yoshi va rivojiga bog'liq ravishda ularni hamma vaqt ham mos ravishda baholay olmaydi. Shu sababli namoyish etilayotgan ma'lumotlarning asl mohiyatini unga tushuntirib berish ma'qul.

Aniqlik kirituvchi savollar, gumon ostidagining joy, vaqt, guvohlarga oid, birgalikdagi harakatlar xususidagi javoblari va

so`roq bayonomasida qayd etilgan shu kabi ma`lumotlar keyinchalik uning vajlari asossiz ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Gumon ostidagi shaxsni so`roq qilishda qaysi pedagog ishtirok etishi ma`qulligini o`smirning shaxsiy xususiyatlari va boshqa ko`pgina omillarni hisobga olgan holda hal etish lozim. Ba`zi hollarda o`smir tanigan va hurmat qilgan pedagogning ishtiroki gumon ostidagi o`smirning asabini tinchlantirishga ko`maklashadi. Boshqa hollarda, misol uchun jinsiy jinoyatlarni tergov qilishda yaxshisi, boshqa maktabdan pedagogni taklif qilgan ma`qul. Bu bosqichda ota-ona ishtiroki ham nojoiz. Amaliyotdan ma`lumki, ota-onasi ishtirokida so`roq qilinayotgan voyaga yetmagan gumon ostidagi shaxs ko`pincha uyaladi, dovdirab, javob berishdan o`zini olib qochadi. Buning ustiga hamma ota-onalar ham ana shunday so`roq jarayonida o`zini to`g`ri tuta bilmaydilar.

Voyaga yetmagan ayblanuvchini so`roq qilish uchun tergovchi uning shaxsiga oid barcha zarur ma`lumotlarga ega bo`lishi shart. So`roqqa tayyorlanishda tergovchi o`smirning ma`naviy-ruhiy tavsifiga suyanadi. So`roqdan oldin tergovchi pedagog va himoyachini o`smirning ruhiy tavsifi bilan tanishtirishi tavsiya etiladi.

Tergovchi so`roqda qatnashayotgan shaxslar e`tiborini ular berayotgan savollarning qanday qo`yilishiga, o`smir qayta tarbiyalanishi samarasini kamaytiradigan tortishuv va gap tashlashlarga yo`l qo`yilmasligiga qaratadi. Tergovchi voyaga yetmagan shaxsga uning ayblanuvchi sifatida jalb etilishi to`g`risidagi qarorni o`qib eshittirgach, dastavval ayblanuvchi o`zini aybdor deb tan olishi yo olmasligini aniqlaydi.

O`smir aybini tan olganda ham, so`roq sinchiklab, shoshilmay, batafsil o`tkazilishi lozim. Jinoyat shart-sharoitini⁴ va har bir ishtirokchi rolini mufassal aniqlash bu kabi so`roqning taktik uslublaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga tayyorgarlik bosqichida o`smir jinoiy faoliyat, ichkilikbozlik, fohishabozlik, qimor o`yinlari kabilarga jalb qilingan qilinmaganligiga e`tibor qaratish zarur.

Jinoyat sabablari va maqsadlarini kelib chiqqan oqibat bilan qiyoslash orqali ayblanuvchi shunday oqibatlariga intilgan-intilmaganligini, ularning kelib chiqish ehtimoliga yo`l qo`ygan-qo`ymaganligini aniqlash zarur.

Agar o'smir, o'z aybini tan olib, chalkash tafsilotlar bersa, bunday holda bu uning qattiq hayajonlanish hisobiga ro'y berdimi yoki u boshqa manbalar orqali olgan noto'g'ri ma'lumotlarga suyandimi, aniqlash lozim. Buning uchun xotirani faollashtirish uslublarini qo'llash yoxud uning yolg'on so'zlaganligini fosh etish lozim.

So'roq jarayonida o'smir va uning sheriklari jinoyat ishidan so'ng o'zlarini qanday tutganlari, nima harakatlar sodir etganlari, kattalardan qaysi biri bilan, nima maqsadda muloqotda bo'lganlarini aniq belgilab olish muhim.

Butkul so'roq davomida katta yoshli dalolatni yoki boshqa ishtirokchilar rolga aniqlik kiritish vazifasini yoddan chiqarmaslik lozim. Buning uchun o'smir erkin hikoya qilayotganida turli shartlarga e'tibor qaratish, avvaldan tayyorlangan, shu bilan birga so'roq jarayonida paydo bo'lgan, katta yoshdagilar va ularning o'zaro munosabatlari va o'smir bilan birgalikda harakatlari xususida savollar beriladi.

Voyaga yetmagan shaxs o'zini aybdor deb tan olmasa, so'roq qilishda qo'llanadigan taktik uslublardan tashqari boshqalaridan ham foydalanish mumkin. Birinchi navbatda o'smirda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfli tomonini, odamlarning bunga munosabati, u oilasiga, yaqinlariga etkazgan zararni sodda, tushunarli tarzda bayon etib berish shart. Shu bilan birga aybini tan olmaslik nimalarga olib kelishi mumkinligi va yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri baholab, chin dildan tavba qilish va tergov bilan faol hamkorlik qilish uning uchun naqadar muhimligini ochib berish kerak; bu uning uchun aybini yengillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Dalillar keltirish taktikasi o'zining jinoyatdagi ishtirokini tan olmayotgan voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilishda ayniqsa qo'l keladi. Dalillarni tobora jiddiy turlarini namoyish etish, mantiqiy tartibga rioya qilgan holda va orada katta tanaffuslarga yo'l qo'ymay keltirish ijobiy natijalar beradi. Shu bilan birga har bir dalilning mohiyati izohlab borilishi zarur. Bunda faqat bevosita o'smirning o'zini fosh qiladiganlarini misol keltirish maqsadga muvofiq. Ishonuvchanligi sababli yoki aybni o'z bo'yniga olib, kattalardan yoki boshqa ishtirokchilardan aybni soqit qilish maqsadida u sodir etmagan ayblarni ham zimmasiga olishi mumkin.

Aybini tan olmayotgan voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq

qilishda yolg'oni fosh qilish uslubidan foydalanish ham tabiiy hol. Shu maqsadda tergovchi, avval to'la-to'kis aniqlangan ikkinchi darajali jihatlar to'g'risida so'zlaydi. Xabardorlikni namoyish etish o'smirga ta'sir qilib, uni to'g'ri so'zlashga majbur qilishi mumkin. Shu qatorda qo'qqisdan kutilmagan savol bilan murojaat qilish ham, ayniqsa o'smir tergovchiga haqiqatni so'zlayotgani va sodir etgan jinoyatidan afsus ekanini uqtirayotgan bo'lsa, ruhiy samara beradi. Berilayotgan ko'rsatuvlar yolg'onligini mahorat bilan isbotlash o'smirning bundan keyin ham yolg'on ko'rsatuv berish mumkinligiga bo'lgan ishonchini puchga chiqaradi.

So'roq jarayonida voyaga yetmagan shaxs ko'rsatmalarini shu zahoti bayonnomaga kiritish tavsiya etilmaydi. Bu uni chalg'itadi, sergaklantiradi, tergovchining fikrini bir yerda jamlashiga xalal beradi va ular orasida yuzaga kelgan ruhiy aloqa uziladi. So'roqqa halal bermaydigan tarzda qisqacha yozib borish va u tugaganidan so'ng bayonnoma to'ldirish maqsadga muvofiq. Imkoniyat darajasida bayonnomada ayblanuvchi ishlatgan iboralarni aynan saqlab qolish zarur. Uning ko'rsatmalarini o'smirlarga xos bo'lmagan til bilan bayon etish mumkin emas.

Voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilishda fonoyozuv qo'llanishi ham mumkin, chunonchi:

- so'roq olib borilgan sharoitni qayd etish uchun;
- o'smir o'z ko'rsatuvlarini o'zgartirganda yoki o'zgartirishi mumkin bo'lganda, avvalgilaridan bosh tortganda;
- tergovchi, katta yoshdagi boshqa ishtirokchi bilan yuzlashtirish o'tkazishdan xavfsirab, uning so'roq jarayonini ushbu shaxsga eshittirmoqchi bo'lganda.

Voyaga yetmagan guvoh va jabrlanuvchiga so'roq qilish chog'ida ta'sir ko'rsatish, shuningdek o'smirga bevosita qanday ko'rsatuv berishni o'rgatish ehtimolini hisobga olgan holda ular imkon boricha tezroq so'roq qilinishi va so'roq batafsil bo'lishi shart.

16 yoshga to'lmagan shaxsga so'roq boshlanishidan avval haqiqatni odilona so'zlab berish zarurligi tushuntiriladi, biroq ular yolg'on ko'rsatuv va ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik yoki bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmaydilar.

Voyaga yetmagan guvohlar ularning yoshi, shaxsiy xususiyatlari va tergov qilinayotgan jinoyatga munosabatidan kelib

chiqib toifalarga bo`linadi:

1) jinoyat yoki u bilan bog`liq boshqa hodisani kuzatgan shohidlar;

2) jinoyat ishi tugatilgan yoki jinoiy jazodan majburiy tarbiya choralarini tayinlash tufayli ozod etilgan ishtirokchi-o`smirlar;

3) voyaga yetmagan ayblanuvchining yaqin qarindosh va tanishlari.

Guvohning mazkur toifalardan qay biriga oidligidan qat`i nazar, uni so`roq qilishga tayyorgarlik ko`rishda imkoniyat boricha uning ba`zi shaxsiy xususiyatlarini: tengdoshlariga munosabati (do`stlik, aldanchilik, ko`ngilchanlik, joxillik va h.), shaxsga oid xossalari (yolg`onchilik, o`jarlik, yashirinlik), qiziqishlari, havaslari va hodisa ishtirokchilari bilan o`zaro munosabatlarini o`rganish foydadan xoli bo`lmaydi.

Jinoyatni kuzatgan yoki u bilan bog`liq biror hodisaga guvoh, shohid bo`lgan shaxslar odatda to`g`ri so`zlaydilar. Ammo unutuluvchanliklari yoki biror kimsa ta`sirida ko`rsatuvlarini o`zgartirmasliklari uchun ular imkon boricha ertaroq so`roq qilingani ma`qul. Ularning ko`rsatuvlariga baho berishda hodisani qabul qilishning ham ob`ektiv (uzoqdan turib, yoritilgan joyni, ancha vaqt davomida kuzatish), ham sub`ektiv (sezgi organlarining holati, his-hayajon) omillarini hisobga olish shart. O`smir ko`rganishitganlarini bayon etganida ham o`ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bularning bari uning ruhiy xususiyatlari, so`z boyligi yetarli emasligi, boshqa sabablar bilan bog`liq bo`lishi mumkin. Mazkur qiyinchiliklar xotiraning o`zaro bog`liq holatlar yordamida faollashtirish, xotirani dalillar namoyish etish yo`li bilan jonlantirish, so`roqni hodisa sodir etilgan joyda o`tkazish yoki ko`rsatuvlarni tekshirish uslublari yordamida bartaraf etiladi.

Guvohlarning mazkur toifasi odatda tergovchiga ishonadi va ba`zida, hatto ongsiz ravishda bo`lsa ham, haqiqatni aniqlashda ko`mak berishga tayyor bo`ladi. Shu bilan birga bunday ishonch va tayyorlik hissi ortida barcha so`ralgan narsani tasdiqlayverish ehtimoldan xoli emas. Shu sababli, voyaga yetmagan guvohga beriladigan savollar juda puxta o`ylangan, lo`nda har qanday shama va uqtirishdan forig` bo`lishi shart.

Ijtimoiy xavfli harakatlarda ishtirok etib, jinoyat ishi tugatilgan voyaga yetmagan guvohni so`roq qilishda ham o`xshash qilmishni sodir etgan voyaga yetmagan ayblanuvchidagi kabi so`roq

taktikasini qo'llash mumkin. Bunday guvohlar, odatda, sodir etilgan jinoyatda o'zlarining ishtiroklarini inkor etmaydilar, o'zga shaxslar, ayniqsa kattalar va o'zidan katta o'smirlar to'g'risida istar-istamas ko'rsatuv beradilar. Bunday holatni tavba qilish va tergovga faol yordam berish zarurligi, bu esa guvohning bo'lg'usi taqdiri uchun, shuningdek uning do'stlarini qayta tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga egaligini tushuntirish bilan bartaraf etish mumkin. So'roq jarayonida tergovchining bo'lib o'tgan hodisadan xabardorligidan dalolat beradigan dalil-isbotlar namoyish etishi maqsadga muvofiq. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha so'roq qilingan boshqa voyaga yetmaganlar tomonidan tilga olingan, biroq batafsil bayon etilmagan faktlarning ikir-chikirlariga aniqlik kirituvchi savollar berish ham tavsiya etiladi.

Jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan guvohlarni so'roq qilishga tayyorlash va o'tkazishda ularni ikki guruhga ajratgan ma'qul. Birinchisi - ilk marotaba, odatda, biron kimsa ta'sirida jinoyatga qo'lg'urgan o'smirlar. Ular ko'p hollarda to'g'ri ko'rsatuv beradilar va tergovchining vazifasi ana shu «tarbiyasi og'ir» o'smirning ishonchini qozonish, aniqlanishi kerak bo'lgan jihatlar, shart-sharoitlar doirasini to'g'ri belgilab olish, savollarni talab darajasida tuzish, ko'rsatuv tafsilotlarini belgilashdan iborat bo'lib qoladi.

Ikkinchi guruhga bir necha marotaba huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan o'smirlar kiradilar. Ular deyarli samimiy bo'lmaydilar, sodir etgan qilmishlaridan kamroq afsuslanadilar, cho'rtkesar, ashaddiy va tarbiyasiz ekanliklari bilan faxrlanadilar. Ularni fosh qilishda obro'ga ega bo'lgan pedagog, shu jumladan sport maktabining treneri katta yordam berishi mumkin.

Voyaga yetmagan ayblanuvchining yaqin tanishlarini so'roq qilishda ular o'rtasidagi do'stona munosabatlarni e'tiborda tutish lozim. Ko'pincha ular yashash, o'qish, ishlash joyiga ko'ra shakllangan, birga dam oladigan turg'un guruhlarga uyushadilar.

Bu xil guvohlar toifasida oila, maktab, mehnat jamoasi bilan normal aloqasini uzgan shaxslar bir talay. Ular ijtimoiy nazoratdan chiqib ketgan bo'lib, o'z qarashlariga ko'ra ayblanuvchining maslakdoshlari hisoblanadilar. Ularni so'roq qilishda o'zlari yoki boshqa o'smirlar tomonidan sodir etilgan, tergov tomonidan hali aniqlanmagan huquqbuzarliklar xususida ko'pgina qimmatli ma'lumot olish mumkin.

Guvohning kamsozligi uning ayblanuvchi yoki guruhning

boshqa a`zolari tomonidan qo`rqitilishi oqibati bo`lishi ham mumkin. Guvoh hali tergovga ma`lum bo`lmagan ayblari uchun jazo olishdan qo`rqib indamayotgan bo`lishi ham ehtimol. Mazkur holatni so`roq vaqtida e`tiborda tutish, unga bog`liq versiyalarning asosli ekanini tekshirib ko`rmoq lozim.

Yuqorida qayd etilgan guruhlarda kichik yoshdagi guvohlar bo`lsa, bunda quyidagilar e`tiborga olinishi shart. Ba`zi yosh bolalar o`ta kuzatuvchan bo`ladilar. Ular ko`pincha kattalar sezmag holatlarni ko`rib, eslab qoladilar. Ushbu fazilatdan so`roq qilinayotgan shaxsning e`tiborini tafsilotlarga qaratish va ularni keyinchalik tekshirish maqsadida bayonnomada ikir-chikirigacha qayd etish orqali foydalansa bo`ladi.

Voyaga yetmagan jabrlanuvchilar, odatda, rostgo`y bo`lsalar-da, ma`naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko`rganliklari tufayli ish natijasidan manfaatdor shaxs ekanligini unutmazlik lozim. Shuning bilan birga ko`rsatuvlar haqqoniyligiga ular jinoiy tajovuz vaqtida hayajon, qo`rquv holatida bo`lib, sodir bo`layotgan hodisalarni to`liq anglay olmaganliklari ham ta`sir qilishi mumkin.

Jinsiy jinoyat sodir etilganida, jabrlanuvchi ba`zi tafsilotlarni aytmasligi, hattoki ularni rad etishi ham mumkin. Jabrlanuvchiga ayblanuvchining qarindoshlari, yaqinlari, do`stlari ta`sir ko`rsatayotganligini ham hisobga olmaslik mumkin emas. Bularning bari unga savollarning qay tarzda berilishini belgilaydi va keyinchalik ko`rsatuvlarini tekshirish yo`llarini tanlash imkonini beradi.

Voyaga yetmaganlar tarbiyasi uchun mas`ul shaxslarni so`roq qilish orqali o`smirning turmush va tarbiya sharoitlari, shaxsiga oid xususiyatlari aniqlanadi. So`roq jarayonida jinoyat sodir etilishiga olib kelgan, jinoiy axloq sabablarini keltirib chiqargan, o`smir ongiga uning jazo olmasligi to`g`risidagi tushunchani kiritgan sabab va shart-sharoitga oydinlik kiritiladi.

Tergovchi voyaga yetmagan, gumon ostidagi shaxs tutib keltirilgan va hibsga olingan bo`lsa, uning ota-onasi bilan uchrashadi. Ota-onasiga barcha masalalar yuzasidan to`liq axborot berishning iloji bo`lmaganda, imkon boricha ularga o`smir qaysi harakatlarni sodir etganlik uchun hibsga olingani, o`tkazilayotgan tergovning xolisligi, ularning rostgo`y ko`rsatuvlari sodir etilgan jinoyatning sabablarini aniqlab olish va bo`lg`usi tarbiya choralarini belgilab olishda naqadar muhimligini tushuntirishlari shart.

Ota-onasining har ikkovini soʻroq qilish talab etiladi, chunki ular bola tarbiyasi muammosiga har xil yondashishi, uning hayoti toʻgʻrisida turlicha maʼlumotga ega boʻlishi mumkin.

Voyaga yetmaganing tarbiyasi uchun masʼul shaxslarni soʻroq qilganda navbatma-navbat oilasining tarkibi, oʻsmirning oʻqish va dam olish sharoitlari, uning oʻrtoqlar davrasi, boʻsh vaqtini qay tarzda va kim bilan oʻtkazishi; ota-onasi oʻsmirning boʻsh vaqtini qanday nazorat qilgani; spirtli ichimliklar isteʼmol qiladimi va qachondan beri, uni ichishga kim oʻrgatgan; boshqa ehtiyoj va qiziqishlari, avval yoʻl qoʻygan ayblari va maktab, boshqa bilim yurti, uyida koʻrilgan choralar; uydan qochib ketmaganmi, kechasi ketib qolish odati yoʻqmi, bunga ota-onasining munosabati; oʻsmirning maktab, ishxonadagi jamoasi bilan munosabatlari; ota-onasining bir-biriga va oʻsmirga boʻlgan munosabati; ular sodir etilgan jinoyatga oid qanday maʼlumotga egaligi; oʻsmir bilan shu toʻgʻrida oʻtkazgan suhbatlari mazmuni; jinoyat sodir etilgan kuni u vaqtini qanday oʻtkazgan, oʻzini shundan keyin qanday tutganligi aniqlanadi.

Maktab, hunar-texnika bilim yurti pedagoglari, tarbiyachilarini soʻroq qilish oʻsmirning ruhiy-jismoniy rivojiga oid xususiyatlar, uning feʼl-atvori, ehtiyojlari, qiziqishlari, aloqalari, yosh xususiyatlarining namoyon boʻlishi xususida maʼlumot olish imkonini beradi. Bu shaxslar oiladagi maʼnaviy iqlim, ota-onasining oʻzaro munosabatlari, oʻsmirning turmush va tarbiya sharoiti, odatlari, moyilliklarining paydo boʻlish sabablaridan xabardor boʻlishlari mumkin. Oʻqituvchi va tarbiyachilar odatda, ota-onalarga nisbatan xolisroq boʻladi.

Voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarni tergov qilishda yuzlashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondashish va uni favqulodda hollardagina oʻtkazish kerak. Oʻsmirlar yuzlashtirishga istar-istamas rozilik beradilar, chunki sotqin deb nom olish va jazolanishdan qoʻrqadilar. Yuzlashtirish odatda tergovchi va oʻsmir oʻrtasidagi boʻlgan ruhiy aloqani chigallashtiradi. Asosiy xavf esa u boshqa ishtirokchi taʼsirida, ayniqsa u jinoyatning katta yoshli qatnashchisi boʻlsa, oʻz koʻrsatuvlarini oʻzgartirishi mumkinligidadir. Oʻsmir baʼzan murakkab vaziyatni anglab olishda qiynaladi va yoshi katta shaxs bilan yuzlashtirilgandan soʻng oʻz aybini tan olmagan katta yoshli shaxs doʻq-poʻpisa qilmagan holda ham oʻz koʻrsatuvlarini oʻzgartirishga moyil boʻladi. Voyaga yetmaganlarni oʻzaro

yuzlashtirish ham o'ta murakkab. O'smirning fosh qiluvchi ko'rsatuvlarini boshqa ishtirokchi odatda, ular o'rtasidagi yomon munosabatlarga yo'yadi.

Voyaga yetmagan ayblanuvchi ko'rsatuvlaridagi qarama-qarshiliklarga yuzlashtirishdan boshqa yo'l bilan barham berish imkoniyati mavjud bo'lsa, tergovchi ushbu imkoniyatdan foydalanishi shart.

Voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilish jarayoni, yuqorida aytilganidek, fonogrammaga tushirilishi va so'ng u ko'rsatuvlari muvofiq kelmagan shaxsga namoyish etilishi mumkin.

Sodir etilgan jinoyat turiga qarab sud-ballistik, trasologik va o'zgacha ekspertizalar tayinlanishi mumkin. Biroq ishlarning mazkur toifasiga ko'proq sud-tibbiyot, sud-psixiatrik, sud-ruhiy va psixiatrik-ruhiy ekspertizalar xosdir.

Sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkazish o'smirning yoshini tasdiqlaydigan hujjatlar bo'lmaganida, yosh qasddan yashirilganida va mavjud hujjatlar shubha tug'dirgan hollarda majburiydir. Sud-tibbiyot ekspertizasi organizmning yoshga xos bo'lgan o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar: umumiy anatom-fiziologik rivojlanish, skelet suyaklarining qotishi, tish apparatining rivoji kabilarga tayanadi. Yosh muayyan darajada taxminiy aniqlanadi.

Sud-psixiatrik ekspertizasi voyaga yetmagan shaxsning psixik holatini o'rganish maqsadida tayinlanadi. O'smir psixikasidagi kamchiliklar surunkali kasallik, ruhiy faoliyatning vaqtinchalik izdan chiqishi, aqli zaiflik yoki boshqa kasallik oqibati bo'lishi mumkin. Shu kabi nuqsonlardan o'smirlarda shaxsning hayajoniroda xususiyatlarida namoyon bo'ladiganlaridan: birdan asabiylashuv, jizzakilik, urushqoqlik, ishonuvchanlik, o'jarlik kabilar tez-tez uchraydi. Qiziqishlari ham psixopatik o'zgarishlarga moyil bo'lib: daydilik (dromomaniya), yondirish (piromaniya), o'g'rilik qilish (kleptomaniya) kabilarga intilish paydo bo'ladi.

Voyaga yetmagan qonunbuzarlar orasida oligofreniya ko'rinishlaridan biri – aqli zaiflikka (debilizm) duchor bo'lgan shaxslar ham tez-tez uchrab turadi. Bunday o'smirlar aqlan zaifligi va his-hayajon, iroda funksiyasi izdan chiqqanligi bilan tavsiflanadilar. Aqlan zaiflikni aniqlash maqsadida sud-ruhiy ekspertizasi tayinlanadi. Aqlan zaiflik ruhiy kasallik oqibatida kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini hisobga olib, avval ruhiy-psixiatrik ekspertiza tayinlagan ma'qul.

Sud-ruhiy va ruhiy-psixiatrik ekspertizalari oldiga hal qilish uchun odatda quyidagi masalalar qo'yiladi: voyaga yetmagan shaxsning aqliy rivojlanish darajasi, o'smirning aqliy rivojida shu yosh uchun xos bo'lgan me'yoriy darajadan og'ish mavjudmi, voyaga yetmagan shaxs uning jismoniy va ruhiy holatini hisobga olgan holda shart-sharoitlarni to'g'ri qabul qilishi va ular to'g'risida tegishli ko'rsatma berishi mumkinmi, voyaga yetmagan shaxs o'z harakatlari va o'ziga nisbatan sodir etilgan harakatlar mohiyatini to'liq anglab yetishi mumkinmi, o'smir o'z harakatlarini boshqarishi mumkinmi va mumkin bo'lsa, qay darajada kabilar.

Har qanday ekspertizani tayinlashda voyaga yetmagan shaxs ekspertiza o'tkazish va unga materiallar taqdim etish bilan bog'liq huquqlarini amalga oshirishi uchun himoyachi yordamidan foydalanishini ta'minlash zarur.

4-§. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlariga oid ishlar bo'yicha tergovchining profilaktik faoliyati

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha tergovchi profilaktik ishining asosiy maqsadi - muayyan jinoyatning sodir etilishi yoki takrorlanishiga olib keladigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishdan iborat.

O'smirlarda jinoyiy axloqni shakllantirib, yuzaga chiqishiga sabab bo'ladigan eng tipik shart-sharoitlar: voyaga yetmagan shaxsni tarbiyalashga mas'uliyatsiz yondashuv, maktabda, ishxonada zarur tarbiyaviy ishlarning olib borilmasligi; o'smir atrofidagi muhitning salbiy ta'siri; kattalar yoki yoshi kattaroq o'smirlarning jinoyat sodir etishga bevosita gij-gijlashi; voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlarini olib borayotgan organlar faoliyatidagi nuqsonlar chuqur tahlil qilishini taqozo qiladi.

Tergovchi jinoyatning oldini olish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish uchun nobop tarbiya bergan va o'smirmga salbiy ta'sir ko'rsatgan shaxslarni aniqlab, uni jinoyatni sodir etishdan saqlab qolishga halal bergan shart-sharoitni aniq belgilab olishi shart. Mazkur ish voyaga yetmagan shaxsni tarbiyalash va uni salbiy ta'sirlardan saqlash bo'yicha kimga va qanday majburiyatlar yuklanganligini belgilaydigan me'yorlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

O'smirni ishga joylashtirish, umumta'lim muassasasiga qaytarish yoki maxsus o'quv yurtiga yo'llash ham jinoyatning oldini

olish choralaridan biridir.

Voyaga yetmagan farzandiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan shaxslarni ota-onalik huquqidan mahrum etish, ularni ko'chirib yuborish choralarini ko'rish, vasiy tayinlash ham jinoyatning oldini olishda muhim o'rin tutishi mumkin.

Jinoyat o'smiringa atrof muhitning salbiy ta'sir qilishi natijasida yuz bergan bo'lsa, choralar ushbu ta'sirni bartaraf qilish yoki o'zgartirishga qaratiladi.

Shu maqsadda tergovchi rasmiy tashkilotga taqdimnoma yo'llaydi, yashovchilar, mehnat jamoalari oldida fikr bildirishi mumkin. Odatda, tergov ishidan so'ng bo'lgan ana shunday chiqishlarda u jinoyat sodir etilishiga olib keladigan shart-sharoitlarni qayd etib o'tishi, o'smirlarni tarbiyalashga oid qaysi huquqiy me'yorlar buzilganligini namoyish etishi, ushbu qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan shaxslarning mas'ulligini asoslab, shu kabi qonunbuzarliklarga kelajakda yo'l qo'ymaslik yo'llarini ko'rsatib berishi lozim.

Voyaga yetmaganlarni huquqiy jihatdan tarbiyalash va jinoyatlarining oldini olish maqsadida ommaviy axborot vositalaridan ham foydalanish zarur.

40-bob. GIYOHVAND VOSITALARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING TERGOVI

1-§. Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi

Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar JKning XIX bobidagi 270-271, 273-278-moddalarda nazarda tutilgan.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prokursorlar bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi ularni JK moddalarida berilgan tushunchalariga asoslanadi va umuman quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi.

1. Ko'knor yoki tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan taqiqlangan o'simliklarni ekish, parvarishlab etishtirish (JK 270-m.) hollarida ekin maydoni va bu ish bilan shug'ullangan shaxsning kimligi, u o'zi iste'mol qilishi yoxud boshqalarga o'tkazish niyatida ekanligi aniqlanmog'i lozim. Ekin maydoni 250 kvadrat metrdan ko'p bo'lsa, o'rtacha, 1000 kvadratmetrdan oshsa katta maydon hisoblanib, jazo chorasi tegishlicha kuchaytiriladi. Amaliyotda bunday xatti-harakat katta miqdorda daromad olish uchun sodir etilsa-da, go'yo ekinlarni keksaygan shaxs o'zi uchun parvarish etgani haqida yolg'on tushintirish berish ko'p uchraydi. Ekinlar agronom-seleksionyer, ximiklar yordamida ekspertiza qilinishi lozim bo'ladi.

2. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 271-m.). Ularni qo'lga kiritish usuli qonunga xilof ekanligi, chunonchi o'g'irlik, firibgarlik, talonchilik, bosqinchilik tarzida bo'lganligi, shaxs ilgari ham bunday qilmish bilan shug'ullangan, ta'magarchilik, o'z mansab mavqeini suiiste'mol etgan, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan, ko'p miqdorda, uyushgan guruh tarkibida tajovuz qilgan, hatto-o'ta xavfli retsidivist ekani albatta sinchkovlik bilan aniqlanmog'i lozim. Shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari qaysi joydan qonunsiz egallangan va ularni kimlar orqali sotish, tarqatish mo'ljallanganiga alohida e'tibor berilishi zarur. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni kontrabanda qilish uchun alohida javobgarlik belgilangan (JK 246-m.).

3. Giyohvandlik moddalari yoki psixotrop moddalarni boshqalarga o'tkazish va shu maqsadda tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo'natish kabi xatti-harakatlar (JK 273-m.) mazkur

jinoyatlarning eng jiddiy turi hisoblanadi. Jinoyatning predmeti boʻlgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning miqdori koʻp boʻlmasa, ozginadan koʻproq yoxud koʻp boʻlsa, jazo meʼyori ham keskin oʻzgaradi. Shu bois jinoyat predmetining nimadan iborat ekani va qancha ekanligi albatta ekspertiza yoʻli bilan isbotlanmogʻi shart. Tergov jarayonida ayblanuvchining shaxsi, ayniqsa ilgari ham shunday jinoyatlar uchun mahkum etilgani, uning uyushgan guruh aʼzosi ekanligi aniqlanishi zarur. Jinoyatni oʻquv yurtlarida yoki oʻquvchilar, talabalar oʻquv, sport yoki turli jamoat tadbirlarini oʻtkazayotgan joylarda, shuningdek ozodlikdan mahrum etish jazosi oʻtaladigan joyda sodir etilishi ayniqsa xavfli hisoblanadi. Bu xil jinoyatlarda giyohvandlik vositalarining manbalari va ularni olgan, sotgan, isteʼmol qilganlar doirasini toʻla aniqlash juda zarur. Agar bunday shaxslarda sotish, daromad olish maqsadi aniqlanmasa, ular faqat giyohvandlik vositalarini oʻzi isteʼmol qilgani yoki boshqa maqsadlarda tayyorlagani, saqlagani uchun javobgarlikka tortiladi (JK 276-m.). Boshqalarni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni bepul isteʼmol qilishga aldab chorlash, oʻrgatish, dalolat qilish, majburlash ham jinoiy javobgarlikka sabab boʻladi (JK 274-m.). Voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar isteʼmol etishga jalb qilish uchun jiddiy jazolar belgilangan (JK 127-m. 2 va 3-qismi). Bu qilmishni bangixonalar ochish tarzida sodir etish ogʻir jinoyat hisoblanadi (JK 273-m., 4-qismi). Jinoyat tarkibiga baho berishda yana bir holatni eʼtiborga olish lozim: koʻp boʻlmagan miqdordagi giyohvandlik vositalarni yoki psixotrop moddalarni boshqalarga oʻtkazish maqsadida yoxud bunday maqsadsiz qonunga xilof ravishda tayyorlagan, sotib olgan, saqlagan, tashigan yoki joʻnatgan shaxs oʻz ixtiyori bilan aybiga iqrar boʻlib, hokimiyat organlariga arz qilsa va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi (JK 273-m. 6-qismi va 276-m. 3-qismi).

4. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki joʻnatishning belgilangan qoidalarini buzish uchun alohida javobgarlik belgilangan (JK 275-m.) Bu qoidalar «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisida» 1999-yil 19-avgustdagi Oʻzbekiston Respublikasi qonuniga asoslangan. Jumladan, unga koʻra giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar faqat davlat ehtiyojlari uchun, buyurtmaga muvofiq maxsus litsenziyaga

ega bo'lgan muassasa, korxonalar, tashkilot tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin. Ularni tayyorlash, aniqlash, foydalanish, boshqalarga berish, tashish, jo'natish kabi harakatlar qat'iy tartibga solingan. Ularga rioya qilmaslikning nimada ifodalangani, sababi, oqibatlari ish bo'yicha batafsil aniqlanmog'i lozim.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi davlat komissiyasining 1998-yil 22-maydagi qarori bilan tasdiqlangan. Unda 67 turdagi giyohvandlik vositalari va 22 turdagi psixotrop moddalarning o'lchami - oz, ozginadan ko'proq va ko'p miqdorga mansubligi ham belgilangan. Mazkur masala BMTning Qonunga xilof muomaladagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi kurash to'g'risida Konvensiyasiga (1988-yil) asoslanib hal etilgan. Konvensiyada ana shu vosita va moddalarni tayyorlashda foydalaniladigan 22 xil kimyoviy moddalar-prekursorlar ham nazarda tutilgan.

Bu toifa jinoyat ishini tergov qilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1995-yil 27-oktyabrda qabul qilgan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida" qarori talablariga rioya qilinishi shart.

Noqonuniy ravishda giyohvandlik vositalarni tarqatish bilan bog'liq jinoyatlar jinoyatchining xatti-harakatlariga qarab biri ikkinchisidan keskin farq qiladi. Ammo sog'lom aholini falaj qilish, bu vositalarning iste'moli natijasida odam organizmida turli xil muddatda betakror o'zgarishlarga olib kelishi, keyinchalik esa unga batamom ruhiy nogironlikka muhtalo bo'lib qolishlari bilan bog'liq oqibatlari ularni birlashtirib turadi. Tibbiyot nuqtai nazaridan giyohvandlik vositalari deganda, bir yoki bir necha xil o'simliklardan yoxud sun'iy moddalarda tayyorlangan, dastlab iste'mol qilish natijasida odam markaziy nerv sistemasiga ta'sir ko'rsatib, ruhan taskinlik beradigan, ko'proq iste'mol qilish natijasida kayfiyatni haddan tashqari ko'tarib yuboradigan, oxir oqibat gangitib go'ng holatga soladigan vosita nazarda tutiladi.

Giyohvandlik vositalarini muntazam iste'mol qilish odam salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning faoliyati va asabini izdan chiqaradi, ruhiy kasallikka uchratadi. Bunday odamning mehnat qobiliyati pasayadi, qisqasi shaxsni tanazzulga duchor qiladi, nojo'ya xatti-harakatlar sodir etishga olib keladi.

Yuqorida sanab o`tilgan xususiyatlarga ega va maxsus giyohvandlik vositalar ro`yxatiga kiritilgan, xalqaro yagona konvensiya nazoratida bo`lgan o`simliklardan sanoat asosida yoki xonaki tayyorlangan vositalar g`ayriqonuniy hisoblanadi. Nazoratda bo`lgan bunday vositalar ro`yxati psixotropik xususiyatiga ega bo`lgan (ruhiyatga ta`sir etuvchi) yangi dorivor vositalar hisobiga muttasil ko`payib bormoqda. Ularni davolashdan boshqa maqsadlarida ishlatish holatlari ko`payganligi sababli bunday moddalardan foydalanish qat`iy ravishda huquqiy tartibga solindi. Bunday moddalarga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlar narkotik moddalarga nisbatan boshqacha javobgarlik holatlari belgilab qo`yilgan.

Giyohvandlik vositalar bilan noqonuniy harakatlar to`g`rsidagi ishni tergov qilishda jinoyat sub`ektining o`ziga xos tomonlarini hisobga olish kerak: ko`p holatlarda aybdor shaxs giyohvandlik vositalariga mukkasidan ketgan bo`ladi, ya`ni usiz tura olmaydi. Giyohvandlik mushkul oqibatlariga olib kelishini tergov jarayonida e`tiborga olish kerak (giyohvandlarni so`roq qilish, yuzlashtirish, tergov eksperimentlari o`tkazish kabilar). Giyohvandlarning tipik belgilari yolg`on so`zlash, ahloqiy tanazzulga yuz tutish va aqlan zaiflashib qolishdir. Narkotik ochiqish sharoitida shaxsning qulog`iga gap kirmaydi, u atrof-muhitni real tasavvur qila olmaydi.

2-§. Jinoyat ishi qo`zg`atish

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida, shuningdek tekshirish va taftish jarayonida o`g`irlik, mansabdor shaxsning noqonuniy harakatlari, giyohvandlik vosita va psixotropik moddalarni hisobga olish, saqlash, berish qoidalarining buzilishi yoki giyohvandning shifoxonaga tushishi bilan bog`liq tergov organlari tomonidan tekshirish natijasida aniqlangan jinoyatlar bo`yicha ish qo`zg`atish - bular eng ko`p uchraydigan sabablar hisoblanadi.

Bunday toifadagi jinoyatning o`ziga xos tomoni shundaki, jinoyatchini jinoyat ustida qo`lga olish ko`pgina hollarda ularni fosh qiladigan ashyoviy dalillarga ega bo`lishga imkoniyat yaratadi va u tergov qilishning bundan keyingi yo`nalishini belgilab beradi. Agar giyohvandlik vositalarini yoki ularning izlarini topish imkoni bo`lmasa, amalda ularni saqlash, tashish va iste`mol qilganligini isbotlash juda qiyin kechadi.

Giyohvandlarni jinoyat ustida (olib ketayotganda, kelishuv sodir etayotganda, ko'knori shirasini tayyorlashganda) qo'lga tushirish uchun giyohvand modda gumon qilingan shaxs bilan birga bo'lishi, bu xolatni kuzatuvchi oldindan bilishi kerak. Jinoyatchilarni qo'lga olish navbati to'g'risidagi masala har birini ushlaganda qanday natijalarga erishish mumkinligiga qarab hal qilinadi. Ularning har birini ushbu jinoyatdagi roli va ishtiroki darajasi, jinoyatchilar guruhi bilan aloqalari hisobga olinishi kerak. Bu to'g'ri ko'rsatuv berishi mumkin bo'lgan shaxsni aniqlab olish imkonini beradi.

GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI PSIXOTROP MODDALAR BILAN QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISH USLUBINING ASOSLARI

GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI UNI PSIXOTROP MODDALAR BILAN QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILISH HAQIDAGI ISHLAR YUZASIDAN ANIQLANISHI LOZIM

Jinoyat sodir etilganmi? Agar sodir etilgan bo'lsa uni qanday kvalifikatsiya qilish

Jinoyat qayerda, qachon, qanday usulda sodir etilgan?

Jinoyatni kim sodir etgan? Guruh sodir etgan bo'lsa, uning tarkibi va har bir ishtirokchining bajargan roli qanday?

Giyohvandlik vositalarini sotib olish manbalari, ularni tarqatish yo'li va usuli qanday? Qanday narxda sotib olingan yoki sotilgan?

Mazkur toifadagi jinoyat boshqa jinoyatlar bilan birga sodir etilganmi? Agar sodir etilgan bo'lsa, aynan qanday jinoyatlar bilan?

Qanday sharoitlar jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan?

Giyohvandlarni qo'lga olishning eng samarali usuli to'satdan harakat qilish hisoblanadi. Jinoyatni sodir etish usullari va niqoblanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olib, qo'lga tushiriladigan joy belgilanadi. Qo'lga tushirish giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalarni olib ketayotgan transportda, turar

joyda oldi-sotdi bitimi amalga oshirilayotganda, ko'knori va nashadan giyohvand tayyorlayotganda, giyohvandlik moddalari qabul qilayotganda ma'lum joyda saqlayotganda; iste'mol qilayotganda, jo'natayotganda, sotayotganda amalga oshiriladi. Shuningdek, giyohvandlik vosita olinadigan o'simliklarni yetishtirishda, ekishda, ishlov berayotganda, hosilini yig'ishtirib olayotganda ham qo'lga tushirish mumkin. Formasevtika korxonasida o'g'irlangan giyohvandlik vositalarni olib chiqayotganda; dorixonona yoki davolash muassasasida ularni soxta retsept bo'yicha olib ketayotganda ham qo'lga tushirish mumkin.

Giyohvandlik vositalarni farmasevtika korxonalari, davolash muassasalari, dorixonalardan o'g'irlik yo'li bilan olganlarni tergov qilishda quyidagi masalalarga oydinlik kiritish kerak: 1) o'g'irlik sodir etilganmi? 2) kim sodir etgan? 3) qanday usulda amalga oshirilgan? 4) muntazam sodir etib turilganmi? 5) o'g'irlangan giyohvand moddalar miqdori? 6) o'g'irlangan modda qayerga yashirilgan? 7) o'g'irlikdan maqsad iste'mol qilishmi yoki sotishmi? 8) olib-sotarlar bilan oldindan kelishib olinganmi? 9) o'g'irlangan moddalar qaysi yo'llar bilan tarqatilgan? 10) o'g'irlikka qanday sharoit imkon bergan?

Giyohvandlik vositalarni sotish bilan bog'liq ishni tergov qilishda quyidagi holatlar aniqlanishi darkor? 1) giyohvandlik vositasining manbai qayerda? 2) u kimdan xarid qilingan? 3) oldi-sotdi haqida oldindan kelishib olinganmi? 4) mahsulot qanday baholarda sotib olingan? 5) mahsulotni o'tkazish yo'llari? 6) javobgarlikni og'irlashtiradigan va aksincha, yengillashtiradigan holatlar, chunonchi guruhning mavjud bo'lganligi, muntazamligi va h.k. 7) jinoyat sodir etishga qanday sharoitlar imkon bergan?

Muayyan shaxsda giyohvandlik vositalarning mavjudligi tugal jinoyat tarkibini tashkil etadi, chunki qonunga ko'ra, bu vositalarni o'zi iste'mol qilish uchun olganlar ham javobgarlikka tortiladilar; shu bilan birga tajriba ko'rsatadiki, giyohvandlik vositalarni tarqatish bilan bog'liq jinoyatlar uyushgan guruh tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli jinoyat bilan aloqador barcha shaxslarni aniqlab olish zarur.

**MUAYYAN SHAXSDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI PSIXOTROP
MODDALAR TOPILGANDA RASMIYLASHTIRILISHI ZARUR BO'LGAN
HUJJATLAR** (jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilishda)

Militsiya xodimining raporti, fuqaroning arizasi yoki xabari

Guvohning tushuntirishi. Ushlangan shaxsning tushuntirishi

Ushlangan kishining va uning buyumlarini shaxsiy ko'zdan kechirish bayonnomasi

Mazkur shaxs tibbiy guvohlantirishga yuborilgani haqidagi hujjat

Tibbiy guvohlantirish xulosasi (bayonnomasi)

Shaxsning giyohvand sifatida hisobda turishi haqida narkolog ma'lumotnomasi

Olib qo'yilgan buyumlarni tekshirish natijalari haqida ma'lumotnoma

Gumon qilinuvchining shaxsi haqida ma'lumotnoma

3-§. Dastlabki tergov harakatlari

Jinoyat ustida qo'lga olish va tintuv o'tkazish bayonnomalari dastlabki dalil tarzida bo'lib, muayyan bir shaxsda giyohvandlik vositalari topilganligini bildiradi, xolos. Bunday vaziyat versiya tuzishda sodir etilgan jinoyat usuli va tezkor-qidiruv ishlari natijalariga oid ma'lumotlarga alohida ahamiyat berishni talab etadi.

Gumon qilingan shaxsning turmush tarzi, jinoyat sodir etish usullari, uning kimlar bilan uchrashganligi va qaysi marshrut bo'yicha safar qilganligi versiya tuzish uchun boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi.

Eng tipik versiyani quyidagi ko'rinishda taklif etish mumkin.

Giyohvandlik vositalarni qo'lga olishda: a) qo'lga olingan shaxs giyohvandlik vositasi yoki psixotropik moddalarni olib-sotarga ulgurji pullaydi, savdogar esa uni chakana narxda sotadi; b) qo'lga olingan shaxs faqat olib-sotar tomonidan yollangan shaxs; v) qo'lga olingan shaxs giyohvandlik vositalar o'g'risi; g) qo'lga olingan tasodifiy unga yukni eltib berish topishirilgan, u nimani olib ketayotganligini

bilmaydi; d) qo'lg'a olingan shaxs – giyohvand, u giyohvandlik vositasini o'zi iste'mol qilish uchun o'g'irlab olgan yoki tayyorlagan; e) qo'lg'a olingan shaxs giyohvandlik vositasini dorixonadan yoki davolash muassasasidan o'g'irlab olgan.

Giyohvandlik vositasini sotayotganda qo'lg'a olinganda: a) sotuvchi ikkinchi darajali shaxs bo'lib, unga giyohvandlik vositasini sotish vazifasi yuklatilgan; b) sotuvchi giyohvandlik vositalarini o'g'irlab olgan; v) sotuvchi afyun va nasha bilan savdo qiladi, bu xil moddalarni ko'tarasiga sotadi, undan chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar xarid qiladi; g) sotuvchi giyohvandlik vositalarni uni yetishtiradigan yoki tayyorlaydigan joydan oladi; d) sotuvchi o'ziga o'xshash olib-sotar va eltib beruvchi bilan hamkorlik qiladi; e) xaridor narkotik moddani o'zi iste'mol qiladi; j) xaridor narkotik moddalar bilan savdo qiladi, ko'tarasiga sotib oladi va joylarga olib borib maydalab pullaydi; z) xaridor bangixona egasi, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni bangilar iste'mol qilishi uchun oladi; i) xaridor giyohvandlik vositalarni maydalab sotish uchun oladi; k) xaridor- giyohvand shaxs, ayni vaqtda o'z xarajatlarini qoplash uchun giyohvandlik vositani maydalab sotadi.

Olg'a surilgan versiyalarni tekshirish turli tergov harakatlari, ayniqsa tintuv o'tkazish, so'roq qilish, ekspertiza tayinlash orqali amalga oshiriladi.

Tergov versiyalarni maqsadga muvofiq tekshirish uchun tergov ishlarini yaxshi rejalashtirish zarur. U murakkab guruhli ishlarni tergov qilishda juda muhim hisoblanadi, bunda turli shahar va tumanlarda tergov harakatlari o'tkaziladi.

Guruhlar tomonidan sodir etilgan ko'p epizodli jinoyat ishlarini tergov qilishda yangidan-yangi holatlar ochiladi. Shunga muvofiq yangi versiyalar vujudga keladi, natijada tergov rejasi o'zgaradi, yangi harakatlar bilan to'ldiriladi.

Niqoblangan guruhli giyohvandfuroshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatni tergov qilishda militsiyaning tezkor hodimlari bilan hamkorlikda ish yuritish lozim. Shuning uchun alohida qidiruv va tergov harakatlarini amalga oshirish to'g'risida surishtiruv organlariga topshiriq berish nazarda tutilishi kerak. Qoidaga ko'ra biror joyga borishni ham rejalashtirish lozim, chunki ko'rilayotgan jinoyat ishlari boshqa shahar, tuman va mamlakatlarda yurgan jinoyat guruhi a'zolari aniqlanishini talab etadi.

Mazkur toifaga oid ishlar yuzasidan tintuv o'tkazishning o'ziga xos tomonlari muayyan vaziyatlarga ko'ra amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vosita, psixotrop modda yoki prokursorni tegishli ruxsatnomasiz oz miqdorda bo`lsa ham saqlash jinoyat hisoblanadi. Bu haqda jinoyatchi bilgani uchun uni saqlash usullarini o`ylab topadi, aniqlash qiyin joylarni tanlaydi. Jinoyat ishtirokchilari ko`p hollarda qarindosh va yaqin munosabatdagi shaxslar bo`lib chiqadi. Ular giyohvandlik vositalarni turli vaqtlarda turli xonadonlarda saqlaydilar. Qishloq joylarda ko`knori o`simliklari yetishtiradiganlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni yashirish imkoniyatlari katta bo`ladi. Jinoyatchilar javobgarlikdan qochish maqsadida qo`llaniladigan usullardan biri – ularning transportda jo`natayotgan buyumlari ichidan, hovlidagi qurilmalardan va tomorqa uchastkalaridan topilgan giyohvandlik moddalari xaqida hech narsa bilmasliklari haqida vaj qilishdir. Bunday holatni gumon qilingan shaxs bo`yniga qo`yish ancha qiyin kechadi. Giyohvandlik moddalarni saqlab qo`yadigan, eltib beradigan, olib-sotadigan, vositachilik qiladiganlar to`g`risidagi ma`lumotlarni tezkor-qidiruv yo`li bilan bilsa bo`ladi.

Tintuv o`tkazishga tayyorgarlik ko`rishda guruh ishtirokchilari to`g`risida tegishli ma`lumotlarga ega bo`lish kerak, shunda tintuv natijalari belgilangan versiyani tekshirish imkoniyatini beradi. Yangi versiyalar paydo bo`ladi, oldingisiga tuzatishlar kiritiladi. Gumon qilinganlar uyidan giyohvandlik vosita yoki uning izlari topilgan taqdirda faraz qilish mumkinki, mazkur shaxs jinoyatdan tushgan daromadning juda oz qisminigina oladi.

Tintuv vaqtida turli o`ramdagi tarozilar, giyohvand vositalar izlari, qoldiqlari topilgan bo`lsa, bu shaxs giyohvandlik vositalari tayyorlovchi yoki vositachi bo`lishi ehtimol. Jinoyatning tashkilotchisi qilinganda uning boshqalar bilan aloqasini ko`rsatadigan hujjatlarga ko`proq ahamiyat berish lozim.

Tintuv o`tkazishning asosiy vazifasi giyohvandlik vositalari va boshqa ashyoviy dalillarni topishdan iborat. Giyohvandlik vositalarini o`lchash, qadoqlash uchun ishlatiladigan tarozilar; giyohvand vosita olinadigan o`simlik qoldiqlari; nasha tayyorlashda foydalaniladigan elak, xaltachalar, presslar, shprints, maxsus naychalar; jinoyat yo`li bilan topilgan pullar va qimmatli buyumlar; qalbaki retseptlar va h.k. Jinoyat ishtirokchilarining yozishmalarini, pochta vositasida o`tkazilgan pul hisob-kitoblarini o`rganish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun pochta-telegraf muassasalarida korrespondensiyalarni kuzatish zarurati paydo bo`ladi.

Tintuv vaqtida topilgan hujjatlar jinoyatchilarning niqoblangan aloqalarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bunday xujjatlarga xat,

telegramma, pul perevodlari, posilkalarga tegishli ma'lumotnoma, yodnomalar, bloknotdagi turli yozuvlar, saqlash kamerasi kvitansiyasi, shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar to'g'risida kvitansiyalar, mehmonxona hisob-kitob qog'ozlari, samalyot, temir yo'l, avtobus, tramvay biletleri kabilar kiradi.

Topilgan yozishmalar sinchklovlik bilan o'rganilishi lozim. Tajriba ko'rsatadiki, bunday yozishmalar sirli ma'nolarga ega bo'ladi, ularda jinoyatni niqoblash maqsadida shifrlangan usuldan foydalanadilar, jargon so'zlarni ishlatadilar. Giyohvandlik vositalari saqlanadigan yashirin joyni aniqlash alohida mahorat va sinchkovlik talab qiladi. Ularni ba'zan turli oziq-ovqat mahsulotlari solingan idishlarda saqlaydilar, ustiga yog', smetana, moy quyadilar, krupa, un kabilar soladilar. Devorlarda, deraza tagida, mebellarda, bolalar qo'g'irchrlarida yashiradilar, shuningdek xo'jalik qurilishlari, tomorqa uchastkalari, hovlilarda, o'choq atrofida, molxonalarda yashirin joy tayyorlaydilar. Tintuvda o'rgatilgan itlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tintuv natijalari bayonnomada o'z ifodasini topishi kerak. Yashirin joy topilganda uni tasvirlab ko'rsatish va suratini olish lozim. Turli joydan topilgan giyohvandlik vositalari alohida-alohida joylashtirilishi va ekspertizaga topshirilishi lozim. Ekspertiza ularning tarkibi, tozalik va namlik darajasini aniq belgilab beradi.

Hodisa ro'y bergan joyni ko'zdan kechirish, odatda, giyohvand vositalarini dorixona, davolash muassasalari, farmasevtika korxonalarida o'g'irlik sodir etilganda va bunday ob'ektlarda bosqinchilik yuz berganda amalga oshiriladi.

Giyohvand vositalar saqlangan joyni sinchiklab ko'zdan kechirish, jinoyatchining qo'l, oyoq izlarini aniqlashga e'tiborni qaratish lozim. Giyohvand vositalar joylangan idish va u saqlanadigan joyni ochishda ishlatilgan qurollarni ham tekshirish talab etiladi. Xodisa ro'y bergan joydagi izlarni foto suratga olinishi va bayonnomada aniq-ravshan ko'rsatilishi lozim.

Ko'knori yetishtiradigan joy aniqlanganda, ularda qancha mahsulot yetishtirilishi, qancha hosil olinishi mumkinligi, maydonning sxemasi, hajmi va ekinlarning barchasi yo'qotilganligi, bir necha tun namuna olingani bayonnomada ko'rsatilishi lozim.

Ko'knori qaysi ekinlar orasida ekilganligi, tekshirish vaqtida ekinlar qanday holatda bo'lganligi, pishgan, pishmagan, yig'ishtirib olingan, bir qismi yig'ishtirib olingan, odam izi, hayvon va transport

vositasi izlari hisobga olinadi. Bunday tadbirlarda agronom mutaxassislarni jalb etish lozim.

Giyohvand vositalar tayyorlanadigan, qayta ishlanadigan yoxud iste'mol qilinadigan xonani ko'zdan kechirishda turli moslamalarga, xom ashyolarga hamda idishdagi izlarga e'tibor berish zarur. Shisha va metall idishlarda aniqlangan giyohvand vosita va qo'l izlari eng asosli ashyoviy dalil hisoblanadi.

Gumon qilinganlarni jinoyat ustida qo'lga olishda guvoh bo'lganlar asosan ushbu vaziyat bilan bog'liq shaxs hisoblanadilar. Bu guvohlarni so'roq qilish zarur, chunki qo'lga olingan jinoyatchi uni fosh qiladigan predmetlar meniki emas, deb tonishi hech gap emas.

Agar jinoyatchi giyohvand vositalarni olib ketayotganda qo'lga olinsa, avtobus va trolleybus yoki boshqa transport vositalariga qayerda o'tirgani, qanday odamlar uni kuzatgani, uning qo'lida nima bor ekanligini aniqlash zarur. Bu savollarga yo'lda hamroh bo'lganlar, avtotransport haydovchilari, avtobus konduktorlari va kassirlari javob berishlari mumkin.

Yuk saqlanadigan joy xodimi so'roq qilinganda saqlashga qo'yilgan yukning hidiga urg'u beriladi. Ammo jinoyatchilar bu holatni oldindan bilib, hidini niqoblashi mumkin (qalampir, atir kabilardan foydalanadilar).

Olib-sotarlar ko'p hollarda transportning taksi turidan foydalanadilar. Taksi haydovchilar mijozini qaysi manzilga yetkazib qo'ygani va kimlar bilan uchrashgani to'g'risida ma'lumot berishi mumkin.

Qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari, qo'ni-qo'shnilaridan ayblanuvchining hayot tarzi, hamtavoqlari, uchrashuvlari va safarlari to'g'risida so'rash kerak. Guvohlarni so'roq qilish jinoyatchi qo'lga olingandan keyin darhol o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Aks holda ular o'zaro til biriktirib, yolg'on ko'rsatuv berishga kelishib olishlari mumkin.

Giyohvandlar orasidan guvoh qidirish lozim, ular mazkur ish yuzasidan ko'rsatuv berishlari mumkin. O'zining yomon holatga tushib qolganligini anglab yetgan va davolanishga intilayotgan shaxslar odatda giyohvand vositalarni tarqatayotganlarni ayblaydilar va to'g'ri ko'rsatuv berishga moyil bo'ladilar.

Hali giyohvand darajasiga etib ulgirmagan va uni qabul qilaverish nimalarga olib borishini yaxshi tushunib yetmagan shaxslarga bu qilmish yaxshi oqibatga olib bormasligini, agar bu zahri-qotilni iste'mol qilishni to'xtatmasa, nimalarga duchor bo'lishini tushuntirish

foydadan xoli emas. Bu suhbatga shifokor va ruhshunoslarni ham jalb etish kerak.

Surunkali giyohvand shaxslar davolanishni xayoliga ham keltirmaydi, o`z xatti-harakatlarini tanqidiy ko`z bilan ko`rmaydi, ular tanazzulga yuz tutgan shaxslardir. Bunday shaxslardan haqiqiy ma`lumotlarni olish ancha qiyin kechadi.

Giyohvand guvoh abstinensiyaga tushgan vaqtda olingan ma`lumotlarga baho berishda ehtiyot bo`lish kerak. Giyohvand ayblanuvchi manfaatini yoqlab, shantaj qilishgacha borishi, xatto jinoyatga qo`l urushi, o`zi bergan ko`rsatuvlardan tonishi ham mumkin. Shuning uchun ham u ko`rsatuvlarni qayta-qayta tekshirib ko`rish, boshqa manbalar bilan solishtirish maqsadga muvofiq.

Giyohvand vositalarni saqlovchilarga bu xildagi xatti-harakatning yomon oqibatlarga olib kelishini tushuntirganda guruh tashkilotchisini qo`lga olish muhimligini uqtirish samarali natijalar beradi. Agar gumon qilingan unga saqlash uchun berilgan narsa nima ekanligini bilmagan edim, deb ko`rsatuv bersa, uning bu ko`rsatuvlarini yig`ilgan ma`lumotlar bilan solishtirib ko`rish zarur.

Jinoyatning tashkilotchilari va asosiy ishtirokchilarini so`roq qilishda tintuv vaqtida topilgan dalillar, guvohlar ko`rsatuvlari, ekspert xulosalaridan mohirona foydalanilmasa, so`roq yaxshi natija bermaydi.

Topilgan narsa giyohvandlik xususiyatga ega ekanligi faqat ekspertiza vositasida aniqlanadi. Mazkur toifadagi ishlar bo`yicha kompleks sud-tibbiyot va sud-psixologik ekspertiza o`tkazish va ekspertlar hal qilishi uchun ko`pincha quyidagi savollarni qo`yish kerak: tekshirilayotgan shaxs yaqinda giyohvand vosita qabul qilganmi; unda surunkali norkomanlik belgisi mavjudmi; u narkotik moddalarga qarshi o`tkaziladigan majburiy davolatishga majburmi; u jinoyat sodir etilgan vaqtda giyohvandlik ta`sirida bo`lganmi va boshqalar.

Nihoyat, giyohvandlik vositalari va psixotropik moddalar bilan bog`liq har bir jinoyat ishi bo`yicha bu xil jinoyatlarning oldini olish eng zarur vazifadir.

1-§. *Uyushgan jinoyatchilik va guruhlar tavsifi*

Jinoyatchilik bilan kurashishning 70-yillardagi amaliyoti va nazariyasida professional (kasbiy) jinoyatchilik bizda yo`q qilingan, bu narsa bizning jamiyatga xos emas degan fikrlar hukmron edi. Olimlar va amaliyotchilar ko`plab jinoyatlarni bir guruh tomonidan, bir xil usulda yuqori «texnologik» saviyada sodir etilgan holatlariga duch kelganda jinoyatchilarning harakatlarida ba`zi bir «professionallik elementlari» borligi haqidagi yuzaki izohlar berardilar, xolos. Jinoiy faoliyat bilan *kasb* sifatida shug`ullanish haqida hech nima deyilmasdi. Sobiq Ittifoqda professional jinoyatchilikning, ayniqsa uyushgan jinoyatchilikning mavjud emasligi huquq fanining aqidalaridan biri bo`lib keldi.

Ammo vaqti kelib, nafaqat professional, balki professional uyushgan jinoyatchilikning mavjudligini tan olish muqarrar edi. Uning jinoiy-siyosiy jihatini tan olishning o`zi kifoya qilmadi: zudlik bilan o`z yechimini talab qiladigan ilmiy va amaliy tUSDagi bir qator muammolar paydo bo`ldi. Tashkiliy jihatdan birinchi yondashuvda Ichki ishlar vazirligi tizimida maxsus bo`linma tuzildi va bu ishga muhim ma`lumotlarni aniqlashga qodir kuchli texnika vositalariga ega bo`lgan Davlat xavfsizlik qo`mitasi jalb etildi. Ilmiy jihatdan birinchi navbatda uyushgan jinoyatchilik nima ekanligini hamda uning guruh jinoyatchiligidan farqi nimadaligini aniqlashga to`g`ri keldi.

Adabiyotda jinoiy guruhning bir qancha ta`riflari berilgan. Masalan, ba`zi mualliflar uni umumiy maqsadga intiluvchi, ma`lum bir tarzda uyushgan, jamiyat uchun xavfli, inson huquqlarini poymol etuvchi harakatlar asosida birlashgan kichik norasmiy guruh deb e`tirof etishadi. Boshqa mualliflarning fikriga ko`ra, bunday jinoyatchilarni o`zaro shaxsiy munosabatlar emas, yuqori darajada rivojlangan jinoiy faoliyat birlashtiradi. Jinoiy faoliyat asosidagi jamiyatga qarshi shaxslar kichik norasmiy guruh tusidagi ma`lum bir tarzda tashkillashtirilgan uyushma va birlashgan holatda harakat qiluvchi faoliyat sub`ektidir. Ana shu sub`ektlarning hamjihatligi darajasiga qarab, jinoiy guruhning quyidagi kriminalistik turlari mavjud: tasodifiy, uyushgan, jinoiy tashkilotlar.

Birinchi guruhga guruhiy jinoyatni sodir etish uchun *tasodifiy* sharoitlar taqozosida birlashgan shaxslar kiradi. Ularning asosiy maqsadi jinoyat sodir etish emas, balki muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirishdir. Guruhning ko'pgina a'zolari dastlab jinoyatni bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun, tasodifan, hamma bilan o'sha yerda bo'lgani uchun yoki to'satdan ro'y bergan vaziyat natijasida amalga oshiradilar. Tasodifiy guruhda rollar odatda taqsimlanmaydi va guruh a'zolarining uyushqoqligi ham ancha past bo'ladi. Agar tasodifiy jinoiy guruh fosh etilmay qolsa va u kriminalistik faoliyatni davom ettirsa, asta-sekin, uyushgan jinoiy guruhga aylanadi. Bu guruhlar yetakchisi bo'lmasa-da, ancha uyushqoq bo'lib, eng faol va obro'li a'zolaridan iborat o'zakka egadir. Jinoiy faoliyatda bir yoki bir necha shaxs tobora yetakchi rol o'ynay boshlaydi. Ular boshqalardan ko'ra faol va hamjihatroq bo'ladilar.

Uyushgan jinoiy guruh shaxsiy tarkibning barqarorligi bilan ajralib turadi, hatto maxsus xulq-atvor normalari ishlab chiqiladi, yetakchi va yetakchilik uchun kurashayotgan guruh a'zosi «*oppozitsionyer*» bo'lishi mumkin. Bunday guruhda rollarning aniq taqsimlanganligi, metin intizom va harakatlarning pinhoniyligi kuzatiladi. Guruhning barcha faoliyati jinoiy tajovuz qilishga qaratilgan bo'lib, ularning jiddiyligi borgan sari oshaveradi. Guruh jinoyat sodir etishning murakkabroq usullarini amalga oshirishga, bir necha joyda bir vaqtning o'zida harakat qilishga qodir. Bunday guruh a'zolari odatda jinoiy tajribaga, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining tezkor guruhlari bilan muloqot qilish tajribasiga ega, shuningdek, tergov va tezkor ish usullari bilan tanishdirlar.

Jinoiy tashkilotlar - bu aynan jinoiy guruhlarning yuqori turi bo'lib, ularda intizom va harakat koordinatsiyasi yanada ko'proq. Ishtirokchilarning tashkiliy aloqalarini shakllantirishga, jinoyatni amalga oshirish va yashirish usullarini ishlab chiqish va ko'nikma hosil qilishga, pinhoniyligni saqlash maqsadida a'zolar o'rtasidagi bevosita muloqot o'rniga informatsion aloqalar o'rnatish uyushtiriladi. Jinoiy tashkilotlar uchun murakkab struktura, maxsus muhofaza va panalash bloklarining mavjudligi xosdir. Ularga hatto muassasa yoki korxonada ma'muriyati xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organ xodimlari kiritiladi.

Uyushgan jinoyatchilik deganda tanish-bilish va poraga asoslangan aloqalar yordamida o'zining xavfsizlik tizimini

ta'minlovchi va jinoyat bilan kasb (biznes) sifatida shug'ullanuvchi jinoyatchilar hamjamiyatining nisbatan keng ko'lamga yoyilishi tushuniladi. Amaliyotda uyushgan jinoyatchilikning uch darajasi uchraydi. Birinchisi iqtisodiyot sohasida mulkni o'maruvchi, tovlamachilik, ta'magirlik, bosqinchilik va o'g'rilik bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlarni o'z ichiga oladi; ikkinchi daraja xo'jalik yoki ma'muriyat organlari bilan tanish-bilish va poraga asoslangan aloqalarga ega bo'ladi; uchinchi daraja o'ziga xos bo'lib, mafiya ko'rinishiga egadir. Gap bu yerda bir qator jinoiy guruhlarni funktsional-iyerarxik boshqaruv tizimiga, yagona jinoiy tashkilotga birlashishi haqida borayapti. G'arbiy adabiyotda bu narsa uyushgan jinoyatchilikning tarmoq strukturasi deb nomlangan. Odatda, bunday tashkilotni kengashga o'xshash bir necha kishi boshqaradi. Bu kabi strukturaviy uyushmalar mintaqalararo aloqalarga ega bo'lib, ham professional jinoyatchilarni, ham «oq yoqalik»larni (davlat apparati va ma'muriyat xodimlari) birlashtiradi, o'z pul jamg'armalari va xavfsizlik tizimlarini tuzishadi. Professional jinoyatning ikki turi mavjud: korrupsiya bilan va korrupsiya ishtirokisiz tuzilgan tashkilot.

«Uyushgan guruhlar (bandalar), hamjamiyatlar – uyushgan jinoyatchilikning birinchi yacheykasi» deb hisoblanadi. Uyushgan jinoyatchilikning alohida turlarida konsentratsiyalash va ularni monopoliyalashtirish, pinhoniy va haqqoniy xo'jalik faoliyati va ichkilikbozlik, giyohvand moddalar iste'mol qilish, fohishabozlik va boshqa tarzdagi jinoiy biznes sohalarida maydonni qo'lga kiritishga qaratilgan guruhlarning o'zaro harakatdagi (bevosita va bilvosita) tizimidir. Uyushgan jinoyatchilik deb ta'riflanadigan jinoiy faoliyat mintaqaviy, hatto mamlakat darajasiga ega bo'ladi yoki xalq xo'jaligining biror-bir tarmog'ini egallaydi.

Uyushgan jinoyatchilikning ikki xil darajasi bor. Birinchisi – faoliyat doirasi chegaralangan jinoiy tashkilot. Masalan, avtomobil o'g'irlash bilan shug'ullanuvchi jinoiy uyushmalar keng tarqalgan. Bunday uyushmada rollar aniq taqsimlangan bo'lib, hujjatlarni qalbakilashtiruvchi, muhrlar tayyorlovchi, avtoehtiyot qismlardagi nomerlarni almashtiruvchi kabi mutaxassislar mavjud. Bu darajada jinoyatchilarning korrupsiyaviy aloqalari bo'lishi shart emas. Ko'p hollarda korxonalar yoki muassasalar ma'muriyati yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining jinoiy faoliyatdagi bevosita ishtiroki kuzatiladi.

Ikkinchi daraja – jinoiy tashkilotlar tizimi ham jinoiy faoliyatning faqat bir turiga, masalan, narkobiznesga ixtisoslashgan bo`lishi mumkin, lekin odatda u turli-tuman ko`rinishga va keng korruptsiyaviy aloqalarga ega.

Yuqorida bayon etilgan tushunchalarning kriminologik tahlili isbotlov jarayoni uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, tergovning vazifasi faqatgina jinoyatning barcha ishtirokchilarini aniqlab, ularning rollari va aybini belgilab berish emas, balki jinoiy faoliyatning vaqtga, joyga doir barcha ko`rinishlarini, jinoyatni amalga oshirish va yashirish usullarini, keltirilgan moddiy zarar miqdorini va jinoyatni sodir etishga aloqador barcha holatlarni aniqlash hamdir. Ko`rinib turibdiki, isbotlashning barcha elementlari jinoyat uyushgan hamjamiyat tomonidan amalga oshirilganida o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Eu xil jinoyatlarni aniqlash kriminalistik aspektida ikki bosqichdan iborat:

1) Jinoyatni guruh tomonidan sodir etilganligi faktini aniqlash;

2) Jinoyatni uyushgan jinoiy tashkilot tomonidan sodir etilganligi belgilarini aniqlash;

Bu savollarga oid ma`lumotlarni, jinoiy ish qo`zg`atilganda tergov organlariga kelgan boshlang`ich ma`lumotlardan olsa bo`ladi, lekin ular asosan tergov harakatini o`tkazish va tezkor-qidiruv tadbirlar jarayonida aniqlanadi.

Jinoiy ish qo`zg`atishga asos bo`luvchi boshlang`ich ma`lumot tergov organlariga bir necha kanallar orqali kelishi mumkin.

1) Jabrlanuvchilarning arizasini qabul qilgan ichki ishlar organi navbatchi qismidan, patrul xizmati xodimlari, tashkilot va korxonalar xodimlari yoki boshqalardan;

2) Ichki ishlar organlari tezkor apparatlaridan;

3) Kriminal tusga ega bo`lishi ehtimol bo`lgan jiddiy jarohat olgan insonlar murojaat qilganda tibbiyot muassasalaridan;

4) Jinoiy ish qo`zg`atishdan avval hodisa joyini ko`zdan kechirganda va u bilan bog`liq qidiruv tadbirlarini o`tkazish davomida.

Jinoyat haqidagi ma`lumot og`zaki yoki yozma bo`lishi mumkin. Sodir etgan jinoyati haqida jinoyatchining o`zi ham arz berishi uchraydi.

Kriminalistik aspektida bu ma'lumot, ko'p hollarda, jinoiy guruh tomonidan sodir etilganligi, guruhning hamjihatligi, vazifalarning taqsimlanishi va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi. Boshlang'ich ma'lumotga asoslanib guruhning tashkiliy darajasi, uning yuqoriroq darajadagi jinoiy guruhga tegishlilikini aniqlash odatda qiyin.

Ma'lumki, boshlang'ich ma'lumotni tekshirish uchun tushuntirish olish, hujjatlarni talab qilish, reviziya, boshlang'ich tekshiruvlar belgilash, jinoyat ishi qo'zg'atishdan avval o'tkazilgan ekspertiza xulosalari keng tarqalgan vositalardan sanaladi.

Jinoyat ishi tezkor yo'l bilan olingan ma'lumotlar asosida qo'zg'atilganda jinoyat belgilari haqidagi ma'lumotlar shaxsiy qidiruv, tezkor kuzatuv, nazorat tekshiruvi, iqtisodiy tahlil va boshqa tezkor-qidiruv tadbirlari orqali olinishi mumkin.

Shaxsiy qidiruv tezkor xodimning jinoyatchini qidirish, topish va qo'lga olish harakatlaridan iborat. Qidiruv ob'ekti bo'lib, jinoiy til biriktirgan guruh a'zolari bo'lishi mumkin.

Tezkor kuzatuv jarayonida shaxsning aloqalari, joyi, turli xil buyumlarni tashish faktlari va jinoiy guruh mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beruvchi boshqa ma'lumotlar aniqlanadi. Nazorat tekshiruvi shaxs yoki guruh uchun kutilmaganda fuqarolik bitimi yoki xo'jalik munosabatining to'g'riligini tekshirish uchun qo'qqisdan amalga oshiriladi. Nazorat tekshiruvining texnologik jarayonning bir necha bo'linmalarida bir yo'la o'tkazilishi necha shaxslarning harakatlaridagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi.

Jinoyat ishi qo'zg'atishdan avvalgi tezkor harakatlar jinoiy tashkilotning xususiyatlari va uning uyushgan jinoyatchilikka tegishlilik to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tezkor ma'lumotlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Tezkor ma'lumotlar ko'lami tergovchi va tezkor xodimning chuqur o'ylangan va tashkillashtirilgan harakatlariga bog'liq.

2-§. Hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirish chog'ida jinoyatni uyushgan guruh tomonidan sodir etilganligini aniqlash

Jinoiy harakatlarni bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilganligi haqidagi versiya hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirish vaqtida topilgan izlar, tajovuz predmetining xususiyatlari,

jinoyatni amalga oshirish usuli va quroli haqida ma'lumotlarga asoslanib olg'a surilishi mumkin.

Jinoyatchilarning izlari. Sodir etilgan jinoyatning guruhiy tusga ega bo'lishi to'g'risida birinchi navbatda papilyar chiziqlar turiga ko'ra turli shaxslar tomonidan qoldirilgan qo'l barmoqlari izlari guvohlik berishi mumkin.

Barmoq izlariga qarab jinoyatchilar bir nechta bo'lganliklari to'g'risidagi xulosa izlar jabrlanuvchi yoki uning atrofida qilargalarga tegishli emasligi aniqlangandan so'nggina chiqariladi. Xuddi shu talablar asosida oyoq (poyabzal) izlari ham baholanadi. Farqlar poyabzalning turi va razmeri, yurish usuliga qarab aniqlanadi.

Chekish izlari ham foydali ma'lumotlar berishi mumkin. Jinoyatchi bir kishi emasligini har xil markali sigaret va papiros qoldiqlari, o'chirish usulidagi farq, ularni oxirigacha chekish yoki turli kattalikdagi qoldiqlar qoldirish, papiros gil'zasini o'ziga xos usulda ezg'ilash, mundshtuk ishlatish, lab pomadasi izlari orqali bilib olish mumkin. Farqlarni sigaret qoldiqlaridagi so'lakni o'rganish orqali ham aniqlasa bo'ladi. Bir xil markali sigaret yoki papiros qoldiqlari topilganda ularning tovar belgisiga e'tibor berish zarur, chunki ular har xil fabrikada tayyorlangan bo'lishi mumkin, bu esa qoldiqlar turli shaxslarga tegishli ekanligidan dalolatdir.

Jinoy tajovuz predmetining xususiyatlari. Katta yoki og'ir predmetlarning surilish va tashilish izlari, o'g'irlangan narsaning katta hajmi va og'irligi jinoyatni guruh tomonidan sodir etilganligiga ishora bo'lishi mumkin.

Murda topilganda jinoyat guruh tomonidan sodir etilganligini quyidagilar orqali aniqlasa bo'ladi: shikast yetkazilgan qurollarda; murdani bog'lash yoki uni o'rashda qo'llanilgan tugun turlarida; jabrlanuvchi hayotligidagi qiynoq izlarida. Guruh bilan amalga oshirilgan jinoyatning xususiyatlaridan biri bo'lib qotillikni yashirishning turi ham xizmat qilishi mumkin (ko'mish joyi, murdani bo'laklarga bo'lish usuli, baxtsiz voqeani inssenirovka qilish va hokazo).

Jinoyatni sodir etish usuli o'ta murakkabligi yoki nozikligi bilan ajralib tursa, jinoyat guruh tomonidan sodir etilganligiga isbot bo'la oladi. Masalan, o'g'irlikni bino tagidan yer osti yo'li qazib amalga oshirish. Jinoyat quroli va vositasi ham katta ahamiyatga ega: seyf yoki boshqa metall idishlardan o'g'irlik sodir etilganda metall kesuvchi og'ir uskunalar ishlatish, hodisa, joyida turli o'qotar

qurollardan otilgan gil`zalarni topish, buzib kirishning turli qurollari izlari, bir necha transport vositalarining izlari va boshqalar.

Barcha topilgan izlar, predmetlar, hodisa joyidagi sharoitning o`zgarishi tergov qilinayotgan hodisaga va guruh jinoyati versiyasiga nisbatan baholanishi zarur. Guruhning belgilari bo`lmasa ham bunday jinoyatni inkor etib bo`lmaydi. Jinoiy guruhning ba`zi bir a`zolari jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmasalarda, kelishuvga ko`ra boshqa jinoiy vazifalarni bajarishlari mumkin. Jinoiy guruhning barchasi hodisa joyida bo`lganligi, lekin ba`zi ishtirokchilar iz qoldirmagan bo`lishi ham ehtimol. Jinoiy tashkilotning yetakchisi odatda jinoiy harakatlarda shaxsan ishtirok etmaydi, shuning uchun, tabiiyki, hech qanday iz qoldirmaydi.

Jinoyat va jinoyatchilarning izlarini baholash quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1) iz paydo bo`lishining sabablari va usullarini, ular paydo bo`lishining vaqt va joy holatlarini aniqlash, ya`ni jinoyatni «xayolan tiklash»;

2) topilgan izlarning jinoyatga aloqadorligini aniqlash, ishga aloqasi bo`lmagan izlarni chiqarib tashlash, yangi izlarni topish uchun ma`lumot olish;

3) jinoyatchining shaxsi haqidagi ma`lumotlarni aniqlash va jinoyatga aloqador bo`lmagan shaxslarni chiqarib tashlash;

4) tergovni rejalashtirish uchun zarur versiyalarni olg`a surish.

Jinoyat ishini qo`zg`atish bosqichida boshlang`ich ma`lumot sifatida hodisa joyini ko`zdan kechirishdan tashqari u bilan parallel ravishda o`tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari yordamida olingan ma`lumotlardan foydalaniladi: uyma-uy aylanib chiqish; jabrlanuvchi va boshqalar fikrini o`rganish; xizmat-qidiruv itidan foydalanish va boshqalar.

Hodisa joyini ko`zdan kechirish natijasida olingan boshlang`ich ma`lumot, odatda to`liq bo`lmaydi. U jinoyat shubhasiz guruh tomonidan sodir etilganligi va guruhning uyushqoqligi to`g`risidagi ba`zi-bir ma`lumotlarnigina o`z ichiga oladi.

3-§. Jinoyatni uyushgan guruh sodir etganligi to`g`risida versiyani ilgari surish va tergovni rejalashtirish

Boshlang`ich ma`lumotlar tergov va tezkor-qidiruv versiyalarini ilgari surish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Agar boshlang`ich

ma'lumot faqat hodisa joyini ko'zdan kechirish orqali olingan bo'lsa, tergov qilinayotgan ishga aloqador yoki u haqida biror-bir ma'lumotga ega shaxslar bo'lmasa, bunday eng murakkab vaziyatda versiya mazkur joyning ma'lum orientirlarga nisbatan joylashishi; ushbu yerda bo'lgan shaxslarning soni, ularning jismoniy va boshqa xususiyatlari; ular harakatlarining yo'nalishi va xususiyatlari; qoldirilgan izlar xususiyatlari va ishtirokchilar tomonidan keltirilgan predmetlar va ularning izlari; bu yerda bo'lgan shaxslar harakatlarining natijalariga asoslanadi: qoldirilgan izlar, murdalar va ularning joylashishi, predmet va buyumlar qismlari, sachragan narsalar, ko'lmaklar, shikastlangan, joyi o'zgartirilgan va yoyilgan predmetlarning mavjudligi.

Hodisaning yuz berish modeli hodisa joyida ro'y bergan hodisadan avvalgi vaziyat va hodisadan so'nggi vaziyat haqida tasavvur hosil qilishi mumkin. Shu asosda hodisa joyini ko'zdan kechirish orqali olingan boshlang'ich ma'lumot, ko'pincha jinoyatchilarning biologik xususiyatlariga tegishli bo'lib, antropologik xususiyatlar (irqiy, jinsiy, yosh xususiyatlari); anatomik jismoniy xususiyatlari (yuz tuzilishi, teri morfologiyasi, gavdasi va boshqalar); funksional-anatomik xususiyatlar; bioximik xususiyatlar (so'lak, qon, ter, sperma, tana to'qimasi, hid tarkibining spetsifikasi)dan iborat bo'ladi.

Ushbu ma'lumot jinoyatchilarning tajribasi, bilimlari, mahoratlari va odatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Jinoyat guruh tomonidan sodir etilganligi to'g'risidagi versiyani ilgari surishda tergovchining vazifasi jinoyatchilar haqida to'plangan ma'lumotlarni har bir shaxsning belgi va xususiyatlariga qarab farqlamoqdir. Agarda qo'l, oyoq, tish, hid izlariga nisbatan bu ancha yengil bo'lsa, bilim va mahorat borasida bir talay qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

Odatda guruh faoliyati ko'p epizodli bo'lgani uchun, uning qaysi epizodi yoki qaysi tergov harakatidan boshlash kerakligini aniqlash juda muhimdir. Shuning uchun, amaliyot tergovchiga rejani tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borgan xodim bilan birga tuzishni tavsiya qiladi. Agar tezkor materiallarni amalga oshirish shubha ostidagilarni jinoyat ustida qo'lga olishdan boshlansa, uning tavsiyalari quyidagi hollarni aniqlashda katta yordam beradi: kimni, qayerda va qanday vaziyatda qo'lga olish zarur, ushlanganlarni qanday ketma-ketlikda tintuv qilish kerak, tergovning joriy

bosqichida qo'lga olinishi maqsadga muvofiq bo'lmagan guruh ishtirokchilarini chalg'itish uchun, shuningdek, jinoiy yo'l bilan topilgan pul va boylukni olib qo'yish yoki hibsga olgunga qadar ularni saqlash uchun qanday hatti-harakatlar amalga oshirilishi zarur.

Tezkor materiallarga asosan qo'zg'atilgan ish tergovini rejalashtirishda tezkor ma'lumot manbaini sir saqlash choralari ko'rish lozim, bu esa ham alohida tergov harakatlarining taktikasini, ham ularning ketma-ketligini chuqur o'ylab amalga oshirish lozimligini talab qiladi.

4-§. So'roq qilish - jinoyatni uyushgan guruh sodir etganligi to'g'risida ma'lumot olishning vositasi sifatida

Jinoyatni uyushgan guruh tomonidan amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumot olishning vositasi sifatida so'roq qilish alohida o'ringa ega. Uni bu qadar ahamiyat kasb etishining sababi, birinchidan, so'roq qilish eng keng tarqalgan tergov harakati bo'lib, hech bir jinoyatni tergov qilish usiz o'tmaydi, ikkinchidan, u tergovchi va sudga jinoyat hodisasi, uning tarkibidagi barcha elementlar, shuningdek jinoyatni amalga oshirish maqsadi, sababi va motivi singari murakkab elementlar haqida to'liq ma'lumot bera oladigan vositadir.

So'roq qilish predmeti, ya'ni, aniqlanishi kerak bo'lgan holatlar doirasi, umumiy ko'rinishda isbotlash predmetiga kiradi. Jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha ishlarda so'roq qilishning xususiyatlariga faqat guruh tomonidan sodir etilgan jinoyat faktini tasdiqlaydigan ma'lumotlarnigina olish emas, balki guruh haqida, har bir ishtirokchining roli va aybi haqida iloji boricha to'liq ma'lumot olish kiradi.

So'roqni taktik ta'minlash uni amalga oshirish va tuzish usullari, kerak bo'lganda, so'roq rejasini tuzishdan iborat.

Bunday reja quyidagi shartlarni hisobga olib tuzilishi zarur:

a) tezkor ma'lumotlardan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lsa, so'roq qilinuvchiga ma'lumot manbaini aytib qo'yishning oldini olish zarur;

b) jinoiy tashkilot ishtirokchilarini, ularning hamjamiyatidagi rolidan qat'i nazar, so'roq qilishning murakkabligi bois so'roqning taktik usullarini chuqur o'ylab ko'rish, ularni qat'iy ketma-ketlikda

o`tkazish, savolni to`g`ri qo`yish, so`roq qilinuvchining javobini oldindan bashorat qila olish lozim. So`roq qilishdan ayblanuvchilarning bir-birlarini qo`llashini fosh qilish usuli sifatida foydalanmoq darkor.

So`roq vaqtini aniqlash so`roq qilinuvchi ega bo`lgan ma`lumotlarning muhimligi, uning protsessual mavqei, jinoiy tashkilotdagi va tergov qilinayotgan vaziyatdagi roli hamda ish bo`yicha so`roq qilinuvchi shaxslar bilan aloqasiga bog`liq. So`roq vaqtini aniqlashga guruh a`zolarini so`roq qilish ketma-ketligini tanlash ham ta`sir qiladi. Agar tezkor manbalardan tashkilotning biror-bir a`zosining aybi kamroqligi yoki bardoshsizroqligi ma`lum bo`lsa, u holda so`roqni aynan shu shaxsdan boshlagan ma`qul. Ba`zan buning teskarisi ro`y beradi – avval guruh rahbari so`roq qilinadi, undan haqqoniy ko`rsatuvlar olishga erishilsa, qolgan sheriklarni so`roq qilish oson kechadi.

So`roq vaqtini aniqlashga tergov sirini saqlash ehtiyoji, jabrlanuvchi va guvohlarning xavfsizligini ta`minlash vazifalari kabi bir qator omillar ham ta`sir qiladi.

So`roqqa chaqirish usuli ham taktik ahamiyatga ega. Bu yerda ovoza bo`lishning, so`roq qilinuvchini so`roqqa kelishiga to`squinlik qilinishining va hattoki u huquqni muhofaza qiluvchi organlar e`tibori doirasiga tushgani ma`lum bo`lganidan so`ng so`roq qilinuvchini yo`q qilishning ehtimolini inobatga olish zarur. So`roq qilishda ko`pincha magnit va videomagnitofon tasmalarni tayyorlash juda katta ahamiyatga ega.

Guvoh va jabrlanuvchilarni so`roq qilish o`ziga xos xususiyatlarga ega. Jabrlanuvchilarning bir xil protsessual mavqelarida ularni so`roq qilish predmeti ularga bo`lgan tajovuz aniq yoki noaniq bo`lganligiga qarab farqlanadi. Birinchi holatda bu kuch ishlatish, g`arazli va ochiq mulk jinoyatlaridir, ikkinchi holatda – faqat o`g`irlikdan iborat bo`lib, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan ko`p sodir etiladi.

Jabrlanuvchiga tajovuz aniq holatda ro`y berganida so`roq qilishda quyidagilar aniqlanishi lozim:

guruh jinoyatini sodir etishda ishtirok etgan jinoyatchilarning soni, har birining harakatlari, ayniqsa o`zlarini tutishlari, laqab ishlatganliklari, jinoiy jargondan foydalanganliklari, harakatlarga kim rahbarlik qilganligi, kim nima bilan qurollanganligi, hujum

qilganlar hodisa joyini qanday tark etganliklari batafsil aniqlanmog'i kerak.

Xuddi shu sxema bo'yicha guvohlar ham so'roq qilinishi kerak, ammo bunda qo'shimcha tarzda ular hodisa vaqtida qayerda bo'lganliklari, jinoyatchi va jabrlanuvchilarning harakatlarini qay holatda kuzatganliklari ham aniqlanadi.

Jabrlanuvchilarni so'roq qilganda ular qasos, achinish, guruh a'zolaridan faqat biri qo'lga tushganda esa boshqa ishtirokchilar oldida qo'rquv hissiyotlari tufayli yolg'on ko'rsatuv berishlari mumkinligini inobatga olish zarur. Jabrlanuvchilar ba'zan, guruh ishtirokchilarining barcha jinoiy harakatlari haqida ma'lumot bermay, ovoza bo'lishini xohlamaydiganini yashiradilar. Masalan, bosqinchilik to'g'risida xabar berib, zo'rlab nomusiga tegish to'g'risida indamaydilar.

Iqtisodiyot sohasida uyushgan yo'l bilan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha guvohlarni so'roq qilishni o'ziga xos xususiyatlari bor. Bunday ishlar bo'yicha odatda nazorat-reviziya organlari xodimlari, ma'muriyat va ishlab chiqarishning turli zvenolari rahbarlari, qo'riqlash xizmatdagilar, savdo xodimlari va boshqalar so'roq qilinadi.

Ularni so'roq qilishda:

- talon-tarojning tashabbuskori kim bo'lgan, uning usuli va harakat rejasini kim ishlab chiqqan;
- jinoiy tashkilot qanday shakllangan, har bir ishtirokchi unga qay tariqa jalb etilgan;
- mazkur korxonada xodimlaridan tashqari kim ushbu jinoiy tashkilot a'zosi bo'lgan;
- har bir ishtirokchining vazifasi nimadan iborat bo'lgan;
- jinoiy faoliyatdan tushgan foyda qanday taqsimlangan;
- kim va qanday sabablarga ko'ra jinoiy tashkilot bilan jinoiy aloqalarini uzgan, tashkilotning boshqa a'zolari, xususan rahbar bunga qanday munosabatda bo'lgani kabi savollar albatta aniqlanishi lozim.

Tergovda ko'rsatuv berishdan voz kechayotganlarni ko'ndirish yoki guvoh yoki jabrlanuvchini yolg'on ko'rsatuv berishdan qaytarish ehtiyoji ko'p tug'iladi.

Ayblanuvchi va gumon qilinganlarni so'roq qilish chog'ida quyidagilarga e'tibor berish shart:

a) uyushma jinoiy harakatining xususiyatlari: g'arazli-zo'ravonlik jinoyatlari (bosqinchilik, talash), mulkka doir kuch ishlatilmaydigan jinoyatlar (o'g'irlik, qalloblik va boshqalar), iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar;

b) jinoiy uyushma ishtirokchisining roli va mavqei;

v) uyushma a'zosining jinoiy faoliyatdan avvalgi faoliyati, kasbi, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, avval sudlanganligi, jinoyatlarni tergov qilish va ochish usullari bilan tanishligi.

Jinoiy uyushma tashkilotchilarini (rahbarlarini) so'roq qilishda quyidagilarni aniqlashga intilish zarur:

- jinoiy uyushmani tuzish fikri kimdan, qanday, qay tarzda chiqqan, bunga nima undagan, fikr qanday ketma-ketlikda amalga oshirilgan;

- qanday jinoiy faoliyat ko'zda tutilgan va amalda qanday faoliyat amalga oshirilgan; jinoiy faoliyatning epizodlari, konkret ishtirokchilari;

- jinoyatlar qanday usullarda amalga oshirilgan, usullar haqida ma'lumot qaysi manbadan olingan, jinoiy uyushma a'zolaridan qay biri undan foydalanish tajribasiga ega bo'lgan;

- uyushmaning tashkiliy jihatdan ixtisoslashgan qismlari mavjudligi;

- uyushmaning moddiy-texnik ta'minoti, qurollanishi, transport vositalari, aloqa vositalari, maxfiyligi;

- uyushmaga yangi a'zolar jalb etish yo'llari, davlat yoki jamoat strukturalaridagi korrupsiyaviy aloqalar, yashirish guruhining tarkibi, uning faoliyati, yo'llovchi va boshqa ma'lumotlar olish kanallari;

- himoya guruhi, tarkibi, harakatlari;

- ijrochilar, ularning turli xususiyatlari, ijrochi tomonidan tartibga rioya etilishi, uyushmadan aloqani uzganlar, boshqalarni ularning aloqa uzishiga bo'lgan munosabati;

- jinoiy yo'l bilan orttirilgan mulk, pul va boyliklar, ularni uyushma a'zolari o'rtasidagi taqsimoti, umumiy mulk va pulning mavjudligi, uning ishlatilishi;

- ishtirokchilarning shaxsiy munosabatlari, nizolar, ularni hal qilish yo'llari, jazolash tizimi; raqobatchilarning mavjudligi, ularning rahbar bilan munosabatlari.

Himoya guruhi a'zolarini so'roq qilishda quyidagilarni aniqlashga harakat qilish zarur:

- uyushmaga qanday jalb etilgan, uning qanday xislatlari bunga asos bo`lgan;

- uning majburiyatlari nimadan iborat bo`lgan;

- quroli bo`lganmi, u qay yo`l bilan topilgan, uni ishlatish hollari bo`lganmi;

- boshqa jinoiy guruh a`zolari bilan nizolarda ishtirok etganmi, qachon, qayerda, nima sababdan, natija qanday bo`lgan;

- jinoiy faoliyatdan ulushi qanday bo`lgan, u kim tomonidan belgilangan, qachon berilgan va nimaga sarflangan.

Yashirish guruhi a`zolarini so`roq qilishda keltirilgan savollardan tashqari quyidagilar aniqlanadi:

- jinoiy uyushma uchun ma`lumot to`plashda qanday to`siqlarni va qay tariqa o`tishga to`g`ri kelgan;

- muvaffaqiyatsizliklar bo`lganmi, ularni qay tarzda yengib o`tishga to`g`ri kelgan;

- agar so`roq qilinuvchi huquqni muhofaza qilish organlari xodimi bo`lsa, o`zining jinoiy uyushmadagi ishtirokini qanday yashira olgan.

5-§. Uyushgan guruh sodir etgan jinoyatlarni aniqlashning boshqa vositalari

Predmet va hujjatlarni ko`zdan kechirish imkoniyatlaridan foydalanish. Ma`lumki, daliliy ahamiyatga ega bo`lgan predmet va hujjatlar faqat hodisa joyini ko`zdan kechirish natijasida emas, balki boshqa tergov harakatlarini amalga oshirayotganda ham olinishi, shuningdek, tergovchiga protsess ishtirokchilari tomonidan taqdim etilishi mumkin. Mazkur ob`ektlarni ko`zdan kechirish jinoyatni uyushgan guruh tomonidan sodir etilganligining belgilari haqida ma`lumot olish imkonini beradi. Chunonchi, jinoyat quroli bo`lib xizmat qilgan vositalarning xususiyatlari, ulardan faqat bir kishi foydalanishi mumkin emasligini quyidagilar ko`rsatadi:

a) ob`ektning hajmi – kattaligi, og`irligi va hokazo;

b) hujjatni – ashyoviy dalilni xizmat yoki biror-bir operatsiyani amalga oshirish bilan bog`liq bir necha shaxslar tomonidan ishlatilganligi;

v) ob`ektni tayyorlash bir necha ishtirokchining hamkorligini talab qilishi kabilar.

Tintuv imkoniyatlaridan foydalanish. Mazkur tergov harakati ham tajovuz uyushgan guruh tomonidan sodir etilgani haqida ma`lumot olish vositasi bo`lib xizmat qilishi mumkin, jumladan:

a) bir kishi ishlatishi mumkin bo'lmagan qurollarni (metall kesish apparati va hokazo) izlashga alohida e'tibor berish zarur. Jinoyat qurollarida ular bir necha shaxs tomonidan ishlatilganligining izlari, masalan barmoq izlari bo'lishi mumkin. Ularni tegishlicha, imkon boricha mutaxassis ishtirokida rasmiylashtirish zarur. Tintuv vaqtida topilgan va jinoyat quroli bo'lib xizmat qilgan u yoki bu texnologik uskunalar, yarim fabrikatlar, xom-ashyo yoki boshqa materiallar (qalbaki pul qoliplari, o'g'irlangan avtomobil qismlaridagi raqamlarni o'zgartirish moslamalari, soxta hujjat qismlari, turli xildagi muhr, shtamplar va hokazo), ulardan foydalangan turli shaxslarning izlarini topish maqsadida albatta ko'zdan kechiriladi.

b) fuqarolar tasarrufidan chiqarilgan predmetlar - o'qotar va sovuq qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, zaharlar, giyohvand moddalar va hokazo. Ular boshqa tergov qilinayotgan ishlarda tajovuz quroli bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkinligini tergovchi yodida tutishi lozim.

v) pul va boyliklar, qimmatbaho qog'ozlar, tintuv qilinayotgan shaxsning sheriklariga tegishli bo'lishi mumkin.

g) turli hujjatlar - kundalik yozuvlar, xatlar, yon daftarchalar, «pinhoni» buxgalteriya, fotosuratlar, magnitafon va videoyozuvlar va boshqalar. Aynan shunday hujjatlarda jinoiy uyushma, uning a'zolari, boshqa jinoyatlari to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Bir necha shaxsni baravar tintuv qilish taktik operatsiyaning elementi bo'lib, tintuvdan tashqari qo'lga olish, so'roq qilish, yuzlashtirish va boshqa tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'z ichiga oladi. Operatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida o'ziga xos shtab tuziladi.

Nihoyat, tezkor-qidiruv tadbirlar jarayonida ma'lumotni texnik vositalar yordamida olishga intilish kerak. Telefonda so'zlashish yozuvlari yordamida jinoiy uyushma tarkibi, mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan jinoyatlar va jinoyatchilarning ulardagi rollari, vaqt va uchrashuv joylari va hokazolar haqidagi ma'lumotlarni bilib olsa bo'ladi.

Yashirin foto-, kino-, videosurat natijalari sheriklar uchrashuvlari vaziyatlari, ularning orasidagi aloqalar majudligini isbotlabgina qolmay, balki guruh ishtirokchisining har bir harakati, jinoiy tajovuz dinamikasini tasdiqlaydi, qo'lga olishda esa umumiy jinoiy faoliyatning muhim ashyoviy dalillarini olish imkonini beradi.

II BO'LIM. AYRIM TURDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISH
USLUBIYOTI

**23-BOB. JINOYATLARNI TERGOV QILISH KRIMINALISTIK
USLUBIYOTINING UMUMIY QOIDALARI**

1-§. <i>Jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik uslubiyoti tushunchasi</i>	3
2-§. <i>Jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik uslubiyotlarni tuzish va tasniflash tamoyillari</i>	7
3-§. <i>Jinoyatlarni tergov qilishdagi xususiy kriminalistik uslubiyotlarning tarkibiy tuzilishi</i>	11

**24-BOB. TERGOVCHI VA TEZKOR-QIDIRUV XODIMLARINING
O'ZARO HAMKORLIGI**

1-§. <i>Hamkorlikning umumiy jihatlari</i>	18
2-§. <i>Hamkorlikning taktik-uslubiy qoidalari</i>	19
3-§. <i>O'zaro hamkorlikning turlari</i>	21

25-BOB. QOTILLIK JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. <i>Qotillik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi</i>	26
2-§. <i>Jinoyat ishini qo'zg'atish va tergovning tipik vaziyatlari</i>	29
3-§. <i>Tergovning dastlabki bosqichi</i>	34
4-§. <i>Tergovning keyingi bosqichda o'tkaziladigan harakatlar</i>	39

26-BOB. NOMUSGA TEGISH JINOYATINI TERGOV QILISH

1-§. <i>Nomusga tegish jinoyatini kriminalistik tavsifi</i>	42
2-§. <i>Dastlabki tergov harakatlari</i>	45
3-§. <i>Voyaga yetmaganlar nomusiga tegish jinoyatini tergov qilish</i>	54

**27-BOB. DAVLAT VA JAMOAT MULKINI MANSABDOR
SHAXSLAR TOMONIDAN TALON-TAROJ QILISH
JINOYATLARINI TERGOV QILISH**

1-§. <i>Talon-taroj qilish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi</i>	56
2-§. <i>Dastlabki materiallarni tahtil etish, jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov harakatlari</i>	60
3-§. <i>Davlat mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini tergashni rejalashtirish</i>	67
4-§. <i>Hujjatlarni ko'zdan kechirish</i>	72
5-§. <i>Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarni so'roq qilish</i>	74
6-§. <i>Talon-taroj jinoyatini tergash bo'yicha ekspertizalar tayinlash</i>	77
7-§. <i>Talon-taroj jinoyatlarining oldini olish tadbirlari</i>	79

28-BOB. O'G'IRLIK, TALONCHILIK VA BOSQINCHILIK JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. O'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi.....	81
2-§. O'g'irlik jinoyatlarini tergov qilish	84
3-§. Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilish	92

29-BOB. FIRIBGARLIK JINOYATINI TERGASH USLUBI

1-§. Firibgarlik jinoyatining kriminalistik tavsifi.....	101
2-§. Dastlabki tergov va tezkor-qidiruv harakatlari	102
2-§. Keyingi o'tkaziladigan tergov harakatlari.....	105

30-BOB. PORAXO'RLIKNI TERGOV QILISH USLUBLARI

1-§. Poraxo'rlikning kriminalistik tavsifi.....	109
2-§. Tipik tergov vaziyatlari, versiyalari va tergovni rejalashtirish	110
3-§. Dastlabki va keyingi tergov harakatlari	113

31-BOB. MEHNAT XAVFSIZLIGI QOIDALARINING JINOIY TARZDA BUZILISHLARINI TERGOV QILISH

1-§. Ushbu turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi.....	116
2-§. Jinoyat ishini qo'zg'atish. Tergov qilishning dastlabki bosqichi.....	118
3-§. Keyingi tergov harakatlarining tashkiliy va taktik xususiyatlari.....	124

32-BOB. O'T QO'YISH VA YONG'IN XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. O't qo'yish va yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi.....	129
2-§. Dastlabki tergov harakatlarini tashkil etish va o'tkazish	131
3-§. Tergov o'tkazish rejalashtirish va keyingi tergov harakatlari.....	137

33-BOB. YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI QOIDALARINI JINOIY TARZDA BUZGANLIK HOLLARINI TERGOV QILISH.

1-§. Yo'l-transport hodisalarining kriminalistik tavsifi	143
2-§. Tergov yo'nalishlarini aniqlash.....	147
3-§. Dastlabki tergov harakatlari va tezkor-qidiruv chora-tadbirlari	149
4-§. Yo'l-transport hodisalari tergovining davomi	163

34-BOB. EKOLOGIYA JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oqibatlari	169
2-§. Jinoyat ishini qo'zg'atish.....	170
3-§. Jinoyat mohiyatini isbotlash	172

35-BOB. KONTRABANDA JINOYATLARINI TERGOV QILISH

1-§. Kontrabandaning kriminalistik tavsifi	178
2-§. Kontrabanda ishini tergov qilish uslubi.....	180

36-BOB. JINOYATLARNI «IZLAR BOSILMAY TURIB» TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1-§. <i>Jinoyatlarni «izlar bosilmay turib» fosh qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari</i>	186
2-§. <i>Dastlabki tergov harakatlari</i>	188
3-§. <i>Keyingi tergov harakatlarining xususiyatlari</i>	190

37-BOB. XORIJ FUQAROLARI TOMONIDAN VA ULARGA QARSHI SODIR ETILGAN JINOYATLAR TERGOVI

1-§. <i>Xorij fuqarolarining huquqiy holati</i>	193
2-§. <i>Xorij fuqarolari bilan bog'liq ishlar bo'yicha tergov olib borishning xususiyatlari</i>	196

38-BOB KOMPYUTERDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISH

1-§ <i>Kompyuterdan foydalanish bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi</i>	202
2-§. <i>Tergov taktikasining xususiyatlari</i>	208
3-§. <i>Ekspertiza tadqiqotining imkoniyatlari</i>	217

39-BOB. VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATINI TERGOV QILISH

1-§. <i>Voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarning kriminalistik tasnifi</i>	221
2-§. <i>Jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki versiyalar</i>	225
3-§. <i>Alohida tergov harakatlari taktikasining o'ziga xos jihatlari</i>	227
4-§. <i>Voyaga yetmaganlarning jinoyatlariga oid ishlar bo'yicha tergovchining profilaktik faoliyati</i>	240

40-BOB. GIYOHVAND VOSITALARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING TERGOVI

1-§. <i>Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi</i>	242
2-§. <i>Jinoyat ishi qo'zg'atish</i>	245
3-§. <i>Dastlabki tergov harakatlari</i>	248

41-BOB. UYUSHGAN JINOYATCHILIKNI TERGOV QILISH

1-§. <i>Uyushgan jinoyatchilik va guruhlar tavsifi</i>	254
2-§. <i>Hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirish chog'ida jinoyatni uyushgan guruh tomonidan sodir etilganligini aniqlash</i>	258
3-§. <i>Jinoyatni uyushgan guruh sodir etganligi to'g'risida versiyani ilgari surish va tergovni rejalashtirish</i>	260
4-§. <i>So'roq qilish - jinoyatni uyushgan guruh sodir etganligi to'g'risida ma'lumot olishning vositasi sifatida</i>	262
5-§. <i>Uyushgan guruh sodir etgan jinoyatlarni aniqlashning boshqa vositalari</i>	266

KRIMINALISTIKA

DARSLIK

II - JILD

Muharrir: *S.Usmonov.*

Texnik muharrir: *A.Boymamatov.*

Kompyuterda sahifalovchi: *F. Nurlibaev*

Bosishga ruxsat etildi: 14.05.2008.

Hajmi: 21,4 b.t. Adadi: 600. Buyurtma: № 116

X.T. Mal'tseva bosmaxonasida bosildi.

© Tashkent davlat yuridik instituti, 2008-y.

Toshkent shahri, Slonema, 1-17-25.

